

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

**«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti»
kafedrasi**

**O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI
VA AMALIYOTI FANIDAN**

MA'RUZALAR MATNI

Andijon - 2016

KIRISH

«Demokratiya jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanmog'i kerak. Bu esa bir zumda bo'ladigan ish emas. Xalqning madaniyatidan joy ololmagan demokratiya turmush tarzining tarkibiy qismi ham bo'la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko'rish va demokratiya tamoyillarini o'zlashtirishdan iborat ancha uzoq muddatli jarayondir».

ISLOM KARIMOV

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining o'qitilishi bir tomondan mamlakatimizning mustaqillikka erishishining samarasi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, mustaqillik tufayli O'zbekiston tanlagan taraqqiyot yo'lining ustuvor yo'nalishini demokratik jamiyat qurish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Demokratik jamiyat qurish maqsadlari esa ko'p qirrali jarayon bo'lib, ko'pgina muammolarni o'z ichiga oladi. Bunda asosan ikki muhim jihat: demokratik jamiyat qurishda dunyo mamlakatlari erishgan yutuqlar, umum e'tirof etilgan tamoyillar, ikkinchidan har bir mamlakat yoki Xalqning o'ziga xos, milliy-maonaviy xususiyatlarini hisobga olish bu fanni o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillik tufayli demokratik jamiyat qurishni asosiy maqsad qilib belgilab oldi. Uning milliy-maonaviy merosimizga, milliy davlatchilik sohasidagi qadriyatlarimizga tayangan holda «o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanladi». hamda fuqarolik jamiyati qurilishi bilan bog'liq vazifalarni aniqlab oldi. O'zining maonaviy qadriyatlariga, merosiga tayanmagan, uni hisobga olib umumbashariy qadriyatlar, tamoyillar bilan uyg'un qurilmagan jamiyatni haqiqiy demokratik jamiyat deb bo'lmaydi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani ham, ijtimoiy-gumanitar, siyosiy fanlarda e'tirof etilgan fanni o'rganish oboekti, predmeti xususiyatlarini hisobga olgan holda, uni demokratik jamiyat qurish qonuniyatlarini o'rganishga tatbiq etadi. Ayni paytda bu fanning o'ziga xos xususiyatlari, oboekti, predmeti va qonuniyatlari, tushunchalari borligini e'tirof etadi. Mamlakatimizda barpo etilayotgan demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti to'g'risida o'quvchilarda muayyan bilim, ko'nikmalar hosil qilishni nazarda tutadi.

Bu fanni o'rganish jarayonida o'quvchilar O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining nazariy asoslari, u to'g'risidagi qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lsalar, ayni paytda O'zbekiston jamiyati to'g'risida, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va maonaviy hayotini erkinlashtirish, demokratiyalashishi bilan bog'liq xususiyatlar, yo'nalishlari hamda unga erishish mexanizmlari to'g'risidagi yaxlit tasavvurga ham ega bo'ladilar. Bu - O'zbekistonning tutgan yo'li, maqsad va yo'nalishlarini bilishga hamda boshqa davlatlar, mamlakatlardan farqli jihatlarini ko'rishga imkoniyat beradi.

O'zbekiston to'g'risida, O'zbekistonda kechayotgan demokratik jamiyat bilan bog'liq bir tomonlama ilmiy asosga va xolislikka tayanmagan ayrim qarashlarni cheklanganligini bilib olishlarida ham yordam beradi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi bilan bog'liq o'zgarishlarga, yutuq va muammolarga, faqat uning o'ziga xos xususiyatlarini e'tirof etgan holdagina to'g'ri baho berish mumkin. Bunga hech qachon boshqa bir mamlakat, u yerdagi demokratiyaga yondashuvdan kelib chiqib, to'g'ri baho berib bo'lmaydi. Bunday yondashuv xolis emas. Chunki, demokratik jamiyatni biron-bir mamlakatga qiyosan yagona andoza asosida qurib yoki boshqa Xalqlarga uni ko'chirib o'rnatib bo'lmaydi. Demokratik jamiyat qurilishi o'zining xilma-xil milliy meroslariga ega bo'ladi. har bir Xalq demokratiyani o'zining milliy-madaniy merosi, siyosiy mentaliteti, feol-atvori, qadriyatlari orqali ko'radi hamda demokratiyaning umumbashariy maono va mazmunini boyitishga hissa qo'shadi.

Bu bilan bog'liq qonuniyatlarni hisobga olish, uni o'rganish O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini puxta egallashga yordam beradi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o'qitish bo'yicha dastlabki tajribalar to'planmoqda. Bu to'g'rida fanning tuzilishi, predmeti va ob'ekti to'g'risida ham tasavvurlarimiz tobora oydinlashib bormoqda. U doimo boyib va to'ldirilib borishi tabiiy.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus taolim vazirligi tomonidan tuzilgan namunaviy dastur 14 ta mavzudan iborat bo'lib, darslik shu asosda ishlab chiqildi. har bir institut va universitetning profilidan kelib chiqib, ushbu darslikka dasturdan tashqari bitta mavzu kiritildi. SHu boisdan "Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik – demokratik jamiyat qurish sharti» nomdagi 15-mavzuni har bir oliy o'quv yurti o'z ishchi dasturlariga kiritishi va uni ayrim mavzular hisobiga rejalashtirish ham mumkin.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani bo'yicha darslikni tayyorlashda shu fandan dars berayotgan mutaxassislar, kafedra mudirlarining taklif va mulohazalari o'rganildi. Ular darslikni tayyorlash jarayonida hisobga olishga harakat qilindi. «O'zbekiston: Mustaqillikning 10 yili», «Asrlarga teng yillar» hamda «Fuqarolik jamiyati: rivojlanishning o'zbek modeli» aks ettirilgan ko'rgazmali materiallardan foydalanildi. Mualliflar jamoasiga va o'zlarining fikr-mulohazalari bilan ishtirok etgan olim va kafedraning barcha professor o'qituvchilariga minnatdorchiligimizni bildirgan holda, darslik to'g'risidagi yangi taklif va mulohazalarni kutib holamiz. Bu darslikning yanada mukammal bo'lishiga yordam berishi shubhasiz.

I BO'LIM. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA RIVOJLANISHI

MAVZU. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining – predmeti, maqsadi va vazifalari

1. «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanining predmeti, ob'ekti, uslubi hamda uning manbalari.

Fanni o'rganishning zarurligi, maqsadi va vazifasi. Aytish mumkinki, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o'rganish, mamlakat hayotida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish bilan bog'liq qonuniyatlarni bilish va o'rganishda, demokratik taraqqiyot yo'lida «O'zbek modeli»ni tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega. Bu demokratiyaning milliy va umumbashariy tamoyillarini aniq tasavvur etish, ijtimoiy hayotni u bilan bog'lab olib borishga o'rgatadi. Mamlakatimizda demokratiyaning qaror topib borishi, O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida o'zining nufuzli o'ringa ega bo'lishiga, yoshlarda demokratik ong va tafakkurni shakllantirish, milliy-ma'naviy merosni qadrlash, vatanparvarlik tuyg'ularini mustaqkamlashga ko'maklashadi. Mamlakatda erkin, demokratik, fuqarolik jamiyati asoslari va uning nazariyasi hamda amaliyoti bilan chuqurroq tanishtiradi. SHu maqsadni amalga oshirishda xizmat qiladi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o'rganishning o'ziga xos zarurat va sabablari mavjud.

Birinchidan, bugun dunyoda demokratiya, demokratik jamiyat to'g'risida muayyan mo'htadillashgan ilmiy kontseptsiyalar ishlab chiqilgan. Ularda demokratik jamiyatning qiyofasi, asoslari, yashash va rivojlanishining umumehtirof etilgan qonuniyatlari hamda uning har bir davlat, xalqning milliy-ma'naviy xususiyatlari bilan bog'liq jihatlari tobora keng miqyosda o'z ifodasini topmoqda.

Bugungi kunga kelib dunyoning 160 dan ortiq davlatlarida demokratik tuzumlar umumbashariy va milliy qadriyat sifatida barpo qilinganligi ehtirof etilmoqda. Aynan hozirgi

davrga kelib, demokratiya insoniyat hayot tarzining eng maqbul yerda gap u yoki bu mamlakatga xos bo'lgan demokratiya ko'rinishidan andoza olish, «umuman demokratik jamiyat qurilishi to'g'risida ketmayotganligini aniq hisobga olish muhim. Asosiy maqsad O'zbekistonda o'ziga xos va mos bo'lgan demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyotini o'rganishdan iborat. SHuning uchun ham O'zbekiston qurayotgan demokratik jamiyatning boshqa demokratik taraqqiyot yo'lida rivojlanayotgan jamiyatlardan farqli jihatlarini hamda umumiy tomonlarini ham aniqlash muhim.


«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani mustaqillik tufayli vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy fanlar tizimidan keng o'rin olayotganligining asosiy sabablaridan biri ham shundadir. Bu zarurat mustaqil davlatimiz misolida demokratik jamiyat qurish jarayonida qo'lga kiritilgan yutuqlar, ayrim hayotiy saboqlarning ilmiy tahlil qilinishini taqozo qilmoqda. Mamlakatimizda demokratik jarayonlarning mohiyatini bilish, unga ijodiy yondashish uchun yosh avlod demokratiyaning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida shakllanish bosqichlarini chuqur o'rganishi zarur. Bu strategik vazifani faqatgina ushbu fan bajaradi.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani xam o'z oldida bir necha vazifalarni qo'ygan. Bular ko'proq mamlakatda demokratik fuqarolik jamiyati qurishning o'ziga xos va umumehtirof etilgan qonunlarini bilish, nazariy xulosalar va umumlashmalar chiqarishdan iboratdir. Xususan, fuqarolarda demokratik jamiyat talablariga javob beradigan dunyoqarash, fikrlar xilma-xilligi, erkinlikni qadrlash, inson qadr-qimmati, shahni va or-nomusini xurmat qilish bilan bog'liq qadriyatlarni shakllantirish asosiy vazifalardandir. Bu vazifalar fuqarolarimizni mamlakatda ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot qurish, demokratik qadriyatlarni xurmat qilish orqali ularni bunyodkorlik ishlariga safarbar etishda yaqqol namoyon bo'ladi. U fan sifatida ana shunday ulug' va bunyodkorlik ishlariga xizmat qiladi. Buning uchun u turli xil uslublardan foydalanadi. Bular dunyo fanlari foydalanib kelayotgan, tajriba, qiyosiy taxlil, emperik-sotsiologik va ilm-fanning boshqa zamonaviy uslublaridir.

Demak, jamiyatimizda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni ilmiy tafakkur orqali taxlil etish ularni mantiqiy asoslash, mazkur fanni yoshlar ongiga dunyoviy davlat tamoyillarini singdirish kabi jarayonlar yetarli darajadagi malakali mutaxassislar tomonidan o'qitish vazifasini xam taqozo etmoqda.

Fanning predmeti va ob'ekti. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti mamlakatda demokratik jamiyatning shakllanishi, fuqarolik jamiyati qurilishi, qaror topishi va amal qilishining dunyoda ehtirof etilgan umumbashariy va milliy tamoyillariga asoslanadi. Ayni paytda uning o'ziga xos va mos xususiyatlaridan kelib chiqqan qolda erkin, demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatini qurish yo'llari va qonuniyatlarini o'rganish, bu fanning predmeti va ob'ektini tashkil etadi.

SHuningdek, O'zbekiston ijtimoiy xayotining barcha soxalari fanning ob'ektidir. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi nazariyasi va amaliyoti bir tomondan, demokratik jamiyat to'g'risidagi mavjud qarashlarga, nazariyalarga xamda mamlakatimizning davlatchiligi tarixiy merosi bilan bog'liq mutafakkirlarning g'oyalarini xisobga olsa, ikkinchidan, mustaqillik yillarida demokratik jamiyat to'g'risidagi muxim kontseptual g'oyalar va qarashlarni, unda O'zbekistonning o'ziga xos yo'li, xamda xususiyatlariga tayanadi. Uchinchidan, bu soxada mustaqillik yillarida erishilayotgan yutuqlarni, demokratik jamiyat qurish tajribasi, yutuqlariga tayanib, uni o'rganadi. O'zbekistonning dunyo xamjamiyatida tutgan o'rni, o'zaro manfaatli xamkorlik asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish qonuniyatlarini bilish xam muxim o'rin tutadi. Mamlakatimizda demokratik jamiyat qurilishi ijtimoiy xayotimizning biron-bir soxasi bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning barcha jabqalaridagi o'zgarishlarning negizlarini o'z ichiga oladi va o'rganadi. Bunda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy xayoti demokratiyalashuvining va siyosiy xayotining erkinlashtirilishi, davlat suvereniteti, xalq xokimiyatchiligi, uning manbai, fuqaro-jamiyat va davlat munosabatlari asosiy negiz xisoblanadi.




«Demokratiya» yunoncha soʻz boʻlib, tarjimada xalq xokimiyati – (demos-xalq, krotos-xokimiyat) mahnoni bildiradi. Demokratik jamiyat deb oliy xokimiyat bevosita xalqqa tegishli boʻlgan va xalqning xoxish-irodasi bilan amalga oshadigan davlat va jamiyatga aytiladi. Albatta, demokratiya atamasining qanday sharqlanishi emas, balki uning qanchalik realligi, xaqiqiyli, yashashga qobilligi muximdir. «Binobarin, - deb taokidlaydi I.A.Karimov - biz oʻz istagimizdagi demokratiyaga qanday mazmun baxsh etmaylik, agar u xayotimizning xar bir soniyasiga singib ketmasa, turmushimizning ajralmas xismiga aylanmasa, xamma shiorlar va taohriflar yo mazmunsiz baqir-chaqir yoki qech narsani anglatmaydigan soʻz oʻyini boʻlib qolaveradi». Demokratiyaning vazifasi - fuqarolarning xuquqlari tan olinadigan va ximoya qilinadigan, ularning burchlariga rioya etiladigan va bajariladigan jamiyatni qurishdan iborat. Lekin xozirgacha qech qaysi davlat bunga mukammal erishmagan, faqat unga xarakat qilib kelmoqda. Demokratik boshqaruv jarayonida siyosiy xayotda ishtirok etish nafaqat fuqarolarning muxim belgisi boʻlibgina qolmasdan, bu ularning xuquqlari, balki burchlari ekanligini xam anglash muxim axamiyat kasb etadi. SHu jixatlarni xam xisobga olish muximdir.

Demak, birinchidan, demokratik jamiyat - xar bir mamlakat va xalqning demokratiyada umumehtirof etilgan qadriyatlari va tamoyillari xisobga olinadigan davlatchilik soxasidagi milliy-madaniy merosi xususiyatlariga tayaniladigan, fuqarolarning xuquqlari tan olinadigan va ximoya qilinadigan, ularning burchlariga rioya etiladigan va bajariladigan, boshqaruvda fuqarolar faol ishtirok etadigan jamiyatdir.

Ikkinchidan, umumiy tarzda demokratiya deganda xammaning manfaatlari yoʻlida koʻpchilikning xokimiyati va ozchilikning irodasini xurmat qilish tushuniladi.


Uchinchidan, uni batafsil taxlil qilganda esa demokratiya xalqning oʻz erkinligi va mustaqilligiga qarashlari xam, xar bir shaxsning manfaatlari va xuquqlarini oʻzboshimchalik bilan cheklashlar va shu yoʻsindagi xarakatlardan ximoya qilish xam, fuqarolarning oʻz-oʻzini boshqarish shakli xam ekanligi ayon boʻladi.

Bu fanning oʻrganish uslubi: metodi falsafa fanining uslubi-metodi. CHunki falsafa fanining metodi va kategoriyalari mazkur fan uchun xam asosiy metod xisoblanadi, masalan, dialektik, nazariy metod, taqqoslash, qiyoslash metodi, mantiqiy metod va xokazo. Metodologiyasi: 1) falsafiy ong, taxlil, 2) nazariy taxlil, 3) ijtimoiy borliqni oʻrganadi.



Fanni oʻrganishning manbalari:

1. Falsafiy manbalarga: demokratik jamiyat xaqidagi xarb, SHarq va xozirgi zamon falsafasiga asoslanadi.
2. Tarixiy manbalar: davlatlarning paydo boʻlishi, rivojlanishi, davlatlararo munosabatlar.
3. Dunyoviy ildizlarga ega: ilmiy-maorifiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar.
4. Diniy manbalar: Avesto (Zardushtlarning muqaddas kitobi), quroon (musulmonlarning)i Karim, Tavrot (Yaqudiylarning diniy taolimoti xaqidagi qonun), Injil (nosroniylarning) muqaddas kitobi va q.k.
5. Siyosiy manbalar: mustaqillik xaqidagi qonunlar, Konstitutsiya (Asosiy qonun).
6. Iqtisodiy manbalar: bozor iqtisodiyotiga asoslangan mulkchilikning xilma-xil shakllari.
7. Maʼnaviy-maorifiy manbalar: umumbashariy va milliy, diniy, axloqiy qadriyatlar va q.k.
8. Prezident farmoni, qarorlari, asarlari, Oliy Majlis qonunlari, Vazirlar Maqkamasi qarorlari.



2. Ushbu fanning asosiy tushunchalari, qonuniyatlari va uning boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar orasida tutgan o’rni

Fanning asosiy tushunchalari va uning o’ziga xosligi. «O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» xaqidagi fan bilan bog’liq tushunchalar mavjud. Uning shakllanishi ko’p asrlik tarixga ega.

Ijtimoiy xayotni tashkil etishning demokratik meoyorlari qadimgi dunyoga borib taqaladi. Bugungi kunda jaqonning eng rivojlangan mamlakatlarida demokratiyaning asosiy va yetakchi tamoyilga aylanguncha uning umuminsoniy qadriyat sifatida o’z taraqqiyotining turli bosqichlarida murakkab, ziddiyatli, baozan esa fojiali o’zgarishlarga uchradi. SHu nuqtai nazardan, insoniyatning yillar mobaynida ishlab chiqqan demokratik qadriyatlarning asosiy tushunchalarini to’la-to’kis o’zlashtirib olish jamiyatda isloxotlarni chuqurlashtirishning muxim shartidir. Bu borada O’zbekistonda demokratik jamiyat qurilishida qo’llaniladigan tushunchalarni bilish muxim o’rinni egallaydi. Ularni o’rganishda quyidagi uchta jixatni aloqida xisobga olish lozim:


1. Ijtimoiy gumanitar fanlarga tegishli bo'lgan umumiy tushunchalar: Masalan: jamiyat, sivilizatsiya, erkinlik, xuquq, qonun, madaniyat, taraqqiyot, demokratiya.

2. Ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan yaqin bo'lgan tushunchalar: xuquqiy davlat, xususiy mulk, fuqarolik jamiyati, siyosat, siyosiy xokimiyat, siyosiy tashkilotlar, siyosiy tizim, siyosiy rejim, siyosiy plyuralizm, siyosiy ong, siyosiy madaniyat v.b..

3. Ko'proq O'zbekiston bilan bog'liq qolda ishlatiladigan, yahni, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi nazariyasi va amaliyoti fani o'rganadigan tayanch tushunchalar: «O'zbekistonning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'li», erkinlik, mustaqillik, demokratiya, qonun ustuvorligi, «demokratik davlatchilik», «demokratik jamiyat», «demokratiya», «demokratik jamiyat to'g'risidagi qarashlar», «demokratik jamiyatning milliy-ma'naviy negizlari», «milliy-ma'naviy qadriyatlar». O'zbekiston iqtisodiy xayotining erkin demokratiyalashuvi, ijtimoiy xayot va demokratiya, siyosiy xayotning demokratik tamoyillari, «demokratik qadriyatlar», «O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishi», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot», «O'zbekiston va jaqon xamjamiyati», «Milliy davlatchilik va demokratiya v.b.».

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyotini o'rganish jarayonida yana quyidagi tushunchalar: “liberal demokratiya”, “demokratiya va bozor iqtisodiyoti”, “demokratiya sharoitida inson erkinligi va xuquqlari”, “demokratiya va millatlararo munosabatlar”, “davlatni demokratik boshqarish”, “demokratiyaning asosiy unsurlari” ko'proq ishlatilishi tabiiy. Bu tushunchalarning har birining o'ziga xos mahnosi va mazmuni bor.

3-slayd




Fan amal qiladigan qonuniyatlar: O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi nazariyasi va amaliyoti fani amal qiladigan qonuniyatlarni bilishda quyidagi jixatlarni aloqida xisobga olish kerak. Birinchidan, «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani dunyoda ehtirolf etilgan umumiy qonuniyatlarni xisobga oladi.

Ikkinchidan, O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq xususiy, aloqida qonuniyatlariga tayanadi. Masalan: “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining o'ziga xos va mos rivojlanish qonuni” yoki «Demokratik jamiyat qurilishida milliy mentalitet

xususiyatlarining xisobga olish qonuni», «Demokratik jamiyat qurilishining milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liqligi qonuni», «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining o'ziga xos xususiyatlarining O'zbekiston davlatchiligi tarixi, milliy-madaniy merosi, iqtisodi, ijtimoiy-siyosiy xayoti bilan aloqadorligi qonuni» v.b.

4-slayd



Mahlumki, bu qonuniyatlar nixoyat darajada ko'pqirraliligi, murakkabligi va nozikligi bilan aloxida ehtiborni talab qiladi. SHu o'rinda, birgina demokratik qarashlar bilan milliy qadriyatlar o'rtasidagi munosabat masalasiga doir qonuniyatlarni quyidagicha izoxlash mumkin. Demokratiyaning yashovchanligi uning turli sharoitlarga moslashib ketishi va milliy xususiyatlarni inkor etmasligi, milliylik bilan uyqunlasha olishi bilan belgilanadi. Aslida baqrikenglikni qadrlaydigan demokratiya milliy xususiyatlarga nisbatan xam o'z baqg'rikengligini namoyish etadi. SHu bois, biz yangi demokratik taraqqiyot yo'lini tanlaganimizda xam o'zbekonalikdan voz kechish evaziga demokratik qarashlarni o'zlashtirishni aslo maqsad qilmaganmiz. Boshqacha qilib aytganda, mingyillik ildizlarga ega davlatchilik negizlarini qo'porib tashlash evaziga mavxum qadriyatlarga e'tiqod qo'yish bizning ahmolimiz emas. Zero, bizning yo'qotadigan narsamiz – mustaqkam ma'naviy tomirlarimiz, ne-ne suronli asrlar to'fonlaridan bizni millat sifatida eson-omon olib o'tgan o'lmas qadriyatlarimiz bor. Demokratiyani esa biz mana shu ko'xna tarixga ega ma'naviyatimiz daraxtiga payvand qilish imkoniyati borligi uchun xam tanlaganmiz. SHu bois, demokratiya darajasini milliy xususiyatlardan chekinish bilan o'lchayotgan ayrim kishilarning fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Demak, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining muxim shartlari: O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda ikki muxim jixatga aloqida ehtibor bilan yondashilmoqda. Uning birinchisi, demokratiyaning dunyoda ehtirol etilgan tamoyillarini ehtirol etish;

Ikkinchisi, demokratiyaning milliy-madaniy meros bilan bog'liq milliy xususiyatlariga tayanishdan iborat. Bu ikki yo'nalish bir-biri bilan uzviy bog'liq va xaqiqiy demokratik jamiyat qurishni bir-biridan ajralgan qolda tasavvur etib bo'lmaydi xam. Amaliy xayotda bu muxim qonununiyatning buzilish yo'llari turli xalqlar turmush tarzi va ularning milliy manfaatlariga zid

bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy oqibatlarni keltirib chixargan. Ehtirol etilgan tamoyillarga tayanmaslik, bu mamlakatni dunyoviy, demokratik jamiyat qurishdan yiroqlashtirgan bo'lsa, milliy-ma'naviy xususiyatlarini xisobga olmasdan demokratik jamiyat qurish yo'li esa, xaqiqiy demokratiya talablariga zid xolatdir. Bunday o'ziga xos va mos rivojlanish yo'li demokratik jamiyat qurish qonuniyatiga to'g'ri kelmaydi.

O'zlarini diniy aqidaparastlik va terrorizmga qarshi kurashayotgan, dunyoviy demokratik tuzum tarafdorlari deb ko'rsatayotgan bahzi xalxaro tashkilotlar va jamg'armalar, xorijiy tashkilotlarning bahzi vakillariga xalqning milliy qadriyatlari, urf-odatlar, o'y-fikrlari, odob-axloqi, or-nomusini xisobga olmay, bu qadriyatlarni Farb demokratiyasiga qarshi qo'yib, o'zlarini go'yoki inson xuquqlari ximoyachisi qilib ko'rsatmoqchi bo'lmoqdalar. Bunday xolatni ayrim millatlar va xalqlarning demokratiyaga bo'lgan ishonchini so'ndirishga intilish, deyish mumkin.

O'zini inson xuquqlarining xolis ximoyachisi deb tanishtiradigan xorijiy tashkilotlardan ayrimlarining "Maqalla davlatning tazyiq ko'rsatuvchi idorasiga aylanyapti" degan fikrlari qanchalik asosli emishki, er-xotin o'rtasida tushunmovchilik yuzaga kelib, janjalli masalalar ko'tarilganida, ularning sudga emas, maqallaga murojaat etishlari, inson xuquqlarining buzilishi ekan.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani 1) ijtimoiy-siyosiy, 2) ijtimoiy-gumanitar, 3) aniq-tabiiy fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, u mazkur fanlar qarashlarini ehtirol etgan qolda, bu fanlarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy xayoti bilan xam nazariy xam amaliy xususiyatlariga e'tibor xaratadi. O'zbekistonda demokratik erkin, xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish, iqtisodiy isloxotlarni yanada liberallashtirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Mamlakatda Konstitutsiya va qonunning ustunligi, inson va fuqarolarning asosiy xuquqlari, erkinliklari va burchlari bilan bog'liq umumiy qoidalar va demokratik tamoyillar, jamiyat va shaxs munosabatlari, jamoat birlashmalari, oila, davlat xokimiyatining tashkil etilishi bilan bog'liq soxalar demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining o'rganadigan soxalari xisoblanadi. Bu tushunchalarning ayrim jixatlarini boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlar xam o'rganadi. Lekin ijtimoiy-siyosiy fanlarning xar biri jamiyatda sodir bo'layotgan qodisa va voqealar jarayonini o'z predmeti, ob'ekti, maqsadi va qonuniyatidan kelib chiqqan qolda o'rganadi. Masalan, ong muammosini barcha ijtimoiy fanlar o'rganishi mahlum. Lekin falsafa ongni insonga xos xususiyat sifatida, uning jamiyat rivojida muxim omil sifatida o'rgansa, sotsiologiya jamiyatdagi muayyan gurux yoki ijtimoiy qatlamning ongi, uning o'ziga xos xususiyatlarining namoyon bo'lishini o'rganadi. Siyosatshunoslik esa, uning siyosiy ko'rinishini, yahni siyosiy ong shaklini, uning namoyon bo'lishini o'rganadi. xuquqshunoslik xuquqiy ongni o'rgansa, «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani esa ongning demokratik shaklini, yahni demokratik ongning o'ziga xos jixatlarini, uning qadriyatlarini, shakllanish asoslari xamda jarayonini umuminsoniy demokratik qonuniyatlarining muxim omili sifatida o'rganadi.

3. Mazkur fanni o'rganishning nazariy va amaliy axamiyati

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanini o'rganish muxim nazariy va amaliy axamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining xar bir fuqarosini mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik jamiyat qurishning maqsadlari, uning shakllanishi va rivojlanishining milliy-ma'naviy negizlari, demokratik jamiyat to'g'risidagi g'oyalar, qarashlar bilan tanishtiradi. Fuqarolarning ong va tafakkuriga singishida, ishonch va ehtiqladlariga ko'chishida muxim o'rin tutadi. Demokratik jamiyat qurishning qonuniyatlarini bilishda, uning jaqonda ehtirol etilgan tamoyillarini xar bir mamlakat va xalqning milliy va ma'naviy xususiyatlari bilan bog'liq qolda amalga oshirish zarurligini xis etish va unga amal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. xaqiqiy demokratiya bilan soxta demokratiyaning farqini ko'rishda, uni baxolab, munosabat bildirishda, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muxim o'rin tutadi.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanini o'rganish orqali erkin, demokratik, fuqarolik jamiyati qurilishi bilan bog'liq uning nazariy asoslarini, dunyoda demokratik jamiyat qurish bilan bog'liq umumiy qonuniyatlarni bilish bilan birga, demokratiyaning o'ziga xos milliy ko'rinishlari, «milliy modellari»ning mahno-mazmunini to'g'ri tushunib olishga muvaffaq bo'lish mumkin.

Ijtimoiy taraqqiyot va bugungi globallashuv jarayonlari dunyo xalqlarining xayotiga, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-maorifiy negizlariga o'zining taosirini o'tkazmoqda. Dunyo xalqlari bir-biri bilan uzviy boqlanib bormoqda. SHunday sharoitda o'zligini saqlab qolish, o'ziga xos va mos milliy-ma'naviy qadriyatlarini unutmasdan, uni demokratik jamiyat qurish tamoyillari bilan bog'liq qolda amalga oshirishga erishish, demokratik jamiyat qurishni maqsad qilib olgan O'zbekiston xalqi uchun xam muxim va dolzarb vazifadir.

Bu xar bir fuqarodan mamlakatning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan qolda milliy qadriyatlarini xurmat qilishga, demokratiyaning milliy va umumbashariy tamoyillarini uzviy bog'lab olib borishga o'rgatadi.

Mazkur fanni o'rganish orqali O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy xayotida amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar, uni mamlakatda belgilab olingan ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot qurishga erishishning uzviy bog'liqligini yurakdan xis etishga, uning faol ishtirokchilariga aylanishga yaqindan yordam beradi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish vazifalarining fuqarolik jamiyati asoslari bilan mushtarakligi, inson xuquq va erkinliklarini, ularning qonun oldida tengligini amalda ta'minlashiga qaratilgandir. Unga erishish shart-sharoitlarini, asosiy yo'nalishlarini bilish demokratik jamiyat to'g'risida yaxlit tasavvur beradi. Bu bugungi kunda xayotimizda uchrab turgan demokratiyaga zid bo'lgan ayrim nosoqlom xatti-xarakatlar, «demokratiya niqobi bilan» uning milliy-ma'naviy xususiyatlarini, O'zbekiston xalqi turmush tarzi, milliy-ma'naviy qadriyatlari: tarixi, tili, madaniyati, urf-odat va anhanalarini xisobga olmasdan, demokratiyaga baxo berishdagi bir tomonlama, noxolis urinishlarning xam tub masqadlarini, asl muddaolarining moxiyatini anglashga, farqlay olishga yordam beradi.

Fanni o'rganish orqali fuqarolarda O'zbekiston Respublikasining demokratik jamiyat qurishdan iborat oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni aniq bilib olish mumkin. O'zbekiston jamiyati xayotining barcha jabxalari to'g'risida: davlati, xalq xokimiyatchiligi, inson va fuqarolarning demokratik jamiyatda ishtiroki, asosiy xuquq va erkinliklari, burchlari, demokratik jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy negizlari, unga xos xususiyatlar, jamoat birlashmalari, davlat xokimiyatining tashkil etilishi va fuqarolik jamiyati qurilishining asoslari, uning milliy va umumbashariy negizlari to'g'risida bilimga ega bo'lish muxim siyosiy va ijtimoiy-maorifiy ahamiyatga ega. Fuqarolarda vatanparvarlik, millatparvarlik, milliy va umumbashariy qadriyatlarga xurmat tuyg'ularini shakllantirishga xam xizmat qiladi. SHu nuqtai nazardan, muxim tarbiyaviy vazifalarni xam amalga oshiradi. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillariga tayanadi va demokratik jamiyat qurilishi bilan bog'liq qadriyatlarni keng jamoatchilikning ishonch va ehtiқodiga aylanishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani siyosatining bosh maqsadi – jamiyatning faqat iqtisodiy yoki ma'naviy-maorifiy soxasini rivojlantirish va moddiy, ma'naviy boyliklarni tobora ko'proq ishlab chixarish emas, balki uning beistisno barcha soxalarini taraqqiy ettirish va mustax kam bir butunligini, xavfsizligini, bar-qarorligini, tinch-totuvligini, osoyishtaligini ta'minlashdan iboratdir. Bu ulkan maqsadni ro'yobga chixarish uchun xilma-xil nazariy va amaliy vazifalarni bajaradi.

Nazariy vazifasi: ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va jamiyatning xavfsizligini, barqarorligini taominlash va mustaqamlash yo'llarini ko'rsatib berish, ilmiy asoslangan oqilona dasturlarni, qonunlarni, qarorlarni ishlab chiqishdir. Bunda pala-partishlikka yo'l qo'ymaslik kerak. SHuningdek, siyosat dasturlar, qonunlar, qarorlarni ishlab chiqish bilan birga ularni qabul qilish vazifasini xam bajaradi.

Ushbu fan siyosatining asosiy amaliy vazifasi – qabul qilingan dasturlar, qonunlar, qarorlarni xayotda izchillik, qathiyat bilan amalga oshirish, butun jamiyatni turli-tuman

illatlardan, xastaliklardan tozalashdir. Chunki bu vazifa ijtimoiy xayotda amalga oshirilmas ekan, unda jamiyatning mustaqkam xavfsizligiga, barqarorligiga, tinch-totuvligiga, baxt-soadatga erishib bo'lmaydi.

Siyosat o'z maqsad va vazifalarini amalga oshirishda quyidagi uslublardan foydalanadi:

1) ishtirak; 2) tarbiyalash; 3) kuch ishlatish; 4) majburlash.

xozirgi vaqtda «siyosat» tushunchasi xam keng, xam tor mahnoda qo'llaniladi.

Qisqacha xulosa

“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishi nazariyasi va amaliyoti” fanining predmeti mamlakatda demokratik jamiyatning shakllanishi, fuqarolik jamiyati qurilishi, qaror topishi va amal qilishining dunyoda ehtirol etilgan umumbashariy va milliy tamoyillariga asoslanadi. Uning o'ziga xos tomoni shundaki, erkin, demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatini qurish yo'llari va qonuniyatlarini o'rganish, bu fanning predmeti va ob'ektini tashkil qiladi. Shuningdek, O'zbekiston ijtimoiy xayotining barcha soxalari mazkur fanning ob'ektidir. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi nazariyasi va amaliyoti bir tomondan, demokratik jamiyat qurilishi to'g'risidagi mavjud qarashlarga, nazariyalarga xamda mamlakatimizning davlatchiligi tarixiy merosi bilan bog'liq mutafakkirlarning g'oyalarini xisobga olsa, ikkinchidan, mustaqillik yillarida demokratik jamiyat to'g'risidagi muxim kontseptual g'oyalar va qarashlarni, unda O'zbekistonda mustaqillik yillarida erishilayotgan yutuqlarni, demokratik jamiyat qurish tajribasi, yutuqlariga tayanib, uni o'rganadi. O'zbekistonning dunyo xamjamiyatida tutgan o'rni, o'zaro manfaatli xamkorlik asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish qonuniyatlarini bilish xam muxim o'rin tutadi.

Mazkur fanning asosiy tushunchalari yana shundaki, unda demokratik jamiyat, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari, «O'zbek modeli»ning o'ziga xosligi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat, notijorat tashkilotlar va birlashmalar, ayniqsa xokimiyat organlarining bo'linish printsiplari (qonun chiqaruvchi, ijroiya, sud), xokimiyatlarning demokratik jamiyatdagi roli asoslab beriladi va tushuntiriladi. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot - pirovard maqsad» xam mazkur fanning asosiy tushunchalaridan biri. Demokratik jamiyatda iqtisod, inson erkinligi kabi bir qator tushunchalar mavjud. Ularning har birini sharqlab berish mumkin. Masalan, demokratiya lotincha demo - xalq, kratiya-boshqarish, yahni demokratik boshqarish, jamiyat kabi bir qancha tushunchalar bilan izoxlash mumkin.

Bu fanning qonuniyatlari avvalo, 1) dunyoviy davlat tamoyillariga asoslanadi, 2) milliy davlatchilik va demokratiya tamoyillariga asoslanadi. Asosan mazkur fanning qonuniyatlari jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy soxalarda amal qiladigan qonunlar mavjud. Masalan, iqtisodiy soxadagi qonuniyatlarda iqtisod siyosatdan ustuvorligi va xokazo.

MUXOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat.
2. «Fuqaro – jamiyat davlat» o'rtasidagi o'zaro munosabatni bayon eting
3. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning asosiy tushunchalari, uning o'ziga xos xususiyatlarini izoxlang
4. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning umumjaqon ehtirol etgan qonuniyatlari va uning o'ziga xos taraqqiyot yo'li mavjudmi
5. Demokratik jamiyatni barpo etishda siyosiy institutlarning qanday roli mavjud.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2007. –3–10,14–27b.

2. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. T.1. -T.: «O'zbekiston», 1996, 104-108, 123-130-betlar.
3. Karimov I.A. xozirgi davrda demokratik isloxotlarni chuqurlashtirishning dolzarb vazifalari. T.5. -T.: «O'zbekiston», 1997, 104-114, 116-131-betlar.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'saqasida: xavfsizlikka taqdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. -T.: «O'zbekiston», 1997, 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: «O'zbekiston», 2000, 6,8-12, 14-20, 21-26, 28-38, 47-48-betlar.
6. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. -T.: «O'zbekiston», 2002.
7. Karimov I.A. El-yurtga qalol, vijdonan xizmat qilish - xar bir raqbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 285–312-b.
8. Karimov I.A. qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezonini bo'lsin. Surxondaryo viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. –313–337-b.
9. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil xarakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoitini yaratish – asosiy vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2007. – 11-b.
10. Karimov I.A. O'zbek xalqi qech qachon, qech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. –156–223-b.
11. Karimov I.A. Inson, uning xuquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.14. – T.: O'zbekiston, 2006. – 61–97, 139–153, 248–265-b.
12. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy ximoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48 b.
13. Karimov I.A. Demokratik xuquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon xayot garovidir. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2007. – 64 b.
14. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, isloxotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning xayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezonini va maqsadidir. – T.15. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 3-11, 154-211-241-251-b.
15. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48 b.
16. Raqimov I., Zoqidov A., Azizov SH., Ayupov A. va boshq. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. -T.: «Universitet», 2001. 232-bet.
17. Pugachev V.P., Solovev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 202-255-betlar.
18. O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T.: «O'qituvchi», 2004, 3-44-betlar.
19. Do'stjonov T., Xasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. T.: Toshkent Moliya instituti, 2004, 3-180-betlar.
20. SHarifxo'jaev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. – T.: SHarq, 2005.240 b.
21. Aliev B., Xoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot nashriyoti», 2005. – 160 b.
22. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izoxli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: “SHarq”, 2006. 528 b.
23. Umarov B. Globallashtirish ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jixatlari. – T.: “Ma'naviyat”, 2006. – 160 b.
24. To'xliiev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashr., 2006. – 280 b.

25. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 204 b.
26. Aliev B., Xoshimov T. va boshqalar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: TDIU, 2007. – 240 b.

MAVZU. Demokratik jamiyat to'frisidagi dastlabki qarashlar va uning rivojlanish bosqichlari

1. O'zbekiston zaminida adolatli jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar

Har qanday davlat o'z jamiyatining tarixiy, madaniy va axloqiy merosi negizlari asosida rivojlanadi. Bunday uyqunlik xalqning rivojlanishida yangi bosqichlarga ko'taradi. Uning istiqbol omillarini kengaytiradi. Ajdodlarimiz tomonidan O'zbekiston hududida yaratilgan «Avesto» ana shunday davlatchiligimizning nazariyasi sifatida insoniyat tarixini anglashda aloqida o'ringa ega.

Prezident I.A.Karimov tarixchi olim va jurnalistlar bilan bo'lgan uchrashuvda - “hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, yahni bizning Vatanimiz nafaqat SHarq, balki umumjaqon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jaqon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu-fuzalolar, olimu-ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan” degan edi. Darhaqiqat, Movarounnaqr oraliqida paydo bo'lgan ulkan davlatchilik madaniy merosi insoniyat tarixi ibtidosida eng dastlabki hamda qadimiy davlatchilik madaniyati sifatida mahlum. Mustaqilligimiz sharofati bilan bunday merosni milliy, demokratik qadriyatlarimizning muhim zamini bo'lgan o'rganish imkoniyatlari ochildi.

Mahlumki, O'zbekistonda milliy davlatchiligimiz to'g'risidagi eng qadimgi manba “Avesto”dir. U eramizdan oldingi 3 minginchi yillarda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilk davlatchilik to'g'risidagi ijtimoiy qarash hisoblanadi. Agar “Avesto”da ilgari surilgan g'oyalarga ehtibor beradigan bo'lsak, bugungi adolatparvar - demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan g'oyalarimiz bilan hamohang ekanligini ko'ramiz.

Davlatchilik asoslarini shakllantirish borasida “Avesto” deyarli barcha siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar, davlat tuzumi asoslari, zardushtiylarning falsafasi, dunyo tarixining rivojlanishi haqidagi mahlumotlarni o'z ichiga qamrab olgan. Manbada avvalo, inson erki, uning ruhiy komilligi masalalari ustuvor qo'yiladi. Masalan; “Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman” deyiladi Yasna (14) kitobida. Axuramazda, insonlar o'rtasida bo'layotgan munosabatlar o'zaro samimiylilik, hurmat beg'arazlik, yordam va oqibatli bo'lish zarurligiga, yomon fikrlardan qoli bo'lishga chaqiradi. Kattaga hurmat va kichikka izzat, sabr-bardosh, qalollik, meqr-oqibat va boshqa bir qator tamoyillar borki, bular milliy g'oyamizning asosiy tamoyillariga uyqun keladi.

Foyalarning bunday tarzda qo'yilishi dunyo ana shu kuchlarning yonma-yon yashashidan iborat, degan falsafaning mohiyatini anglashga undaydi. SHu tariqa “Avesto” o'sha zamonda yashagan odamlar o'rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish, davlatga bo'lgan eqtiyoj va zaruriyati o'laroq yuzaga kelgan manba bo'lib hisoblanadi.

“Avesto”da eng muhim masalalardan biri - bu huquqiy munosabatlarning nazariy jihatdan shakllanganligidir. Unda inson hayoti va odamlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar huquqqa asoslanganligi haqida mahlumotlar bor. Haqiqat, yaxshi so'z va maqsad, poklik va ezgulikka intilish, suv, yer, olov, xonadon va chorvani asrab-avaylash axloqiy burch bo'lib sanalgan. Inson o'zining ishlari va fikrlari bilan yaxshilik, yoruqlik va baxt keltiruvchi, hayot va haqiqat beruvchi oliy tangri Axuramazdaga yordamchi bo'lib xizmat qiladi.

Oila va jamoada berilgan so'zdan yoki qasamdan voz kechish, odamlar o'rtasida tuzilgan aqdnomani buzish katta gunoh hisoblangan: “O Spitama, shartnomani buzuvchi kishi butun

mamlakatni buzadi, shu bilan birga Artaga tegishli barcha mulku mollarga putur yetkazadi. O Spitama, aqdingni buzma..." ("Yasht", X bob.)

Tarixiy hujjatlar asosida aytish mumkinki, "Avesto"ning "Yasna", "Visprat", "Yasht", "Videvdat" kitoblarida ilgari surilgan huquqiy tahlilotlar Rim huquqidan qadimyroq hisoblanadi. Boz ustiga, ular keyinchalik tashkil topgan davlatlar siyosiy tizimining shakllanish manbasi bo'lib ham xizmat qilgan. SHu tariqa "Avesto" Grek mutafakkirlari va Rim huquqshunoslari ijodiga o'zining har tomonlama mukammalligi bilan tahsir ko'rsatgan. Jumladan, inson huquqi, jismoniy va huquqiy shaxs erkinligi, inson erkinligi, erkak va ayolning tengligi masalasi, ozchilikning huquqi, voyaga yetmaganlar huquqi, vijdon, ehtiqod va din erkinligi, jamoa va guruqlarning huquqi, mol-xol huquqi, oila huquqi, shartnomalarning majburiylik huquqi, jinoyatning qasddan yoki eqtiyotsizlik natijasida sodir etilgan turlari ishlab chiqilgan. SHuningdek «Avesto»da o'qrilik yoki bosqinchilik farqlari tasniflangan, himoya huquqi va sud ishlarini yuritish hamda tashkil etish kabi boshqa huquqiy tamoyillar ham o'z ifodasini topgan.

Mahlumki, demokratik jamiyat asoslari davlatda siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy tamoyillarning tizimiy yaxlitligi mavjudligida namoyon bo'ladi. Ayni paytda, ular umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un holda bo'lishiga asoslanadi. «Avesto»da bunday qadriyat va tamoyillar shakllantirilganligining guvohi bo'lamiz.

2. IX-XV asrlarda davlatni boshqarish va adolatli jamiyat qurish haqidagi g'oyalar

Inson tabiatan erkinlikka, ezgulikka intilib yashaydi. Bunday eqtiyojlarning barcha uchun umum bo'lgan qoidalarini va ularning tartibotlarini tashkil etishda davlatga bo'lgan eqtiyoj vujudga keladi. Mana shunday eqtiyoj umuminsoniy qadriyatlarning nazariy mezonlarini shakllantirgan. Ayni paytda, kishilik jamiyatining o'zaro urushlar va ixtiloflar bilan bog'liq davrlarida yangi maorifiy taolimotlar xaloskor g'oya sifatida ham vujudga kelgan. Aynan IX va XII asrlar O'rta Osiyo tarixida shunday murakkab davr bo'lgan. Xalqning o'z mustaqilligi uchun kurashi va bunda hurriyat va inson erkinligi bilan bog'liq g'oyalar millatni ma'naviy yuksalishga chaqiradi. Dunyoga mashqur Xorazmiy, Farqoniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos qojib, Nizomulmulik kabi faylasuf, siyosatchi, tarixchi olimlar, shu davrda yashab ijod etdilar. Bu davr o'z mazmuni, salmoqi jihatidan O'rta Osiyo Uyqonish davri deb tarixga kiradi. Uyqonish davri madaniyatining o'ziga xos tomonlari mavjud bo'lib, ular davlatchilimiz nazariyasining vujudga kelishida quyidagilarga asoslangan qolda talqin etiladi:

1. Dunyoviy maorifatga intilish, bu yo'lda o'tmish va qo'shni mamlakatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish, ayniqsa tabiiy-falsafiy, diniy, tarixiy hamda ijtimoiy ilmlarni rivojlantirish.

Tabiatga qiziqish, tabiatshunoslik ilmlarining rivoji, ratsionalizm, aql kuchiga ishonish, asosiy ehtiborni haqiqatni topishga qaratilgan fanlarga berish, haqiqatni inson tasavvuri, ilmining asosi deb hisoblash.

Insonni ulug'lash, uning aqliy, tabiiy, ruhiy badiiy, ma'naviy fazilatlarini asoslash, insonparvarlik, yuqori axloqiy qonun va qoidalarini namoyon etish, komil insonni tarbiyalash.

Universallik - qomusiylik, barcha tabiat qodisalari bilan qiziqish va uning mohiyatiga intilish.

Davlat qurilishi va boshqaruvining nazariy negizlari adolat, axloq tamoyillarida shakllantirish, ularning huquqiy hamda amaliy asoslarining rivojlantirilishi.

Davlat raqbari va xizmatchilarining faoliyat darajalari tasniflari, mashuliyati mezonlari tizimining nazariy negizlarining yaratilishi.

Milliy davlatchilik negizlari haqida fikr yuritar ekanmiz, qadimgi Turon, Movarounnahr, Turkiston hududida dastlabki davlatlar vujudga kelgan muqaddas makonlardan biri sifatida hattoki qadimgi dunyo olimlari tomonidan ehtirol etilgan. Masalan, bundan 2000 yil avval yashagan rimlik tarixchi Pompey Trog Turkiyzabon xalqlarning eng qadimgi ajdodlari haqida shunday yozgan: «Baqtriyaliklar, so'hdlar va xorazmliklar kelib chiqishining qadimiyligi

bo'yicha misrliklar bilan bimalol bellasha oladi». Bunday fikrni yunon tarixchilari Strabon, gerodat, qikatiylar yozib qoldirgan mahlumotlarda ham uchratish mumkin.

IX-XII asrlarda yashagan O'rta Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida davlatni boshqarish va adolatli jamiyat qurish g'oyalari o'zining o'ziga xos ilmiy mazmun kashf etishi bilan bog'liq. Bu g'oyalar Xorazmiy, Farqoniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temur, Navoiy va boshqa buyuk zotlar ijtimoiy-siyosiy qarashlarida chuqur bayon etilgan. Al-Xorazmiy "Algebra" faniga asos solib, dunyo ilmiga aniq fanlarni har tomonlama rivojlantirdi.

MUSO AL-XORAZMIY (783-850). Buyuk matematik, astronom va geograf. U algebra fanining asoschisi. «Algebra» so'zi uning «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala» asaridan olingan. Bizgacha yetib kelgan «hind hisobi haqida kitob», «qo'shish va ayirish haqida kitob», «Kitob surat-ul-arz», «Zij», «Asturlab bilan ishlash haqida kitob» kabi o'nga yaqin asari mashhurdir.

Beruniy o'zining "Hindiston", "Geodeziya", "Mineralogiya", "qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kabi asarlarida jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash zarurligini, qonun ustuvorligini talqin etgan. Beruniy davlat shakli mamlakatni shohlar - mutloq hokimlik emas, balki maorifatparvar shohlar boshqarishi tarafdori edi.

ABU NASR FOROBIY (873-950). «SHarq Aristoteli» nomini olgan qomusiy olim. 160 dan ortiq asar yaratgan. «Mantiqqa kirish kitobi». «Isbot kitobi», «Falsafaga izoxlar», «Musiqqa haqida katta kitob», «Inson aozolari haqida kitob». «Lug'atlar haqida kitob», «SHaharni boshqarish», «Fazilatli hulqlar» kabi asarlari jahon madaniyatiga qo'shilgan katta hissadir.

SHu davrning yirik namoyondalardan biri Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida insoniyat jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishining muayyan tabiiy - davlatga bo'lgan ehtiyojlarning paydo bo'lishini, unda adolat va axloqning shakllanishi qonuniyatlarini nazariy tamoyillarini yaratganligi bilan mashhurdir. U - «Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, Hamma bab-barobar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin mahnosi bilan ozod bo'ladilar. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton bo'lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi». SHu tariqa olim bugun bizning tasavvurimizdagi demokratik davlat shakllari va unda boshqaruvning siyosiy va falsafiy mohiyatini yaratishga erishadi. Masalan, fozillar shaharining (davlat nazarda tutilgan) tarkib topishi va unda qanday axloqiy sifattdagi shaxsning raqbar bo'lishi tasniflari bugungi demokratik jamiyat qurishning bevosita nazariy talablari bilan uyqun keladi. Bu borada Abu Nosir Forobiy - «Ularning o'zlaridan saylangan raqbar yoki boshliqlar hokimi mutloq bo'lmaydi. Ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan eng oliyanob, raxbarlikka loyiq kishilar bo'ladilar. SHuning uchun bunday raxbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muqofaza qiladilar», deb davlat boshqaruvida demokratik tamoyillarni ta'minlash bilan bog'liq axloqiy va madaniy qadriyatlarni tizimlashtiradi. Ehtiborli jihati shundaki, Forobiy qarashlaridagi «hokimi mutloq bo'lmasligi», «saylovchilar irodasi», «ozodlik» kabi fikrlari nafaqat shu davrda, balki, bugunda ham insoniyat madaniyati noyob mahsuli hisoblangan - demokratiyaning bosh g'oyasi bo'lib xizmat qiladi.

FOROBIY "SHaharni boshqarish", "Fazilatli hulqlar", "Fozil odamlar shahri" kabi bir qancha asarlarida yangi ideal jamiyati elementlari, fazilatlar haqida gapirib o'tgan. Forobiy jamiyat boshqaruv sanoatini 2 ga: 1) nazariy (boshqaruvning asosiy usuli va qonun haqida), 2) amaliy (davlatni idora etish) haqida gapirib o'tadi. Forobiy jamoani 3 turga bo'ladi: buyuk, o'rta va kichik jamoalarga ajratadi. Forobiy shahar davlatini 2 toifaga: fazilatli Madina shaqri va fazilatsiz Madina shaqrigha bo'lib, ularning har biriga izox berib o'tadi. Forobiy davlatning asosiy vazifasini 2 ga bo'ladi: 1. Davlatning ichki vazifasi fuqarolarning baxtli hayotini taominlash, 2. Tashqi vazifasi bosqinchilardan himoya qilishdir, deydi. Forobiy taxt otadan bolaga meros bo'lib o'tishini qoralaydi, davlat boshliqi 12 fazilatga ega bo'lishini asoslab beradi.

Davlat va uning boshqaruviga daxldor masalalar Yusuf Xos qojib ijodida ham katta o'rin tutgan. U "qutadg'u bilig" dostonida davlatni boshqarish amallari, qoidalar va siyosiy - axloqiy munosabatlarni jamiyatda qaror toptirishga qaratilgan qarashlari bilan ehtiborlidir. U davlat boshqaruvi va xizmatini tashkil etish turlarini hamda shu darajalarga muvofiq sifatlarini tasniflaydi. Jumladan, «SHohlikka dahvogarlar onadan ajib bir isteodod bilan tug'iladilar va ular darhol yaxshi-yomonni ajratish fitratiga ega bo'ladilar. Bundaylarga Xudo idrok, farosat va yumshoq bir ko'ngil ato etadi, qolaversa yaxshi ish yuritish o'quvi bilan ham siylaydi» deb ko'rsatgan. SHuningdek Yusuf Xos qojib o'z asarida ko'rsatgan barcha ishlarda tajribali, yomonlikni darhol sezuvchi, oqillik bobida ibratli, zakovatli, maorifatga tashna, kichiklarga tayanuvchi, adolatparvar, sadoqat kabi sifatning soqibi bo'lishi shartligini ta'kidladi. Buyuk alloma faqat bu bilan chegaralanib qolmaydi, balki jamiyat rivoji va taqdiri uchun mas'ul bo'lgan shaxslarning davlat boshqaruvidagi sifatleri tasnifini rivojlantirishning adolatli tamoyillarining muhimligiga haratgan. Ayni paytda, u jamiyatda ilmiy va madaniy salohiyatni adolatli davlat asoslarini yaratuvchi omil deb bilgan. Masalan, u, ziyolilar to'g'risida shunday deydi: - «haqiqiy ziyoli haqiqat tayanchi bo'ladi. Agarki olamda donishlar bo'lmaganda, yerda rizq-ro'z unmas edi. Ularning ziyosi xalq yo'lini yorituvchi mash'aldir. Donishlarga shirin so'z bilan baqra ber, moddiy manfaatini qodirishga harakat qil». Zero, agar biz demokratiyani jamiyatning yuksak madaniy shakli deb haraydigan bo'lsak, unda ajdodlarimiz yaratgan meros bevosita adolatli davlatning poydevoriga asos bo'la oladi.

ABU ALI IBN SINO (980-1037). Ibn Sino 57 yil umr ko'rgan. "Tib qonunlari" kitobi XI asrda arab tilidan lotin tiliga o'girilgandan so'ng butun dunyoga tarqaldi. 1493 yilda frantsuz tiliga, 1593 yilda italyan tiliga, XV asrda rus tiliga o'girildi. XII asrdan XVIII asrgacha u 40 marta qayta nashr etildi. IX-XI asrlarda "Tibbiyot qonunlari"ni yaratganligi boisdan ham uni harbdan Avitsenna nomi bilan tan olishadi. Ibn Sino jamiyat aholisini 1) boshqaruvchilar - maomuriy ishlar bilan shug'ullanuvchilar, 2) meqnatkashlar - ishlab chiqaruvchilar, 3) harbiylar - jangchilarga ajratadi. Uning fikricha, davlatsiz qonun-qoidalar bo'lmaydi.

Ibn Sino O'rta Osiyo tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlarning buyuk namoyondasi, tibbiyot, falsafa, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy ta'limot tarixiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkirdir. Uning "Ishorat va Tanbixot", "Risolutu tadbiri manzil", "qush tili" kabi asarlari bevosita davlat boshqaruvining adolatparvar va axloqiy asoslariga baqishlanadi.

Ibn sino yozgan 450 dan ortiq asardan: «Tib qonunlari», «Donishnoma», «Najot kitobi», «Turar joyning tuzulishi», «Insof kitobi», «Tibbiy ko'rmatmalar haqida» kabi 160 ga yaqini bizgacha yetib kelgan.

Adolatli davlat boshqaruvi, uning mukammal nazariy asoslarini yaratish borasida ulkan ilmiy meros qoldirgan o'rta asrlar mutafakkiri, davlat arbobi Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asari muhim manba hisoblanadi. U amaldorlarni axloqiy fazilatlariga harab tanlash, adolat va insofni oyoq osti qiladigan kishilarni davlat ishlariga aralashtirmaslikni, davlatni boshqarishda kengash bilan olib borish, faoliyatlarni muntazam nazorat qilish, itoat, ijro va sifatleri to'g'risidagi qarashlari bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, Nizomulmulkning «Ko'pchilik bo'lib qabul qilingan tadbir eng savobli bo'ladi va shunday yo'l tutish kerak» degan fikrlari ajdodlarimizning davlat qurilishining adolatli tartibotlariga katta ehtibor berganligidan dalolatdir.

O'rta Osiyoda vujudga kelgan tasavvufchilik tahlilotida erkinlik va adolat. Mahlumki, islom dini ijtimoiy dunyoqarash sifatida keng tarqala borishi bilan uning nazariy, falsafiy, huquqiy tomonlarini ishlab chiqishga ehtibor ham tobora ortib borgan. SHu tariqa IX-XII asrlarda Movarounnahrda ilm-fan, madaniyat, islom falsafasining nazariy jihatdan yuksak darajada rivojlangan davri bo'ldi. Ulardan Imom Al-Buxoriy, Imom At-Termiziy, Al-Motrudiy, MuHammad Imom-Fazzoliy, Maqmur az-Zamaxshariy, Burqonuddin al-Marqiloni, Aqmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abdulqoliq Fijduvoni, Baqovuddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy kabi buyuk allomalar o'zlarining ilmiy tadqiqotlari bilan jaqon madaniyatiga ulkan xissa qo'shdilar. Diniy-ilmiy tadqiqotlarda borliq, illoqiy qudrat, inson komilligi, adolat, insof, diyonat, vijdon kabi g'oyalar inson ruhiyatini poklash orqali erkin jamiyatga chorlanadi. Bu

borada J.Rumiyl shunday deydi: “Inson buyuk bir mo’ojiza va uning ichida Hamma narsa yozilgan. Biroq zulmat va pardalar bor-ki, ular yozuvlarni o’qishga imkon bermaydi. Zulmat va pardalar, turli-tuman mashqulotlar insonning dunyo ishlari borasida olgan tadbirlari va ko’ngilning so’ngsiz orzularidir.” Darhaqiqat, J.Rumiylning qarashlarida insonning farqi uning komilligiga asoslanadi. U dunyoga irqi, dini, millati, tabaqasidan qat’iy nazar, barcha insonlarga barobar murojaat qiladi. “Menga vahdai mayini tutgil, o’zgalarni ham ondin baqramand etgil, toki jamoat jam bo’lib, faqat suvratda bo’lmish tafovutlarni bartaraf etaylik. Biz Hammamiz yagona oqochning butoqlari, yagona qo’shinning navkarlarimiz”. Jaloliddinning bashariyat birligi haqida gapirishi o’sha davr uchun mislsiz jasorat edi.

Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot rivojining ma’naviy asoslarini o’rganishda O’rta Osiyoda vujudga kelgan tasavvufchilik oqimining ahamiyati ham aloqida muhim o’rin tutadi. Tasavvuf garchi islom bag’rida nish urib, quroon va hadislar hikmatidan oziqlangan, ko’p qollarda shariat aqkomiga suyangan bo’lsada, lekin u rasmiy diniy aqidaparastlik va mutaassiblikka hamda hokim tabaqalarning ayshu-ishratlarga g’arb turmush tarzi, talonchilik va manfaatparastlikka zid o’laroq, mehnatkash xalq noroziligini ifodalab keldi. Ushbu ta’limotning el orasida yoyilib, fikriy yangilanishlarga qanoat bergani, haq va haqiqatga tashna ziyolilar yuragini band etganiga sabab shu. Tasavvuf tahlimoti asosida adolat, haqiqat, to’g’rilik, mexr-shafqat, insof, iymon, ehtiqod, ilm, meqnatsevarlik, vatanparvarlik kabi umuminsoniy g’oyalarni tarqibot qiluvchi futuvvatga asoslangan bir qancha diniy, siyosiy oqimlar paydo bo’ladi. Ular jamiyatning axloqsiz unsurlariga g’oyaviy kuch sifatida qarshi qo’yiladi. Bu borada, O’zbek milliy davlatchiligimiz negizlarining qadimiyligi haqida buyuk bobokalonimiz Yassaviylning hikmatlarida jamiyatda yetakchi shaxslarning sifatleri to’g’risidagi talqinlar, ayni paytda, achchiq tanqidiy munosabatlari ijodining asosini tashkil etadi. CHunki shu davrda shayxlar siyosatga bevosita aralashib kelganlar.

Bu borada Amir Kulolning o’g’li Amir Umarning qarashleri (1406 y.o’lgan) siyosatning nazariy va amaliy mohiyatini ochishda ehtiborlidir. Unda siyosatga shunday nisbat beriladi: “Bilgilkim siyosat - tutib turish va tartibga solishdir..., yomon kishilarni qo’rqinch va titroqda tutmoq, yaxshilarni taqdirlamoq kerak. Agar siyosat bo’lmasa, davlatning muhim ishlari amalga oshmaydi; agar tartibot, jazo qonunleri bo’lmasa, davlat ishlari ham o’nglanmaydi, chunki qukmorning, jamoaning ko’rki, davlat va dinning rivoji siyosatdir”. Yahni, din orqali siyosatda umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilishi va bunday siyosat esa bevosita davlat qonunleri orqali amalda o’z tasdig’ini topishiga erishmoq lozim, deb qaraladi.

Amir Temur va Temuriylar davri milliy davlatchilik to’g’risidagi qarashleri demokratik tamoyillar. XII-XIV asrlarda O’rta Osiyoni mo’g’ullar tomonidan istilo qilinishi iqtisodiy va ma’naviy hayotga katta salbiy tahsir ko’rsatadi. Mamlakatda jabr-zulm va zo’ravonlik kuchayadi, mehnatkash xalq qattiq eziladi.

Juda ko’p madaniy boyliklar, ilm maskanleri, madrasa va kutubxonalar yo’q qilinadi, sanoat va ilm-fan vakillari: olimlar, shoir va yozuvchilar, munajjimlar, meomorlar va musavvirlar o’ldiriladi, omon qolganleri SHimoliy Hindistonga, G’arbiy Eron va Xuroson viloyatleri qochib jon saqlab qoladilar. Aynan mana shunday murakkab davrda Amir Temurning (1370 yil) siyosiy saqnaga kelishi hamda mustaqil davlat barpo etishi O’rta Osiyo xalqlarining muqul istilosidan, ichki o’zaro nizolardan qutulishiga olib keladi. Mamlakatda o’rnatilgan barqarorlik markaziy davlatning tez orada mustahkamlanishiga, siyosiy kuchlar tarqoqligini bartaraf etishga, ayni paytda, turli islohotlarning amalga oshirilishiga, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga turtki bo’ldi.

Amir Temur – XV asrda buyuk temuriylar davlatiga asos soldi. U davlat boshqaruvida o’zidan oldingi o’tgan hukmdorlardan farq qilib, davlat va mamlakatni boshqarish xususida “Temur tuzukleri”ni yaratdi. Bu davlatni idora qilish mehyorleri, qoidalaridan iborat bo’lgan mazkur kodeks, tuzuk 2 qismdan iborat.

1. Sohibqiron Temurning 7 yoshidan (1342) to uning so’nggi kunigacha bo’lgan hayoti, siyosiy faoliyati tasvirlangan. Bu qismda Amir Temurning Movarounnahrda hokimiyatni qo’lga kiritishi va undan keyin mashhur yurishleri asosida To’xtamishxon (1376–1395), Turkiya sultoni

Boyazid Yildirim (1389–1402) kabi jahongir shohlarni mag'lubiyatga uchratgani, 1,5 mln.kv.km. territoriyada Temuriylar Imperiyasiga asos solgani hikoya qilinadi.

2. Ikkinchi qism esa Jaqongir Sohibqiron Temur nomidan shohzodalarga qarata aytilgan vasiyatlar, pand-nasihatlardir. Unda davlatni idora qilish sanoatining nozik sirlari, qoidalari haqida, amir, vazirlar va beklarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish, qo'shin boshliqlari, ularning xizmatlarini taqdirlash, sipoqlar va ularning maoshlari kabi masalalar haqida vasiyat qiladi.

Davlatni 12 qoidaga asosan boshqardi. Davlat ishlarini 4 omilga bog'ladi: 1) saltanat, 2) xazina (boylik), 3) qo'shin (sipoq), 4) Raiyat (oddiy qora xalq). Amir Temur o'z imperiyasini 4 ulusga bo'lib boshqardi. 1) qobul, g'azna, handaqorni 12 ming qo'shin bilan Jaqongirmirzoga, keyinchalik PirmuHammadga, 2- ulusni Farqona o'lkasini Umarshayxga, 3-ulusni Mironshoqqa Xurosonni, 4-ulusni SHoquqqa harbiy Iroq, Ozarbayjon hududlarini berdi. Amir Temur saltanatni boshqarishda kengash, mashvarat, maslaqat masalalariga aloqida ehtibor haratdi. Bu jarayon bizda ikki palatali parlamentchiligimizda keng yo'lga qo'yildi.

Bu davrda milliy davlatchilik to'g'risidagi qarashlarning rivojlanishida Amir Temurning xizmatlari katta bo'ldi. Uning tuzuklarida davlat tizimi, uni idora qilish uslublari va vositalari, undagi turli lavozim-vazifalar darajasi, tabaqalarning toifalanishi, harbiy qo'shinlarning tashkil etilishi, jang olib borish maqoratlari, davlat xizmatchilari raqbatini tashkil etish omillari, adolatli soliq turlarining joriy etilishi, mamlakatni obodonlashtirish tadbirlari milliy davlatchilikning yuksak madaniy va huquqiy darajada shakllantirishga erishganligidan dalolat beradi. Bunday siyosatning asos-mohiyati adolatli davlat, insonparvar jamiyat negizlarini qaror toptirishga haratiladi.

Amir Temur davlat boshqaruvining demokratik asoslarini yaratishda mamlakat ishlarini doimo kengash, mashvarad, maslahat, hushyorligu, mulohazakorlik, ehtiyotkorlik bilan amalga oshirishga qaratadi. Saltanat ishlarini Kengash asosida olib borish - bu aslida ayonlarning rizoligi va ixtiyori demak. Bunday yondashuv bevosita davlat boshqaruvi taqsimotining ilk ko'rinishlari to'g'risidagi qarashlarning rivojlanishiga zamin yaratgan.

Sohibqiron har bir ishda siyosatni adolat bilan amalga oshirishga va bunda turli vositalar asosida uning izchilligini ta'minlashga erishadi. Yahni, adolatga qaratilgan maqsadlarni adolatli vositalar bilan uyg'unlashtirish asosida davlat boshqaruvining nazariy tahlilotlarini amaliy jihatdan boyitadiki, saltanatda adolatni tahminlovchi siyosat muruvatlar yuzaga keladi. Masalan, u nafaqat davlat xizmatchilarining qanday sifatga ega bo'lishini, balki shunday sifatli larni qanday qilib davlat boshqaruviga kelishini ta'minlashning yo'nalishi tomonlarini ishlab chiqadi. Bu borada u shunday deydi: «Agar har narsani va har kimni o'z martabasida saqlay olmasang, saltanatingga bundan ko'p qalal va ziyon yetgay. Demak, har kimning qadr-qimmatini, tutgan mavqeini va har narsaning o'lchovini belgilab olishing va shunga muvofiq ish yuritishing kerak» deb, u davlat xizmatida saloqiyatli shaxslarning ishtirokini amaliy tatbiqiga aylantiradi. Jumladan: «Kimning aqli va shijoatini sinov tarozusida tortib ko'rib, boshqalarnikidan ortiqrog'ligni bilsam, uni tarbiyatimga olib, amirlik darajasiga ko'tarar edim. So'ngra ko'rsatgan xizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim» deydi.

Amir Temur o'z davridagi xizmatlarining eng asosiysi va eng buyugi - bu uning davlat arbobi sifatida adolat g'oyalariga asoslangan milliy davlatchilik tahlilotlarining huquqiy negizlarini yaratganligi hamda uni tatbiq etib berganligidadir. SHu tariqa u o'z siyosiy faoliyatini shunday ifoda etadi: "har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafs yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatiimdan quvib chihardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda qadrlaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim. Ulug'larini va sharaf-eotiborli kishilarni hurmatlab, martabalarini oshirdim. har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdim».

MIRZO ULUFBEK (1394-1449). Buyuk munajjim, davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat qomiysi, o'z davrida Samarqandda rasadxona qurdirib, astronomik maktab yaratgan olim. Ilmiy meorosining gultoji - «Ziji jadidi Ko'ragoniy» asari bo'lib, «Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola», «To'rt ulus tarixi» asarlari ham uning qalamiga mansub.

SHu davrning yirik klassik namoyondalardan biri Alisher Navoiydir. Alisher Navoiyning «Tarixi muluki Ajam» asaridagi fikrlar aloqida diqqatga sazovordir. Navoiy davlat soʻzini mulk deb yozadi. Ajam degani esa arabchada arabdan tashqari degan mahnoni anglatadi. Demak, qadimiy tarixlarda Eron va Turon hududida ilk bor tashkil topgan va uzoq asrlar davomida hukmronlik qilgan davlatni arablar Ajam, yahni arab davlatidan tashqari, degan nom bilan ataganlar. shunday deydi: «SHayx uldurkim, niyoz olsa, mustaqiqlarqa, harib, bechoralarqa bergaylar. Agar olib oʻzi yesa, murdor et yemishdek boʻlqay. Agar toʻn qilib kiysa, ul toʻn toʻzquncha haq taoolo namoz, roʻzasini qabul qilmaqay va agar olqan niyozidin non qilib yesa, haq taoolo oni doʻzaxda turluk azobqa giriftor qilqay. Va agar ondoq shayxqa har kishi ehtiqod qilsa, kofir boʻlqay».

U nazariyotchi va amaliyotchi sifatida davlat siyosatining adolatli asoslari va uning maʼnaviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qoʻshadi. Ayniqsa, adolatsizlik va zulm davlatni tanazzulga, jamiyatni jaqolatga olib kelishi toʻgʻrisidagi qarashlari oʻz ifodasini topadi: «...davlat ishi bilan mashqul boʻlgan amaldorlik choqlarimda koʻngil mulkini turli odamlarning qujumi bulqaladi. Goq amirlik oʻrnida oʻtirdim va qukumat maqkamasida xalqning arz-dodini soʻrdim va goq podshoq yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan harab turgan elga muruvvat koʻrsatdim» deydi. Oʻzbek tili jozibasini oʻz «Xamsa»si bilan butun olamga koʻrsatgan buyuk soʻz sanatkori «Badoyi ul-bidoya», «Navodir ul-nigʻoya», «Zubdat ut-tavorix», «CHor kitob», «Majolis un-nafois», «Maqub ul-qulub» kabi asarlarni ham bizga meros qilib qoldirgan.

A. Navoiy adolat toʻgʻrisidagi qarashlarida inson ruqiyati bilan bogʻliq ijtimoiy illatlarning mohiyatini izlaydi. Jamiyatda yovuzlikning kelib chiqish sabablarini tahlil etadi. Adolatli jamiyatga erishishda nafaqat podshoqning odilligi, balki fuqarolar oʻrtasidagi munosabatlarning adolatli, maonan soqlom boʻlishi lozimligiga ehtiborni haratadi: «Olamda boʻlmish har navo odam bilan koʻrishdim; katta - kichikning feolu atvorini oʻrgandim; yaxshiyomonning xislatlarini tajribadan oʻtkazdim; yaxshilik va yomonliklarning sharbatini ichib, zaqrini totib koʻrdim. Baxl va pastkashlarning zaxmini, saxovatli kishilarning malhamini koʻnglim darhol sezadigan boʻlib qoldi» deydi. Ayni paytda, u inson ruqiyati bilan bogʻliq illatlar mohiyatiga shunday nisbat beradi: «Yaxshilikka mukofot - qoʻpollik; odob bilan qilingan xushmuomala evasiga kekkayish, takabburliqdan oʻzgacha munosabat koʻrmaysiz. Birovga bir xizmat qilsang, undan oʻn zarb yeyishga tayyor turmoq kerak; kimgaki bir tavozeo koʻrsatsang, ming qoʻpollik va dilsiyozlikka hozir boʻlib turmoqing lozim». SHu tariqa, u «Maqub ul-qulub» asarida har xil odamlarning feol-atvori va aqvoli, yaxshi feol xosiyati va yomon xislat kasofati haqidagi qarashlari asosida jamiyat ijtimoiy munosabatlarining yaxlit nazariy tizimi, fuqaro-jamiyat-davlat oʻrtasidagi axloqiy majburiyatlarni umumlashtirishga erishadi.

Umuman, bunday adolatli jamiyatni boshqarish haqidagi gʻoyalar Navoiy taolimotlarida ham keng uchraydi. Bu jarayon «Saddi Iskandariy» dostonida chuqur ochib berilgan va qokazo.

Oʻzbek milliy davlatchiligimiz negizlarining qadimiyligi haqida buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning «Tarixi muluki Ajam» asaridagi fikrlar aloqida diqqatga sazovordir. Navoiy davlat soʻzini mulk deb yozadi. Ajam degani esa arabchada arabdan tashqari degan mahnoni anglatadi. Demak, qadimiy tarixlarda Eron va Turon hududida ilk bor tashkil topgan va uzoq asrlar davomida hukmronlik qilgan davlatni arablar Ajam, yahni arab davlatidan tashqari, degan nom bilan ataganlar.

ZAXRIDIN BOBUR (1483-1530). SHarq madaniyati, adabiyoti va sheoriyatida oʻziga xos oʻrin egallagan adib, shoir, olim, yirik davlat arbobi va sarkarda. Uning jaqon ommasiga mashqur boʻlgan shoq asari «Boburnoma» dan tashqari «Mubayyin», «Xatti Boburiy», «harb ishi» kabi asarlari va goʻzal sheoriyati mashqurdir. A.Navoiy zamondoshlarining ilmiy merosini qunt bilan oʻrgangan, oʻzi ham shu yoʻnalishda katta meros qoldirgan ijodkorlar Zaqriddin MuHammad Bobur, qusayn Voiz Koshifiy va Jaloliddin Davoniylardir. Ular davlatshunoslik, axloqshunoslik, adabiyot, taolim-tarbiya, nasr va nazm sohalarida ijod qilgan yirik olimlardir. Davlat boshqaruvi va uning siyosati bilan bogʻliq boʻlgan ijtimoiy-axloqiy masalalarni

Boburning «Boburnoma», Koshifiyning «Axloqi Muqsinii», Davoniyning «Axloqi Jalolii» asarida atroflicha bayon qiladi.

Ularda jamiyatni boshqarish asoslari, ijtimoiy tabaqalarning o'zaro munosabatlari, adolatli va adolatsiz podshoq fazilatlarini, fuqarolarga odil munosabati, axloq va taolim-tarbiya masalarini tahlil etgan. SHu tariqa Davlat boshqaruviga oid ijtimoiy qarashlarni o'z navbatida o'tmish davlatchilik madaniy merosimiz bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarimizni yanada boyitishga xizmat qilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, XII-XV asrdagi ijtimoiy va madaniy yuksalish o'z mazmun - mohiyati bilan IX-XV asrlardagi O'rta Osiyodagi Uyg'onish davrining uzviy davomi edi. Xulosa shundaki, bunday madaniy meroslarning monandlikka intilishi, uning davriy uyqunlashuvi xalqlar hayotida taraqqiyot hamda yuksalishiga poydevor bo'lgan nazariy ta'limotlarning rivojlanish bosqichlarini kuzatamiz. Ammo O'zbekiston xalqlari davlatchilik tarixi o'z taraqqiyotida bir xilda rivojlangan emas.

3. XV-XX asrlarda O'rta Osiyoda davlat va jamiyat qurilishining ijtimoiy-siyosiy qolati hamda istilochilar siyosatiga qarshi maorifatparvarlik g'oyalari

XVI-XIX asrlar O'rta Osiyo hayotidagi murakkab davrlardagi parchalanishlarning salbiy oqibatlarini. XVI-XIX asrlar O'rta Osiyo hayotida murakkab va keskin burilish davri bo'ldi. Uning murakkabligi avvalo, Amir Temur imperiyasining parchalanishi hamda vorislar o'rtasidagi nizolar bilan bog'liqdir. Doimiy ixtiloflar maydoniga aylanib qolgan Movarounnaqar SHayboniyxon lashkarlari tomonidan bosib olinadi. Yurtda egasizlik, boshboshdoqlik qukm suradi. Mana shunday sharoitda haqiqiy ilm o'rnini diniy aqidaviy qarashlar egallaydi. Natijada aniq va tabiiy fanlar quvqunga uchraydi, ayniqsa matematika va astronomiya orqada qoladi. Buning oqibatida ilm-fan rivojining darajasi keskin pasayib ketadi. Ayni paytda bu davr oldingi mutafakkirlarning ilqor g'oyalarining o'zaro faol taosiri zaiflashuvi bilan xarakterlanadi. Din bevosita davlat siyosatining asosiga, hokimiyat uning raqnomalari qo'lida manfaatlarini niqoblovchi mafkuraga aylanadi. Natijada jamiyatda diniy tazyiq kuchayadi. har qanday ijodiy qur fikr taoqibga olinadi. SHunga qaramay O'rta Osiyoda ijtimoiy fikr, falsafa, adabiyot, tarix, musiqa fanlari, meomorchilik, tasviriy sanoat rivojlandi, qator madrasa va machitlar qurildi. Jumladan, Ibn MuHammad Yusuf Al-qoraboqiy, MuHammad SHarif, Mashrab va So'fi Olloyor, Nodira, Uvaysiy, Dilshod, Komil Xorazmiy, Avaz O'tar, Bedil, Fuzuliy, Aqmad Donish, Muhimiy, Ogaqiy, Furqat, Mulla Olim Maqdam qoji ijodiyotida ilqor ijtimoiy g'oyalar yaratiladi.

Ehtirofli jihati shundaki, shu davr ijodkorlari qaysi sohada ijod qilmasin, shaxs va ziyoliylikka xos qudratda ularning asosiy diqqati xalq va uning turmush dardi bilan bevosita bog'liq bo'lganligiga amin bo'lamiz. Mullo Olim Maqdam qoji «Tarixi Turkiston» asarida shunday deydi. «Turkiston xonlari vaqtidagi musulmoniyalar nig'oyat darajada aqvoli olamidin xabarsiz bo'ldilar. Zolim qakamlarga rost va to'g'ri so'zni aytadurqonlar qolmay, zolimlar uchun besh-o'n tillo badaliga ertadan kechgacha xushomad so'zlar aytib, alar qanday so'z aytsa, maoqul deydurqonlar bo'lqon edilar. Ilmu maorifda bo'lsa Turkistonda o'tgan Ibn Sino, Forobiy, Ulug'bek, Aliqushchi o'rniga o'lturg'on olim, faylasufi zamon deganlarimiz izzatu nafs va riyokorlikga tabdil bo'lub, jaql balosiqa mubtalo bo'lqon edilar. qakam va ulug'larimiz fuqarolardin o'z joyiqa va masrafiqa sarf qilmay, o'z xohishlariqa xarj va sarf qilar edi. qukumat ishida mutlaqo muntazam qoida va qonun yo'q edi. Fuqarolar olarning o'z molidek hisob qilinur edi».

Mavjud manbalar milliy davlatchilik tariximizni tanazzulga tortgan siyosiy kurashlar va o'zaro ixtiloflarning sabablarini o'rganish, undan saboqlar chiharish imkoniyatlarini beradi.

Mahlumki, Movarounnaqar davlatchilik tarixi va uning taraqqiyotini islom falsafasidan ayri qolda ko'ra olmaymiz. Ajdodlarimiz dunyoviy va diniy ilmlarni bevosita uyqun tarzda olib borishgan. U xoq diniy, xoq dunyoviy yo'nalishda bo'lmasin, uning asosida inson - jamiyat -

davlat muammosi yotadi. Faqat biryoqlama diniy mafkuraga asoslangan munosabat, so'ngra mustamlakachilik siyosati adolatli jamiyat qurishga qaratilgan ilqor, milliy madaniy merosini taoqib ostiga oladi. Natijada fan va taolimot o'z zaminidan ayrilgan aqidalar va mavqum g'oyalar taosiriga tushib qoldi.

Ammo tarixning ana shunday murakkab davrida ham Vatanimiz hududida qurriyat bilan yo'qrilgan ijtimoiy - siyosiy qarashlar to'xtagan emas. Aksincha, bunday istak har bir vatandoshimiz qalbida umummilliy istiqlol g'oyasining vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Ana shunday g'oyalarni ishlab chiqishda XX asrning boshlarida shakllangan jadidchilik harakatini alohida o'rganish lozim.

Jadidlar qarashlarida maorifiy-demokratik tamoyillar. Turkiston milliy davlat mustaqilligi uchun kurashda ozodlik harakatlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda shart-sharoitlarini siyosiy jihatdan tahliliga ehtibor haratish lozim.

Bunda Jadidlarning mustaqillik uchun kurash g'oyalarining vujudga kelishi nazarda tutiladi. Millat ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatini o'rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo'lmasligi Beqbudiy kelgan birinchi xulosalardan edi. Ayni paytda, bunday g'oya milliy istiqlolchilik harakatining asosini tashkil etgan.

Jadidchilar asosiy ehtiborini jamiyatda ma'naviyatni rivojlantirishga haratadilar. Ular yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, gazetalar chiharish, darslik va o'quv qo'llanmalarini nashr ettirish, harbning yangi madaniyat va texnologiya uslubiyatlarini joriy etish zaruriyatini hamda uni Turkistonda tarqib etish orqali milliy-dunyoviy taolimni yuzaga keltirish, ma'naviy hayotni yangilash va boyitish orqali milliy o'zlikni anglashni yuksaltirishga zamin yaratishga intilganlar. Bunday siyosiy yondashuv bevosita jamiyatda adolatli-demokratik davlat qurilishining asoslarini rivojlanishiga xizmat qiladigan nazariy omillar ekanligini ehtirol etmasdan bo'lmaydi. Albatta, ular demokratiyaning tom mahnodagi ko'rinishlaridan uzoqda bo'lganlar.

Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash va uning ijtimoiy-siyosiy asoslarini yorituvchi manbalar Munavvarqori Abdurashidxon o'qli, Beqbudiy, Fitrat, Avloniy, quvaydo va boshqa asarlarda o'z ifodasini topgan.

O'z davrida jadidlar milliy-madaniy muxtoriyat qurilishi tamoyillarini ulkan rivojlantirishning amaliy dasturlarni, Turkistonda davlatchilik shakli va uni boshqarish vakolatlari, barcha sohalar bo'yicha qonunlarni joriy etish, sud organlarini tashkil qilish, davlat tuzilmalarini yaratish kabi masalalariga katta ehtibor bergan. Ammo, shu davr siyosiy sharoiti hamda yerli xalqning tushunchasida Turkistonda mustaqil demokratik jamiyat qurish to'g'risidagi qarashlari bir muncha cheklanganligini ko'ramiz. Beqbudiyning "Turkiston madaniy muxtoriyati loyiqasi" dasturida to'la mustaqil demokratik jamiyat to'g'risida emas, davlatning avtonomiya shakli nazarda tutiladi. 1917 yildagi Umumturkiston musulmonlarining qurultoyida ham davlatchilik qurilishi to'g'risidagi qarashlarda demokratik yoki federativ shakllari to'g'risida baqs olib boriladi. Ammo, ularning demokratiya va federatsiya to'g'risidagi qarashlari ham aslida konstitutsion monarxiya tuzumidan tashqariga chiqib ketolmaydi.

Aynan shu davr voqea-qodisalari bayoni, tafsilotlari hamda muvaffiqiyatsizlikning sabablariga M.CHuqay "Istiqlol jallodlari" asarida qo'yidagicha taorif beradi: «Birinchidan, ob'ektiv omillar: ...Biz kurashga o'zimiz tanlagan fursatda emas, Rusiya inqilobi jarayonini keltirib chihargan vaziyat ijoboti bilan kirishdik. Ikkinchidan, suboektiv, yahni o'zimizdan bo'lgan omillar: Milliy manfaatlar yo'lida kurashish lozimligini bilganlari qolda turkistonliklar o'zaro kuchli birlik qura olmadilar va bunga ulgurmadilar».

Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi, uning siyosiy faoliyati, so'ngra inqirozi masalalari mamlakatimizning bir qator olimlari asarlarida o'z ifodasini topgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyoda chorizm istilochilik siyosatiga qarshi maorifatparvarlik g'oyalari bilan bog'liq. CHor Rossiyasi mazkur O'rta Osiyo hududini o'ziga mustamlaka qilib olgach, o'z siyosatini yurgiza boshladi. Bir tomondan, o'lkada ruslashtirish siyosati olib borilsa, ikkinchi tomondan, rus madaniyati ko'klarga ko'tarib maqtaldi. Bu davrda Ogaqiy "SHoqu gado", Aqmad Donish aqlsizlikka qarshi kurashdi, Berdaq Xiva xonligi

maomuriy siyosatini qoraladi. Uning “Aqmoq podsho” dostoni mavjud. Bu davrda Sattorxon, Furqat kabi bir qancha maorifatparvarlar yuzaga keldi.

Jadidchilik aslida maorifatparvarlik harakatining ko‘rinishi bo‘lib, uning namoyandalari mamlakatni qoloqlikdan chiharish va milliy taraqqiyotga erishishnig maorifiy yo‘lini ko‘rsatdilar. Ismoilbek Gaspirinskiy jadidchilik g‘oyalarini O‘rta Osiyoga yoygan inson bo‘lib, “Yuz yildan so‘ng. 2000 sana” romanida sinfiy kurash nazariyasiga qarshi edi. Madaniyati yo‘q bir millatning sanoati bo‘la olmas, u ham bo‘lmasa sinfiy nizolarga erta, biz madaniy o‘suvdan iborat deb bildi va kurashdi.

Maqmucho‘ja Beqbudiy I.Gaspirinskiy g‘oyalarini Markaziy Osiyoga yoyishda bosh rol o‘ynadi. U “SHo‘roi Islom” tashkilotiga asos soldi. Munavvarqori Abdurashidov Turkistonda jadidizm raqbarlaridan biri edi. U “SHo‘roi islomiya” tashkilotini tuzdi. Bu tashkilotlar Turkiston o‘lkasini CHor Rossiyasidan ajratib olib, uni maorifatli qilish g‘oyalari bilan yashadi. Ular Rossiya tarkibida milliy-diniy avtonomiya tuzish tarafdori edi. Fitrat, CHo‘lpon va boshqa jadidchilik oqimi namoyandalari mamlakat aholisini faqat savodli, ilm berish yo‘li bilan bu mustamlakachilik siyosatidan qutulish yo‘llarini ko‘rsatdilar. Lekin sobiq sovet tuzumi davriga kelib ana shu jadidchilik oqimi namoyandalari repressiya qurboni bo‘ldilar. Lekin biz bugungi kunda ana shu jadidchilarning mamlakat aholisini maorifatli qilish, jaqolatga qarshi maorifat yo‘li bilan kurash olib borganligini ko‘ramiz. Ular mustamlkachilik siyosatini tubdan qoraladilar, yerli aholini savodli qilish uchun kurash olib bordilar. Ana shu jadidchilarning ushalmagan orzulari bugungi kunda mustaqillik tufayli, Prezidentimiz Islom Karimovning dono raqbarligi va siyosati tufayli maorifatli jamiyat uchun olib borayotgan siyosatini men albatta chin ko‘ngildan qo‘llab-quvvatlayman.

CHunki maorifatparvar jadid oqimi namoyandalarining ushalmagan orzusi bugungi kunda amalga oshmoqda. O‘zbekiston o‘zining ma‘naviyati, madaniyati bilan jaqonga yuz tuta boshladi. Endilikda biz “O‘zbek xalqi qech qachon qech kimdan kam bo‘lmaydi” degan Prezidentimiz g‘oyasi atrofida birlashmoqdamiz.

O'rta Osiyo xalqlarining mustamlakachilik siyosatiga qarshi milliy ozodlik kurashi va uning asosiy bosqichlari

Ошибк

Birinchi bosqich
1860-1904 yillar

Mustamlakachilik asoratiga tu
shishning ijtimoiy- siyosiy sabab larini
ochib bepuvchi manbalarni o'rganish
orkali shu davrdagi milliy tarqoqlik,
davlat boshqa ruvi ishlarida maorifat
sizlik, maxalliy amaldorlarning nafs va
riyokorlik botqog'iga bot ganligi

Ikkinchi bosqich
1904-1918 yillar

Turkiston milliy davlat mus taqilligi uchun
kurashda ozodlik xarakatlarining o'ziga xos
xusu siyatlari xamda shart- sharoitlar ini
siyosiy jixatdan taxliliga ehtibor qaratish.
Bunda jadid larning mustaqillik uchun
kurash g'oyalari nazarda tutiladi.

Uchinchi bosqich:
1918-1991 yillar

Milliy mustaqillik uchun kurash. "Qo'qon muxtoriyati" va uning mag'lubiyati. O'zbek ziyoliylarining mustaqillik uchun olib borgan kurashi 30-40 yillarda xamda so'ngra 50-60 yillarda turli ko'rinishlarda amalga oshganligi. XX asrning 80 yillaridagi "O'zbeklar ishi", "Paxta ishi" 1989 yil 23 iyun I.A.Karimov O'zbekistonning Prezidenti. 1991 yil 31 avgust O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilindi.

4. XX asr ikkinchi yarmida davlat va jamiyat qurishning “sovetcha” ko‘rinishi hamda milliy mustaqillik va O‘zbekistonning demokratik o‘zgarishlar sari yo‘l tutishi

Milliy istiqlol uchun kurash yo‘llari va shu yo‘ldagi maqsad mushtaraklikda bo‘lgan emas. Mustaqillikka erishish kurashlari afsuski, turlicha anglangan va unga turlicha yondashilgan. Ammo, milliy ozodlik harakatining maqlubiyati yoxud ko‘plab ziyoli namoyondalarning qataqon qilinishi, shaqid bo‘lishi bilan millatning qurriyatga bo‘lgan intilishi bir soniya ham to‘xtagan emas. O‘zbek ziyolilarining mustaqillik uchun olib borgan kurashi XX asr 30-40-yillarda so‘ngra 50-60-yillarda ham turli siyosiy ko‘rinishlarda davom etib boradi.

XX asring 80-yillariga kelib, kommunistik mafkura zuqumi ostida qatoqonlik siyosati yangi pallaga kiradi. Markaz xodimlari tomonidan uyushtirilgan “o‘zbeklar ishi”, “paxta ishi” bilan 11 mingdan ortiq o‘zbekistonlik raqbarlar va oddiy fuqarolar taoqib ostiga olindi, jazolandi.

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ziddiyatlashuvi va qodisalarining keskinlashuvi “qayta-qurish” yillarida ham o‘z taosir ko‘lamini kengaytirib keldi. Natijada respublikada jamiyat yaxlitligini parchalaydigan hamda vujudga kelgan egasizlik qolati fuqarolar o‘rtasida parokandalik muqitini yuzaga keltirdi, millatlararo ziddiyatlar, baozan to‘qnashuvlar, ayniqsa, davlat boshqaruvida qonunsizlik, boshbodoqlik qolatlari vujudga keldi.

Mana shunday qaltis vaziyatda, 1989 yil 23 iyunda Islom Abduqanievich Karimov O‘zbekistonning birinchi raqbari sifatida o‘z faoliyatini boshladi. U hisqa vaqt ichida O‘zbekistonda vujudga kelgan ijtimoiy tanglik sharoitini barqarorlashtirishga qaratilgan tubdan yangi milliy siyosatni shakllantirishga erishdi. Natijada, siyosiy beqarorlik, fuqarolar va millatlararo nizolarning oldi olindi. Davlat boshqaruvida bosqichma-bosqich demokratik tamoyillar mustaqkamlandi - O‘zbekistonda mustaqil davlat tashkil etishining barcha siyosiy va huquqiy zaminlari yaratildi. Bugungi kunda u «O‘zbek modeli» sifatida tan olinmoqda. Mustaqillik sari qo‘yilgan qadamlar quyidagilardan iborat:

1. 1989 yil 21 oktyabrda “O‘zbekiston SSRning Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilindi. Bu qonun 30 moddadan iborat edi. 1-moddada “Davlat tili – o‘zbek tilidir” deyildi. qonunda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida soezd, plenum, qurultoy, sessiya, konferentsiya, majlis, kengash va boshqa masalalar davlat tilida olib borilishi aytilgan. 1990 yil 19 fevralda “Davlat tili haqida”gi qonunni amalga oshirish davlat programmasi qabul qilindi. 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Konstitutsiyasining 4-moddasi davlat tili o‘zbek tili ekanligi aytili. 1993 yil 2 sentyabrda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” qonun qabul qilindi (31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan iborat o‘zbek alifbosi joriy etilishi qayd qilindi. 1994 yil 16 iyunda Vazirlar Maqkamasi tomonidan bu qonunni amalga oshirish maqsadida davlat dasturi qabul qilindi. 1995 yil 6 mayda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirishlar kiritish haqida qonun qabul qilindi (31 harf va 1 tutiq belgisidan, so‘zlari 26 ta harf va 3 ta harflar birikmasidan so‘zlar bilan almashtirildi). 1995 yil 21 dekabrda “Davlat tili haqida”gi qonunga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi taqriri qabul qilindi. Bu qonunning yangi taqriri 24 moddadan iborat. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan 2, 10-bandlardagi “2005 yil” so‘zlari “2010 yil” deb almashtirildi.

2. 1990 yil 24 martda O‘zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimi joriy qilindi (bu haqida to‘liq mahlumot 6.3-mavzuda berilgan).

3. “Mustaqillik deklaratsiyasi”ning (1990 yil 20 iyun) qabul qilinishi, uning mazmuni va mohiyati. Ushbu “Mustaqillik deklaratsiyasi” O‘zbekiston Oliy Sovetining 2-sessiyasida 1990 yil 20 iyunda qabul qilindi. Bu hujjat O‘zbekistonning mustaqillikka erishishida qo‘yilgan navbatdagi qadam bo‘ldi. Bu umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan hujjat deputatlar tomonidan moddama-modda, bandma-band muqokama qilindi. “Mustaqillik deklaratsiyasi”ning kirish hismida O‘zbekistonning davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan anoanalari, har bir

millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini taominlashdan iboratligi aytib o'tildi. Birinchi moddada "O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy hismlarni belgilashda va barcha tashqi munosabatlarda tanqo hokimligidir", deb qo'yilgan. Bu Deklaratsiya o'zbek xalqi tomonidan to'la qo'llab-quvvatlandi. SHu kundan boshlab respublikada O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda qal qilina boshlandi. 1991 yil 17 martda referendum o'tkazildi. Bunda O'zbekiston Federatsiya tarkibida mustaqil, teng huquqli ekanligi aytib o'tildi. Referendumda 9.215 mingdan ko'proq kishi qatnashdi, 93 foiz ovoz to'plandi.

Demak, "Mustaqillik Deklaratsiyasi" 13 bo'limchalardan iborat bo'lib, u O'zbekistonning mustaqillik sari qo'ygan qadamlarida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Endilikda o'zbek xalqi, millatining tepasida Islom Karimovdek dono raqbar shaxsning kelishi va davlatni oqilona boshqarishi tufayli O'zbekiston asta-sekin o'z iqtisodiy bo'ronlaridan xalos bo'lmoqda. Mustaqillik deklaratsiyasining tarixiy ahamiyati yana shundaki, bu hujjatning qabul qilinishi, o'zbek xalqining o'zini anglash borasidagi siyosati albatta muvaffaqiyatli kechdi. Lekin bugungi kunda baozi bir buzqunchi kuchlar O'zbekistonni bu yo'ldan qaytarib, iqtisodiy muammolarni chigallashtirishga harakat qilmoqdalar.

4. 1991 yil 15 fevralda Oliy Kengash "O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi.

5. 1991 yil 22 iyulida Oliy Kengash "O'zbekiston hududidagi joylashgan Ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, musassasalari va tashkilotlarini O'zSSRning huquqiy tobeligiga o'tkazish to'g'risida" qaror qabul qildi.

6. 1991 yil 21 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Favqulodda qolat davlat qo'mitasining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan qarorlari va farmonlari noqonuniy deb eolon qilindi.

7. 1991 yil 25 avgustda Prezident Farmoni bilan Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi qo'mitasi qonuniy ravishda O'zbekiston tasarrufiga olindi.

8. 1991 yil 26 avgustda Oliy Kengash O'zbekiston davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyiqasini tayyorlash hamda 31 avgustda Oliy Kengash sessiyasini chaqirishga qaror qilindi.

9. 1991 yil 28 avgustda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasi Markaziy nazorat qo'mitasi bilan birgalikda qo'shimcha Plenumi chaqirib, unda O'zbekiston Kompartiyasi KPSS MK bilan har qanday aloqasini to'xtatishga, KPSSning barcha tashkilotlaridan chiqishga, uning Markaziy organlaridan o'z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.

10. 1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari 6-sessiyasi o'z ishini boshladi (Bu haqda keyingi saqifaga harang).

Demak, Mustaqillik - tenglik sari qo'yilgan birinchi qadam. Tenglik bo'lmagan joyda kim kimgadir qaram bo'ladi. Tenglik odamlarning o'zaro munosabatlaridan tortib mamlakatlararo munosabatlargacha Hamma narsani meyor-mezonga soladi.

Mustaqillik - o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolari o'zaro munosabatida ham, davlatlar o'rtasidagi aloqalarda ham ana shu insoniy qadriyatlarga tayanish, umumiy mezonlar asosida yashash demakdir. Milliy mustaqillik erkin dunyoqarash, erkin tafakkurga tayanib yashashdir. Tabiatan ongli yashash, ongli munosabatni qaror toptirishning mezoni hamdir.

1991 yil 19-21 avgust kunlari yuz bergan davlat to'ntarishiga urinish va zo'ravonlik siyosatini chuqurlashtirishga intilish bu jarayonning yakuni bo'ldi. Prezident Islom Karimov taobiri bilan aytganda, "Mustaqil o'zbek davlati xalqimizning tarixiy yutuqidir. Xalqi yuz yillar mobaynida ozodlikni orzu qilgan O'zbekiston chinakam mustaqillikni qo'lga kiritdi. XX asr 90- yillariga kelib, sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish, ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. SHarqiy Yevropada sobiq sotsialistik mamlakatlar o'z milliy mustaqilliklarini qo'lga kiritish boshladi. 1989 yil Islom Karimov davlat hokimiyatiga kelgach, mustaqillik sari bir qator qadamlar tashlashga muvaffaq bo'ldi. 1989 yil 21 oktyabrda «Davlat tili to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. 1990 yilga kelib Sobiq SSSR boshqaruvi yanada murakkablashib bordi. 1990 yil 6 avgustda sobiq SSR Prezidenti M.Gorbachyov "Yangi ittifoq

shartnomasini asos sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning Ittifoq dasturi Kontsepsiyasini tayyorlash haqida» farmon chihardi. 1990 yil sentyabrda Sobiq SSSR Oliy Kengashi 4-sessiyasida N.Rijkov "Boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tishga tayyorgarlik va mamlakat xalq xo'jaligida barqarorlikni vujudga keltirish haqida" maoruz qildi. Bunda S.SHatalinnig "500 kun" Dasturi ham ko'rildi. Bu dastur RSFSR Oliy Soveti II sessiyasida 1990 yil 11 sentyabrda

qabul qilinib ijobiy baholangan edi. Lekin har ikkala dastur ham qabul qilinmadi. Aksincha ikkovini qayta uyg'unlashtirilib qabul qilishga kelishib olindi. Demak, bu davrga kelib sobiq SSSRni boshqarish bo'yicha bir qancha guruhlar paydo bo'ldi. 1. Birinchi kuchlar. N.Rijkov va V.Pavlov dasturi tarafdorlari eskicha yashashga intilish kuchli edi. 2. S.SHatalin dasturi, bu yangilik sari edi. 3. M.Gorbachyov komandasi va 4-guruq bu Yanavevning hokimiyat tepasiga kelishi va 3 kun boshqaruvi bilan boqliq edi.

1991 yil 31 avgust kuni O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi ehlon qilindi. Ammo, mustamlakachilik siyosatidan so'ng qolgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-maorifiy meros bilan mustaqillikni mustahkamlash va uning istiqbol yo'lini aniqlash, aslida undanda murakkab vazifa edi. Bunday vazifa mamlakatda demokratik huquqiy davlat qurish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish, uning jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlash bo'yicha hatoiy va izchil siyosat yurgizishdan iborat bo'ldi.

Prezident I.A.Karimov «Biz yangi ozod jamiyat, huquqiy davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, adolat tamoyilini ustuvor printsip sifatida ehtirol etamiz», deb O'zbekistonda adolatparvar demokratik jamiyat qurishning nazariyasini milliy davlatchiligimizning uch ming yillik tarixi hamda madaniy merosi bilan boqlashga qaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasida (1991 yil, 31 avgust) uchta tarixiy hujjatning qabul qilinishi va uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati.

1991 yilning 31 avgustida O'zbekiston tarixida yangi davr boshlandi. Mamlakat taqdirida muhim ahamiyat kasb etadigan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari 6-sessiyasi chaqirildi. Sessiyada respublika mustaqilligi to'g'risida Prezident Islom Karimov mahruza qildi. U O'zbekistonning mustaqilligi to'g'risida qonun qabul qilishni taklif etdi. Demak, ana shu sessiyada 3 ta tarixiy qujjat qabul qilindi:

1. Oliy Kengash «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini ehlon qilish to'g'risida» qaror qabul qildi.

2. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash bayonoti» qabul qilindi. Unda O'zbekistonning davlat mustaqilligi va ozod suveren davlat-O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligi tantanali ravishda ehlon qilindi.

3. «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu tarixiy hujjatlarda 1 sentyabr- respublika mustaqilligi kuni umumxalq bayrami deb ehlon qilindi. Xalqning asriy orzulari mujassamlandi: u o'z taqdirini o'zi hal qiladigan bo'ldi. O'z yeridagi barcha tabiiy boyliklarning, ota-onalari mehnati bilan yaratilgan butun ishlab chiqarish va ilmiy-texnik kuch-qudratning to'la huquqli egasiga aylandi. O'z buyuk tarixi va madaniyatining munosib vorisi, ajdodlarining ajoyib urf-odatlaruyu insonparvar anhanalarining davomchisi, o'z porloq kelajagining mustaqil ijodkori bo'ldi. Demak, O'zbekistonning butun tarixi xalqning mustaqillik uchun doimiy va tinimsiz intilishidan guvoqlik beradi. Milliy ozodlik xarakatlari, XIX asr oxirlari va XX asrning 30-yillarigacha bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar buning yaqqol ko'rinishlari deyish mumkin. Ular qanday tarixiy saboqlar va bahonalar asosida kelib chiqqan bo'lmasin, qanday shiorlar asosida o'tkazilmasin, xalqning barcha harakatlari asosida mustaqillik va erkinlikka intilish mavjud edi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi butun xalqning va zamonlarning ob'ektiv tarixiy qonuniyatlariga mos keladi. Yevropada ham, Osiyoda ham buyuk imperiyalar juda katta kuch-qudratga ega edilar. Biroq ularning Hammasi xalqning milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurashlari natijasida quladi. XX asrda tezkor va keng qamrovli xususiyat kasb etdi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ko'pchilik xalqlari esa o'z davlat mustaqilligiga, istiqlol va

erkinlikka erishdilar. SHu mahnoda imperialistik davlat bo'lgan SSSRning parchalanishi tarixiy taraqqiyotning muqarrar va qonuniy natijasi bo'ldi.

O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligi 2007 yil 30 avgustda nishonlanar ekan, bu mustaqillik zaminida xalqimizning asrlar davomida olib borgan qonli kurashlari ko'z o'ngimdan ketmaydi. Mustaqillik bizga nima berdi deyish mumkin, shaxsan men mustaqillik bizga erkinlik berdi, kimligimizni anglatdi. Prezident iborasi bilan aytganda «O'zbek xalqi qech qachon, qech kimga qaram bo'lmaydi».

Mustaqil davlatimiz g'oyalarining nazariy va huquqiy asoslarini yaratish hamda uning shakllanishida – sobiq ittifoqda birinchi bo'lib, 1990 yil 24 martda (12-chaqiriq Oliy

Sovetining birinchi sessiyasi) O'zbekistonda Prezidentlik institutini tahsis etish to'g'risidagi qarori bo'lgan edi. Mahlumki, o'sha sessiyada I.A.Karimov O'zbekiston SSRning Prezidenti etib saylangan edi. Mamlakatimizda Prezidentlik institutining tahsis etilishi nafaqat davlatchiligimiz milliy g'oyasini, balki xalqimizning bosqichma-bosqich siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurashning o'ziga xos yo'nalishining boshlanishi ham edi.

Prezidentlik institutining tashkil etilishi uzoq yillar mobaynida Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy sohalarda to'planib qolgan muammolarni hal etishning birdan-bir to'g'ri yechimi edi.

Mahlumki, dunyo davlatchiligi tarixiy rivojlanishida boshqaruvning asosan ikki shakli – monarxiya va respublika usullari mavjud. Respublika boshqaruvi o'z navbatida parlamentar va prezidentlik respublikalari ko'rinishlariga ega. Prezidentlik Respublikasi hozirgi kunda eng ko'p tarqalgan davlat boshqaruvi shaklidir. 2000 yilgi mahlumotlarga ko'ra, BMTga aozo 192 davlatdan 146 tasida Prezident lavozimi mavjud.

Ularning aksariyat ko'pchiligi prezidentlik respublikalari hamdir. Bular AQSH, Argentina, Braziliya, Meksika, Frantsiya, Rossiya Federatsiyasi va boshqalardir.

Davlatchilik g'oyalarining nazariy asoslari va ularning shakllanishi jarayonlarini prezidentlik institutining tahsis etilishi haqida batafsil fikr yuritishimizning asosiy sababi – Prezidentlik hokimiyatining manbai xalq ekanligi to'g'risidagi tarixiy tajribaning O'zbekistonga mos va zarurligi hamda davlat boshqaruvidagi eng samarali shakli ekanligining o'z isbotini tapayotganligi bilan belgilanadi. SHu o'rinda, «Prezidentlik Respublikasining parlamentar respublikadan asosiy farqi nimadan iborat» degan tabiiy savol tuqiladi. Birinchidan, Prezident xalq tomonidan muqobilik asosida saylanib, davlat boshlig'i hisoblanadi. Hukumat Prezident tomonidan tuziladi va unga hisobot beradi. Parlamentar respublikada esa, parlament, yani oliy vakillik qonun chiqaruvchi idora, prezidentni va hukumat tarkibini saylaydi va ularni o'ziga itoat ettiradi.

Ikkinchidan, Prezidentlik hokimiyati siyosati demokratiyaning muhim umumjahon ehtiroy etilgan tamoyili bo'lgan xalqning xohish-irodasini amalga oshirishning kafolatidir. Prezidentlik boshqaruvi hokimiyati insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishni Konstitutsiyaviy qonunlar bilan kafolatlaydi.

Uchinchidan, Prezidentlik boshqaruvi barqarorlik, fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlash, qonunchilik hamda Konstitutsiyaviy tuzum barpo etishning asosi bo'lgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari faoliyatini mamlakat oliy maqsadlari yo'lida muvofiqlashtiradi.

To'rtinchidan, Prezidentlik boshqaruvining asosiy tamoyili o'zi boshqarayotgan davlatning dunyo davlatlari orasida teng ququqliligini, milliy manfaatlar ustuvorligi, respublika suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolatlangan Konstitutsiya normalari va qonunlarining to'g'ri va qat'iy rioya etilishini tahminlaydi va boshqaradi.

Umuman, mamlakatimizda Prezidentlik institutining tahsis etilishi milliy davlatchiligimizni shakllantirishdagi qarashlarimizning mahno va mazmunini tubdan o'zgartirib yuboradi. Buning isbotini Prezidentimizning mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlarning bosh tashabbuskori hamda ularni muvofiqlashtiruvchi asosiy yetakchi bo'lib qolayotganligini qayotning o'zi tasdiqlamoqda.

Davlatchilik g'oyalarining nazariy asoslari va ularning shakllanishini O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasi (1990 yil 20 iyun) kunida qabul qilingan «Mustaqillik deklaratsiyasi»siz tasavvur etib bo'lmaydi. Negaki, aynan ushbu Deklaratsiyasining birinchi moddasida: «O'zbekiston S

SRning davlat mustaqilligi O'zbekiston SSR demokratik davlatining o'z hududida barcha tarkibiy qismlarini belgilashda va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir» deb belgilab qo'yilishi davlatchiligimiz g'oyalarining huquqiy asoslarini tashkil etgan edi.

«Mustaqillik deklaratsiyasi»ning qabul qilinishi mamlakatimizning mustaqillikka erishish yo'lidagi yana bir muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan qadami edi. Aynan ushbu Deklaratsiya ehlon qilinishidan boshlab, mamlakatimizning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalarni mustaqil tarzda hal qilishga kirishildi.

Davlatchilik g'oyalarining nazariy va huquqiy asoslarini shakllantirishda O'zbekiston Prezidentining 1991 yil 25 avgustdagi Farmoniga binoan Respublika Ichki Ishlar Vazirligi va Davlat Xavfsizligi qo'mitasining qonuniy ravishda O'zbekiston tasarrufiga o'tishi alohida o'ringa ega bo'ldi. Ushbu Farmonga binoan Respublika hududida joylashgan SSSR Ichki Ishlar Vazirligining ichki qo'shinlari ham bevosita O'zbekiston Prezidentiga bo'ysundirildi. Ayniqsa, Respublika Ichki Ishlar Vazirligi va Davlat xavfsizligi qo'mitasi, prokuraturasi, Adliya organlari, ichki qo'shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari siyosiy partiyadan butunlay qoli qilinganligi milliy davlatchiligimiz shakllanishidagi yangi bosqichning boshlanishi edi.

Qisqacha xulosa

Demak, mustaqillik sari qo'ygan qadamlari va bosqichlari: 1) Davlat tilining qabul qilinishi, 2) Davlat ramzlarini qayta ko'rib chiqish xaqidagi 3) Kommunistik partiyaning O'zbekistondagi bo'limi barxam topish bilan xarakterlandi.

1990 yil 24 martda O'zbekistonda Prezidentlik institutining joriy etilishi, 1990 yil 1 noyabrda Prezident xuzuridagi Vazirlar Maqkamasining tashkil etilishi, viloyat, shaxar va tumanlarda vakillik xamda ijroiya idoralariga raxbarlik qiluvchi xokimlik lavozimining tasis etilishi, yangi milliy davlatchilikning siyosiy-xuquqiy asosi bo'lib xizmat qildi.

1991 yil 31 avgustda O'zbekistonda davlat mustaqilligining elon qilinishi, mamlakatning demokratik-xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyati tomon yo'l tutishi respublikaning yangi Konstitutsiyasi yaratilishini taqozo etdi. 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yangi milliy davlatchilikning konstitutsiyaviy poydevori bo'lib qoldi.

Bu Konstitutsiya avvalo, o'zbek davlatchiligining tarixiy tajribasi va ananalariga tayanib, milliy davlatchilikning yangi asosda ijodiy rivojlanishini tahminlab beruvchi siyosiy-xuquqiy qujjatdir. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi demokratiya va inson ququqlarining jaxonda ehtirol etilgan qoidalariga to'la mos bo'lib, mamlakatimizda keng ko'lamli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlar o'tkazish uchun huquqiy zamin bo'lib xizmat qiladi.

MUXOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. "Avesto"da adolatli jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlarni bayon eting
2. To'maris, SHiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro kabi ozodlik kurashchilarining bosqinchilarga qarshi mardona kurashi haqida nimalarni bilasizq
3. YuNESKO bilan hamkorlikda Amir Temurning 660, Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi nishonlanishi bilan bog'liq bo'lgan yubileylari haqida hikoya qilib beringq
4. O'tmishda milliy davlatchilik negizlaridan mahrum bo'lishning sabablari nimalarda edi
5. Markazlashgan mahmuriy boshqaruv va totalitar tuzumning salbiy oqibatlar haqida gapirib bering
6. O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvi qachon joriy qilindi

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2007. – 6–10-b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. -T.: «O'zbekiston», 1997, 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: «O'zbekiston», 2000, 6,8-12, 14-15, 16-26, 28-38, 47-48-betlar.
4. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1., -T.: «O'zbekiston», 1996, 36-49, 76-85, 104-108, 123-130-betlar.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.5. -T.: «O'zbekiston», 1997, 207-217-betlar.
6. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish - har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 285–312-b.
7. Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezonini bo'lsin. Surxondaryo viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. –313–337-b.
8. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoitini yaratish – asosiy vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2007. – 11-b.
9. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. –156–223-b.
10. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.14. – T.: O'zbekiston, 2006. – 61–97, 139–153, 248–265-b.
11. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48 b.
12. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayot garovidir. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2007. – 64 b.
13. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezonini va maqsadidir. – T.15. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 3-11, 154-211-241-251-b.
14. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48 b.
15. Rahimov I., Zohidov A., Azizov SH., Ayupov A. va boshq. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. -T.: «Universitet», 2001. 232-bet.
16. Pugachev V.P., Solovg'ev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 202-255-betlar.
17. O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T.: «O'qituvchi», 2004, 3-44-betlar.
18. Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. T.: Toshkent Moliya instituti, 2004, 3-180-betlar.
19. SHarifxo'jaev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. – T.: SHarq, 2005. – 240 b.
20. Levitin L., Karlayl S. Islom Karimov - yangi O'zbekiston Prezidenti. -T.: «O'zbekiston», 1996, 40-46, 117-119-betlar.
21. Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub». -T.: «Adabiyot», 1996.
22. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. -T.: 1998.
23. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. -T.: «Xalq merosi», 1993.
24. Pugachev V.P., Solovg'ev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 202-255-betlar.
25. Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. T.: TMI, 2004, 3-180-betlar.

26. Aliev B., Hoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot nashriyoti», 2005. – 160 b.
27. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: "SHarq", 2006. – 528 b.
28. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar. – T.: "Ma'naviyat", 2006. – 160 b.
29. To'xliiev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" davlat ilmiy nashr., 2006. – 280 b.
30. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 204 b.

MAVZU. MUSTAQILLIK VA DEMOKRATIK JAMIYAT QURILISHINING «O'ZBEK MODEL»

1. Demokratik jamiyat qurishning turli xil milliy modellari va O'zbekistonda uning o'ziga xos xususiyatlari

Milliy mustaqillik va demokratiyaning uzviy bog'liqligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng kelajakda qanday yo'ldan borishi masalasi kun tartibiga qo'yilgan eng dolzarb masalalardan biri bo'ldi. Uning dolzarb bo'lib qolishining bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablari va omillari ham mavjud edi. Uning **ob'ektiv sabablaridan biri** jahonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barcha davlatlarga mos keladigan biron bir tayyor andozasining yo'qligi va bo'lishi ham mumkin emasligi edi. **Ikkinchi ob'ektiv sababi** – mahmuriy buyruqbozlikka asoslangan tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va qoidalar endilikda respublikada barpo etilayotgan yangi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat manfaatlariga mos kelmasligi edi. Mulkchilik, mulkka egalik va uni boshqarish, ishlab chiqarishdagi inson omilining ortishini hisobga olgan holda davlatni boshqarishning butunlay yangi shaklini vujudga keltirish zarur edi. Demak, **birinchidan**, har bir davlat demokratik taraqqiyot yo'liga kirishi uchun mahlum bir muddat talab qilinar edi. **Ikkinchidan**, vaqtni qo'ldan boy bermasdan rivojlanishning tarixiy jihatdan asrlar mobaynida shakllangan anhanalari asosida O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishni bir daqiqa ham kechiktirib bo'lmas, yangi kontseptsiya ishlab chiqish zarur edi.

Mamlakat Prezidenti O'zbekiston fuqarolari uchun tabiiy haq-huquq va shuningdek oliy nehmata bo'lgan mustaqillik to'g'risida so'z yuritarkan, uni jamiyat rivojining asosi, bugungi va uzoq istiqboldagi taraqqiyotimiz sharti, barcha islohotlarimizning mezonini va nihoyat, barcha amal qiladigan bosh tamoyil deb ta'rifladi. SHunday ekan, u jamiyat ahzolari oldiga muttasil yangi-yangi vazifalarni qo'yadi va uning bajarilishini talab qiladi. Zero, taraqqiyotning har bir bosqichi, turli-tuman muammolar va ularni bartaraf etish yo'lidagi tadbirlardan iboratdir.

Xalqaro hamjamiyat katta va kichik millatlar, davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mustaqillikning ilk asnolarida vujudga kelgan muammolar yechimida sustkashlikka yo'l qo'yish og'ir ijtimoiy larzalarga olib kelishi mumkin. Zotan, har qanday yechilmagan muammo yana boshqa qator xavf-xatarlarni keltirib chiqarib, davlat taraqqiyotining ancha murakkablashishiga olib keladi. Demak, mamlakat taqdiri uchun mashullikni o'z zimmasiga olgan hokimiyat tuzilmasi bu borada bir nafas ham beg'amlikka yo'l qo'ya olmaydi, doimo uyg'oq va harakatda bo'ladi. Darhaqiqat, mustaqillik bir tomondan milliy taraqqiyot yo'lini erkin tanlashda ulkan mashuliyat yuklasa, ikkinchi tomondan eskilikka barham berish va yangi jamiyatga asos yaratish uchun beqiyos imkoniyat yaratadi. SHu nuqtai nazardan, mustaqillikni demokratiya uchun eng zarur shart-sharoit deb hisoblasak bo'ladi.

O'tmish, bugun va kelajak bir-biriga tutashgan bunday tarixiy paytlarda mustaqillik davrini kechirayotgan har bir davlat bir tomondan, demokratiya borasida jahon xalqlari orttirgan boy tajriba hamda undan millat manfaatlarini yo'lida foydalanishni, ikkinchi tomondan esa, uni o'ziga

xos noyob bir sharoitda joriy etish bilan bog'liq muammoga duch kelganligini tarixiy tajribalar ko'plab mamlakatlar misolida tasdiqlagan.

I.A.Karimov O'zbekistonning rahbari sifatida asosan **ikki** narsani mushtarak holda olib bordi. Ulardan **biri** mamlakatimizning o'z ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishda rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasini o'rganish va ularning bizga maqbul jihatlari ijobiy jihatdan o'zlashtirish bo'lsa, **ikkinchisi** - O'zbekiston xalqining turmush tarzi, mentaliteti va anhanalariga tayanishdan iborat bo'ldi. Unga Islom Karimov tomonidan taklif qilingan besh asosiy tamoyil asos qilib olindi.

XX asr 50-yillardan keyingi yillarda ko'pchilik sobiq mustamlaka mamlakatlar o'z mustaqilligiga erishib, milliy davlat qurish yo'liga o'ta boshladilar. Bu vaqtda asosiy 3 taraqqiyot yo'li: **1) kapitalistik; 2) sotsialistik; 3) milliy ozodlikka erishgan** davlatlarning aralash yo'nalishi haqidagi qarashlar bor edi. XX asr oxirlariga kelib biron-bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini qat'iy qabul qilingan qoidalar doirasi bilan cheklab turish mumkin emasligi, taraqqiyot yo'llari (modellari) ancha keng ko'lam va maqsadga egaligi, ulardan birini tanlashda har bir mamlakat o'z ichki sharoitlaridan kelib chiqmog'i zarurligi ma'lum bo'ldi.

Iqtisodiyot nazariyasida ayrim olimlar iqtisodiy taraqqiyot modelini davlat tuzumi desa, boshqalar ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya, uchinchilari esa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning aniq belgilangan yo'li, deb hisoblaydi. Iqtisodiy taraqqiyot modeli, N.To'xlijev va boshqa bir guruh olimlarning fikriga ko'ra, iqtisodiy munosabatlarning keng miqyosli tizimi bo'lib, u huquqiy, mahmuriy hamda xo'jalik mexanizmlari orqali boshqariladi¹. Bunday munosabatlarning sub'ekti mulk egalari, xo'jalik faoliyati ishtirokchilari, uyushmalar, davlat va xususiy sektor, mamlakat doirasidagi mintaqa va tarmoqlar hisoblanadi. Iqtisodiy taraqqiyot modeliga axloq va dunyoqarash, mentalitet, turmush tarzi, madaniyat kabi ijtimoiy mehyorlar ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi.

Iqtisodiy taraqqiyot modeli global va milliy xarakterda bo'ladi. Hozirgi vaqtda taraqqiyotning bir qator tipik global quyidagi modellari mavjud:

1. Osiyo taraqqiyoti modeli – jamoaning kuchli pozitsiyasi va diniy omilga asoslangan bo'lib, bu modelda undiruvchi sanoat va qishloq xo'jaligi asosiy o'rinda turadi. "Osiyo arslonlari" deb ehtirol etilgan: Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan, Malayziya kabi mamlakatlar rivojlandi.

Mustaqillikdan meros qolgan qaloq, anhanaviy iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish. Bu model milliy mustaqillik sharoitida amalga oshadi. Bunda bozor iqtisodiyotiga xos belgilar xo'jalik turlarining transformatsiyasi orqali yuz beradi.

1) Azaliy natura xo'jalik bozor doirasiga tortilib, tovar xo'jaligiga aylanadi va undan bozor iqtisodiyoti belgilari o'sib chiqadi.

2) Kam rivojlangan, lekin real mavjud milliy kapitalistik xo'jalik bozor iqtisodiyoti tomon yuz tutadi.

3) Xorijiy kapital yaratgan xo'jalik, ishlab chiqarishning xorijiy sektori zaminida bozor iqtisodiyoti unsurlari rivoj topadi.

Osiyo modelining muhim belgisi shundaki, unga bozor munosabatlari rivojiga xos bosqichlarning Hammasidan o'tilmaydi, hatto ayrimlari chetlab ham o'tiladi. Masalan, qaloq natura xo'jalik to'g'ridan-to'g'ri bozor iqtisodiyotiga xos yirik fermer xo'jaligiga aylanadi.

"Yangi Yapon" yigit-qizlari bilak kuchiga va aqliga tayanadilar. CHetdan texnika, asbob-uskuna, kapital olib kelinadi. Ishchi kuchini "ajdoha"lar beradi. AQSH texnologiyasidan nusxa ko'chirgan Janubiy Koreya ham tez rivojlandiki, bunda 1) ishchilarni bepul qayta o'qitish; 2) sanoat tarmoqlarini rivojlantirish; 3) subsidiya va past foizli kreditlar berish; 4) "Eksport" – iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi" aqidasi hukmron; 5) mamlakatda bilimdon va intizomli ishchi kuchlarining yetarliligi.

2. Yevropa (cha) modelida – iqtisodiy taraqqiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi, xususiy tashabbusning yuqori darajada rivojlanganligi, biznesni qo'llab-quvvatlash va soliq undirishning

¹ Тўхлиев Н., Ҳақбердиев Қ., Эрматов Ш., Холматов Н. Ўзбекистон иқтисодиёти асослари. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 121–122-б.

sharoitga moslashuvchan tizimi, jamiyatning texnokratik yo'nalishi, YaIMda xizmat ko'rsatish sohasining yuqori hissasi ko'zga tashlanadi.

Evropacha modelda evolyutsion yo'l orqali oddiy tovar xo'jaligidan klassik kapitalizm tomon va undan bozor iqtisodiyoti tomon boriladi. Bunda oddiy pul-tovar munosabatlarining kapitalistik shaklga ko'chishi, uning bozor iqtisodiyotiga aylana borishi orqali yuz beradi. Bu modelda bozor iqtisodiyotining yovvoyi ko'rinishlari ham kuzatiladi: o'ta tarqoqlik, tartibsizlik, o'zbilarmonchilik, shafqatsiz ekspluatatsiya, ommaning qashshoqlashuvi, g'irrom raqobat, g'ayri insoniy xatti-harakatlarga moyillik. Bu jarayon XIX asr oxirigacha hukmron bo'ldi. XX asr 30-yillaridan bozor iqtisodiyotiga o'tildi, 50-yillarda shiddatli tus oldi.

3. Lotin Amerikasi modeli – hom ashyo tamoyiliga qurilib, undiruvchi sanoat tarmoqlarining rivojlanganligi, mehnat resurslarining ortiqchaligi, xufyona narkokapitalning yuqori hissasi, eksportning past, tovar va xizmatlar importining esa yuqori darajasi iqtisodiyotda mayda tovar ishlab chiqarishning sezilarli darajasi bilan tavsiflanadi.

4. Osiyo – Tinch okeani modeli (XX asr 70–80-yillarda shakllangan)ning tipik xususiyati – yuqori texnologiyaga egaligi, tabiat va inson resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish ilmiy bazasining rivojlanganligidir.

5. Afrika iqtisodiy taraqqiyot modeli – tipik xom ashyo yo'nalishi, iqtisodiyotda past unumdorlik darajasi, mehnat resurslarining ortiqchaligi, aholi turmushining past darajasi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi, urug'chilik, qabilalar o'rtasidagi urushlar, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik bilan xarakterlanadi.

6. Postsovet iqtisodiy taraqqiyot modeli – asosan MDH mamlakatlariga xos bo'lib, ularni ishlab chiqarish texnologiyasining umumiy xususiyati, yagona andozalar, iqtisodiyotni isloh qilishning umumiy vazifalari birlashtiradi. Sobiq Ittifoq respublikalarining 70 yildan ortiq birga bo'lishi iqtisodiy munosabatlarining yaqinlashuviga o'z tahsirini o'tkazmasdan qolmadi. XX asr 90-yillari boshida va o'rtalariga kelib ham mamlakatlar tashqi savdo aylanmasining yarmidan ko'prog'i MDHga to'g'ri kelar edi. Ammo, keyinchalik bu tendentsiya milliy taraqqiyot modellari yetakchi o'rinni egallay olmadi. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida sanoati rivojlangan mamlakatlar birinchi darajasiga ko'tarildi.

Taraqqiyotning global modellaridan tashqari dunyodagi AQSH, Angliya, Yaponiya, Germaniya kabi ayrim rivojlangan va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda quyidagi modellar ham ko'zga tashlanadi.

1. “Amerika modeli”da bozor munosabati nihoyatda liberalligi bilan xarakterlanadi. Davlatchilik asoslari va demokratik tamoyillar muqaddasligi, o'z kuchiga tayanishga o'rgatiladi. «AQSH millatlar hamjamiyati» g'oyasida birlashgan davlatdir.

2. “Yapon modeli”da iqtisodiy munosabatlarda **davlat yetakchi** o'rinni egallaydi. 2-jahon urishida 8 mln.dan ziyod odam halok bo'lgan va jarohatlangan, 90 dan ortiq shahar, 80 dan ortiq sanoat korxonalari vayron bo'lgan. Davlat siyosiy madaniyatga ehtibor qaratdi. Iqtisodiyot xalqning ijtimoiy-tarixiy tajribasi, ruhiyati va mentaliteti bilan yo'g'rildi. Amerika ko'magiga tayandi. Fuqaro mehnatsevarlik, intizomlilik, jamoaviylik yapon milliy xarakteri rivojlantirildi. “Bor imkoniyatlaringni ishga sol!” g'oyasiga amal qilindi. “Ahloq tarbiya” tizimiga asoslangan: 1) xarakterni shakllantirish; 2) “davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat»; 3) “fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash”ga yo'naltirildi.

3. “SHved modeli”da iqtisodiyot ijtimoiy sohaga yo'naltirilganligidir....

4. Erxard (nemis) modelida XX asr 1949-50 yillarda 2 ta islohot o'tkazilgan: 1) Pul (marka) islohati, bir kechada marka singan, kuygan, faqat banklarda ko'p miqdorda markasi borlarning 40 markasigina qoldirilgan. 2) Narx-navo islohotiga ko'ra “ochiq eshiklar” siyosati olib borilib, do'konlardagi narx-navo oshib ketgan. CHet el korxonalari bilan birga qo'shma korxonalar barpo etilib, xorijiy sarmoyalar iqtisodiyotga jalb qilingan. O'tish davrida AQSHning “Marshal shartnomasi”ga tayanib, G'arb davlatlariga ajratilgan 50 milliard dollardan qisman foydalanilgan. Erxard modeli o'zida AQSH, Angliya, SHvedtsiya kabi rivojlangan mamlakatlar taraqqiyot modellarining ijobiy tomonlarini o'zida umumlashtirgan. CHetga sanoat, nooziq ovqat mahsulotlarini eksport qilish 1950–1992 yillar davrida 27 foizdan 92 foizgacha chiqarilgan. SHu

davrda oziq-ovqat mahsulotlari aholi ehtiyojiga sarflanib, 75–80 foizdan 27 foizgacha kamaytirilgan. Bugungi kunda Germaniya aholisi 85 mln.ga yaqin. 1990 yilda SHarqiy Germaniya (GDR) unga qo'shildi, ikkita GFR va GDR o'rtasidagi devor olib tashlandi. 1992 yilga kelib, Germaniya Potstam konferentsiyasi (1945) shartlarini bajarib, sobiq SSSR va AQSHga katta miqdorda tovon to'ladi. 1994–95 yillarda 3 mingga yaqin yaxudiylarning har biriga ham 3,5 ming markadan tovon puli to'ladi.

5. Turk modeli aynan Erxard modelining andozasi bo'lib, nemislardan o'zlashtirilgan. Faqat bunda Turkiya mamlakatda yengil sanoat rivojlanishiga keng ehtibor berilgan. Pul va narx-navo islohotlari olib borilgan. Bugungi kunda Turkiya o'rta rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi.

6. “Xitoy modeli”da Xitoy islohotlarining “otasi” Den-Syaopin rahbarligida “Uch qadam” strategiyasi, bozor iqtisodiyotining milliy kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Bunga ko'ra:

1) Birinchi bosqich. 1982–1989-yillarda asosiy iqtisodiy ko'rsatkich, mamlakatning YaIM 2 marta o'stirish ko'zlandi.

2) Ikkinchi bosqich. 1990–1999 yillarda amalga oshirilib, 4 marta ko'paytirish belgilandi.

3) Uchinchi bosqich. 2000–2050 yillargacha belgilanib, aholi jon boshiga YaIM 4 ming dollarga yetkazish ko'zda tutildi.

Den Syaopin siyosat sohasida oqilona yo'l tutdi. U “moddiy inqilob” oqibatlarini tugatdi. U Xitoy Kompartiyasi dusturidan “3-jahon urushining muqarrarligi va zarurligi” qoidasini olib tashladi. Yadro qurolini birinchi bo'lib ishlatmaslik majmuriyatini oldi. U “Bir davlat va ikki siyosiy tuzum” dasturining asoschisi. Bir vaqtlar inglizlar bosib olgan Gonkongning Xitoyga qayta qo'shilishi muammosini yechib ketdi. 1997 yil 1 iyulida qo'shildi. Gonkong Buyuk Britaniyaning Osiyodagi mustamlakasi edi.

Xitoy davlati bozor iqtisodiyoti milliy kontseptsiyasiga ko'ra: 1) mamlakat iqtisodiyotining liberallashtirish; 2) xususiylashtirish jarayoni; 3) turli mulk shakllarining paydo bo'lishi; 4) xorijiy sarmoyalarning kirib kelishi yo'lga qo'yildi. Den Syaopin: «mamlakat iqtisodiyotini isloh etishdan ko'zlangan maqsad – sotsialistik bozor iqtisodiyoti tizimini shakllantirishdir» degan edi². Xitoy aholisi 1 300 mln. kishi.

7. “Janubiy Koreya modeli” 4 bosqichdan iborat bo'ldi.

1) 1946–1961 yillarda Amerika tusidagi davlatchilik shakllantirildi. AQSH harbiy kuchlari ushlab turilishi bu vazifani ancha yengillashtirdi.

2) 1962–1975 yillarda Koreys iqtisodiy mo'hjizasining otasi deb tan olingan Prezident Pak CHjon Xi nomi bilan bog'liq. Islohotning asosiy yo'nalishi chora va ehtiyojlarni qoplashga qaratilgan iqtisodiyotga emas, balki mahsulotni taklif qiladigan iqtisodiyotga qaratildi. Eksport oshdi....

3) 1976–1981 yillarda iqtisodiyot eksportga yo'naltirildi. Keyinchalik og'ir sanoat rivojlantirildi. 1980 yillarda sanoat ishlab chiqarishida kichik va o'rta biznes 20%dan oshmadi.

4) 1982–1991 yillarda iqtisodiyotni erkin qo'yish, uning ochiqqligi tahminlandi. Imtiyozli kreditlar berish bekor qilindi. Davlat faqat uzoq muddatga kredit berishni kafolatladi.

8. “O'zbek modeli” – qisman Erxard (nemis) modeliga o'xshab ketadi. Nemislarga o'xshab, mamlakatimizda 2 ta islohot o'tkazildi. 1) 1993–94 yillarda pul islohoti (kupon) joriy qilinib, milliy sum muomalaga kiritildi; 2) Narx-navo islohati 1991–2001 yillar va undan keyingi hozirgi davrgacha davom etmoqda.

Aslida XX asr 90-yillari boshida O'zbekiston oldida bir qator strategik rivojlanish yo'llari paydo bo'lgan edi. Ularni 4 yo'nalishga bo'lish mumkin: 1) xom ashyo; 2) agrar; 3) industrial; 4) xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha guruhlash joizdir.

1. Xom ashyo yo'lini tanlash tabiiy boyliklarning yanada talon-taroj qilinishi, aholini ish bilan ta'minlash muammosi, sanoatning undiruvchi tarmoqlariga zo'r berishga olib keldi. Sobiq Ittifoq ixtisoslashuvi bu yo'nalishni keltirib chiqargan edi.

² Umarov B. Globallashtirish ziddiyatlari. – T.: “Ma'naviyat”, 2006. – 52–58-b.


2. Agrar iqtisodiy taraqqiyot modeli agrarsanoat majmui (ASM) tarmoqlarini rivojlantirishni taqozo qilib, aholining asosiy qismini qishloq xo'jaligi bilan band qilishga olib kelardi.

3. Industiral iqtisodiy taraqqiyot modelining samaradorligi Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlari tajribasi bilan tasdiqlandi.

4. Taraqqiyotning xizmat ko'rsatish yo'nalishi ham O'zbekistonga qo'l kelishi mumkin edi. Bu yo'ldan borayotgan Yevropa mamlakatlaridan YaIMning 67–70% shu sohada yaratiladi. Bahzi mamlakatlarda bu YaIMning 25% ni hosil qiladi.

O'zbekiston yuqorida sanalgan global va milliy modellarning birontasidan voz kechmadi, ulardan foydalandi.

1-CHIZMA



O'zbek modeli tushunchasi, avvalo, O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo'lishi lozimligini asoslaydigan, uni muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng umumiy nazariy xulosalar va mo'ljallar bilan davlatning belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan amaliy siyosatining mushtarakligini anglatadi.

Biz qanday jamiyat barpo etmoqlamiz, degan masala Prezidentimizning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» (1997), «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» (2002), «Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» (2005) kabi asarlarida ayniqsa o'zining tugal va mukammal ifodasini topdi. Unda qurilajak yangi jamiyatning ilmiy-falsafiy kontseptsiyasi, jamiyat hayotini tubdan isloh etishning navbatdagi strategik vazifalari asoslab berilgan. Ana shu masalalarni bajarish milliy istiqlool g'oyasining pirovard maqsadlarini belgilaydi va bu maqsadlarga yetishga xizmat qiladi.

Bizning bosh strategik maqsadimiz - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Bozor iqtisodiyoti, eng avvalo, ko'pmulkchilikka va ular o'rtasidagi raqobatga tayanadi. Unda mulkning barcha qonuniy shakllari teng huquqqa ega bo'lib, bu huquq davlat tomonidan kafolatlanadi.

«O'zbek modeli»ni bugungi kunda demokratik jamiyat barpo etish muhim o'ziga xos modeli ekanini dunyoning juda ko'plab siyosatshunos yetakchi olimlari o'rganmoqda va uni tahlil qilmoqdalar. Masalan, rossiyalik tadqiqotchilar M.S.Gafarli, A.G.Kasaev, germaniyalik L.Levitin, Rossiya Fanlar Akademiyasining akademigi F.Burlatskiy uni yuksak baholashgan.

Mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqqan O'zbekiston uchun eng asosiy, bosh masala milliy davlatchilik poydevorini barpo etish, mustaqillikning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy


³ Qarang: Gafarli M.S., Kasaev A.G.. Rivojlanishning o'zbek modeli: tinchlik va barqarorlik – taraqqiyot asosi. T.: O'zbekiston, 2001. –430 b.

Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T.: O'zbekiston, 2000. 368-b.

Donald Karlayl O'zbekiston O'rta Osiyo, istiqboldagi o'tmish va hozirgi zamon va boshqalar.

asoslarini yaratish edi. Mazkur masalaga mustaqillikka erishgan barcha mamlakatlar turli davrlarda duch kelishgan va ular bu masalani turlicha hal etishgan. SHu sababli ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy taraqqiyotning «SHved modeli», «Amerika modeli», «Yapon modeli» kabi tushunchalar ishlatilmoqda. Mazkur tushunchalar zahirida muayyan mintaqa yoki mamlakatlar ijtimoiy taraqqiyotida siyosiy-iqtisodiy islohotlarni qaysi yo'l bilan, qay yo'sinda amalga oshirilishi bilan bir-biridan farqlanadi.

2-CHIZMA



Mamlakatimizda eski mahmuriy-buyruqbozlik tizimining ustunlari bo'lgan hokimiyat va boshqaruv organlari barham toptirildi. Jumladan, Sobiq Kommunistik partiyaning yakka hokimligiga chek qo'yildi. Joylardagi ijroiya hokimiyatining eski tizimi tugatildi.

2. Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asari hamda uning tarixiy ahamiyati

Bu asar Prezident Islom Karimov tomonidan 1992 yilda yozildi. Asarda O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos yo'li va demokratik jamiyat qurishning jahon taraqqiyoti tajribasi tahlil qilindi. Jahon taraqqiyotida: 1) Demokratiya va qonunchilik. 2) Mulkchilikning turli shakllari va unga munosabat. 3) Yuksak ma'naviyat va madaniyatning rivojlanishi. 4) Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, jahon hamjamiyatiga kirish masalalari ko'rsatib berilgan. Asarda Markaziy Osiyo respublikalari ijtimoiy tuzumini o'zgartirish uchun quydagi masalalarga ehtibor

qaratilgan. 1. Mahmuriy buyruqbozlik tizimidan demokratik, butun jamiyatning tuzilishiga o'tish. 2. Mulkchilikning begonalashuvi: rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish. 3. Totalitar, aqidaparastlik mafkurasidan hurfiylikka, ko'ppartiyaviylikka, umuminsoniy ma'naviyatga amal qilish. 4. Jahon hamjamiyatiga kirib borish. Umuman, bu asarda demokratik huquqiy davlat va O'zbekistonni 125 mamlakat (bugungi kunda esa 170 ga yaqin)tan olganligi, 40 dan ortiq davlat bilan diplomatik aloqalar o'rnatilganligi bayon etilgan. O'zbekiston BMTga 1992 yil 2 martda qabul qilinganligi ko'rsatilgan. Umuman, bu asar 5 qism, bo'limlarni o'zida ifoda etadi. Bular:

1. O'z yo'limizning shart-sharoiti va zaminlari.
2. O'zbekiston demokratik va itimoiy adolat jamiyati.
3. Milliy manfaatlar ustuvorligi va teng huquqli hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat.
4. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish – mustaqil O'zbekiston ichki siyosatining negizlari.
5. Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari.

Umuman, ana shu asar Prezidentimiz tomonidan yozilgandan so'ng O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning huquqiy asoslari va tamoyillarini qabul qilish bilan birga, unda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari har tomonlama asoslab berildi. SHu asar yozilgandan so'ng jamiyatimizda siyosiy hayotning barcha sohalari, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish jadallik bilan olib borilmoqda. Bizningcha, mazkur asarning tarixiy ahamiyati benihoya katta bo'lib, bu O'zbekiston fuqarolarining mustaqil taraqqiyot yo'lidani sobitqadamlik bilan rivojlanib borishining siyosiy va iqtisodiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Xalqimiz o'zining nimalarga qodir ekanligini isbotlamoqda. Haqiqatan ham Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi». Men bu asarning tarixiy ahamiyatini shu boisdan ham beqiyos deb bilaman.

Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston -- bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» asarining tarixiy ahamiyati. Mazkur asar 9 bo'limdan iborat, ushbu asar 1993 yilning avgust oyida yozilgan. Asar bozor munosabatlariga o'tishda o'xshashi bo'lmagan, betakror yaxlit andozalarni ishlab chiqish, o'zimizga xos yo'lni tanlab olish haqida batafsil mahlumot beradi. Asarning dastlabki qismida totalitar tuzum oqibatlari chuqur tahlil qilingan. SHundan kelib chiqib, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishda respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan, uning o'tmishi, hozirgi kuni va kelajakdagi taraqqiyotiga to'la-to'kis mos keladigan mutlaqo yangi andoza zarurligi talqin etilgan. Eng muhimi, bizning bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlat qurishdan boshqa yo'limiz yo'qligi aytiladi. Bu yo'l 3 tarkibiy qismdan iborat:


1. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti milliy andozasi mohiyatining tavsifi.
2. Qathiy markazlashtirilgan mahmuriy-buyruqbozlik tizimidan xo'jalik yuritishning bozor munosabatlariga asoslangan yo'liga o'tishning eng muhim printsiplari.
3. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning, tenglikdan chiqib ketishning, barqarorlik va muhim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning aniq yo'nalishlari.

Asardagi 9 ta muhim masalalar quyidagilardir:

1. O'tmishdan qolgan meros va iqtisodiy islohotlar zaruriyati.
2. O'z istiqbol va taraqqiyot yo'limizni belgilab beruvchi shart-sharoitlar mavjudligi.
3. Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish- demokratik va bozor o'zgarishlarining asosi (mul'chilik munosbatlari) ekanligi ko'rsatib o'tilgan.
4. Davlat-iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori va bosh islohotchisi.
5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish-iqtisodiy islohotlar yo'lining negizi.
6. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni huquqiy ta'minlash.
7. Kuchli ijtimoiy siyosat-iqtisodiy o'zgarishlar kafolati.
8. Tashqi iqtisodiy faoliyat-jahon iqtisodiyotiga yaqinlashuv yo'lida.
9. Iqtisodiy islohotning asosiy ustuvorliklari va yo'nalishlari.

Prezidentimizning ushbu asari ayni vaqtda yozilgan bo'lib, O'zbekistonning bozor islohotlari asosida rivojlantirishning o'ziga xos muhim qonuniyatlari ishlab chiqilganligi bilan ahamiyatlidir.

Taraqqiyotning “O‘zbek modeli”



4. Dunyoviy davlat qurishda «O‘zbek modeli»ning jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayot sohalarida namoyon bo’lishi

Dunyoviy va milliy davlatchilik tushunchalari. O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurishning asosiy vazifalari. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar jahon maydoniga chiqishda ular **dunyoviy davlat** qurish yo‘lidan borganligi bilan xarakterlanadi. Aslida **1) dunyoviy davlatchilik, 2) milliy davlatchilik va 3) islom davlatchiligi** tushunchalari mavjud bo‘lib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

1. Dunyoviy davlat tushunchasi, avvalo, demokratiyaning muhim umumjahon ehtirol etgan asosiy tamoyillariga asoslanadi. Bu tamoyillar:

1. Erkin va adolatli saylovlar.
2. Ochiq va hisobot beruvchi hukumat.
3. Inson huquqlarining ustuvorligi.
4. Hokimiyat organlarining saylanib qo'yilishi.
5. So'z, matbuot va vijdon erkinligining Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanishi.
6. Qonun ustuvorligi.
7. Fuqarolarning siyosiy va iqtisodiy huquqlari mavjudligi va tengligi.
8. Tayinlash yo'li bilan shakllangan davlat organlarining saylab qo'yiladigan organlari oldida hisob berib turishi.
9. Ko'ppartiyaviylik tizimining mavjudligi.
10. Umummilliy masalalarning hal etilishida referendumlarning o'tkazilishi.
11. Mulk shakllarining xilma-xilligi va ularning tengligini kafolatlovchi qonunlarning mavjudligi.
12. Siyosiy muholifatning ochiq faoliyat ko'rsatishi.
13. Jamiyatda xilma-xil fikrlarning, plyuralizmning mavjudligi va h.k.

Demak, dunyo mamlakatlari dunyoviy davlat qurishda 1)dan demokratiya va qonunchilikka rioya qilgan, 2) mulkchilikning xilma-xil shakllarini keng yo'lga qo'ygan, 3) ma'naviyat, madaniyatga ehtibor qaratgan, 4)dan dunyo hamjamiyati bilan aloqa bog'laganlar. Agar shu jihatlariga ehtibor beradigan bo'lsak, O'zbekiston dunyoviy davlat qurish yo'lidan bormoqda. Lekin bunda albatta Prezidentimiz belgilab bergan tamoyillar shundan dalolat beradiki, **Milliy davlatchilik** xususiyatlari bilan ham bevosita bog'liqdir.

2. Milliy davlatchilikda: 1)dan milliy xususiyatlarni hetiborga olish lozim. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda birinchi tamoyilga ko'ra o'zbek xalqining o'ziga xosligi, uning boy tarixiy anhanalari, davlat boshqaruvi, o'ziga xos fikrlash tarzi qadimgi davrlardan rivojlanib kelganligi, yahni mentalitetini hisobga olish lozim. 2) Albatta islom dini qadriyatlarini nazarda tutish kerak, bu o'tmish islom madaniyati bilan bog'liqdir. 3)dan O'zbekistondagi demografik vaziyatni, yahni aholi va bolalarning boshqa mintaqalarga nisbatan boshqacha ekanligi, bolaparvar inson ekanligi xususiyatlarini inobatga olish. 4)dan O'zbekistonning qulay geosiyosiy makonda joylashganligi, SHarq G'arbni bog'lovchi darvoza ekanligini hisobga olish. 5) dan O'zbekistonda 120 dan oshiq milliy etnik xalqlarning istiqomat qilishini hisobga olish. 6)dan O'zbekistonning o'ziga xos iqlimi, tabiiy sharoitlarini hisobga olish. 7) O'zbekiston yetarli salohiyatga ega bo'lgan jamiyat va davlat ekanligini hisobga olish.

3. Islom davlatchiligida din davlat siyosati darajasiga ko'tariladi. Bunga bir qancha arab va islom davlatlarini misol qilib keltirish mumkin.

Albatta O'zbekiston o'z milliy davlatchiligini rivojlantirib, dunyoviy davlat qurish yo'lidan borishda yuqorida aytilgan asosiy elementlarga ehtibor beribgina qolmay, o'z oldiga qo'ygan vazifalarni, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarida belgilab olish imkoniyati mavjud bo'ladi.

1. Prezident Islom Karimov «O'zbek modeli»ni 1992-93 yillarda o'zining «O'zbekistonning o'z ictiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'z yo'li» asarlarida ilmiy jihatdan asoslab berdi. Prezidentimiz har bir mamlakat o'ziga xos «o'tish davri»dan borib, islohotlarni amalga oshirishi mumkinligini aytgan edi. Bu modellar klassik (anhanaviy) asosda kechishi mumkin. Bunda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish bir necha yillar, hatto asrlarni o'z ichiga olgan.

Umuman «O'zbek modeli» bugungi kunda o'zini to'la oqlamoqda va bu model asosida iqtisodiyotda, siyosatda, ma'naviyatda katta muvaffaqiyatlarga erishilmoqda.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'li bo'lgan «O'zbek modeli» mamlakatimizning ijtimoiy taraqqiyot dasturi bo'lib, bu dastur ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlarning g'oyaviy-nazariy negizini tashkil etadi. Mazkur islohotlar mustaqillik yillarida bir nechta bosqichlarni

bosib o'tadi. Jumladan, islohotlarning dastlabki bosqichida eski mahmuriy-buyruqbozlik tizimi tugatildi va milliy davlatchilikning siyosiy-huquqiy poydevori barpo etildi. Keyingi bosqichda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning huquqiy asosi yaratildi, iqtisodiyotning barqarorlashuviga erishildi. Islohotlarning navbatdagi bosqichida davlatimiz rahbari I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli dasturiy asarida belgilab berilgan **olti ustuvor vazifalar** amalga oshirila boshlandi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish;
2. Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish;
3. Jamiyatimiz kelajagini belgilab beruvchi kadrlar siyosati;
4. Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi, aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish;
5. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash;
6. Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz dahlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlash;⁴

QISQACHA XULOSA

Jamiyatning siyosiy hayotini erkinlashtirish avvalo, aholining siyosiy faolligini kuchaytirishni, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni taqozo etadi.

Iqtisodiyot sohasini yanada erkinlashtirish vazifasi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy erkinliklarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqei va huquqlarini mustahkamlashni o'z ichiga qamrab oladi.

Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish masalasida o'z haq- huquqlarini taniydigan, mustaqil fikrlay oladigan, imyon-irodasi, ehtiqodi mustahkam, shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtiradigan, erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishni, mamlakatimizning kelajagini tahminlovchi yetuk mutaxassislar yetishtirishni taqozo etadi.

Aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning barcha bosqichlariga, «O'zbek modeli»ning mazmuni va mohiyatiga mos bo'lgan muhim bir mezon bo'lib kelmoqda.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash iqtisodiy islohotlarning mazkur bosqichiga xos bo'lib, bunda bozor infratuzilmasini rivojlantirish, eksportga moslashgan va import o'rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, moliya va bank tizimi faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlash mazkur bosqichdagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifa jahondagi globallashtirish sharoitida, turli mintaqalardagi vaziyatning keskinlashuvi O'zbekistonning suveriniteti va barqaror taraqqiyotiga xavf solishi mumkin bo'lgan tahdidlarga munosib javob qaytaradigan xavfsizlik tizimlarini yaratishni taqozo etadi. Mazkur bosqichda bunday tizim yaratildi.

O'zbekistonning o'ziga xos va o'ziga mos yo'li bo'lgan «O'zbek modeli» mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ijodiy rivojlantirilmoqda.

Umuman, «O'zbek modeli» O'zbekistonning o'ziga xos bo'lgan taraqqiyot yo'li bo'lib, bu yo'l mamlakatimizning tarixiy – milliy xususiyatlarini, geografik va demografik shart-

⁴ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O'zbekiston. 1999. 15-19 betlar.

sharoitlarni hisobga olgan, respublikaning bosh, strategik maqsadi sari yo'naltirilgan, islohotlarning har bir bosqichida ijodiy rivojlanib boruvchi dasturiyamaldir.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Demokratik jamiyat qurishda turli xil modellarni bayon eting
2. "O'zbek modeli"ning o'ziga xosligi nimalarda
3. Prezident Islom Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarining tarixiy ahamiyatini gapirib bering
4. "Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmag" kontsepsiyasining g'oyaviy mazmuni nimalarni anglatadi
5. Dunyoviy davlatning konstitutsiyaviy-huquqiy tahrifi va milliy davlatchilik tushunchalarini izohlab bering
6. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi jarayonida inson erkinligi, huquqlari va manfaatlarining ustuvorligi nimalarda namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2007. – 3–10-b.
2. Karimov I.A. Xalq farovonligi - faoliyatimiz mezoni. T.7. -T.: «O'zbekiston», 1999, 109-111, 113-121, 122-131-betlar.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz - kelajak yo'q. T.7. -T.: «O'zbekiston», 1999, 132-141, 142-154-betlar.
4. Karimov I.A. o'zgarish va yangilanish - hayot talabi. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000, 479-488-betlar.
5. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish - farovonlik poydevori. T.9. -T.: «O'zbekiston», 2001, 3-45-betlar.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. -T.: «O'zbekiston», 1997, 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: «O'zbekiston», 2000, 6-12, 14-15, 16-26, 28-38, 47-48-betlar.
8. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish - har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 285–312-b.
9. Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezoni bo'lsin. Surxondaryo viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. –313–337-b.
10. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoitini yaratish – asosiy vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2007. – 11-b.
11. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. –156–223-b.
12. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.14. – T.: O'zbekiston, 2006. – 61–97, 139–153, 248–265-b.
13. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 48 b.
14. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – faravon hayot garovidir. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2007. – 64 b.
15. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – T.15. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 3-11, 154-211-241-251-b.

16. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48 b.
17. Rahimov I., Zohidov A., Azizov SH., Ayupov A. va boshq. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. -T.: «Universitet», 2001. 232-bet.
18. Pugachev V.P., Solovg'ev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 202-255-betlar.
19. O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T.: «O'qituvchi», 2004, 3-44-betlar.
20. Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. T.: Toshkent Moliya instituti, 2004, 3-180-betlar.
21. SHarifxo'jaev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. – T.: SHarq, 2005. – 240 b.
22. Aliev B., Hoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot nashriyoti», 2005. – 160 b.
23. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: “SHarq”, 2006. – 528 b.
24. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar. – T.: “Ma'naviyat”, 2006. – 160 b.
25. To'xliiev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashr., 2006. – 280 b.
26. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 204 b.
27. Levitin L., Karlayl S. Islom Karimov - yangi O'zbekiston Prezidenti. -T.: «O'zbekiston», 1996, 40-46, 117-119-bet.
28. Odilqoriev X.T., Foyibnazarov SH.F. Siyosiy madaniyat. T.: O'zRIIV Akademiyasi, 2004, 138-158-betlar.

MAVZU. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT BARPO QURISHDA O'TISH DAVRI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

1. O'tish davri tushunchasi, uning mohiyati va umumiy qonuniyatlari

O'tish davri ijtimoiy-siyosiy fanlar mavzulari tizimidagi dolzarb masalalar qatorida turadi. CHunki, mamlakatlar o'zlarining yuksak taraqqiyot darajalariga ma'lum oraliq bosqichlarini bosib o'tmasdan erisha olmaydilar. Ana shu «oraliq» bosqichni o'rganish nafaqat nazariy, shuningdek amaliy ahamiyatga ham egadir. Ammo, u mustaqil mavzu sifatida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy adabiyotlarda ilmiy jihatdan juda kam o'rganilgan. Buning asosiy sababi, uning aniq «mezoni»ni va boshlanishi nuqtasi bilan «poyoni» (oxirgi muhlati) masalasini aniq belgilash murakkabligicha qolmoqda. Bundan tashqari bahzi olimlar, jamiyat taraqqiyoti to fuqaroviy jamiyat darajasiga ko'tarilguncha, faqat «o'tish davri»ni o'z boshidan kechiradilar, u uzluksiz jarayon, - deb hisoblasa, yana birlari «o'tish davri»ning muhlati va mohiyatidan ko'ra, undagi jarayonlarni o'rganish «muhimroq» - ekanligini ta'kidlaydilar. Xullas, O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tish davri ham mukammal o'rganishga ehtiyoj yetilib keldi. CHunki, uning boshlanishi va oxirgi «poyoni»ning mezonlarini aniqlamasdan turib, jamiyat hayotida sodir bo'ladigan yoxud sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jarayonlar haqida aniq kontseptual g'oyalarni ishlab chiqish ham mumkin emas. Bu jarayonlar nega turli mamlakatlarda turlicha sodir bo'ladiq Ularning muhlati nega har bir davlatda turli xil vaqtlarda davom etadiq O'tish davrida kuchlar nisbati qanday holatda bo'ladiq degan savollarga javobni faqat demokratik jarayonlar bilan hamohanglikda mustaqil mavzu sifatida o'rganish orqaligina javob berish mumkin bo'ladi. Bu jarayon barcha mamlakatlar uchun xosdir. CHunki jahonning eng taraqqiy etgan mamlakatlari ham uni o'z boshidan kechirmoqdalar.

SHu mahnoda uni o'rganish bugun «o'tish davri»ni o'z boshidan kechirayotgan O'zbekiston uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga egadir. Negaki, uni o'rganish biz qurayotgan jamiyatda sodir bo'ladigan jarayonlar darajalari to'g'risida aniq tasavvurlarga va unga yetib borish yo'llarini aniqlash imkonini beradi.

O'tish davri barcha davlatlarning yuksak taraqqiyotiga erishish uchun xos bo'lgan jarayonida sodir bo'ladigan o'ziga xos «oraliq» muhlat hisoblanadi.

U har qanday davlat uchun umumiy qonuniyatdir. CHunki davlatlar vujudga kelishi bilanoq, birdaniga yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi, balki har bir davlat eng avvalo, shakllanadi va ma'lum tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'z boshidan o'tkazadi. Ma'lumki, har bir davlatning vujudga kelish, rivojlanish va yuksak darajasiga ko'tarilish jarayonlari olimlar tomonidan o'rganilgan va bugungi kunda o'rganish davom etmoqda.

Aslida o'tish davri nazariyasi deganda nimani tushunmoq kerakq O'tish davri u haqidagi turli qarashlar tizimi hisoblanadi. Ular asosida umumlashgan nazariyalar shakllanadi. Qarashlar turli-tuman, hatto ular bir-biriga qarama-qarshi bo'lishi ham mumkin. Eng muhimi ularni tahlil qilish asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi. Xulosalarning ilmiyligi esa ularning moddiy kuchga aylanishida o'z ifodasini topadi. Ya'ni, o'tish davri haqidagi nazariy qarashlar real hayotda o'z ifodasini topsa, amaliyotda o'z samarasini bersagina, ilmiy xulosa darajasiga ko'tariladi. Ana shu mahnoda ham o'tish davri nazariyasi deganda, mamlakatlarning ma'lum bir ijtimoiy taraqqiyotdan ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'lgan oraliq bosqichlar natijasi haqida shakllangan qarashlar tizimi tushuniladi.

Berilayotgan bu tahrif o'tish davrining mohiyatini o'rganish asosida shakllangan qarashlar natijasi o'laroq, yuzaga keldi. O'tish davri haqida turli-tuman fikrlar bo'lishiga qaramasdan uni bir tizimga keltirish, umumlashtirish asosida shakllangan tahriflar bugungi kungacha deyarli uchramayotganligi sababli, «o'tish davri nazariyasi»ga yuqorida berilayotgan tahrifni boshqalari bilan taqqoslash imkoniyati ham cheklanganligini nazarda tutish lozim.

S.Abduxoliqovning fikricha, «ijtimoiy-taraqqiyot bir tamaddundan ikkinchi tamaddunga o'tish, birinchi namunadagi madaniy borliqdan ikkinchi namunadagi madaniy borliqqa o'sib o'tish tarzida yuz beradi».

Totalitar tizimdan demokratik jamiyatga o'tish qaysi sohada bo'lishiga qarab, uning mahno-mazmunini aniqlash mumkin bo'ladi. Demokratik taraqqiyot bosqichiga o'tish, uning muqarrarligini hisobga oladigan bo'lsak, uning zarurligini inkor etib bo'lmaydi. CHunki jamiyat ham inson kabi yuzaga kelganidanoq yuksak kamolot darajasiga ko'tarila olmaydi, balki ma'lum bosqichlarni bosib o'tishi zarur bo'ladi. Hamma masala ana shu bosqichlarning o'ziga xosligini, ularda mavjud bo'ladigan muammolar ko'lamini aniqlash va hal qilish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog'liq. Ammo, bu jo'n, oson ish emas. CHunki jamiyatning bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishi o'z ichiga keng ko'lamdagi vazifalarni hal etishni qamrab oladi. Ularni amalga oshirishda nafaqat **ob'ektiv**, ayni paytda **sub'ektiv omillarini** ham hisobga olish zarur. Ularning o'tish davridagi vazni o'zaro bog'liq holda kechadi. SHuning uchun ham o'tish davri haqida fikr yuritganda, gap faqat jamiyatning demokratik tamoyillar tizimiga o'tishi bilan cheklanmasdan, balki ungacha jamiyatlar bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishi uchun zarur bo'lgan **«oraliq»** ham nazarda tutilmoqda.

Albatta, masalaga bunday yondashuv vujudga kelishi, ular o'rtasidagi kurashlar va u yoki bu sinf hukmronligining o'rnatilishidan iborat bo'lgan formatsion yondashuvdan xoli bo'lib, u jamiyat taraqqiyotiga tsivilizatsion yondashuvni talab etadi. Ya'ni, **jamiyatning bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishi inson turmushida, uning tafakkurida, jamiyatning moddiy, siyosiy va ma'naviy-mahriy hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlar darajalarining markazini aniqlash va mezonlarini belgilash g'oyasi turadi.**

Bugun, umuman, davrga, shu jumladan o'tish davriga qarashlar tubdan o'zgardi, ular mazmunan zamonamizning o'ziga xos qadriyatlariga asoslangan. Professor I.Ergashev to'g'ri ta'kidlaganidek, «Bugun davrga qarash o'zining mazmuni va mohiyatiga ko'ra, anhanaviy yakka mafkuraviy qarashdan tubdan farq qiladi. Mustabid tuzumning yemirilishi bilan davrni

siyosiy lashgan, mafkuralashgan mazmuniga va harakteriga barham berildi»⁵. Demak, «o'tish davri»ni bir tomonlama emas, balki uni siyosiy, falsafiy, iqtisodiy va ma'naviy-mahrifiy sohalarni o'zida mujassamlashtirgan tushuncha sifatida qarash va shu yo'nalishda tahlil qilish to'g'ri bo'ladi.

Ana shunday qarashlarning majmuasigina o'tish davrining mohiyatini o'zida to'la ifodalaydi. Albatta, o'tish davri - nimadan nimaga yohud qaysi jamiyatdan yana qaysi biriga o'tilishi haqida gap borishi masalasi dunyo olimlari diqqatida turganligini ham ta'kidlash lozim bo'ladi. Ayniqsa, jamiyat taraqqiyoti bosqichlariga formatsion yondashuv (yuqorida ta'kidlanganidek) barham topgan bugungi kunda bu masalaga aniqlik kiritish maqsadida turli kontseptsialarni ilgari surishga ehtibor ham kuchaymoqda.


O'tish davri tushunchasi, uning mohiyati, umumiy qonuniyatlari va turli shakllari. «O'tish davri» mustaqil mavzu sifatida ilmiy adabiyotlarda kam o'rganilgan bo'lib, uzoq kechishi yoki qisqaligi bilan xarakterlanadi. Turli mamlakatlarda turlicha kechadi. Buning sababi mazkur mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy holatlari bilan bog'liqligidir. O'tish davri barcha davlatlar taraqqiyoti uchun umumiy qonuniyatdir. Chunki davlatlar vujudga kelishi bilanoq yuksak taraqqiyot darajasiga birdan ko'tarila olmaydi, avval shakllanadi, ma'lum bosqichlarni bosib o'tadi. O'tish davri-bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o'tish murakkab jarayon bo'lib, u ma'lum bir qonuniyatlar asosida yuz beradi. O'tish davriga munosabat masalasini germaniyalik olim Leonid Levitin shunday yozadi: «Odatda o'tish davri» islohiining so'zlarini aynan tushunib, uni o'tmish va kelajak oraliq'idagi bugun deb o'ylaydilar. «O'tish davrining paydo bo'lishida bunday qarashlarga ko'ra o'tmish- sabab, kelajak esa maqsad tarzida voqea bo'ladi». Demak, **birinchidan**, «o'tish davri» «oraliq» mahnosini anglatmaydi. Bu olimning yana bir fikricha, «Tabiiyki, o'tish davrlar turli xildagi tartibsiz jarayonlar, mavhumotli inkor sodir bo'lmoqda. Bu o'z navbatida ular hayotida ayrim holatlarda katta fojeali holatlarni keltirib chiqarishi mumkin». **Ikkinchidan**, feodalizm munosabatlari sharoitida yashayotgan mamlakatlarga «chetdan» demokratik jarayonlarni «eksport» qilib bo'lmaydi. **Uchinchidan**, «o'tish davri» ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzum emas, balki mamlakatlarning ularga o'tish uchun zarur bo'ladigan zaminlarni shakllantirishga ketadigan oraliq bosqich hisoblanadi. **To'rtinchidan**, «o'tish davri» qancha turli xil bo'lmasin bari-bir barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumlar uchun zarurdir.

Demokratik jamiyatga o'tish deganda mamlakatlarning turli tuzumlardan demokratik tamoyillar asosida rivojlanishi uchun vujudga keltiriladigan imkoniyatga ketadigan oraliq vaqt tushuniladi. «Oraliq» vaqtning boshlanishi poyoniga yetishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'tish davrida yangi davlatchilik paydo bo'lib, uning taraqqiyoti quldorlik, feodal, kapitalizm, sotsializm kabi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga o'tishi uchun ham zarur bo'ladi. O'tish davrining, ya'ni bir tuzumdan ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o'tishi qonuniyat bo'lishi bilan birga, **u turlicha ko'rinishlarga ega ham bo'ladi. Umumiylik, o'ziga xoslik, oraliq holatlari bilan belgilanadi.** Demak, o'tish davrida mamlakatni sunhiy ravishda jadallashtirmaslik kerak, kuch ishlatish, zo'ravonlik ketmaydi, siyosiy hokimiyatning to'la tahminlanganligi bilan emas, balki xalq farovonligi bilan belgilanadi. «O'tish davri»ning 3 ta asosiy «modeli» rivojlangan mamlakatlarda shakllangan: **1) Klassik o'tish davri (anhanaviy) yo'l.** **2) Inqilobiy yo'l (revolyutsiya orqali).** Bunga sobiq SSSRni misol keltirish mumkin. **3) Evolyutsion yoki bosqichma-bosqich yo'l hisoblanadi.**

Demak, agar biz hozirgi mustaqil **O'zbekistonimizga** qiyos qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda o'tish davrining murakkab kechayotganligining sabablarini, uning ma'lum bir qonuniyatlar asosida yuz berishi tabiiy holat deb bilamiz va biz ana shu **uchinchi evolyutsion, ya'ni bosqichma-bosqichlik yo'lini tanladik.**

⁵ Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. T.: Akademiya, 2000, 59-bet.

Demokratik jamiyatga o'tish



Jumladan, Amerikalik sotsiolog Deniel Bell o'tish davridan keyingi ijtimoiy taraqqiyotni quyidagi uch bosqichga bo'ladi:

1. **Agrar jamiyat.**
2. **Industrial jamiyat.**
3. **Industrial yoki axborotlashgan jamiyat.**

Uning jamiyatni klassifikatsiyalashtiruv (tizimlashtirish)i zaminida, jamiyatning ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlab chiqarishga samarali tahsir o'tkazishni belgilovchi xizmat ko'rsatish, maishiy hayot va turmush turadi, uning fikricha, **bugun dunyodagi ko'pgina mamlakatlar industrial jamiyatdan informatsion jamiyatga o'tish holatida**⁶. Bahzi bir Yevropalik olimlar industrial va postindustrial jamiyat bilan bir qatorda, «Yangi» jamiyat P. Draker, «Post zamonaviylashgan» jamiyat, jiflashtirib, undan keyin **yangi industriallashtirilgan jamiyat** Dj. Gelbrejt, undan keyin «rivojlangan» jamiyat va xokazo.

⁶ Qarang: Vopros filosofii. 3-son, 2001 yil, 6-b.

Umuman, ularning nazariyalarida insonning jamiyatdagi roli va o'zni, yana birlarida esa o'tish davrida demokratiyaga oid bilim va texnika taraqqiyoti tahsiri sodir bo'lgan o'zgarishlarni o'zida mujassamlashtirgan⁷.

Yuqoridagi ko'rsatilgan olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki:

birinchidan, jamiyat qanday nomlanishidan qathi nazar, o'z taraqqiyotida biridan ikkinchisiga o'tish bilan bog'liq bo'lgan jarayon asosida rivojlanadi;

ikkinchidan, bir taraqqiyot bosqichidan ikkinchisiga o'tishdagi asosiy ko'rsatgich moddiy omil emas, balki odamlarning turmush sharoitlaridagi bo'ladigan o'zgarish hisoblanadi.

O'tish davrini faqat moddiy omillar darajalari bilan bog'lash - uning mohiyatini to'liq ifodalamaydi. SHunga ko'ra, sodir bo'ladigan ijobiy yohud salbiy o'zgarishlarga tahsir o'tkazuvchi siyosiy omillarning rolini aniqlash masalasi ham muhimdir.

Jamiyatda bo'ladigan har qanday o'zgarishlar iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarining uzviyligi xolatida qaralgandagina, o'tish davrining mohiyatini tushunish mumkin bo'ladi: o'tish davri mamlakatlar taraqqiyotining bir ijtimoiy-iqtisodiy bosqichdan biri ikkinchisiga o'tishi umumiy qonuniyat bo'lishi bilan birga, ularning har birida o'tish jarayoni ham turlicha namoyon bo'ladi. Barchasiga xos bo'lgan asosiy umumiylik eskisining taraqqiyot ehtiyojlariga javob bera olmaganligi oqibatida, yangi bosqichga o'tish zaruriyatini keltirib chiqarishi bilan bog'liq. SHu mahnoda, o'tish davridagi bosh yo'nalish «orqaga qaytish» emas, balki «oldinga» yurish, pastdan yuqoriga ko'tarilish yoki oldingi darajaga qaraganda yuksalish, rivojlanish demakdir.

Eski tuzumni saqlab qolish yo'lidagi turli urinishlar, qon to'kishlar, xalq boshiga tushadigan turli fojialarga qaramasdan, ularning qaysi darajada sodir bo'lishidan qathi nazar, bari-bir o'tish davrining bosh yo'nalishi o'zgarmas bo'lib qolaveradi. SHu mahnoda Leonid Levitinning quyidagi fikriga qo'shilish mumkin. «**Postkommunistik o'tish davri** – o'tish davrining ko'rinishlaridan biridir, xolos. Insoniyat tarixida bunday davrlar ozmuncha yuz bermagan. Ular o'zaro bir-biridan qanchalar salmoqli tafovutlar bilan farq qilmasin, biroq asosiy mahnolari bitta – jamiyatni uning iqtisodini, siyosatini, uning madaniyatini zamonaviylashtirish»⁸ – deb yozadi. Ammo, ana shu «Zamonaviylashtirish»ni qaysi o'lchov mezonidan kelib chiqmoq kerak, - degan savolga javob topish zarur bo'ladi. Zero, «zamon» o'zgaruvchan, shiddat bilan oldinga intiluvchi jarayon xolos. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, o'tish davrining tamom bo'lish mezonlari mavjudmi yoki «zamon» kabi to'xtovsiz jarayon hisoblanadimi - degan savollar yuzaga kelaveradi.

Aslida, yuqorida bizning unga bergan tahrifimizda uni davlat taraqqiyotining bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'ladigan alohida bosqich ekanligi haqidagi kontseptual g'oyamizga muvofiq o'tish davri shu mahnoda ham alohida bosqichdir. Albatta, u ma'lum muhlatdan keyin o'z poyoniga yetadi va jamiyat ilgarigiga qaraganda yangi taraqqiyot bosqichida yashay boshlaydi.

Biz ana shunday jarayonni aniq tasavvur qilishimiz va tushunishimiz zarur bo'ladi. Aks holda, insoniyat o'z boshidan o'tish davrini o'tkazish bilan yashaydi va bu oxiri yo'q bo'lgan jarayon, degan noto'g'ri xulosa kelib chiqadi.

Mustaqillik tufayli O'zbekistonning totalitarizmdan asta-sekin demokratik jamiyat tomon o'tishining o'ziga xos xususiyatlari ham bundan istisno emas, albatta. Ammo, jamiyat erishgan yutuqlar asosida taraqqiy qilish jarayonining imkoniyatlarining tugashi, uning o'sib kelayotgan ehtiyojlarni qondirishga qurbi yetmay qolishi, jamiyatni yangi pog'onaga ko'tarish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Demak, **birinchidan**, o'tish davrini jamiyat o'zi erishgan imkoniyatlar asosida rivojlanishning tugashi, o'sib kelayotgan ehtiyojlarning qondirilmay qolishdan boshlab, undan yuqori bo'lgan imkoniyatlarni yuzaga kelishigacha bo'lgan muhlat bilan belgilash mumkin.

Ikkinchidan, bir ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzumdan ikkinchisiga «o'tish davri» yoki aniqrog'i, «oraliq» bosqichining muhlati ana shu yangi yuzaga kelgan taraqqiy qilish jarayoni namoyon bo'lishi bilan tugaydi.

⁷ O'sha joyda. 8-son, 2001 y., 14-bet.

⁸ Qarang: Vopros filosofii. 3-son, 2001 y., 53-bet.

Uchinidan, insoniyat faqat «o'tish davri» bilan yashamaydi, balki uning boshlanishi bo'lganidek poyoni ham mavjuddir. Xuddi ana shu «poyoni» taraqqiyot darajalarini yoki tuzumlarning birini ikkinchisi bilan farqlash imkonini beradi.

«O'tish davri» haqida fikr yuritganimizda shuni alohida ta'kidlash lozimki, fuqarolik jamiyatigacha bo'lgan barcha tuzumlarning insonlar manfaatlari va ehtiyojlarini to'la qondira olmasligi bois, ularning birinchisidan ikkinchisiga ob'ektiv ravishda o'tishi uchun ehtiyojni yuzaga keltirib turadi. Bu o'z navbatida yangi tuzumga o'tish davrini boshlab beradi.

Ammo, demokratik tamoyillar asosiga qurilgan yangi jamiyatga o'tish bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi. Ular quyidagilardir:

Birinchidan, ayrim mamlakatlarda demokratik jarayonlar yangi tuzumning ichida shakllanadi va bu uning xalq uchun farovon hayotni ta'minlash yo'lidagi faoliyatida namoyon bo'ldi. To'g'ri, bu jarayon ham silliq amalga oshmaydi, balki o'ta murakkab kechadi, juda katta talafotlarni ham o'z boshidan kechirishi mumkin. Xuddi ana shu murakkab muammolarni hal qilishda to'g'ri yo'lni tanlashdagi, ya'ni jamiyat taraqqiyotini xalq manfaatlariga qaratilganligi insonning to'la mahnodagi huquqlari va erkinliklarini tahminlovchi jamiyatga aylanishiga olib keladi.

Ikkinchidan, o'tish davri yuksak darajadagi moddiy imkoniyatlarning yuzaga kelishi bilan tugamaydi, balki ularning xalq farovonligini ta'minlashga qaysi darajada qaratilganligi va insonlar erkinliklarining tahminlanganligi bilan bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanadi. Ular nafaqat mamlakatlarning jug'rofiy omiliga bog'liq, balki ana shu davlatda yashayotgan aholining siyosiy madaniyati va mentalitetiga hamohang bo'lishiga ham bog'liqdir. Bularning xammasi tarixiy taraqqiyot bosqichlarida shakllanib va rivojlanib kelgan tajribalardir.

Ayni paytda bugungi kungacha, o'tish davrining mustaqil fundamental nazariyasi ishlab chiqilmagan. Buning oqibatida mamlakatlarning ma'lum tarixiy bosqichni bosib o'tmasdan, uni «chetlab» demokratik jamiyatga o'tishga bo'lgan xatti-harakatlari sodir bo'lmoqda. Bu o'z navbatida ular hayotida ayrim holatlarda katta fojialarni keltirib chiqarmoqda. SHuningdek, ayrim mamlakatlarga «chetdan» demokratik jarayonlarni «eksport» qilib bo'lmaydi. Bunday urinishlar mamlakatlarda beqarorlikka, uni taraqqiyotdan orqaga ketishiga olib kelishi mumkin. Bunday mamlakatlarga demokratiyani «eksport» qilishdan ko'ra, uning shakllanishi uchun shart-sharoit yuzaga kelishiga imkoniyat yaratilishi lozim bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, «o'tish davri» ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy tuzum emas, balki mamlakatlarning ularga o'tishi uchun zarur bo'ladigan zaminlarni shakllantirishga ketadigan tarixiy oraliq bosqich hisoblanadi. Uning boshlanishi mamlakatlarda bo'ladigan, eng avvalo, siyosiy o'zgarishlar va uning zaminida esa iqtisodiy, ijtimoiy hamda ma'naviy sohalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgandagina yangi vujudga kelgan jamiyatning o'z imkoniyatlari to'la yuzaga chiqadi. Uning o'ziga xos xususiyati va alohidaligi haqida Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, **«O'tish davri muammolarining yig'indisi va xususiyatlari bir vaqtning o'zida qator g'oyat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etishni taqozo qiladi»¹**. «O'tish davri» qanchalik turli-tuman bo'lmasin, bari bir barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumlar uchun zarurdir. CHunki u har bir vujudga keladigan yangi jamiyat uchun zamin tayyorlash imkoniyati hisoblanadi. Bu zamin na faqat iqtisodiy, shuning bilan birga jamiyat ahzolarining o'zlarini ham yangi jamiyatga «moslashtirish» zarur bo'ladi.

Buni o'tish davrining bir nechta modellari tajribasini tahlil etish zaruratini vujudga keltiradi.

O'tish davri «model»ining o'ziga xos xususiyatlari. O'tish davri tushunchasi, uning mohiyati va zarurligining umumiy nazariya masalalari turli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy fanlarda insoniyat taraqqiyoti bosqichlarida demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatadigan jamiyatga o'tishning turli «model»larining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi.

Ma'lumki, **totalitarizmga** asoslangan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy bosqichlarning demokratik jamiyatga o'tishi o'ta murakkab jarayon hisoblanadi. Uning murakkabligi shundaki,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1999, 74-bet.

ungacha sodir bo'lgan taraqqiyot bosqichlari ob'ektiv ehtiyoj sifatida birining ichida ikkinchisi shakllanib kelgan, davlat va uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari shaklan o'zgargan bo'lsa ham, mazmunan u bari bir ommani itoatda ushlab turishga, uning ustidan hukmronlik qilishga qaratilganligi qolavergan. Ulardagi yana bir xususiyat - **omma davlat uchun**, degan tamoyilning amal qilganligi bilan ham xarakterlanadi.

Demokratik jamiyatda esa, eng avvalo siyosiy tuzum tubdan o'zgarib, xalqning hokimiyati bevosita yoki bilvosita ishtirokida boshqaruvi amalga oshadi va omma davlat uchun emas, aksincha davlat omma uchun, degan tamoyilning ustuvorligi asosida davlat boshqaruvi amalga oshadi.

SHu mahnoda ham demokratik jamiyatga o'tish jarayoni davlatlarning barcha sohalarida tub o'zgarish ishlarining amalga oshirilishi natijasi sifatida sodir bo'ladi.

Demokratik jamiyatga o'tishda **siyosiy sohada**, davlatning amaldagi mexanizmlari tugatiladi. Uning o'rniga qurilayotgan jamiyat manfaatlariga javob beraoladigan mexanizmlari shakllantirilib boriladi. Iqtisodiy sohada esa, bozor munosabatlari qaror topadi. Taraqqiyotda ommaning o'z moddiy manfaatdorligini erkin qondira olishi asosida umumiy iqtisodiy rivojlanish sodir bo'ladi. Ma'naviy-mahriy sohada, inson omili, uning qadr-qimmati yuksak qadriyat darajasiga ko'tariladi. SHunday jarayonlar tufayli jamiyatning yuksak intellektual kuch asosida rivojlanishi realikka aylanadi.

SHuning uchun ham bugungi kunda dunyo mamlakatlarining demokratik jamiyatga o'z ideali sifatida qaramoqda. Uni vujudga keltirish uchun faollik ko'rsatmoqda. Ammo demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlar uchun yagona bo'lgan aniq andozalari, yana ham aniqrog'i «model»lari yo'q va u bo'lishi ham mumkin emas. CHunki har bir mamlakat na faqat o'zining tuzilishi, iqtisodiy taraqqiyot darajalari, imkoniyatlari, intellektual imkoniyatlaridan biri ikkinchisidan farqlanadi, balki o'z xalqining mentaliteti, turmush tarzi, urf-odatlar va qadriyatlari bilan ham bir-biridan ajralib turadi. Ularni hech qachon bir qolipga solib bo'lmaydi. Unga harakat qilish nafaqat hech qanday samara beribgina qolmasdan, balki og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkinligini tarixiy tajriba tasdiqlagan. SHuning bilan birga **demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlari ham mavjud. Jumladan: 1) siyosiy tizimni isloh qilish, 2) bozor munosabatlarini shakllantirish, 3) insonning o'z ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish, 4) jamiyat taraqqiyotida yuksak intellektual salohiyat ustuvorligini ta'minlash** va boshqa bir qator qonuniyatlar barcha demokratik jamiyat qurishga intilayotgan mamlakatlar uchun umumiy hisoblanadi. Ammo umumiy qonuniyatlar barcha mamlakatlarning o'ziga xosligini hisob olgan holda demokratik jamiyatga o'tishni inkor etmaydi. Aksincha, o'tish davrida mavjud bo'ladigan muammolarning mahno-mazmunini teran anglagan holda, ularni sobitqadamlik bilan hal qilish imkonini beradi.

2007 yilga kelib, o'tgan mustaqillikning 16 yili davomida demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonlari va bozor islohotlarini chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, ya'ni o'tish davri mamlakatimizda

2 muhim bosqichni o'z ichiga oladi:

1. O'tish davrining birinchi bosqichi 1991-2000 yillarni o'z ichiga olib, asosan milliy davlatchilik asoslari shakllantirildi. Bu dastlabki bosqich tom mahnoda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan davr bo'lib, tub islohotlar va o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

2. O'tish davrining ikkinchi bosqichi 2001–2007 yillarni o'z ichiga olib, bu bosqichda faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo'lib, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarini izchil isloh qilishni ta'minlashda g'oyat muhim rolg' o'ynagan davr bo'ldi⁹.

⁹ Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. "Xalq so'zi", 2007 yil 31 avgust.

2. O'tish davrining «klassik», «inqilobiy», «evolyutsion», «SHok terapiyasi» va islohot yo'llari

Bugungacha demokratik tamoyillar asosida rivojlanayotgan mamlakatlarning o'tish davri tajribalariga asoslanib, o'tishning uchta asosiy yo'li yoki «model»i shakllanganligini ta'kidlash mumkin.

1. Uning birinchisi - klassik (anhanaviy) yo'l hisoblanadi. «Klassik yo'l» – deganda, **insoniyatning demokratik taraqqiyot yo'liga o'tishning dastlabki shakli va uning dunyodagi ko'pchilik mamlakatlar taraqqiyotida samara berganligi asosidagi andozasi tushuniladi.** Bu yo'lning xarakterli xususiyati shundaki, unda tashqi kuchlarning aralashuvisiz, mamlakatning o'z ichki imkoniyatlariga tayangan xolda demokratik jamiyatga o'tishi amalga oshadi. Bu yo'lning yana bir asosiy xususiyati shundaki, u uzoq tarixiy bosqichda amalga oshadi. O'tish davrida siyosiy sohada qancha burhonlar sodir bo'lishiga qaramasdan asosiy o'tishning islohotlari iqtisodiy sohada amalga oshirila boshlanadi. Bu sohadagi muhim tadbir xususiy mulkchilikni qaror toptirish hisoblanadi. Xuddi ana shu tadbirning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, mamlakat hayotining boshqa sohalarini, xususan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy madaniy sohalarida ham islohotlarning amalga oshirilishi imkonini beradi.

O'tish davrining klassik yo'lidagi bunday jarayonning xarakterli tomoni shundaki, iqtisodiy sohada xususiy mulkchilikning rivojlanishidan aholining aksariyat ko'pchilik qismining ish bilan ta'minlashi imkoniyatini beradi. Ammo asosiy moddiy boylikning bir qism odamlarda to'planib qolishi, boshqalarning esa unga qaram bo'lib qolishlari mamlakat ichki hayotida katta bo'hronlar, hatto fuqarolar urushlarini keltirib chiqarishi mumkin. Bu jarayon mulk egalariining aholi farovonligini ta'minlash tomon qiladigan harakatlari o'zining samarasini bera boshlaganicha davom etadi. Xuddi ana shu jarayonlar zaminida aholining siyosiy ongi ham o'sib boradi. Ularning o'z huquqlarining tahminlanishiga erishishga intilishi kuchayadi. Bu o'z navbatida mamlakat siyosiy hayotida demokratik jarayonlarning yuzaga kelishi va uning o'sib borishiga o'z tahsirini o'tkazadi.

O'tish davri klassik yo'lning boshlanishi kapitalistik munosabatlarning yuqori bosqichi, uning iqtisodiyotda islohotlar o'tkazmasdan taraqqiy qilishiga imkoniyat yetmay qolishi oqibatida yuzaga keladi.

Bu yo'lning **klassik (anhanaviy) yo'l deyilishiga sabab shuki**, mamlakatlarning demokratik jamiyatga o'tishi dastlab xuddi ana shu ko'rinishda namoyon bo'lgan edi. Bugun yuksak taraqqiyotga erishgan AQSH, Angliya, Kanada, Braziliya va boshqa Yevropadagi ko'plab mamlakatlarning aksariyati ana shu yo'ldan borganlar. Klassik yo'l muammolarning ko'pligi, ularni hal qilishning murakkabligi, aholining bu jarayonga «ko'nikib» borishi kabi masalalar bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham, Yevropa mamlakatlarida bu jarayon **ikki, ikki yarim asrgacha** davom etdi. Ana shu muhlat ichida mamlakatlarda iqtisodiy sohadagi yutuqlarning zaminida demokratik qadriyatlari ham shakllanadi va ularda bugun fuqarolik jamiyatini takomillashtirish jarayonlari davom etmoqda.

2. Demokratik jamiyatga o'tishning ikkinchisi - inqilobiy yo'l hisoblanadi. Uning xarakterli xususiyati shundaki, davlatlarda vujudga keltirilgan katta iqtisodiy salohiyat aksariyat ko'pchilik aholining turmush tarzi nisbatan yuqori bo'lganligiga asoslanib, dastlab mamlakat siyosiy hayotida keskin o'zgarishlar amalga oshiriladi. Ya'ni, amaldagi hokimiyat shakli barbod bo'ladi va uning o'rniga yangi, demokratik jarayonlarni rivojlantirishga moyil bo'lgan hokimiyat shakli va uning infratuzilmasi vujudga keladi. Ular o'z navbatida iqtisodiy hayotda keskin islohotlar o'tkazadilar. Xususan, amaldagi milliy valyuta bekor qilinadi (sindiriladi). Bu esa iqtisodiy islohotlarni o'tkazish shart-sharoitlarining imkoniyatlarini izlashni taqozo qiladi. Buning oqibatida aholining qo'lidagi pul, mablag'lar ham o'z qiymatini yo'qotadi va mamlakat siyosiy hayotida bo'lgani kabi, iqtisodiy hayotda ham demokratik jarayonlarning rivojlanishi sodir bo'ladi. Bu yo'l o'ta xavflidir.

Inqilobiy yo'l uchun zarur bo'lgan asosiy omillar qatorida:

a) sobiq tuzum sharoitida xususiy mulk kurtaklarining saqlanib qolganligi;

b) demokratik qadriyat kurtaklarining mavjudligi;

v) mamlakat hayotini demokratik tamoyillar asosida qayta qurishga qodir bo'lgan intellektual salohiyatning yetarli bo'lishi;

g) aholining ma'lum bir qismi ana shu demokratik jarayonga hech bo'lmaganda «moyil» bo'lishi kabi jihatlar hal qiluvchi omildir. Ularning har biri inqilobiy yo'l uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, intellektualning rolini olib ko'raylik. Ular mamlakat hayotida bo'ladigan har bir o'zgarishni yuzaga keltiruvchi asosiy qudrat hisoblanadi. Xalq hokimiyatdan ko'ra, ularga ko'proq ishonadi va ergashadi. SHu mahnoda ham ular ommani uyushtiradi va demokratik jarayonlarga yo'naltiradi. SHuning bilan birga intellektualning o'zi ham demokratik jarayonlarning murakkab muammolarini hal qilishda bardosh bera oladigan, uyushgan kuch darajasiga ko'tarilgan bo'lishi lozim.

Intellektualning xarakterli xususiyati shundaki, u boshqa ijtimoiy tabaqalardan ko'ra, jamiyat hayotida yuzaga keladigan jarayonlarni oldindan bilishga intiladi va bu o'zgarishlarning boshida tura oladi. Yoki aholi ma'lum bir qismining mamlakatning o'tish davridagi murakkab sharoitlarga (moyil) bo'lishi zarurligi omili ham demokratik jamiyat uchun alohida ahamiyatga egadir. Bu jarayonda aholi murakkab muammolarni hal qilishda faqat kuzatuvchi bo'lib, ularni hal qilishda faol ishtirok qilmas ekan, inqilobiy yo'l hech qanday samara bermaydi. Aksincha, inqilobiy yo'l mamlakatni taraqqiyotdan orqada qolib ketishiga olib keladi. Intellektuallarning ana shu keskin o'zgarishlardagi yakdilligi uyushgan tashkilotlari va harakatlantiruvchi kuchlariga aylanishini taqozo etadi.

Jamiyatni demokratlashtirishda ana shu omillarga yetarli ehtibor qilinmasa, inqilobiy yo'l ham o'zining samarasini bermaydi. Bu yo'ldan Kuba, Vetnam, Kompuchiya, Laos, CHexoslovakiya, Xitoy, Polg'sha, Vengriya, Germaniya Demokratik Respublikasi, Bolgariya va Rossiya kabi mamlakatlari borganlar. Demokratiyaga o'tishning bu yo'li SHarqqa to'g'ri kelmaydi. Biroq, inqilobiy yo'l bilan o'tish uchun zarurati qaysidir darajada mavjud bo'lib qolmoqda. Inqilobiy yo'l demokratik jamiyat siyosiy hayotida keskin burilish sodir etadi. Mamlakatlar siyosiy tizimida boshqaruvning mohiyatan butunlay yangi shakli vujudga keladi. Iqtisodiyotda davlat mulkini xususiyashtirishda, ma'naviy-mahrifiy sohada eski mafkuradan voz kechishning keskin amalga oshirilishi bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Ammo, ular o'zaro ichki kurashlarning avj olishi, bahzi mamlakatlarda qon to'kilishining sodir bo'lishigacha bo'lgan og'ir jarayonlar shaklida amalga oshdi. Bu yo'l qanchalik murakkab, mamlakat hayotida juda katta bo'hronlarga olib kelishini hisobga oladigan bo'lsak, uni har mamlakat o'z xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holdagina amalga oshirishi mumkin.

3. Demokratik jamiyatga o'tishning uchinchi - evolyutsion yoki bosqichma-bosqich yo'l hisoblanadi. Uning xarakterli xususiyati shundaki, mamlakatda amaldagi siyosiy hokimiyat tugatilib, uning o'rniga yangi hokimiyat vujudga kelishi bilan, eskini keskin, bir «zarb» bilan tugatmasdan, bosqichma-bosqich, vazminlik bilan tugatilib boriladi. Hatto, ularning ayrim imkoniyatlaridan ham foydalanib boriladi. Xuddi ana shu jarayonda iqtisodiy islohotlarni olib borishda va bu yo'nalishda yangi munosabatlar shakllantiriladi. Bu yo'lning o'ziga xosligi siyosiy va iqtisodiy hayotda o'tkazilayotgan islohotlar bilan hamohang ravishda ma'naviy-mahrifiy sohalarni ham yangi ehtiyojlar asosida rivojlantirilib borilishidir.

Demokratik jamiyatga o'tish yo'llarining shakllari

Klassik (an'anaviy)	Inqilobiy	Evolyutsion
O'tish jarayoni asosan iqtisodiyot sohasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ladi. Uning zaminida uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichi davomida ijtimoiy-siyosiy, mahnaviy-mahrifiy soxalarda islohatlar amalga oshadi. (Bu yo'ldan AQSH, Angliya, Frantsiya, Italiya va boshqa mamlakatlar) Germaniya va Yaponiyaning o'tish davri II jaxon urushi bilan bog'liq xususiyatlari mavjud.	Aksariyat ko'pchilik axo- lining turmush daraja- si minimal darajada tahminlanganligi, xu-susiy mulk elementla-rini saqlanib qolishi demokratik tamoyillar elementi mavjudligi, intellektual salohiyat- ning mavjudligi, sano-atning rivojlangan- ligi, axolining murakkab o'tish jarayoniga moyilligi va unda faol ishtirok qilishi va x.k. asosida avval siyosiy xokimiyat bir "zarb" bilan tubdan o'zgaradi. Va uning zaminida iqtisodiy, mahnaviy-mahrifiy soxalardda islohatlar amalga oshadi.	Siyosiy xokimiyat o'zgaradi, ammo uning bir qator imkoniyatlaridan (asosan boshqaruvda) vaqtinchalik foydalaniladi, iqtisodiy ma'naviy-mahrifiy soxalarda o'zgarishlar bosqichma-bosqich amalga oshadi. (O'zbekiston MDX va x.k.)

Xo'sh nima uchun asta-sekin, bosqichma-bosqich o'tish zaruriyati tug'iladi? Agar asta-sekin o'tiladigan bo'lsa, uning klassik yo'ldan farqli tomoni nimadaq? Unda ham asta-sekinlik bilan demokratik jamiyatga o'tilgan-kuq. Albatta, evolyutsion yo'lning klassik (anhanaviy) yo'ldan farqli tomonlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, klassik yo'lda demokratik qadriyatlar mavjud jamiyat ichida yuzaga keladi. Bunda faoliyat ko'rsatayotgan tuzumning taraqqiy qilishi, mulk egalariining oddiy xalqning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilib boriladi. Uning o'ziga xos xususiyati, har ikki tomonning ham manfaatdorligidadir. Bunday sharoitda demokratik qadriyatlar taraqqiyotning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarining «mahrifatlashib», xalq farovonligini ta'minlash omili bo'lib qoladi. Hozirgi davrda ko'pchilik mamlakatlar evolyutsion yo'l totalitarizm yoki diktaturalar xukmronligini barbod etilishining birdan-bir to'g'ri yo'l ekanligini tasdiqlamoqda. Ayniqsa, o'rtacha rivojlangan mamlakatlarning demokratiyaga o'tishi uchun xos bo'lgan bu yo'l mamlakatlar hayotida keskin o'zgarishlarni amalga oshirishning imkoniyatlari bo'lmaganligi bilan ham bog'liqdir.

Ikkinchidan, klassik o'tish yo'lida aholining dunyoqarashi o'zgarib borishini taqozo qilgan bo'lsa, totalitarizm – ommaning ongini to'laligicha o'z manfaatlariga bo'ysundirgan jamiyat bo'lganligi uchun ham uni bir «zarb» bilan demokratiyaga «moslashtirish» nihoyatda murakkab edi. Chunki ongni o'zgartirish qisqa vaqtda amalga oshadigan jarayon emas, u jamiyat hayotida bo'ladigan o'zgarishlarga mos ravishda sodir bo'ladi.

Ayniqsa, bu jarayon sanoat ishlab chiqarishi kam taraqqiy qilgan agrar sektor yetakchilik qiladigan mamlakatlarda asta-sekinlik bilan amalga oshishi ham umumqonuniyatdir. CHunki bunday mamlakatlarda aholining siyosiy madaniyati keskin o'zgartirishlar ehtiyojlaridan orqada qolgan bo'ladi.

Uchinchidan, klassik o'tish uchun xos bo'lgan kapitalistik munosabatlar sharoitida demokratiyaga o'tishda eski tuzum xavf tug'dirmaydi, balki u o'rnini rivojlanayotgan yangi demokratik munosabatlarga «bo'shatib» bera boshlaydi.

Totalitarizm esa yangi demokratik jarayonlar uchun xavf tug'diradi. CHunki uning hukmronligi davrida shakllangan, nihoyatda kuchga tayangan munosabatlar va ma'naviy-mahriy salohiyat demokratik jarayonlar rivojlanishi uchun qarshilik ko'rsatib turadi. Buni albatta hisobga olmaslik mumkin emas.

SHuning bilan bir qatorda mamlakatning taraqqiyot darajalari, xalqning mentaliteti, urf-odatlar va qadriyatlarini hisobga olish evolyutsion yo'lining katta imkoniyatlari bo'lib, bu o'tish davrida nisbatan kam talofatlar sodir bo'lishiga sabab bo'ladi.

SHuning uchun ham ko'pgina olimlar bugungi kunda evolyutsion yo'lni o'tish davri uchun eng maqbul yo'l sifatida tan olmoqdalar. Jumladan, Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi A.N.Yakovlev shunday yozadi: «... inqilob bu - boshi berk ko'cha, yo'lini yo'qotish demakdir. O'zaro janjal va to'polonlar sharoitida ham quyidan, ham yuqoridan boshlanadigan jinoyatlar avj oladi. SHu tariqa lyupenlar jinoyati hokimiyat jinoyati bilan bir-biriga aralashib ketadi. Inqilob davrida shafqatsizlik misli ko'rilmagan darajaga yetadi. U olg'a rivojlanish haqidagi nazariyalarni yaratadi-yu, oxir oqibatda o'zi ana shu harakat yo'lida to'g'anoq bo'ladi. Faqat tabiiy, tadrijiy yo'l insonga qoniqish tuyg'usini, jamiyatga esa o'z taraqqiyotini izchil puxta o'ylangan, rejali tarzda amalga oshirish imkonini beradi».¹

Evolutsion yo'lning yana bir afzalligi shundaki, bugun insoniyat juda katta intellektual kamolot darajasiga ko'tarildi. SHuning bilan birga, uning ehtiyojlari ham unga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Ana shu ikki jarayonni uyg'un holatda rivojlantirish imkoniyatini faqat evolyutsion yo'ldan borish bilan hal qilish mumkin bo'ladi. Bugun xuddi ana shu yo'l fojealarga olib keluvchi qarama-qarshiliklarning oldini olishga va taraqqiyotga murosa-yu, madora yo'l bilan erishish imkonini bermoqda. Bu yo'l bugun o'z mustaqilligini qo'lga kiritib endi taraqqiyot yo'lga kirayotgan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun ham samarali bo'lgan yo'l hisoblanadi. Ular hozir taraqqiyotning qaysi bosqichlarida bo'lishlariga qaramasdan, demokratik taraqqiyot bosqichiga ham tabiiy-tadrijiy yo'ldan borishlari pirovard bosh maqsadga erishish demakdir.

Ammo, ularning ichki hayotiga aralashuv, demokratiyani tashqaridan bir «zarb» bilan kiritishga har qanday urinishlar kutilgan natija bermaydi. Bunday holat faqat mamlakatda ichki va tashqi ziddiyatlarning kuchayishiga, demokratiyaning bunyodkorlik kuchiga emas, uni taraqqiyotdan orqaga uloqtirib tashlovchi vayronkor kuch sifatida namoyon bo'lishiga olib keladi. Bunday sharoitda mamlakatda fuqarolar urishi kelib chiqish xavfi yuzaga keladi. Bu esa o'z navbatida mamlakatlararo, millatlararo qarama-qarshiliklarni kuchaytirib, demokratiyaning qaror topishiga yo'l qo'ymaydi.

Evolutsion yo'lning samarali rivojlanishi uchun tashqaridan bo'ladigan har qanday «yordam» mamlakatda demokratik jarayonlar rivojlanishi uchun zarur bo'ladigan shart-sharoitlarini yuzaga keltiradi. CHunki demokratiya hokimiyatni boshqaruvida xalqning ishtirok etishi bilan belgilanar ekan, uni «majburlab», boshqaruv jarayoniga jalb qilib bo'lmaydi. Uning uchun ehtiyoj, zaruriyat, shart-sharoitlarning yuzaga kelishi va xalqning undan foydalanishiga bo'lgan «tabiiy» intilishi shakllanmog'i kerak bo'ladi.

Ana shu jarayonning yuzaga kelishi evalyutsion yo'l bilan demokratik jamiyatga o'tish imkonini beradi. Ular mavjud bo'lgan mamlakatlarda bu yo'l o'z samarasini berayotganligini O'zbekiston misolida ko'rish mumkin.

¹ Yakovlev A.N. Qaytadan kashf etilgan mamlakat. So'z boshi o'rnida. «Xalq so'zi», 2001 yil, 9 fevral.

Xullas, evolyutsion yo'l bugun dunyo mamlakatlarining rivojlanishiga va mintaqalarda barqarorlikning yuzaga kelishiga hamda umumiy taraqqiyot uchun samara bera oladigan yo'l sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonlarni o'rganish zarur.

4. "SHok terapiyasi" (mulkni davlat tasarrufidan birdaniga chiqarish).

5. Islohot yo'llari mavjud.

O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari. O'tish davrining umumiy qonuniyatlari O'zbekiston uchun ham umumiylikka egadir. O'tish davrining boshlanishi uchun xos bo'lgan, amaldagi siyosiy hokimiyatning tugatilishi, uning zaminida iqtisodiy sohadagi islohotlarning amalga oshirilishi uchun zamin tayyorlash va oldingi tizimning mavjud ma'naviy-mafkuraviy zo'ravonligidan qutilish bilan xarakterlanadi. Ular qaysi darajada bo'lishidan qat'iy nazar, demokratik tamoyillar asosida rivojlanish yo'lini tanlagan barcha mamlakatlar uchun umumiy zaruriyat hisoblanadi. Ammo, Hamma masala o'tish davrining ichida amalga oshiriladigan vazifalar strategiyasini belgilash, ularni hal qilishning mexnizmlarini ishlab chiqish va ularni reallikka aylantirish kabilarda har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'ladi. Bir mamlakatning yohud bir necha mamlakatlarning o'tish davrida qo'llagan tajribalarini aynan ikkinchi mamlakat qo'llay olmaydi. CHunki demokratik jamiyatga o'tishda nafaqat mamlakatlarning taraqqiyot darajalari belgilovchi ahamiyatga ega bo'ladi, xuddi shuningdek, har bir mamlakatda yashayotgan xalqning mentalitetini hisobga olish ham muhim ahamiyatga molikdir. Uni hisobga olmaslik esa pirovard maqsadga erishish imkonini bermaydi. SHu sababdan ham O'zbekistonda uning o'ziga xos va o'ziga mos bo'lgan evolyutsion tadrijiy yo'li ishlab chiqildi. Bu yo'lning O'zbekiston uchun eng maqbul yo'l ekanligi Prezident Islom Karimov tomonidan ilmiy asoslandi va uning kontseptual g'oyalarini fundamental tarzda bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishildi.

Bu yo'l Prezident tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilda o'z ifodasini topdi. Xuddi ana shu tamoyillarni tavsiflab, Prezident shunday ta'kidlagan edi: «SHuni alohida takidlash zarurki, soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojeali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyutsion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish – tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir».¹

Bu bosh g'oyani Prezident Islom Karimov jahon mamlakatlarining tajribalarini chuqur tahlil qilish asosida ilgari surdi va O'zbekistonga xos o'tish davri «model»ini ishlab chiqishda uning dunyodagi bironta ham davlatlardagi «model»lariga aynan o'xshamasligiga asosiy ehtiborni qaratdi.

U mamlakatimiz o'z mustaqilligini endigina qo'lga kiritgan va mustaqillikning xavfi xali batamom tugamagan sharoitda - 1992 yilda bu kontseptual g'oyani ilgari surdi. U shunday yozadi: «O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o'z yo'li respublikani rivojlantirishning quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi.

Avvalo, u aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq anhanalari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. CHuqur ildizi o'tmishdagi anhanaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan **kollektivchilik asoslari** O'zbekistan xalqiga tarixan xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'i nazar, odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning mehyori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, mahrifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom - O'zbekiston aholisiga xos fazilatlaridir. Ichki va tashqi siyosatni ishlab chiqib, amalga oshirish chog'ida **islom dinini ehtiborga olish muhim** ahamiyatga ega. Odamlarning turmush tarzida, ruhiyatida, milliy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda, umuminsoniy tamoyillar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston mustaqillik yillarida demokratik jamiyatga o'tishning uchta bosqichini bosib o'tdi. Ularning **birinchisi**, Prezident Islom Karimov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: «O'zbekiston», 1993, 39-bet.

Majlisi - birinchi chaqiriq VI sessiyasida (1996 yil 29 avgust) «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari»; **ikkinchisi**, Birinchi chaqiriq o'n to'rtinchi sessiyasida «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» (1999 yil, 14 aprel) va nihoyat, **uchinchisi**, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasida «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» (2002 yil 29 avgust) qilgan mahruzalarida ko'rsatib berildi.

Albatta, ana shu bosqichlar biri ikkinchisidan keskin farq qilmasada, ulardagi asosiy g'oya demokratik jarayonlarning olg'a tomon rivojlanishini va ma'lum bir vaqtga kelganda bu jarayonga yangi kuch, qudrat hamda faollik baxsh etishdir. Chunki jarayonlar izchillik bilan tahlil etilmasa, undagi asosiy muammo aniqlanmasa va istiqboldagi vazifalar belgilanmasa, rivojlanish ham bo'lmaydi. Shu mahnoda ham Prezident demokratik jamiyat qurish borasidagi vazifalarni «**chuqurlashtirish**» (1996 yil) «**erkinlashtirish**» (1999 yil) va «**demokratik o'zgarishlar orqali fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish**» (2002 yil) kabi kontseptual g'oyalarida belgilab bergan.

Ammo bu - o'tish davrining mustaqil ravishda bir necha bosqichlardan iborat ekan, - degan xulosa kelib chiqishiga asos bo'lmasligi kerak. Chunki o'tish davrining o'zi mamlakatning turli tuzumlardan demokratiyaga o'tishdagi mustaqil «oralig'i», «ko'prigi» hisoblanadi. Yuqorida ko'rsatilgan bosqichlar o'tish davrining uzluksizligini ifodalaydigan ko'rsatkichdir.

3. O'zbekistonda Islom Karimov tomonidan demokratik jamiyatga o'tishning nazariy, kontseptual metodologiyasining ishlab chiqilishi


O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ilk bor davlat hokimiyati tepasiga sobiq Ittifoq davrida kelishi bilan, O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'lini o'yladi va uni amalga oshirish uchun barcha kuch va imkoniyatlarini ishga soldi. Prezidentimiz XX asr 90-yillaridayoq mustaqillik uchun kurash olib bordi. O'zbekistonni dunyoda o'z yo'li bilan rivojlanish imkoniyatiga egaligini isbotlab berdi. U dastlab, **birinchidan**, o'zbek tilining "davlat tili" haqidagi qonunning qabul qilinishida bosh-qosh bo'ldi (1989 yil 21 oktyabr), **ikkinchi** navbatda mamlakatimizda O'zbekistonning o'z davlat ramzlari bo'lishi uchun (1991 yil 15 fevral) kurashdi, **uchinchidan**, mamlakatimizda Prezidentligini joriy etdi (1990 yil 24 mart), **to'rtinchidan**, "Mustaqillik Deklaratsiyasi"ni qabul qilishda jonbozlik ko'rsatdi (1990 yil 20 iyung) va h.k. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov O'zbekistonning demokratik jamiyatga o'tishining nazariy kontseptual metodologiyasini 1992 yilda "O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li", keyinchalik "O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'z yo'li" asarlarida ilmiy asoslab berdi. O'zbekistonning bozor islohotlaridan borish qonuniyatlarini ilmiy asosladi. Demak, Prezidentimiz ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etish uchun uning kontseptual metodologiyasi mavjud bo'lishi lozim edi. Bu metodologiyaga ko'ra O'zbekiston demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, bozor islohotlarini bosqichma-bosqich shakllantirish yo'llarini belgilab berdi. Agar biz dunyo mamlakatlarida o'tish davrining turli ko'rinishlari: anhanaviy, inqilobiy va evolyutsion ko'rinishlarining mavjudligini inobatga olsak, Prezidentimiz ana shu evolyutsion yo'lda 1) mulkni davlat tasarrufidan bosqichma-bosqich chiqarish, erkinlashtirish, 2) ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, chunki bu barqarorlik makroiqtisodiy rivojlanishni belgilab beradi. 3) Pulning qadrsizlanishi uchun kurash, 4) xom-ashyo ishlab chiqaradigan mamlakatdan bozor munosabatlari sharoitida tayyor maxsulotlar ishlab chiqaradigan respublikaga aylantirishdek strategik vazifalarni belgilab berdi. Prezidentimizning yana bir muhim demokratik jamiyat sari borishdagi yutug'i shundaki, u milliy davlatchilikni, davlat hokimiyatini tubdan isloh etish, uni asta-sekinlik bilan fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tkazish vazifasini ko'rsatib o'tdi. Bu yo'lda 1995 yilga kelib katta ijobiy ishlar qilina boshlandi. O'zbekistonning rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanish qonuniyatlari ishlab chiqildi. 1999 yilda Prezidentimiz "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" nomli asarida O'zbekiston taraqqiyotining kontseptual asoslari, yo'llarini aniq ko'rsatib o'tdi. Bunda asosiy ehtibor nodavlat organlarini shakllantirish, fuqarolik jamiyati

elementlarini rivojlantirish g'oyasini ilgari surdi. Bu borada yangi qonuniyatlar ishlab chiqildi. 1999 yilda Prezidentimiz "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" asarida bu masalaning nihoyatda muhimligini inobatga olib, XXI asrda O'zbekiston taraqqiyotining kontseptual asoslari, yo'llari aniq ko'rsatib o'tildi. Bunda asosiy ehtibor nodavlat organlarini shakllantirish, fuqarolik jamiyati elementlarini rivojlantirish g'oyasini ilgari surdi. Bu borada yangi qonuniyatlar ishlab chiqildi. 2002 yilga kelib 9-sessiyada "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" (ular 7 ta) ishlab chiqildi. Bu borada davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, fuqarolar siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish bozor islohotlarini rivojlantirishning garovi ekanligi ta'kidlab o'tildi.

3-slayd

O'zbekistonda o'tish davrining evolyutsion yo'lini tanlanganligi- ning o'ziga xos sabablari	→	1.Recpublikada vujudga kelgan iqtisodiy vaziyat, oilalar aksariyat ko'pchiligining turmush darajasining pastligi, eski tuzumga moslashganligi, ularning dunyoqarashi, moddiy boyliklarni yaratishga bo'lgan munosabati, siyosiy madaniyati yetarli darajada emasligi bo'lsa
	→	2. Tashkiliy, siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy- kredit tizmlarini o'zgartirish, tegishli xuquqiy asosni, bozorning infratuzilmasini barpo etish, xodimlarni tayyorlash uchun vaqt kerak. Ishlab chiqarishni tayyorlash va qayta jixozlash uchun talab qilinadigan texnologik vaqt olinishini xam xisobga olish kerak.
	→	3. Kishilarning tafakkurini odat tusiga kirgan koidalarni o'zgartirish uchun muximdir. Xar bir boskichda kishilarning tafakkurini o'zgarishlarni kabul kilishga tayorlab, ularni amaliy ishlar bilan yangi tuzumning afzalligiga ishontirib borish zarur.

O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari



QISQACHA XULOSA

Demak, demokratik jamiyatga o'tish deganda, mamlakatlarning turli tuzumlardan (totalitarizm, kapitalizm, harbiy diktatura va x.k) demokratik tamoyillar asosida rivojlanishi uchun vujudga keltiriladigan imkoniyatga ketadigan oraliq vaqt tushuniladi. Xuddi ana shu vaqt ichida demokratik jamiyat uchun zarur bo'ladigan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-mahrfiy imkoniyatlar yaratiladi. «Oraliq» vaqtning boshlanishi va uning o'z poyoniga yetishi o'tish davri masalalari qatoridagi eng muhim ahamiyatga molikdir. Chunki, bugun bu masala ilmiy adabiyotlarda o'z yechimini topganicha yo'q. Unga aniqlik kiritmaslik esa «o'tish davrining» boshi va oxiri qaerdaligini bilib olish imkonini bermaydi. To'g'ri, o'tish davri ikki yo'nalishda iqtisodiy hayotda va siyosiy hokimiyatda pirovardida demokratik jamiyatga olib boruvchi tub o'zgarishlarning sodir bo'lishi va uning asosida ijtimoiy hamda ma'naviy-mahrfiy sohalarda olib boriladigan islohotlarning boshlanishi bilan xarakterlanadi. O'tish davrining tugashi esa demokratik tamoyillarning to'laligicha hayotiy reallikka aylanishi bilan bog'liq bo'ladi.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Sobiq Ittifoq parchalanishining asosiy sabablari nimalarda?
2. O'zbekiston siyosiy mustaqilligiga erishgan paytda qanday hujjatlar qabul qilingan edi?
3. O'tish davrining barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarini izohlang.
4. O'tish davrining inqilobiy, tadrijiy, "SHok terapiyasi", islohot yo'llarining har birini bayon eting.
5. Prezident Islom Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li", "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" asarlarining mazmun va mohiyati, ahamiyati nimalarda aks etadi?

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2007. – 3–10-b.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. T.1. -T.: «O'zbekiston», 1996, 36-85-betlar.
3. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.1. -T.: «O'zbekiston», 1996, 274-284, 301-308, 309-322, 341-359-betlar.
4. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.3. -T.: «O'zbekiston», 1996, 175-181, 183-191, 202-226, 227-246-betlar.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. -T.: «O'zbekiston», 1997, 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: «O'zbekiston», 2000, 6,8-12, 14-15, 16-26, 28-38, 47-48-betlar.
7. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish - har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 285–312-b.
8. Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezoni bo'lsin. Surxondaryo viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. –313–337-b.
9. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. –156–223-b.
10. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.14. – T.: O'zbekiston, 2006. – 61–97, 139–153, 248–265-b.
11. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoitini yaratish – asosiy vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2007. – 11-b.
12. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48 b.
13. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayot garovidir. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2007. – 64 b.
14. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – T.15. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 3-11, 154-211–241-251-b.
15. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48 b.
16. Rahimov I., Zohidov A., Azizov SH., Ayupov A. va boshq. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. -T.: «Universitet», 2001. 232-bet.
17. Pugachev V.P., Solovg'ev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 202-255-betlar.
18. O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T.: «O'qituvchi», 2004, 3-44-betlar.
19. Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. T.: Toshkent Moliya instituti, 2004, 3-180-betlar.
20. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 204 b.
21. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi - O'zbekiston taraqqiyotining kafolati. -T.: «Adolat», 2000.
22. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. -T.: «O'zbekiston», 2001, 368-bet.
23. Odilqoriev X.T., Foyibnazarov SH.F. Siyosiy madaniyat. T.: O'zRIIV Akademiyasi, 2004, 138-158-betlar.

24. Pugachev V.P., Solovg'ev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 237-255-betlar.
25. Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. T.: TMI, 2004, 3-180-betlar.
26. SHarifxo'jaev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. – T.: SHarq, 2005. – 240 b.
27. Aliev B., Hoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot nashriyoti», 2005. – 160 b.
28. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: “SHarq”, 2006. – 528 b.
29. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar. – T.: “Ma'naviyat”, 2006. – 160 b.
30. To'xliiev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashr., 2006. – 280 b.

MAVZU. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy va umuminsoniy demokratik tamoyillari

1. Demokratik jamiyatning milliy, umumbashariy tamoyillari va qadriyatlar tushunchasi

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy, umumbashariy tamoyillari va qadriyatlarining metodologik asoslari, ilmiy va amaliy jihatlar Prezident I.A.Karimov asarlari, nutqlarida keng hamda chuqur yoritilgan. Ma'lumki, **«tamoyil»** tushunchasi - **yo'nalish**, rus tilida qo'llaniladigan **«tendentsiya»** so'zi esa, asli lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, **«tamoyil»** atamasining muqobolidir. Prezident I.A.Karimov asarlarida “tamoyil” va “yo'nalish” so'zlari sinonim sifatida qo'llanib kelinmoqda. Agar bu so'zlarning mahnosiga ehtibor qaratilsa, ular jamiyatning turli jabhalarida ob'ektiv, takrorlanuvchan, ustuvor hodisa sifatida ko'zga tashlanadi. Demak, jamiyat hayotida “tamoyil” yoki “yo'nalish” ma'lum bir jarayondagi qonuniyatni o'zida aks ettiradi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning yetakchi olimlari tomonidan ijtimoiy-siyosiy fanlarida demokratiyaning milliy, umumbashariy tamoyillarini har bir xalqning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish va to'ldirish borasida bir muncha ishlar qilindi. SHunga qaramay, mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etish jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi va namoyon bo'lish xususiyatlari jiddiy o'rganishni talab etadi. Vaholanki, demokratiyaning muhim **umumjahon ehtirolari etgan asosiy tamoyillari** quyidagilardan iboratdir:

- 1) erkin va adolatli saylovlar;
- 2) ochiq va hisobot beruvchi hukumat;
- 3) inson huquqlarining ustuvorligi;
- 4) hokimiyat organlarining saylanib qo'yilishi;
- 5) so'z, matbuot va vijdon erkinligining Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanishi;
- 6) qonun ustuvorligi;
- 7) fuqarolarning siyosiy va iqtisodiy huquqlari mavjudligi va tengligi;
- 8) tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylab qo'yiladigan organlar oldida hisob berish burchligi;
- 9) ko'ppartiyaviylik tizimining mavjudligi;
- 10) umummilliy masalalarning hal etilishida referendumlarning o'tkazilishi;
- 11) mulk shakllarining xilma-xilligi va ularning tengligini kafolatlovchi qonunlarning mavjudligi;
- 12) siyosiy muxolifatning ochiq faoliyat ko'rsatishi;

13) jamiyatda plyuralizm, ya'ni fikrlar xilma-xilligi, rang-barangligini kafolatlovchi qonunlarning mavjudligi hamda ularni amaliy hayotga joriy etish masalalari samarasining ortishi.

Ma'lumki, O'zbekiston xalqi o'z mustaqilligiga erishgach, Yer sharining ko'pchilik aholisi kabi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatni barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Tabiiyki, bunday jamiyatni shakllantirishda, avvalambor, O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos milliy tamoyillarini jahonda kechayotgan umuminsoniy tamoyillar bilan uyg'unlashayotganligini nazardan qochirmaslik kerak.


Demokratik jamiyat qurish albatta **milliy va umumbashariy tamoyillar** asosida rivojlanib boradi. Bu uzviylik jarayoni 2 ta muxim jihat bilan belgilanadi. Demak:

1. Demokratik jamiyatning milliy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- 1) Xalqimiz hayotida jamoa bo'lib yashash ruhining ustuvorligi.
- 2) Oila, maxalla, el-yurt muqaddasligi.
- 3) Ota-ona, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hurmat-ehtibor.
- 4) Millatning ulmas ruhi ona tiliga hurmat
- 5) Kattaga hurmat, kichikka izzat.
- 6) Ayol zotiga ehtirom.
- 7) Sabr-qanoat, mehnatsevarlik.
- 8) Halollik va mehr-oqibat.
- 9) Demokratik jarayonlarning uzviyligi, asta-sekinligi.
- 10) Odamlar tafakkuri va ijtimoiy saviyasi.
- 11) Xalqimiz milliy madaniyatining o'ziga xosligi va h.k.

2. Demokratik jamiyatning umumbashariy tamoyillari:

- 1) qonun ustuvorligi.
- 2) Inson xaq-xuquqlari va xurfikrlilik.
- 3) Barcha millat vakilariga xurmat va ular bilan baxamjixat yashash.
- 4) Diniy bag'rikenglik.
- 5) Dunyoviy bilimlarga intilish, mahrifatparvarlik.
- 6) O'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish va h.k.



Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, ehtiborga hurmatga nufuzga, ahamiyatga ega kishilar munosabatlar, holatlar moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar yig'indisidir. Qadriyatlar kishilarning moddiy turmush darajasi, sharoiti, imkoniyatlari asosida shakllanadi va rivojlanadi. Qadriyatlarning ijtimoiy ahamiyatini anglash kishilarning istiqbol vazifalarini tug'ri tasavvur qila bilish imkoniyati bilan ham bog'liq. qadriyatlarning turlari: 1) Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar. 2) Anhanalar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar. 3) Insonning aql-idrok va amaliy faolityati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va istehdodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar. 4) Odamlar o'rtasidaga jamoatchilik, hamkorlik, xayrixohlik xamjixatlikka asoslangan qadriyatlar. 5) Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va Irqiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.

Demak, demokratik, xudquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishda umuminsoniy, mintaqaviy milliy, diniy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Agar umuminsoniy mintaqaviy qadriyatlar barcha inson va millatlar uchun xos bo'lgan umumiy tushuncha bo'lsa, mintaqaviy qadriyatlar ma'lum bir hudud uchun taalluqli bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Milliy qadriyatlar umuminsoniy va mintaqaviy qadriyatlar bilan birgalikda mavjud bo'ladi va rivojlanadi.

Demokratik, fuqarolik jamiyatini qurayotgan O'zbekiston uchun ana shu milliy qadriyatlarini, o'zini anglagan, Vatani uchun fidoiy yoshlarni tarbiyalash vazifasi turadi. Bunday sharoitda fuqarolik jamiyati qurishda mazkur qadriyatlarni o'rni beqiyosdir.

O'zbekiston aholisining bozor iqtisodiga asoslangan demokratik jamiyat qurishida istiqbolimizning dastlabki yillaridayoq Prezident I.A.Karimov quyidagi milliy tamoyillarga

jamoatchilik diqqatini qaratdi. Bu milliy tamoyillar I.A. Karimovning 1992 yilda yozilgan “Istiqlol yo’li: muammolar va rejalar” hamda “O’zbekistonning o’z istiqloq va taraqqiyot yo’li” asarlarida ilmiy jihatdan har tomonlama asoslab berildi. Keyinchalik Yurtboshimiz bu tamoyillarni turli hayotiy misollar va dalillar asosida yoritdi. “Bozor iqtisodiyotiga o’tar ekanmiz, milliy, tarixiy turmush tarzimizni, xalqimiz urf-odatlarini, anhanalarimizni, kishilarning fikrlash tarzini hisobga olamiz. O’zbek xalqi azaldan **jamoa tuyg’usiga moyil**”,¹⁰ - deb yozgan edi I.A.Karimov. Bu **birinchi tamoyil** bo’lib, bozor iqtisodiyotiga o’tishda o’zbek xalqining o’ziga xosligi, uning boy tarixiy anhanalari, o’ziga xos fikrlash tarzining qadimgi davrlardan boshlab jamoa sifatida ahil bo’lib yashash mentalitetini ko’rsatib turibdi.

Ikkinchi tamoyil haqida I.A.Karimov shunday deb yozadi: “Mustaqil davlatimizning siyosatini belgilab olar ekanmiz, **islom dinimizni** albatta nazarda tutishimiz kerak, negaki din turmush tarzimizga, ma’naviy qadriyatlarimizga, kishilar ongiga o’zining o’chmas muhrini bosgan.”¹¹

Uchinchi milliy tamoyil sifatida Prezidentimiz “O’zbekistondagi **demografik vaziyatni** albatta hisobga olish zarur”¹² deb uqtiradi. Ma’lumki, yurtimizda aholining tabiiy o’sish surhati juda katta bo’lib, mehnat resurslarining ortib borish darajasi ham shunga mos keladi. Qolaversa, aholining 60 foizidan ko’prog’i qishloqlarda istiqomat qilishadi.

To’rtinchi tamoyil, bu – O’zbekistonning **ko’p millatli davlat** ekanligi. Unda 130 dan ortiq millat, elatlar yashaydi va ular 18 diniy konfessiyalarga mansub.

Beshinchi tamoyil, bu O’zbekistonning geosiyosiy jihatdan **qulay makonda** joylashganligi, qadim karvon yo’llarining bizning Vatanimiz hududidan o’tganligi, turli tsivilizatsiyalarning Markaziy Osiyoda tutashganligi hamda bugungi kunda ham mintaqamizning SHarq bilan Farb dunyosi o’rtasida muhim bo’g’in ekanligidadir.

Oldinchi tamoyil “O’zbekistonda islohotlar o’tkazishga mavjud **tabiiy iqlim**, shart-sharoitlari”ning katta ta’hsir ko’rsatishidan iborat.¹³

Ettinchi tamoyil – “O’zbekiston o’zining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash uchun yetarli **salohiyatga ega**”¹⁴. Yana bir muhim tamoyil sifatida I.A.Karimov “keyingi o’n yillar mobaynida ma’lum qadriyatlarga ega bo’lgan kishilarning muayyan **ijtimoiy ongi shakllanishini** ham ehtiborga olmaslik mumkin emas”, deb uqtiradi. Gap shundaki, mustaqillikdan oldingi 130 yildan ko’proq davr mobaynida xalqimiz o’zining milliy, madaniy, moddiy boyliklaridan begonalashdi. Jahon hamjamiyatidan butunlay ajralib qoldi. SHu sababli, O’zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvida bu vaziyatni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi tamoyillar yoki omillarni chuqur o’rganib, Prezidentimiz I.A.Karimov istiqloqlarning dastlabki yillarida islohotlarning ilmiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqdi. Bu O’zbekistonning o’ziga xos aql-idrokka asoslangan taraqqiyot yo’li jahon afkor ommasi tomonidan haqli ravishda “**taraqqiyotning o’zbek modeli**” degan nom oldi.¹⁵ Aynan ana shu tamoyillarda bir tomondan milliylik, ikkinchi tomondan umuminsoniylik yo’nalishlari uyg’unlashdi yoki ularning dialektik mutanosibligi o’z aksini topdi. “**Birinchi tamoyilimizda**, - deb yozgan edi I.A.Karimov, - avval-iqtisod, keyin siyosat degan shiorni olg’a surdik”¹⁶. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi nazarda tutiladi. Iqtisodiy islohotlar siyosatdan ortda qolmasligi zarur.

Ikkinchi tamoyil - bu davlatning bosh islohotchi ekanligi. Yangilanish va o’zgarishlar siyosatini ishlab chiqish va ularni izchillik bilan amalga oshirishni davlat o’z zimmasiga oladi.

¹⁰ Karimov I.A. O’zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-t.-T.:O’zbekiston,1996,11-bet

¹¹ Karimov I.A. O’zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-t.-T.:O’zbekiston,1996,12-bet

¹² O’sha manba, 12-bet

¹³ Karimov I.A. O’zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura.1-t.-T.:O’zbekiston,1996, 13-bet

¹⁴ O’sha manba, 13-bet.

¹⁵ M.S.Gafarli, I.A.Kasaev. Rivojlanishning «o’zbek modeli»: tinchlik va barqarorlik - taraqqiyot asosi. -T.: «O’zbekiston», 2001. –430 b.

¹⁶ Karimov I.A. Milliy istiqloq g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: «O’zbekiston» 2001, 36-38 bet., 177 bet.

Uchinchi tamoyil, o'z navbatida jamiyat hayotida, barcha sohalarida qonunning ustuvorligi tahminlanadi. Aynan O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasi ham umuminsoniy va milliy tamoyillarning mujassamlashgan yorqin namunasi hisoblanadi.

To'rtinchi tamoyil, bu aholining demografik vaziyati, ayniqsa, uning 60 foizidan ko'prog'ini yoshlar tashkil etganligi, kam tahminlangan oilalarni, bolalarni, nafaqaxo'rlarni ijtimoiy himoyalash maqsadida kuchli ijtimoiy siyosat olib boriladi.

Beshinchi tamoyil – bu xalqimiz anhanalari, urf-odatlar hamda bozor iqtisodiyotining ob'ektiv qonun-qoidalarini hisobga olgan holda unga «shok terapiyasi» asosida emas, balki evolyutsion tadrijiy asosda, puxta o'ylab bosqichma-bosqich o'tish nazarda tutiladi.¹⁷

SHunday qilib, ushbu tamoyillar yoki taraqqiyotning «o'zbek modeli» O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatiga o'tishining hamda uning jahon hamjamiyati bilan izchillik asosida integratsiyalashuv kontseptsiyasining negizini tashkil etadi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich izchillik bilan o'tayotgan O'zbekiston Respublikasi 1994 yil oxiri 1995 yil boshlarida islohotlar o'tkazishning ikkinchi bosqichiga ko'tarildi. Bu davr ichida mamlakatimizda nafaqat kuchli ijroiya hokimiyatiga asoslangan Prezidentlik respublikasi shakllandi, balki umuminsoniy hamda milliylikka asoslangan zamonaviy parlament – Oliy Majlisga ko'ppartiyaviylik, muqobilik, hurfikrlilik asosida saylovlar o'tkazilib, jiddiy qadam qo'yildi. To'g'ri hali bu tom mahnodagi professional parlament emas edi. Ammo iqtisodiy, madaniy, ma'naviy sohalar kabi ijtimoiy-siyosiy sohada ham islohotlar evolyutsion yo'l bilan olib borildiki, bu jamiyatimizda barqarorlikni ta'minlash uchun asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1995 yil 23 fevralda I chaqiriq Oliy Majlisining I sessiyadagi mahruzasi “O'zbekiston siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari” deb nomlanishi bejiz emas. Mazkur mahruzada Yurtboshimiz SHarqda, qolaversa O'zbekistonda dunyoviy, demokratik jamiyat barpo qilishning **uch muhim tamoyili** ustida to'xtab, ularni ilmiy jihatdan asoslab berdi. Xo'sh, O'zbekistonda qurilayotgan demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatining shaklu-shamoyili qanday bo'lishi kerakq “SHarqda, - deb yozadi I.A.Karimov, - demokratik jarayonlarning, qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. SHarqda demokratik jarayonlar **uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy** topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni g'arb olimlari ham “ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli” deb ataganlar. Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi”¹⁸. SHu o'rinda demokratik jamiyat qurishning milliy, umumbashariy tamoyillarida sharqona qadriyatlar qanday o'rin egallaydiq, degan savol tug'iladi. Agar ehtibor bilan qaralsa, bu o'rinda jarayonlar so'zi tamoyillar mahnosini ham anglatmoqda. To'g'ri, **ikkinchi tamoyilni** Prezidentimiz demokratlashtirishning **“ikkinchi muhim sharti”** deb nomlagan. “Jamiyatni demokratlashtirishning ikkinchi muhim sharti **odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi** bilan demokratik o'zgarishlar darajasi va surhatlari bir-biriga qanchalik mutanosib bo'lishiga bog'liqdir”¹⁹. Fikrimizcha, mazkur tamoyil umumbashariy tamoyildir. **“Uchinchidan**, - deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov, – demokratik jarayonlar **xalqimiz milliy madaniyatining o'ziga xos jihatlari**ni, uning tabiatini o'zida mujassam etmog'i kerak. Ma'lumki, Farb namunasi ko'p hollarda individualizm falsafasiga tayanadi va ommani haddan tashqari siyosilashtirishga olib keladi”²⁰. Demak, milliy tamoyillar bilan birga mintaqaviy tamoyillar ham mavjud. Ko'rinib turibdiki, I.A.Karimovning ta'kidlashicha, demokratiyani shakllantirishda O'zbekiston uchun Farb namunasi emas, ko'proq SHarq tajribasi qo'l keladi. “Osiyo” mintaqasi va musulmon SHarqidagi demokratik qadriyatlar va o'zgarishlar rivojining tajribasi o'ziga xos xususiyatlar, o'ziga xos anhanalarga ega. SHarqda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g'oyasi,

¹⁷ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2 T., -T.: «O'zbekiston», 1996, 177-180 betlar.

¹⁸ Karimov I.A Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. 3 T., -T.: «O'zbekiston» 1996, 8-9 betlar.

¹⁹ O'sha manba. 8-9 betlar.

²⁰ O'sha manba. 9-bet.

jamoatchilikning fikricha, ustuvorlik zaminida shakllanadi”²¹. Osiyo mintaqasi va musulmon SHarqining boy tarixiy tajribasiga asoslanib, I.A.Karimov O'zbekistonda demokratik tamoyillarning rivoji to'g'risida nihoyatda muhim xulosaga keladi: "Bizning mamlakatimizda, - deydi Yurtboshimiz, - demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilish, qonunga itoat etish kabi fazilatlariga mos ravishda rivojlanishi zarur. Ahloqiy, ma'naviy qadriyatlar siyosiy munosabatlarda ham ustunlik kasb etishi dardkor”²².

Milliy qadriyatlarning tiklanishi - demokratik jamiyat qurishning muhim sharti.

Demokratik jamiyat kontseptsiyasida milliy, umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, diniy qadriyatlarning o'rniga alohida ehtibor qaratilmoqda. Negaki, ular o'rtasida qathiy chegara yo'q. Bunday fikr bildirishimizga muayyan tarixiy sharoitlarda ob'ektiv zaruratlar tufayli jamiyat rivojlanishi uchun milliy qadriyatlar diniy qarashlar bag'rida shakllanganligidir. SHunga ko'ra bizning milliy qadriyatlarimiz faqat islom zaminida vujudga kelmagan, balki zardushtiylik, buddaviylik kabi dinlardan ham ko'p narsalarni olgan. Binobarin, har qanday qadriyatlarning bosh manbai ijtimoiy hayotdir. Buning isboti sifatida hozirgi davrda mamlakatimizda ko'pgina tarixan din bilan bog'liq qadriyatlar o'zlarining diniy mazmunini o'zgartirib, dunyoviy milliy qadriyatlarga aylanganligidir. Ayni paytda, demokratik jamiyatni barpo etishda din har doim ham uning tarafdori bo'lavermaydi. Ayniqsa, hozirgi murakkab o'tish davrida islom g'oyalari va qarashlaridan bir-biriga tubdan qarama-qarshi maqsadlar yo'lida foydalanishga urinishlar jonlangan bir paytda, ana shu omilning o'rnini alohida tahlil etish zarur.

Uning zaruratini Prezident I.A.Karimov alohida va bir necha marta ta'kidlab kelmoqda. «Mustaqillik yillarida eng katta qo'lga kiritgan yutuqlarimizdan biri tarixiy, milliy va axloqiy qadriyat hamda anhanalarning, muqaddas dinimizning jamiyatni ma'naviy yuksalishidagi o'rnini ahamiyatini qayta tiklanganligidir. Ayni zamonda, tajovuzkor aqidaparast kuchlar islom dini xalqimiz uchun muqaddas qadriyat ekanligidan foydalanib, O'zbekistonni demokratik, mahriyiy taraqqiyot yo'lidan og'dirishga intilmoqdalar». Keyingi yillarda dunyo miqyosida islomdan qarama-qarshi maqsad yo'lida foydalanishlar yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda demokratik jamiyatni barpo etishda milliy tamoyillarning asosini tashkil etuvchi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, qadriyatlar alohida o'ringa egadir. Mustaqillik tufayli unga bo'lgan yangicha yondashuvlar Prezident I.A.Karimovning milliy va umumbashariy qadriyatlar to'g'risidagi metodologik ilmiy mulohazalari hamda amaliy faoliyatlaridagi ko'rsatmalari, tashabbuslari buning yorqin misolidir. O'zbekistonda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarimizga asoslanadi.

SHu nuqtai nazardan, qadriyat tushunchasining ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda ko'pgina ilmiy tahriflari mavjud. Berilgan tahriflarni tahlil etish bir tomondan turli xil yondashuvlarning mavjudligini, ikkinchi tomondan esa, ularning butunlay bir-birini inkor etishi hollarining mavjud ekanligini ko'rsatadi. Masalan, "Falsafiy entsiklopediya"ning beshinchi jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflangan: "Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushuncha. **U birinchidan**, bir ob'ektning ijobiy yoki salbiy qimmatini, **ikkinchidan**, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihati (sub'ektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi”²³. Rus tilidagi "tsennostg" ya'ni qadriyat tushunchasiga, kishilarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga, ma'naviy dunyoqarashiga ijobiy yoki salbiy tahsir ko'rsatadigan barcha narsa va hodisalar kiritilgan.

Ana shunga yaqin nuqtai nazar boshqa ilmiy manbalarda ham bayon etilgan: "Qadriyat (falsafa, sotsiologiyada) - voqelikdagi muayyan hodisalarning iqtisodiy, ijtimoiy va mahriyiy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Qadriyatlarining mazmuni va xarakteriga ko'ra, **progressiv va reaksion tiplarga** ajratish mumkin" deyilgan. Fikrimizcha, bunday tahriflar mazkur kategoriyani o'ta sig'imdor qilish bilan birga, uning asli mohiyatini aniqlashda bir qator ilmiy chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. SHunga ko'ra uning mazmuni, tuzilishi,

²¹ Karimov I.A. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. T3. -T.: «O'zbekiston» 1996, 9-bet.


²² O'sha manba, 9-10 betlar.

²³ Filosofskaya entsiklopediya, M., 1970, T 5, s. 462

asosiy shakllari namoyon bo'lish xususiyatlari va umuminsoniy qadriyatlar tizimi, bu tizimdagi asosiy qadriyat shakllarining o'rni va ahamiyatini ilmiy tahlil qilish bilan bog'liq bir qator masalalarga ehtibor kam ekanligini ko'rsatib o'tish lozim.

“Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat nehmatalari hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim²⁴. Rus, ingliz, nemis, frantsuz va chex tillarida Rossiya Fanlar Akademiyasining akdemigi G.V.Osipov muharrirligida chop etilgan “Sotsiologicheskii entsiklopedicheskiy slovarg”da qadriyatlarni baholash, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy qadriyatlar, qadriyatlar yo'nalishi va umuman qadriyatlarga tahriflar berilgan²⁵. Qadriyatlar tushunchasiga “Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati”da ham alohida o'rin ajratilgan.

2-slayd



“Qadriyatlar — jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, ehtiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi”²⁶ degan tahrif berilgan. Qadriyatlarni bunday tahriflash uning mohiyatini ancha yorqin ifodalasada, lekin qadriyatlarga berilgan tahriflar ichida o'zining ilmiyligi bilan boshqa tahriflardan ajralib turadi, degan fikrdamiz. Bizningcha, **“umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi butun jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan, insoniyatning mavjudligi, o'tmishi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo'nalishlari, qonun-qoidalarini, talab va tartiblarini, odamlarning eng azaliy orzu-umidlari va ideallarini o'zida aks ettiradigan qadriyatlarining umumiy shakllarini ifodalaydi.** Umuminsoniy qadriyat tushunchasining ob'ektiv asosi ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar, insoniyatning uzluksiz xayotini va turmush tarzini umumlashtiradigan jamiyatdir”. Darxaqiqat “umuminsoniylik” tushunchasida qadriyatlarni tirik tabiatning bir qismi bo'lgan odam zotining hayoti va kamoloti uning tarixiy taraqqiyoti, siyosiy va boshqa birliklar uchun ahamiyati o'z ifodasini topishi kerak. SHu o'rinda insoniyatning eng umumiy jamoasi bo'lgan jamiyatgina, umuminsoniy qadriyatlarning

²⁴ Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to'plami), -T., O'zbekiston, 1997, 198 b.

T.Komilova, S.Abidova Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati, O'zFA, “Fan”nash., 2000, 20 b. B.S. Yerasov Kulg'turologiya, 2-e izd., M.:”Aspekt-Press”,1997, 591 b.

N. Ortiqov Ma'naviyat: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, -T., “O'zbekiston”, 1997, 48 b.

²⁵ G.V.Osipov. Sotsiologicheskii entsiklopedicheskiy slovar, M. 2000, 402-403 s.

²⁶ Mustaqillik izoxli ilmiy-ommabop lug'at. A. Jalolov va Q. Xonazarov umumiy taxridida. -T.: “SHarq”, 1998, 279-bet

yaratguvchisi va saqlab turuvchisidir. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko'lamli va serqirra tushuncha. Uning zaminida eng avvalo ozodlik, erkinlik, tinchlik, demokratiya tufayli shakllangan inson baxt-saodati kabi umumijtimoiy mahno va mazmun kashf etadigan qadriyatlardan iborat, deyish mumkin. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma'naviy boyliklar sifatida tushunish va uni shunday izohlash ham ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri emas.

Demak, «Qadriyat» atamasi bizga arabcha «qadri» so'zidan kirib kelgan bo'lib, bugungi kunda bu tushuncha «borliq va jamiyatdagi biror bir narsa va hodisaning kishilar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy munosabatlardagi tutgan muhim ahamiyatni ifoda etish uchun qo'llanilmoqda. Bu masalaning bir tomoni. Uning ikkinchi tomoni shundan iboratki, «qadriyat» so'zi qadim zamonlarda paydo bo'lgan va barcha xalqlar tillarida mavjuddir. Demak, bu tushuncha bir necha ming yillik tarixga egadir. Fikrimizning isboti sifatida qadimgi dunyoda «aksiologiya» degan atamaning mavjud bo'lishidir. Aksiologiya aslida falsafaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Faqat bu tushuncha XIX-XX asrlarga kelib, Yevropa mamlakatlari falsafasida rivojlantirildi. Uning tarixi demokratiya tarixi bilan bog'liqdir. Binobarin, Yevropa mamlakatlarida ham demokratik jamiyatni barpo etishda qadriyatlarga asoslanish ustuvor bo'lgan.

Yuqoridagi adabiyotlarning tahlillari shuni ko'rsatadiki, o'tmishdagi barcha ijtimoiy-falsafiy tahlimotlarda qadriyatlarning mohiyati va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni masalasiga katta ehtibor berishgan. Agarda qadimgi dunyo ijtimoiy-falsafiy tahlimotlarida umuminsoniy qadriyatlar inson aqliy taraqqiyotining mahsuli deb qaralgan bo'lsa, Turondagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida «Avesto»dagi uchinchi davr deb atalgan insoniyat kelajak istiqboli, adolatli jamiyat haqidagi fikrlar uning tarixiy ildizlarini tashkil etadi.

2. Milliy tamoyillar va qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishda aks etishi

Milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishda tutgan o'rni. Har bir millat o'z qadriyatiga ega. Binobarin, uning har bir mamlakat, har bir xalq rivoji uchun imkoniyatlaridan qay darajada foydalanish - demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o'rin egallaydi. Hozirgi davrda qadriyatlarning muhim xususiyatlaridan biri ham ana shundadir. Mustaqillikdan keyin milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishdagi o'rnini aniqlash borasida jiddiy ilmiy izlanishlar ham, amaliyot bilan bog'liq muammolar ham davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Negaki, biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbollari tasavvur eta olmaydi. Ayniqsa, bizning SHarqda xalqning ming yillik milliy qadriyatlari uning uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Xalqimizning yaqin o'tmishdagi uzoq vaqt davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos anhanalarini saqlab qolishga muvaffaq bo'lganligi sababi ham ruhida, qalbida doimiy ravishda umumbashariy qadriyatlarga sodiq bo'lganligidir. «Biz, deb ta'kidlaydi I.A.Karimov, - ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz»²⁷. Demak, **birinchidan**, O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning milliy, umumbashariy tamoyillarini har bir xalqning qadriyatlarisiz, alohida ajratib bo'lmaydi.

Ammo biron-bir narsa va hodisa, xoh u moddiy bo'lsin, xoh ma'naviy bo'lsin, qadriyatga aylanishi uchun ma'lum bir vaqt, davr o'tishi kerak. Demokratiyaning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida shakllanishi ham shunday bosqichlarni bosib o'tgan. SHunga o'tmishdagi barcha narsalar ham milliy qadriyat hisoblanavermaydi. **Ikkinchidan**, uning **milliy qadriyatga** aylanishi uchun o'zini ko'rsata olishi shart. Demak, biz demokratik jamiyat qurishdagi o'tmishimizdagi barcha narsalarimizni to'laligicha ololmaymiz. Negaki u Hamma uchun ibratli emas.

²⁷ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997. 137-b.

SHu o'rinda Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikrlari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi «... o'tmish qadriyatlarga, anhanalarga va turmush tarziga betartib ravishda, orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka - hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin» edi. Ayni shu inkor etish onlarida ekstremistik ruhdagi muxolifatning vujudga kelish xavfi tug'ildi. U aslini olganda, ma'naviyatga qarshi muxolifat bo'lishi mumkin edi²⁸. **Uchinchidan**, "Milliy qadriyatlar – millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatlar. O'z milliy qadriyati bo'lmagan millat yoki elat yo'q. Millatning tanazzuli — milliy qadriyatlarning tanazzulidir. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi"²⁹. Negaki, milliy qadriyatlar nafaqat mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biri, balki demokratik, adolatli, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosiy manbai hamdir. Markaziy Osiyo xalqlarining asrlardan asrlarga meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan va ko'plab og'ir sinovlarni boshdan kechirgan. Darhaqiqat, mintaqamiz xalqlari 3000 yildan ortiq davrni o'zida mujassamlashtirgan Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasini yaratdi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda **milliy qadriyatlardan tashqari diniy qadriyatlarimizga** ham alohida o'rin berilayotganligi tasodifiy hol emas. Chunki milliy va diniy qadriyat o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Ular doimiy ravishda o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi, bir-biri bilan muloqotda, birgalikda mavjud bo'ladi. Milliy va diniy qadriyatlar mutellikdan, fikr qaramligidan qutulish, milliy o'zlikni anglashga xizmat qilishi bilan ular jamiyatda demokratik umumbashariy tamoyillarining qaror topishiga zamin yaratadi.

Demokratik qadriyatlarning muayyan sharoitlarda shakllanishi. Ularning mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy shakllarda namoyon bo'lishi. Demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mutanosibligi hamda rivoji. O'zbekistonda adolatli demokratik jamiyat barpo etishda milliy qadriyatlarning ma'lum mahnoda umumbashariy ahamiyat kasb etishi.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar tushunchalarining demokratik uyg'unligi dialektikasining qiyosiy tahlili jarayonida Amir Temur siyosiy-huquqiy qarashlarini o'rganish zarur. Amir Temur siyosatining bu g'oyasi "Kuch-qudrat, iqtidor-adl-insofda", deganidir. Saltanatni boshqarishida uchragan har qanday voqea va ishni to'ra va tuzuk asosida boshqardim³⁰ degan fikrlari umuminsoniy demokratik va milliy qadriyatlar tushunchasining ijtimoiy-falsafiy, ilmiy nazariy va metodologik ildizlarini tashkil etadi. Binobarin biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustaxkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqlarning madaniy qadriyatlari, **to'rtinchidan, ma'naviy merosining** ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qildi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov bu borada fikr yuritib, shunday deb ta'kidlaganlar: "Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos anhanalarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi"³¹. Binobarin, har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga tahsir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Demokratik jamiyatni umuminsoniy va milliy qadriyatlarsiz barpo etib bo'lmaydi. Qadriyatlar haqida fikr yuritganda uning ikkita tarkibiy qismini nazarda tutmoq kerak. Bunda, eng avvalo, insonning ob'ektiv olamga nisbatan bo'lgan aktiv faoliyatini alohida tahlil qilish

²⁸ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. –T.: «O'zbekiston», 1998, 126-b.

²⁹ Mustaqillik izoxli ilmiy-ommabop lug'ati (A.Jalolov va Q.Xonazarov umumiy taxrida) — T.: "SHarq", 1999, 141 b.

³⁰ Temur Tuzuklari. -T, Fofur Fulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991, 57-bet.

³¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.:O'zbekiston, 1997, 141 b.

zarur. Umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga moddiy va ma'naviy muhit, yashash shart-sharoitlarining rivojlanishi va vorislik sodir bo'lib, yangi-yangi qadriyatlarning shakllanishiga o'tishdan meros bo'lib qolganlari esa davr ruhi, yangi ijtimoiy ehtiyoj va taraqqiyot uchun asos bo'lgan qadriyatlarga kiradi. **Umuminsoniy qadriyatlarning asosiy vazifasi olamni bilish va uni amaliy o'zgartirishning muhim omilidir.**

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar tamoyillar uyg'unligi qiyosiy tahlili uning inson ma'naviy kamolatining muhim omili ekanligidan kelib chiqishi zarur. Bunga:

Yurtboshimizning "Mustaqillikka erishganimizdan keyingina biz buyuk ajdodlarimizning hurmatini o'rniga qo'ya oldik. Bizning bu intilishlarimizni Markaziy Osiyodagi qo'shnilarimiz, madaniy xalqaro hamjamiyat qo'llab-quvvatladi. Bu hol tasodifiy emas — sohibqiron Amir Temur shaxsi uning avlodlari bo'lmish faqat bizning emas, balki mintaqamizdagi barcha xalqlarning, butun mahriy insoniyatning boyligidir" degan fikrlari har bir millat rivojlanishidagi tarixiy voqealar, unga ijobiy hissa qo'shgan shaxslar ham milliy qadriyatlar jumlasiga kirishini anglatadi. SHu nuqtai nazardan Amir Temur shaxsi buning yorqin isbotidir. Binobarin, Amir Temur qanchalik taqvodor, asl musulmon bo'lmasin, qonunchilikning turli tizimlari — diniy va dunyoviy tomonlari borligini, ularni hisobga olish kerakligini juda to'g'ri anglagan. Amir Temur qonunchilik deganda faqat, SHariat qonunchiligini emas, balki boshqa xalqlar qadriyatlari, urf-odatlarini ham tushungan.

Beshinchidan, Markaziy Osiyo xalqlarining milliy qadriyatlardagi xos jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) tug'ilgan makon va ona yurtga ehtirom;
 - 2) ajdodlar xotirasiga sadoqat;
 - 3) kattalarga hurmat, yoshlarga izzat;
 - 4) insoniy muomalada mulozamat;
 - 5) hayo, andisha, vazminlik, sabr-toqat kabilarning ustuvorligi bilan ham xarakterlanadi.
- Ma'lumki, demokratik qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. SHu sababli ular:
- mahalliy;
 - milliy;
 - mintaqaviy;
 - umuminsoniy mazmunda namoyon bo'ladi.

Milliy muhit demokratik qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbasidir. Aynan milliy muhit mahalliy qadriyatlarning ustuvorlarini o'z darajasiga ko'taradi va ularni voyaga yetkazib, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga olib chiqadi. Umuminsoniy qadriyatlarni har bir kishi o'zining boyligiga aylantirgandagina milliy tamoyillar o'z kuchini ko'rsatadi. "SHu bilan birga o'tmish qadriyatlariga, anhanalarga va turmush tarziga betartib ravishda orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka — hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin"³² deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov. Biz bugungi kunda haqiqiy qadriyatlarimizni:

- tadrijiylik, andishalilik asosida;
- buhron paytida sabr-toqat, maromiylilik va vazminlik asosida;
- mulozamatda sertakalluflik, keksalarga munosabatda hurmat-izzat asosida;
- ijtimoiy-siyosiy hayotda bosiqlik, sipolik va boshqa asoslarda asrab-avaylab rivojlantirmoqdamiz.

³² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.:O'zbekiston, 1997, 138 b.

3. O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unlashuvi va uning tarixiy ahamiyati

Milliy qadriyatlar ham qandaydir o'zgarmas hodisalar emas. Millat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borish, yashash va mehnat qilish sharoitlar o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi. Har bir qadriyat ma'lum konkret davr, sharoit va ehtiyojlarning mahsuligina emas, balki uning ko'zgusi hamdir. SHu nuqtai nazardan **qadriyatlarning demokratik tamoyillar bilan qaror topishidagi** o'rniga baho berishdan oldin ulardan foydalanishda **ikki omilga alohida ehtibor berish kerak: birinchisi** – qaysi bir qadriyatlarning yuzaga kelgan aniq tarixiy sharoitlar, **ikkinchisi**, o'sha davrlarga xos bo'lgan imkoniyat va ehtiyojlarni ham bilish kerak. SHuningdek, umumbashariy demokratik qadriyatlarmi, mintaqaviy qadriyatlarmi, milliy qadriyatlarmi uning qaysi zamin ehtiyoji asosida vujudga kelganligini, ular o'rtasida qanday uyg'unlik mavjud bo'lganligi, vorisiylik masalalarini ham o'rganish zarur. Ayni paytda, fikrimizcha, muayyan milliy, sinfiy, mintaqaviy, shaxsiy va boshqa xususiy qadriyatlar tizimi ham umuminsoniy qadriyatlar tizimining o'rnini bosa olmaydi.

Fuqarolik jamiyatini barpo etishda umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lish xususiyatlari nisbiy xarakterga ega bo'lib, uning bu xususiyati, ya'ni nisbiylik har doim ham ko'zga tashlanavermaydi. SHunga ko'ra **demokratik tamoyillarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishda** uning quyidagi **namoyon bo'lish shakllarini** alohida ta'kidlash zarur.

a) demokratik jarayonlarning uzviyligi asosida milliy qadriyat sifatida shakllantirish;

b) odamlarning tafakkuri va ijtimoiy-siyosiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasini mutanosib bo'lishiga erishish orqali;

v) jamiyatdagi turli xil guruhlar qarashlarini yagona maqsad – «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» degan milliy g'oya asosida hamjihatlilik, millatlararo totuvlik ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash asosida;

g) demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilishi, qonunga itoat etish kabi fazilatlariga mos ravishda rivojlanishini ta'minlash;

d) siyosiy munosabatlarda ham axloqiy, ma'naviy, milliy qadriyatlar ustuvorligiga erishish orqali umumbashariy demokratik tamoyillarni mamlakat fuqarosining turmush ehtiyojiga aylantirish va boshqalar.

Demak, **umuminsoniy qadriyat** deganda jamiyat ahzolarining Hammasi uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan va har bir shaxsning hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ijobiy tahsir etadigan, kishilarning xatti-harakati, amaliy faoliyati, yashash tarzi, boshqalarga munosabati ham umuminsoniy qadriyatlarning mezoni sifatida baholanadi. SHu bilan ham umuminsoniy qadriyatlar tizimida demokratik tamoyillarning o'zi uning shakllanishi uchun keng maydon ochib beradi. Biroq, bu degani milliy qadriyatlarning o'zni ana shu tizimda passiv holatda ekan-da degan xulosani chiqarmaslik kerak. Negaki, qadriyatlar tizimida millat, unga xos bo'lgan belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayoniga bevosita tahsir ko'rsatadigan hudud, makon va u bilan bog'liq tuyg'ular demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o'rin egallaydi. Milliy qadriyatlar shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi zanjirning muhim va asosiy bo'g'ini hisoblanadi. SHunga ko'ra, millat xar qanday milliy qadriyatning ob'ekti, uni yaratuvchisi va milliy qadriyatlar tizimida asosiy tayanadigan ijtimoiy tayanch hamdir. Millat bir tomondan, o'zining qadriyatlarini mutassil vujudga keltirib turganligi bilan ham u yashovchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Demak, milliy qadriyatlar o'tmishdan kelajakka rivojlanish jarayonida ularni doimiy takomillashtirib yangi-yangi qirralarini vujudga keltiradi. Aynan ana shu jarayon adolatli va demokratik jamiyatning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, **birinchidan**, milliy qadriyatsiz demokratiya tamoyillarini hayotga joriy etish, uni har bir shaxsning turmush tarziga aylantirish mumkin emas. Demokratiya nafaqat shaxs faoliyati, balki u millatning ruhiyati hamdir.

Ikkinchidan, demokratik jarayonlar davomida mavjud qadriyatlar tizimining o'zi ham rivojlanib va o'zgarib boradi. **Uchinchidan**, millat milliy qadriyatning xaqiqiy egasi. Demak,

millat uning makon va zamondagi harakati ham, o'tmishdan kelajakka tomon yashashi ham, avloddan avlodga yetkazib beruvchisi ham, uning asosiy ob'ekti ham aynan shu millatdir. **To'rtinchidan**, milliy qadriyatlarining takomillashmaganligi millatning yo'q bo'lib ketishiga va oxir oqibatda egasiz bo'lib qolishining boshlanishidir. Sobiq sho'rolar davrida millatga bo'lgan hujum eng avvalo, uning qadriyatlariga bo'lgan hujumdan boshlanganligini tasodifiy hol emas edi. Buning bir qator misollarini ko'hna tarixdan ham, hozirgi davrdan ham ko'plab keltirish mumkin. **Beshinchidan**, milliy qadriyatlarining saqlanib qolishi, bu faqat ularning o'zini o'zi asrab qolishining asosiy masalasi deb qarash kerak emas. Balki har qanday millatning saqlanib qolishi uchun har bir millatning o'zi javobgar, mashul bo'lishi shart. Ana shu javobgarlik, mashullik darajasi milliy rivojlanish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu haqda qozog'istonlik professor, faylasuf F. Qodirjonov xalqaro konferentsiyalarning birida o'zi tan olib, shunday fikrni bildirdi: "Qozoq ziyolilarining o'z ona tillarini o'rganishlari, o'zlashtirishi va o'z tillarida ilmiy falsafiy, siyosiy kitoblarni yozishi o'ta mushkul bo'lib qolayotganligining sababi - ular milliy ruhining erkinligiga nisbatan uzoq yillar xukmron bo'lgan "qizil imperiyaning" mafkuraviy tazyiqining natijasidir. Bunday holatni Qirg'iziston va O'zbekiston ziyolilari o'rtasida ham kuzatish mumkin".¹

Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik - O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning asosiy tamoyili. **1. Umuminsoniy qadriyatlar** inson ma'naviy, ijtimoiy kamolotining qandaydir alohida, boshqalardan ajralgan tomoni emas. Umuminsoniy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlarining umumlashgan ifodasidir. Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyatga xos qadriyatlar asosida tashkil topadi va rivojlanadi. Ular ayni vaqtda barcha milliy qadriyatlarining bir-biriga yaqinlashishi va rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Insonparvarlik g'oyalariga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat Hamma yerda barqaror bo'lishiga intilish, inson huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, Hamma xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo'lgan kurashlarini himoya qilish, kishilarni do'stlik, hamkorlik va hamdardlikka chorlash, Hamma yerda tinchlik, osoyishtalik qaror topishiga harakat qilish, atrof-muhitni toza saqlash umuminsoniy qadriyatlarining hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan jihatlaridir.

Bu qadriyatlar butun insoniyat tomonidan qo'lga kiritilgan fan, texnika, madaniyat, ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish borasidagi yangi jihatlar, demokratiya, qonunchilik, adolatni barqarorlashtirish borasidagi yutuqlardan ham iborat bo'lib, ulardan oqilona foydalanish respublikamizni jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirish ishiga ham xizmat qiladi. Bu borada biror chekinishlarga, milliy mahdudlikka va kalondimog'likka yo'l qo'yish nihoyatda katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar mahalliy sharoit, imkoniyatlar, tarixiy anhanalar bilan bog'langandagina kerakli samara beradi.

2. Mintaqaviy qadriyatlar ham umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan. Qadriyatlarining bu turkumi bir-biriga yaqin bo'lgan sharoitlarda yashagan va mehnat qilgan, tarixi tutash bo'lgan mamlakatlar va xalqlar uchraydi. Bu qadriyatlar hozirgi kunda ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari ming yillar davomida bir-biri bilan yaqindan iqtisodiy va siyosiy aloqalar o'rnatganlar. Ularning turmush sharoitlari, tili, madaniyati, dini, urf-odatlarini bir-biriga yaqin bo'lishi ko'plab umummintaqaviy qadriyatlar shakllanishiga olib kelgan. Bu qadriyatlar turli joylarda bir-biridan biroz farq qilsa-da, mohiyat jihatidan yaqindir.

Mehmondo'stlik, bolajonlik, yaqin qo'ni-qo'shnichilik, kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish, qarindosh-urug'lar, do'stlar bilan yaqin aloqada bo'lish, sahiylik, halol bilan haromni farqlash O'rta Osiyo xalqlarining Hammasiga xos bo'lgan ma'naviy fazilatlaridir. Garchand mehmondo'stlik bilan bog'liq udumlar mintaqamizning Hamma yerida keng tarqalgan yaxshi anhana bo'lsa ham, ular turli joylarda bir-biridan farq qiladi. Keksalarni, ota-onalarni hurmat qilish ham Markaziy Osiyo xalqlarining o'ziga xos yuksak ma'naviy boyligidir.

¹ 2002 yil 8-may oyida JIDU da bo'lgan Xalqaro konferentsiya bayonnomasida aytilgan fikrdan ko'chirma.

Keksalar ko'pni ko'rgan, aql va idrok bilan har ishda maslahat bera oladigan, yoshlarga katta tarbiyaviy tahsir ko'rsata oladigan kishilardir. Keksalarni hurmat qilish, ulardan saboq olish, hayot tajribasini o'rganish ma'naviy kamolot uchun yangi imkoniyatlar izlashga harakat qilishdir. Ota-onani hurmat qilish, ularning gapiga, pand-nasihatiga quloq solish ham katta ma'naviy qadriyatdir. Ota-ona hech vaqt o'zining farzandiga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Ular hayotda ko'p og'irlik, yengilliklarni ko'rgani sababli, farzandlarining istiqbolini ham ulardan ko'ra ko'proq o'ylaydilar. Bahzan ota-onaning nasihatlari noqobil farzandlarga og'irroq tuyuladi. Bu - hayotni chuqur bilmaslik, hayotning turli jarayonlariga yengil-elpi qarashning oqibatidir. Farzandlar ota-onaning qadrini o'zlari ota-ona bo'lganidan keyingina fahmlab oladilar. Bu davr ichida ular ma'naviy kamolotning ko'p imkoniyatlarini qo'ldan boy berib qo'yadilar. SHuning uchun ulkan ma'naviy qadriyat bo'lmish ota-onani hurmat qilish odatini aslo unutmaslik kerak.

Ota-onaga bo'lgan hurmat dunyodagi barcha xalqlarda uchraydi. Lekin bizning mintaqamizda bu qadriyatni ehzozlash boshqa joylarga nisbatan ustunroq turadi. Hashar yo'li bilan uy-joy qurishda, uy-joylarni tahmirlashda bir-biriga yordam ko'rsatish, yetim-esirlarning, beva-bechoralarning peshonasini silash, mehr-muruvvatli bo'lish, ularni qarindosh-urug'lar o'z himoyasiga olib, xoru zor bo'lib qolishiga yo'l qo'ymasligi ham mintaqamiz xalqlarining barchasiga xos qadriyatdir.

O'zbekiston suveren demokratik davlat bo'lib, xalq davlat hokimiyatining asosiy manbai hisoblanadi. Bu haqda Konstitutsiyaning 13-moddasida shunday deyilgan: «O'zbekiston Respublikasi demokratik umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, shahni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi»³³. Demak, demokratik davlatda xalq davlat hokimiyatining asosiy manbai bo'lib, umuminsoniy tamoyillarni amalga oshirish orqali inson va jamiyatning farovonligini, barcha xalqning turmush darajasini oshirib borishga erishadi.

Katta ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan mintaqaviy qadriyatlardan yana bari – **jamoatchilik fikridir**. Jamoatchilik fikri odamlar o'rtasidagi bir-biriga yaqinlik, o'zaro hurmatning ifodasi bo'lib, keng foydalanish mumkin bo'lgan qadriyatdir.

Xulosa qilib aytganda qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy tahsir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy, ma'naviy boyliklardir. SHu nuqtai nazardan, tarixiy tajriba, anhanalarning meros bo'lib o'tishi - bularning barchasi yangidan yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolishi lozim.

Demak, milliy qadriyatlar umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirilsa, shundagina jamiyat taraqqiyotining rivojlanishida uning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Ammo sho'rolar davrida qadriyatlar bir tomonlama yoritilar, bu borada ko'p tadqiqotlar olib borilgan edi. Lekin milliy qadriyatlarning mavjudligi ehtibordan chetda qolar edi. Bunday "tadqiqot"lardan maqsad har bir millatning o'z muayyan tarixiy tajribasi asosida o'z qadriyatlari tizimi shakllanganiga qadar kishilarning ehtiborini tortmaslik, demokratiyaning umumjahon va umumbashariy tamoyillari esa sinfiy asosda talqin etilar edi. Tanlab olingan va umumjahon tamoyillar va qadriyatlar ichida eng nufuzli joyni "**ulug' millat**"ning qadriyatlari egallab turardi.

«Bugungi kunda, - mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, - anhanaviy qadriyatlarimizni demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir»³⁴. SHu nuqtai nazardan umumbashariy demokratik tamoyillarni qaror toptirish, ko'p bor ta'kidlaganidek, jamiyatimiz taraqqiyotidagi eng murakkab masalalardan biridir. Ayniqsa, bu uzoq vaqt totalitar tuzum asoratida yashagan sobiq ittifoq makonida, jumladan O'zbekistonda ham uning illatlaridan butkul qutula olmagan jamiyatda yanada murakkabroq kechadi. Ana shu murakkab jarayonni, ijtimoiy-siyosiy larzalarga olib kelmaslikning yo'llaridan biri, qonun ustuvorligi tamoyilidir.

³³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2003. 11-b.

³⁴ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. -T.: O'zbekiston, 1998. 135-b.

QISQACHA XULOSA

Milliy qadriyatlarning adolatli demokratik jamiyatni barpo etishdagi o'rnini tahlil etish jarayonida eng avvalo, millatning o'zini ijtimoiy qadriyat sifatida qarash zarur. Negaki, millatning o'zi milliy qadriyatlarning ham ob'ekti va ham sub'ektidir.

Demak, mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unlashuvi taraqqiyotning zaruriy qonunidir. Umumbashariy tamoyillar va qadriyatlar qandaydir o'zgarmas, aqidaviy tushunchalar emas. Davrlar o'tishi, sharoit, talab va ehtiyojlarning o'zgarishi bilan ularning mazmuni, baholash mezonlari ham o'zgarib boradi. Lekin bu o'zgarishlardan qathiy nazar, umuminsoniy qadriyatlar odamlarni jipslashtiruvchi, ma'lum maqsadlar, ijtimoiy, ma'naviy kamolotining muayyan yo'llari uchun birgalashib kurashishga, harakat qilishga chorlovchi ijtimoiy hodisalardir. Umuminsoniy qadriyatlar turli davlatlar, xalqlar o'rtasidagi ko'prik vositasini o'tab, odamlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, hamjihatlik va hamkorlikka chorlovchi kuch vositasini o'taydi. Ma'naviyat borasida ham umuminsoniy qadriyatlar xalqlarning barcha madaniyatini yaqinlashtiradi va ularning tezroq kamol topishga imkon yaratib beradi.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Demokratik jamiyatning milliy, umumbashariy ijtimoiy asoslarini bayon etingq
2. Millatning genofondi nima
3. Milliy tamoyillar, qadriyatlarning tarixiy, falsafiy ildizlari va zamonaviyligini izohlab beringq
4. O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligini asoslangq
5. Terrorizmning demokratik jamiyat qurishga qarshi qaratilgan qanday xavf-xatarlari mavjudq
6. Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida milliy, umuminsoniy, qadriyatlar tushunchasi haqida nimalar bayon etilganq

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2007. – 3–10-b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka, tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6.-T.: «O'zbekiston», 1997. 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.7. -T.: «O'zbekiston», 1998, 132-154-betlar.
4. Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. T.7.-T.: «O'zbekiston», 1999. 84-102-betlar.
5. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. T.: «O'zbekiston», 2005, 5-33 betlar.
6. Karimov I.A. Milliy istiqlool mafkurasi - xalq ehtiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 489-508-betlar.
7. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 462-467-betlar.
8. Karimov I.A. Hushyorlikka dahvat. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 18-31-betlar.

9. Karimov I.A. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga so'z boshi. T.9. -T.: «O'zbekiston», 2001. 220-224-betlar.
10. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch - qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. -T.: «O'zbekiston», 2004.
11. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch - qudratimizga, hamjihatligimiz va qathiy irodamizga bog'liq. -T.12. -T.: «O'zbekiston», 2004. - 400 b.
12. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: «O'zbekiston», 2005. -96 b.
13. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish - har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 285–312-b.
14. Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezoni bo'lsin. Surxondaryo viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. –313–337-b.
15. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. –156–223-b.
16. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.14. – T.: O'zbekiston, 2006. – 61–97, 139–153, 248–265-b.
17. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoitini yaratish – asosiy vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2007. – 11-b.
18. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48 b.
19. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – faravon hayot garovidir. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2007. – 64 b.
20. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – T.15. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 3-11, 154-211-241-251-b.
21. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48 b.
22. Rahimov I., Zohidov A., Azizov SH., Ayupov A. va boshq. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. -T.: «Universitet», 2001. 232-bet.
23. Pugachev V.P., Solovg'ev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 202-255-betlar.
24. O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T.: «O'qituvchi», 2004, 3-44-betlar.
25. Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. T.: Toshkent Moliya instituti, 2004, 3-180-betlar.
26. Saifnazarov I., Karimov T.: Muxtarov A. Xalqimizning hamjihatligi terrorizmga qarshi kafolatdir. -T.: «Yangi asr avlodi», 2004. - 56 b.
27. Saidolimov S.T. Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlashning ayrim jihatlari. «Xalqaro munosabatlar» jurnali, 2004, №1, 20-22-bet.
28. Bekmurodov A.SH., Ma'naviy-mahrifiy faoliyat: ustuvor masalalar va innovatsiyalar. - T.: TDIU, 2005. - 44 b.
29. SHarifxo'jaev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. – T.: SHarq, 2005. – 240 b.
30. Aliev B., Hoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot nashriyoti», 2005. – 160 b.
31. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: “SHarq”, 2006. – 528 b.

32. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar. – T.: “Ma'naviyat”, 2006. – 160 b.
33. To'xliiev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashr., 2006. – 280 b.
34. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 204 b.

MAVZU. MILLIY-MA'NAVIY NEGIZLARGA TAYANISH – DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING ZARURIY SHARTI

1. Milliy-ma'naviy negizlar tushunchasi, mazmuni va mohiyati hamda mustaqillik, demokratik jamiyat qurilishida uning yangicha mazmun kasb etishi

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy-ma'naviy negizlari.

Mustaqillikni mustahkamlash davrida jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, barcha jabhalarda tub tarixiy burilish bilan bog'liq bir qator muammolarni va vazifalarni hal etishni taqozo etadi. Ana shunday ulkan vazifa va mashuliyat xalqimizdan bir tomondan ma'naviy yangilanish jarayonini to'liq idrok etishni, ikkinchi tomondan esa demokratik jamiyat qurishda unga tayanishni taqozo etadi. Negaki milliy-ma'naviy yangilanish, yuksalish, taraqqiyot omiliga aylanmoqda. SHu bois, mustaqillik yillarida jahon tsivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk allomalarimizning merosini ham yangidan ijodiy o'zlashtirish hayotiy ehtiyojga aylandi. Ayniqsa, Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Hoja Bahouddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, CHO'lpon, Fitrat, Behbudiy, Usmon Nosir va boshqa ko'plab buyuk siymolarimiz ilmiy-adabiy merosini o'rganish mamlakatimizda barpo etilayotgan demokratik jamiyatning milliy-ma'naviy negizlarini tashkil etadi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.³⁵ Masalaning xuddi shu jihatiga urg'u berib, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida bayon etilgan oltita ustuvor yo'nalishning bajarilishi kerak bo'lgan ulkan vazifalar paydo bo'ldi. Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'ziga xos milliy ma'naviyat va madaniyatning sohibiga aylandi.³⁶

O'zbekiston bugungi kunda tom mahnodagi asrga teng buyuk voqealarni boshidan kechirmoqda. Tarixdan ma'lumki, biror xalq hayotida tub burilish sodir bo'layotgan davrlarda jamiyat yangi istiqbollar sari bormog'i uchun ijtimoiy munosabatlarni shunga muvofiq o'zgartirmog'i lozim bo'ladi. SHu bois ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar shaxsning va butunisicha jamiyatning tafakkurida, dunyoqarashida, ma'naviy olamida o'zgarishlarni taqozo etadi.

XX asrning ulug' gumanisti A.SHveytser: “Voqelikni shakllantiruvchi kuchlar ichida ma'naviyat birinchidir”³⁷, - degan edi. Biz bugun ulkan imkoniyatlar davrida yashamoqdamiz. Biroq ularni real voqelikka aylantirish yo'lidagi g'ov va xafv-xatarlar ham mavjudligicha qolmoqda.

Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirish uchun avvalo, insonlar ongida tub o'zgarishlar yuz berishi zarur. Zero, kishilar tafakkurini band etgan eski andozalardan, tor qoliplardan, o'z umrini yashab bo'lgan aqidalardan xalos etmay turib, yangi

³⁵ Karimov I.A O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997, 137-138-b.

³⁶ Karimov I.A. Xavfsizlik va baqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild. -T.:O'zbekiston, 1998. 125-b.

³⁷ Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan xamkorlik yo'li. T.II. -T.: O'zbekiston, 2003. 34-b.

davr, tarixiy taraqqiyot bilan tabiiy ravishda qo'l ushlashib keladigan yangidan-yangi muammolarni hal etib bo'lmaydi.

Prezident I.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida mustaqil taraqqiyotimizga xavf solayotgan tashqi va ichki tahdidlar va ularning oldini olish yo'llari haqida batafsil fikr yuritib, ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning ahamiyatiga alohida urg'u beradi: "Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi"³⁸, - deya alohida ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, jamiyatni ma'naviy yangilamay, kishilar tafakkurini o'zgartirmay turib, demokratik jamiyatni qurish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, umuman hech qanday taraqqiyotga erishish mumkin emas. Zero, demokratik fuqarolik jamiyati yuksak ma'naviyat va keng mahrifat tantana qilgan jamiyatdir.


Mustaqillik tufayli milliy-ma'naviy tiklanishga imkoniyat yuzaga keldi. Prezidentimiz Islom Karimov "mahnviy o'nglanishni amalga oshirmasdan iqtisodiy o'nglanish mumkin emas"ligini aytib, "Ma'naviyat xalqni, millatni millat qiladigan kuch-qudratdir"degandi. SHu sababli mustaqillik yillarida jahon tsivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk alloma Imom Buxoriy, at.Termiziy, B.Naqshband, Ahmad Yassaviy, al-Xorazmiy, Farg'oniy, Beruniy, Ibn-Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy kabi buyuk zotlar merosini o'rganish demokratik jamiyatning milliy ma'naviy negizlarini tashkil qiladi. Prezident Islom Karimov 1992 yilda yozgan "O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li" asarida O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini ko'rsatib bergan edi:

- 1) umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- 2) xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- 3) insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- 4) vatanparvarlik.

³⁸ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild. -T.: O'zbekiston, 1998. 125-bet.

Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy- axloqiy negizlari

**O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li
to'rta asosiy negizga asoslanadi
Bu negizlar:**



Milliy va umuminsoniy tamoyillar.

Milliy tamoyillar	1) Xalqimiz hayotida jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi. 2) Jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi. 3) Ota-ona, mahalla-ko'y, umuman jamoaga yuksak hurmat-e'tibor. 4) Millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat. 5) Kattaga - hurmat, kichikka –izzat. 6) Mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi-ayol zotiga ehtirom. 7) Sabr-bardosh va mehnatsevarlik. 8) Halollik, mehr-oqibat va h.k.
------------------------------	---

Bu tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishda muhim vazifa va manba hisoblanadi. 2002 yil 29 avgust Oliy Majlisning 9-sessiyasida Prezidentimiz Islom Karimov "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada

chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asolarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" mahruzasida jamiyatni ma'naviy yangilash lozimligi tushunchasini mohiyatan ochib berdi. "Barcha islohatlarning bosh yo'nalishi va samaradorligi pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezonidir" deb bu masalaga alohida ehtibor qaratgan edi. Inson manfaatlarini amalga oshirish uchun zarur sharoit, imkoniyat yaratish orqali demokratik jamiyatni barpo etish mumkin. Prezidentimiz bu masalaga diqqat berib, "Buyuk ajdodlarimizning beqiyos ma'naviy merosi ming yillik tariximiz va madaniyatimizga asoslangan ma'naviy hayotimizni tiklay boshladik. Dinimiz, tilimizga qaytdik, milliy urf-odatlarimiz va anhanalarimiz, xullas inson ma'naviyatiga daxldor barcha boyliklarimiz qaytadan qad rostlamoqda".

Barkamol shaxs-demokratik jamiyat tushunchasidir. Ma'naviy barkamol inson xaqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar, falsafiy fikrlar tarixda kecha paydo bo'lgan emas. Uning tarixiy ildizlari SHarq mutafakkirlari ijodiy, falsafiy tahlimotlariga borib taqaladi. SHu sabab "Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz" degan edi I.Karimov. Prezidentimiz bu borada komil insonga tahrif berib, ongi yuksak, mustaqil fikrli, xulq atvori bilan ibratli, bilimli, mahrifatli kishini tushunishini bayon etgan edi. SHu boisdan ham jamiyatning ma'naviy yangilanishi demokratik jamiyat barpo etish omilidir. Milliy-ma'naviy negizlarni bilish uchun tarixni, milliy o'zlikni anglash ham zarur, chunki xalq ma'naviyatning asosidir.

Darhaqiqat, demokratiya har bir inson uchun oliy qadriyatga, jamiyatning boyligiga aylanmog'i kerak. Busiz u shunchaki nazariya yoki qog'ozda qolgan qonunligicha qoladi, xolos. "Barcha islohotlarimizning bosh yo'nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezonidir."³⁹ Negaki, bozor iqtisodiyotini barpo etish birdan-bir maqsad emas. Barcha islohotlar – iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlardan ko'zlangan pirovard maqsad insonning mehnat, ijodiy va ma'naviy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdan iborat. «SHu sababli – deb ta'kidlagan edi – Prezident I.A.Karimov – jamiyatning sifat jihatidan yangi holatga o'tishida bizga islohot chog'ida odamlar moddiy ahvoli keskin yomonlashadigan, axloqiy qadriyatlar, ma'naviy tayanchlar barbod bo'ladigan, o'tish davrining barcha qiyinchiliklari aholi yelkasiga tushadigan andoza maqbul emas»⁴⁰. Binobarin, eng avvalo, erkin fikrlaydigan odamgina o'z Vatanining haqiqiy farzandiga aylanadi. CHunki tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutilmasa, inson to'la ozod bo'lolmaydi. Inson ozod emas ekan - jamiyat demokratik tamoyillarni qabul qilmaydi.

Demak, inson manfaatlarini amalga oshirish uchun zarur sharoit, imkoniyat yaratish orqaligina demokratik jamiyatni barpo etish mumkin.

O'zbekistonda kechayotgan demokratik o'zgarishlarning jamiyatning ma'naviy yangilanishiga bog'liqligi. O'zbekistonda kechayotgan demokratik o'zgarishlarning jamiyat ma'naviy yangilanishi bilan bog'liqligining yana bir jihati bor. Ana shu bog'liqlik Prezident I.A.Karimovning bir qator risolalarida va mahruzaralarida alohida ta'kidlangan. U O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi umumiy yig'ilishida (1994 yil 7 iyulda) so'zlagan nutqida shunday degan edi: «Buyuk ajdodlarimizning beqiyos ma'naviy merosi ming yillik tariximiz va madaniyatimizga asoslangan ma'naviy hayotimizni tiklay boshladik. Dinimiz va tilimizga qaytdik, milliy urf-odatlarimiz va anhanalarimiz, xullas, inson ma'naviyatiga daxldor barcha boyliklarimiz qaytadan qad rostlayapti»⁴¹. Darvoqe, Prezidentimizning ma'naviyat, uning mohiyati to'g'risida nazariy-ilmiy fikrlari g'oyat chuqur va keng qamrovlidir. SHuningdek, u ma'naviy tarbiya - mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti ekanligiga alohida ehtibor beradi. Dunyo tarixida mustaqillik va ozodlik kurashchilari timsoliga aylanganlardan biri, XX asr buyuk hind davlat arbobi Maxatma Gandi: "Insoniyat – bu yagona

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi ma'ruzasida bayon etilgan asosiy vazifalar va qoidalarni keng yoritish bo'yicha tashkiliy-ma'rifiy tadbirlar dasturi. -T.: O'zbekiston, 2002. B.29.

⁴⁰ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.I. -T.: O'zbekiston, 1996. –322-b.

⁴¹ Karimov I.A. Istiqol va ma'naviyat. -T.: O'zbekiston, 1994. – 14-b.

oila, bo'linmas oila. Uning har bir ahzosi sodir qilgan jinoyat uchun har birimiz javobgarmiz", - degan edi. U yoki bu millat yoki davlat ana shu insoniyat degan katta oilaning ichidagi kichik oila. Ana shu oila ahzolarida bahamjihatlik, ma'naviy mushtaraklik bo'lmas ekan, ular Gandi so'zlarida aks etgan ma'naviy burch hissi bilan yashamas ekan, yorug' kelajak haqidagi o'ylar xomxayol bo'lib qolaveradi. Zero, demokratik rivojlanish barqarorlik va ijtimoiy hamkorlikka tayanadi.

Odamlar ma'naviyat rishtalari bilan bog'langandagina, ular xalq, millatga aylanadi. CHunki "ma'naviyat - insonni ruhiy poklanish va yuksalishga dahvat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, ehtiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch"dir.⁴²

Ma'naviyat mavhum tushuncha emas. U millat bilan, milliy tafakkur bilan, millatning tarixi, asrlar mobaynida to'plangan bilim va tajribasi, tushunchalari, tasavvurlari bilan bog'liq. Frantsuz mahrifatchisi Jan Jak Russo Yevropa jamiyati hayotida ulkan siljishlar sodir bo'layotgan XVIII asrda xalqda milliy xarakterni shakllantirishni birinchi vazifa, deb bilgan edi. CHunki uning nazdida "har qanday yaxshi o'zgarishlarning umumiy maqsadlari har bir davlatda mahalliy shart-sharoit va aholining o'ziga xos xususiyatlari asosida shakllanadigan munosabatlarga muvofiq shakl olishi kerak"⁴³. J.Russoning fikrlarini bugungi kun nuqtai-nazaridan talqin qilsak, demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, adolatli, ma'naviyati yuksak insonlar jamiyatini qurishda jahon tajribasiga tayangan holda, avvalo, milliy mentalitetni inobatga olish kerakligi ma'lum bo'ladi. Ayni paytda shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda kechayotgan demokratik o'zgarishlar jamiyat ma'naviy yangilanishiga bog'liqligini faqat o'zbek millati ma'naviyati bilan bog'lash va uni shunday deb baholash adolatdan emas. Balki uning bilan yagona bir mamlakat hududida yashayotgan turli xalq va millatga mansub bo'lgan barcha aholining, turli etnik birliklar va ijtimoiy guruhlarining ham umumiy boyligi, deb qarash haqiqatga yaqinroq bo'ladi.

Demak, O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish vazifasini ma'naviy yangilanishlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bu haqiqatni hech qachon unutmaslik kerak.

Demokratiya - bu kishilarning birgalikda hayot kechirishi, muammolarni bahamjihatlik bilan hal qilishi, shaxsiy manfaatlarni jamoa, millat, davlat manfaatlari bilan uyg'un ko'rishi, bir so'z bilan aytganda, murosa qilish madaniyatidir.

1983 yili jahonning 29 mintaqasi olimlari, jamoat arboblari iborat "Gumanitar muammolarni o'rganish bo'yicha Xalqaro Komissiya" tuzildi. Komissiya XX asrdagi gumanitar vaziyat va uni takomillashtirish ustida izlandi. Jazoir, SHveytsariya, Polg'sha, Avstriya, Xitoy, Hindiston, Meksika, Eron, SHvetsiya, Yaponiya - jami 29 mamlakatning mahrifatparvarlari dunyodagi gumanitar muammolarni amaliy o'rgandilar. "Insoniyat axloqi", "Global masalalar" (ya'ni ekologiya, qashshoqlik, qurollanish, terrorizm, narkomafiya), "Ommaviy qirg'in qurollari", "Qurolli to'qnashuvlar", "Daydi bolalar", "Oziq-ovqat inqirozi", "CHO'l-sahrolarning kengayib borayotganligi", "Favquloddagi vaziyatlar", "Urushlar" kabi halokatli holatlarning kelib chiqish sabablarini tahlil etib, barcha muammolar insoniy tuyg'ularning susayishi, ya'ni ma'naviy qadriyatlarining qadrsizlanishi bilan bog'liq, degan xulosaga keldilar. Ularning to'rt yillik mehnati natijasi bo'lgan kitob "Insoniyat insoniyligini saqlab qola oladimi?" (Ng'yu Jersi, 1989) degan iztirobli nom bilan jahon tillarida nashr qilindi.

2006 yil 2-3 noyabrda Xiva va Toshkentda Xorazm Mahmud akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlangan "Xorazm Mahmud akademiyasining jahon ilm-fani taraqqiyotidagi o'rni" mavzuida xalqaro ilmiy anjuman bo'lib o'tdi. Xorazm Mahmud akademiyasining 1000 yilligini nishonlash haqida Prezidentning (2004) qarori qabul qilingan edi. Bu yubiley YuNESKO ishtirokida o'tdi. Prezidentning 1997 yilda qayta tiklangan Xorazm Mahmud akademiyasi, Xorazmning XI asrdagi tarixi, madaniyati, uning tashkil topishi va faoliyati, u yerda Ibn Sino, Beruniy, Ibn Iroq va boshqa olimlar ishlaganligi qayd etildi.

⁴² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O'zbekiston, 1999, 17-b.

⁴³ O'sha joyda.

2007 yil 24–26 mayda Samarqand shahrining 2750 yilligi nishonlandi. Samarqand Buyuk Ipak yo'lida joylashgan. Samarqand Rim, Bobil, afina tengdoshi. YuNESKO Bosh konferentsiyasi 33-sessiyasining 2005 yil 20 iyuldagi qaroriga ko'ra 2750 yilligini nishonlash ko'zlangan edi. Ulug'bek madrasasida 150 dan ko'p mahruza tinglandi.


YuNESKO tomonidan Toshkentning 2007 yilda Islom madaniyati poytaxti, deb ehlon qilinishi munosabati bilan 2007 yil 14–15 avgustida Toshkent va Samarqand shaharlarida “O'zbekistonning islom tsivilizatsiyasi ravnaqiga qo'shgan hissasi” mavzuidagi xalqaro konferentsiya o'tkazildi.

Demokratik jamiyat qurishning milliy-ma'naviy, axloqiy negizlarining **1) falsafiy ildizlari** haqida fikr yuritganda, uning barcha ilmlarning otasi bo'lgan falsafa fani xulosalariga asoslanishi nazarda tutiladi. Bunga uyg'onish davri va o'rta asrlarda milliy davlatchiligini tiklay boshlagan Yevropa xalqlarining har biri o'ziga xos ma'naviyatini yaratganini misol keltirish mumkin. Mazkur qadriyatlar Rim imperiyasi parchalangandan keyin o'z davlatchiligiga ega bo'lgan xalqlarning o'ziga xos qadriyatlari va mentaliteti zaminida vujudga kelgan milliy falsafalar asosida shakllandi. SHu bois o'sha davrdagi italg'yan, ingliz, frantsuz falsafasi o'zi mansub bo'lgan jamiyatni birlashtirishga xizmat qildi. SHu bilan birga, bu milliy maktablar zaminida vujudga kelgan falsafiy tahlilotlar, mahrifiy qarashlar insoniyat madaniyati xazinasiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Jamiyat va tsivilizatsiyalar rivojiga ulkan tahsir ko'rsatgan nazariyalar, tahlilotlar va mafkuralar mavjud. Zardusht, Sokrat, Platon, Konfutsiy, Alisher Navoiy, Maxatma Gandi va boshqalarning bunyodkor g'oyalari tarixda o'chmas iz qoldirgan. Sohibqiron Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari va faoliyati SHarq madaniyatining gurkirab rivojlanishiga buyuk hissa qo'shdi.

Kant, Gegel', Nitshe kabi mutafakkirlar nomi bilan shuhrat topgan nemis falsafasi xususida ham shunday fikrni aytish mumkin. Jumladan, haqiqiy milliy xususiyatlarga ega bo'lgan Gegel' falsafasi Avstriya imperiyasidan ajralib, mustaqillik yo'lini tutgan Pruss monarxiyasining davlat mafkurasi darajasigacha ko'tarilgan.


Milliy-ma'naviyatning **2) dunyoviy ildizlari** mahrifiy dunyoga xos siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar majmuidan iboratdir. Asrlar mobaynida insoniyat bosqichma-bosqich dunyoviylik sari intilib keldi. Umumehtirof etilgan tamoyillar va qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi. Insonning haq-huquqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo'li bilan kafolatlanadi. Bunday jamiyat mafkurasi «Dunyoviylik - dahriylik emas» degan tushuncha asosida rivojlanadi, ya'ni dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini aslo inkor etmaydi.



Milliy ma'naviyatning **3) diniy ildizlari** deganda u inson ongi va ruhiyoti bilan uzviy bog'liq ekani va shu bois uning g'oyaviy ildizlari diniy tahlimotlarga borib taqalishi tushuniladi. Ya'ni ko'pgina mafkuralarda «Zabur», «Tavrot», «Injil», «Qurhon» kabi ilohiy kitoblar zikr etilgan ezgu g'oyalar muayyan darajada o'z ifodasini topganini ko'ramiz.

Xitoy xalqining taraqqiyot yo'lini asoslab bergan Konfutsiy va Lao TSzining tahlimotlari ham diniy qarashlarga asoslangan edi. Bu tahlimotlar asrlar mobaynida mamlakatning milliy mafkurasi bo'lib kelgan.

Dunyoviy va diniy g'oyalar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko'tariladi. Bunga bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Motrudiy va Abu Rayhon Beruniy, Imom Fazzoliy va Ibn Sino, Imom Termiziy va Abu Nasr Forobiy singari buyuk zakovat sohiblari yashab faoliyat ko'rsatgan davrlar yorqin misol bo'la oladi.



Milliy-ma'naviyatning tarixiy shakllarini, mazmun-mohiyatini azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik o'rtasidagi kurash dialektikasi belgilab keladi. Ya'ni bosqinchilik, boshqalar hisobidan boyish, tajovuzkorlik, aqidaparastlik mafkuralariga qarama-qarshi o'laroq, ozodlik, mustaqillik va adolat g'oyalari uzluksiz maydonga chiqib, xalqlarning muzaffar bayrog'iga aylangan.

2. Demokratik jamiyat qurilishida milliy g'oya va ma'naviy negizlarga tayanish zaruriyati hamda unga zid jarayonlarga qarshi kurashish

2001 yil 18 yanvarda O'zbekiston Prezidentining «**Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar**» fani bo'yicha tahlil dasturlarini yaratish va respublika tahlil tizimiga joriy etish to'g'risida»gi Farmoyishi qabul qilindi. SHuningdek, 2006 yil 25 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «**Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-mahriy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida**» qarori qabul qilindi.

Qarorga binoan Respublika Ma'naviyat va mahrifat kengashi huzuridagi Milliy mafkura ilmiy targ'ibot markazi o'rniga Respublika Ma'naviyat va mahrifat kengashining ilmiy-amaliy yo'nalishda faoliyat olib boradigan, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Ya'ni Respublika «Ma'naviyat va mahrifat» markazi Respublika Ma'naviyat va mahrifat kengashining amaliy targ'ibot yo'nalishida faoliyat olib boradigan Respublika targ'ibot markaziga aylantirildi.

Milliy istiqlol g'oyasining mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari Islom Karimov asarlarida asoslab berilgan tahlilotdir. Milliy istiqlol g'oyasining mazmuni quyidagilardan iborat:

- Tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq chiqarish, o'zlikni anglash mezon.
- Xalq maqsadlarini ifoda etib, jamiyat ahzolarini birlashtiruvchi g'oyaviy vazifani bajaradi.
- Millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch ehtiborining manbaidir.
- O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam vakillariga birday taalluqlidir.
- Millat aholisi ongi va qalbida «O'zbekiston - yagona Vatan» degan tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi.
- Turli millat, qatlam, uning vakillari, siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan yuksak fenomen - ijtimoiy hodisa mazmuniga egadir.
- Biron-bir dunyoqarashni mutloqlashtirmaslik yoki biron-bir kuch, partiya yoki guruh qo'lida siyosiy qurolga aylanmaslik.
- Har qanday ilg'or g'oyani singdirish va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olish.
- Sub'ektivizm, valyuntorizm kabi illatlardan xoli va jamiyatimizning xolis fikriga tayanuvchi ob'ektiv mafkura bo'lish.
- So'z bilan ishni, nazariya bilan hayotni birlashtira olish.
- Davr o'zgarishlariga qarab, o'zi ifodalaydigan g'oya, manfaat, muddaolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalaridan ijodiy foydalanish.

Jahonning demokratik mamlakatlari tajribasida mafkuraviy tarbiyaning boy imkoniyatlari, turli namunalari to'plangan. XX asr 60-70 yillari Farbiy Yevropa va AQSHda **mafkurasislashuvga**, ya'ni ijtimoiy hayotni mafkuradan holi (**deideologizatsiya**) etishga urindilar. Lekin bu yo'l o'zini oqlamadi. Chunki tarbiyadagi mafkuraviy bo'shliq o'z asoratlarini ko'rsata boshladi... Natijada «mafkuraviy yangilanish», «qayta mafkura-viylashuv» (**reideologizatsiya**)ga kuchli zarurat tug'ildi va mafkurasislik xatosini tuzatishga kirishildi. SHu tariqa, Farbiy Yevropa va AQSHning pozitivistik pedagogikasi ijtimoiy qadriyatlarga ehtiborni, mafkuraviy tarbiyani o'z ichiga oluvchi «maktabda o'quvchilarni siyosiy indoktrina-tsiyalashni amalga oshirish» kontsepsiyasini ishlab chiqib, uni hayotga tatbiq qila boshladi.

O'zbekiston davlati sobiq SSSR davrida **ideologizatsiya** (mafkurash-tirish) yo'lidan 1991 yilgacha keldi. So'ngra **deideologizatsiyalashtirildi**. Prezident Islom Karimov 1998 yil «Tafakkur» jurnali bosh muharriri bilan suhbatidan «Jamiyat mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin», 2000 yil «Milliy istiqlol mafkurasi - xalq ehtiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir» («Fidokor» gazetasi muhbiri bilan savol-javoblari) suhbatidan so'ng **O'zbekiston reideologizatsiya** (2000) yo'lini tanladi.


Foya tushunchasi: G'oya – inson tafakkuri mahsuli bo'lib, muayyan maqsadni amalga oshirish uchun narsa va hodisalar to'g'risida ilgari surilgan izchil fikrlar shakli. Foya – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli tahsir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr. Inson ongining mahsuli sifatida g'oyalar tushuncha va fikrlar yordamida ifoda etiladi. **G'oya** – bu yoki bu ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotdagi voqea-hodisalarni yo qo'llab-quvvatlaydi, himoya qiladi yoki rad etib unga qarshi kurashishga dahvat qiladi. **Foya - inson tafakkuri mahsuli, milliy g'oya esa millat tafakkurining mahsulidir.** Foya - ob'ektiv voqelik hodisalarining inson tafakkurida aks etishidir. Foyalar dunyoni o'rganishga va amaliy o'zgaruviga xizmat qiladi.

Milliy g'oya xalqning tub manfaatlarini ifoda etadigan, uni o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari birlashtiradigan va safarbar etadigan g'oyadir.

Milliy g'oya – u yoki bu millat, xalq, elatning milliy anhanalarini, turmush tarzini va tanlab olgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy tizimni va umuman milliy manfaatlarni himoya qiladigan, qo'llab-quvvatlaydigan, ularni mustahkamlash uchun ko'maklashadigan qarashlar majmuidan iborat. O'z tarixi va taraqqiyotining tub burilish davrlarida har qanday millat va xalq kelajagini belgilaydi, unga yetishning o'ziga mos yo'llarini tanlaydi. Ana shu jarayonga xos ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yo'nalishlar bilan barcha g'oyaviy tamoyillarini ham

belgilab oladi. Bunda butun millat uchun umumiy bo'lgan g'oyalar nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan «Vatan ravnaqi», «Yurt tinchligi», «Xalq farovonligi», «Komil inson», «Ijtimoiy hamkorlik», «Millatlararo hamjihatlik», «Diniy bag'rikenglik» kabi g'oyalar ana shunday umummilliy g'oyalar qatoriga kiradi.

4-Slayd



O'zbek milliy g'oyasi - o'zbek xalqi milliy mafkurasining g'oyalari umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi. Bu g'oyalar yer yuzidagi barcha tinchliksevar, ezgulikka intiluvchi xalqlar va millatlar, davlatlar qabul qiladilar.

Mafkura (arab. - fikrlar majmui, nuqai nazarlar, ehtiқodlar tizimi) – muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat, jamiyat yoki davlatning manfaatlari, orzu-istak, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyaviy-nazariy qarashlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir. Unda manfaatlari ifodalanayotgan kuch va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi.

Mafkura (arab. «mafкura» – fikrlar, nuqtai nazarlar va ehtiқodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmui.

Mafkura keng mahnoda: ijtimoiy borliqning jamiyat hayotining ma'naviy-siyosiy inhiқosidir, uning inson ongida aks etishi, inson tomonidan anglanib, butun tizim holiga keltirilishi va bu tizimning Amaliy faoliyatda nazariy asos hamda ruhiy tayanch bo'lib xizmat qilishidir.

Milliy istiқolol mafkurasі – bu istiқlolga erishilgandan keyin shakllangan va taraqqiy etayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotini va olib borilayotgan ham ichki ham tashqi siyosatni himoya qilib qo'llab-quvvatlaydigan qarashlar, nazariyalar majmuidir.

Turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyatdagi har xil tabaqa va qatlam-larning mafkurasі turlicha bo'lishi tabiiy. Buning asosida manfaatlarning turlichaligi, ularni qondirish imkoniyatlari va uslublarining har xilligi yotadi. Sinfiy qutblashuv kuchaygan, sinfiy kurash avj olgan (yoki sunhiy ravishda keskinlashtirilgan) tuzumlarda mafkura o'ta siyosiylashadi, aholini o'zaro qarama-qarshi qilib qo'yadi.

Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin demokratik jamiyat barpo etishni ko'zlagan davlatlarda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini jipslashtirishga, umummanfaat va yagona maqsad yo'lida birlashishga chorlaydi. Bunday mafkuralarda ziddiyatli jihatlar emas, umuminsoniy tamoyillar kuchayib boradi.

O'zbekiston xalqining milliy istiқlol mafkurasі aynan jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yo'lida yakdil harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fuқarolik jamiyatida har bir yurtdoshimizning o'ziga xos o'rni bo'lishiga erishishga safarbar etadi.

Prezidentimiz Islom Karimov mafkuraга shunday tahrif bergan: *«Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab*

berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman⁴⁴. Binobarin, milliy mafkura har qanday xalqni xalq, millatni millat qiladigan, uning yo'li va maqsadlarini aniq-ravshan charog'on etadigan mayoqdir.

Insoniyat hayotida g'oyaga qarshi - g'oya, jaholatga qarshi - mahrifat tamoyili. Islom Karimov 1998 yili «**Tafakkur**» jurnali bosh muharriri bergan savollariga javobda, tarixchi olimlar bilan bo'lgan uchrashuvda bu masalaga diqqat bilan ehtibor berib, «g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat mahrifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin» degan shior o'rtaga tashlandi. Bu masala g'oya va mafkura tushunchasida ham muhim o'rinda turadi.

Yot g'oyaga qarshi biz o'z olijanob g'oyamizdan maktablarimizda, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida, jamiyatimizning barcha qatlamlarida bizga mutlaqo begona bo'lgan zaharli intilishlarga, huruj va harakatlarga qarshi chiqishimiz lozim. Bunda eng muhim masalalardan biri odamlar o'z fikrini aytishga, erkin fikrlashga o'rganishi kerak. Ya'ni ***fikrga qarshi fikr*** bo'lishi zarur. SHu bois yoshlarimizni maktab va oliy o'quv yurtlarida erkin fikrlashga, baxslashishga o'rgatishimiz kerak. Uchinchi masala - ***jaholatga qarshi mahrifat***. Bu o'rinda asrimiz boshida xalqni mahrifat va milliy uyg'onishga chorlagan jadidchilik harakati namoyandalari hayotini, ijodini, intilishlarini o'rganish, ularning bugungi kundagi mohiyati va ahamiyati haqida ham gapirishimiz zarur. Ularning merosi bugungi kunda qanday o'qitilmoqda? Umuman aytganda, mahrifiy ozuqa qanday bo'lishi kerak? Bolalarimiz o'qiyotgan kitoblarda mahrifat ziyosi bormi. Biz istayotgan milliy g'urur, milliy mafkura, milliy g'oya ularda yetarli darajada aks etganmi? (Karimov I.A. Asarlar. T.8., 468-469-betlar).

Mazkur tamoyilga ko'ra g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi mahrifat bilan kurashga intilish xissi inson qalbidagi ehtiqod, odam ongidagi dunyoqarash o'z-o'zini himoya qila olish qobiliyatidan dalolat beradi. Bunday kurash usuli, ayniqsa bugungi kunda, insoniyat taraqqiyot borasida juda ilgarilab ketgan XXI asrda g'oyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki eng kuchli qirg'in qurollari ishlab chiqilgan, sayyoramizni bir necha marta yo'q qilib yuborishga qodir bo'lgan yadroviy bombalar zahirasi to'planib qolgan paytda o'zaro zo'ravonlik va jaholatga yo'l qo'yib bo'lmaydi. SHu boisdan ham mafkuraviy ***immunitetni shakllantirish*** xususiyatlari ogohlik, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi mahrifat bilan kurasha olish ko'nikmalaridir. Har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur». (Karimov I.A. T.8. 494-bet). Ushbu vazifani milliy istiqlol g'oyasi bajaradi. Prezidentimiz «***Millatni asrash kerak***» degan g'oyani ilgari surdi. Millatni asrash - o'zligimizni, odob-axloqimizni, merosimiz, qadriyatlarimiz va milliy ruhimizni zararli g'oyalar va mafkuralar tahsiridan avaylab-asrash, ularga qarshi fuqarolarimiz va yoshlarimiz qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish degan mahnoni anglatadi⁴⁵. Mafkuraviy immunitetni hosil qilish uchun sog'lom, insonparvar g'oya va mafkura bilan qurollantirish kerak. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy vazifasi esa xalqimizda milliy ehtiqod va dunyoqarash asoslarini shakllantirishdan iborat.

Mahrifat vositasida kurashish deb, biron bir xavfning mohiyatini chuqur anglab, unga qarshi bilim bilan ongli ravishda kurashishga aytiladi.

Jamiyat ahlining mustahkam va ravshan mafkurasi, uning maqsad-muddaosi bo'lishi kerak. Modomiki, maqsad, g'oya haqida mulohaza yuritish ekanmiz, oldin bayon etganimizdek, «Maqsad degani - xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bamisoli bir bayroq. Bu bayroq butun O'zbekiston xalqining ruhini, g'urur-iftixorini, kerak bo'lsa, qudratini, orzu-

⁴⁴ Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin. T.7. -T.: «O'zbekiston», 1999. 89-bet.

⁴⁵ Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005. 78-bet.

intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuchdir. Davlatimizning, xalqimizning, el-yurtimizning maqsadi o'zining ulug'vorligi, hayotiyliigi va haqqoniyliigi bilan Hammamizni jalb etadigan bo'lmog'i lozim. Toki bu maqsad xalqni - xalq, millatni - millat qila bilsin, qo'limizda yengilmas bir kuchga aylansin». (Karimov I.A. Asarlar. T.7. 89-bet).

I. “Jamiyat mafkurasini xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin” (1998) asari. 1998 yili “Tafakkur” jurnali bosh muharririning savollariga javoblarida eng muhim quyidagi masalalar o'z ifodasini topgan:

❖ G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga farshi mahrifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin.

❖ Eng dahshatlisi – fikr qaramligi, tafakkur qulligi. Milliy mafkura – millatni birlashtiruvchi bayroqdir.

❖ Mafkurasiz odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotadi.

❖ Mafkura poligonlari yadro poligonlaridan kuchlidir.

❖ Mafkura – o'tmish va kelajak o'rtasidagi ko'prikdir.

❖ Millatning, xalqning hamjihatligi taraqqiyot garovidir.

❖ Ongli turmush – jamiyat hayotining bosh mezon.

❖ Maqsadimiz – erkin shaxsni tarbiyalash.

❖ Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari.

❖ Jaholat – mahrifatning kushandasi.

❖ Yurtimizning xavfsizliigi – siyosatimizning bosh yo'nalishi.

❖ Eng oliy maqsad – xalqimizning omonliigi.

Milliy g'oya, milliy mafkura quyidagi talablarga javob berishi kerak:

❖ O'zligimizni, muqaddas anhanalirimizni anglash, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyat maqsad va vazifalarini qamrab olishi shart.

❖ Xalqimizni yagona milliy bayroq atroqida birlashtirish, buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona mafkura bo'lishi kerak.

❖ Mafkuramiz milliy qusurlardan, millatchilikdan, mensimaslik, kamsitish kabi holatdan xoli bo'lishi kerak.

❖ Milliy g'oya yosh avlodni vatanparvarlik , insonparvarlik , odamiylik fazilatlarini shakllantirish zarur.

❖ Vatan o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lashi, ajdodlarimiz yaratgan boy ma'naviy merosning munosib vorislari bo'lishi darkor.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi siyosiy mafkura bilan bevosita bog'liq bo'lib, milliy istiqlool g'oyasi – mafkurasi bilan birga bir maqsadga yo'naltirilgan. Ikkalasi uyg'un rivojlangan taqdirda quyidagilar kutiladi:

❖ Ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy tahsir qiladi va natijada mamlakatimizdagi ijodiy muhit butunlay o'zgaradi.

❖ Insonning hayotda o'z o'rnini topishi tezlashadi.

❖ Mustaqil fikrlovchi erkin shaxs shakllanadi.

❖ Jamiyat intellektual potentsiali oshadi.

❖ Davlat funktsiyalari va alomatleri asta-sekin tadrijiy ravishda kuchli jamiyat zimmasiga o'tadi (“Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” g'oyasi amalga oshadi).

Asarda prezident Islom Karimov mafkuraga quyidagicha tahrif berilgan: “Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgileb berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prikdir bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasini deb bilaman” (Asarlar. T. 7, 89-b.).

II. Prezident Islom Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” (tarixchi olimlar bilan 1998 yil 26 iyundagi suhbatini) asarida quyidagi muhim mafkuraviy g'oyalar ilgari surilgan:

* Mamlakatimiz kommunistik mafkura hukmronliigi yillarida butun ma'naviyatimiz, milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimiz toptalganliigi, tariximiz, milliy davlatchilik tarixi buzib

ko'rsatilganligi ta'kidlab o'tildi. Bu nuqson va qarashlarga mustaqillik yillarida aniq bir fikrga kelinmaganligi, milliy davlatchilik taraqqiyoti, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayoti atroflicha tahlil etilgan birorta jiddiy ilmiy tadqiqot yaratilmaganligi aytiladi.

* Davlatchiligimiz tub burilish pallasiga kirgan ayni bir paytda o'zimizning zamon va makondagi o'rnimizni aniq belgilab olishimiz, nasl-nasabimizni, kimligimizni bilishimiz kerak.

* Komil inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi deb ehlon qilindi. **Komil inson deganda** biz, avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, mahrifatli kishilarni tushunamiz.

* Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qola oladigan yagona kuch – mahrifatdir. Millatning madaniy saviyasi uning o'z tarixiga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi.

* O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Buni davlat siyosati darajasiga ko'tarish zarur va shunday bo'ldi ham.

* Faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi.

* Ma'naviyat, mahrifatni targ'ib qilish har bir ziyolining vijdon ishidir. Har bir ziyoli fidoiy mahrifatchi bo'lishi kerak.

* Inson uchun tarixidan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir.

* Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson. Uni yo'ldan urish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi. Tarix qadimiydir. Xorazm davlati 2700 yillik tarixga ega. Bundan 3 ming yil avval "Avesto" bizning zaminimizda yaratilgan.

* Milliy birligimiz, madaniyatimiz ildizlari, tomiri o'troq bo'lgan. "O'zbek" degan nom SHayboniyxon davridan meros emas, balki qadimiy millat bo'lib shakllangan. O'zbek tom mahnoda bunyodkordir.

* "Qurhoni Karim"ni yod bilgan Amir Temurdek inson yovuz bo'lmagan. Qonxo'r odamning "Kuch – adolatda" deyishi mumkin emas. Prezidentimiz I.A.Karimov Amir Temurning "Kuch – adolatda" degan g'oyasini rivojlantirib "Kuch – bilam va tafakkurda" g'oyasini ilgari surgan.

* O'zbek xalqining iligi to'q, baquvvat. Biz o'zbekligimizdan farlanamiz va g'ururlanamiz.

* Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixning tag-tomirigacha nazar tashlaymiz.

* Tarix – xalq ma'naviyatining asosidir.

* Biz Beruniylarga, Buxoriylarga, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Boburlarga vorismiz.

* Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizlarini anglab bo'lmaydi. Chunki mafkuraning falsafiy asoslari o'z davrida tarixiy haqiqat tufayli tug'ilgan. Tarix va falsafa mantiqiy ravishda bir-biri bilan uzviy bog'liq, uni o'rganish kerak. O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz kerak.

* Fan – jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch va vositadir.

* Izlanish, bahs, munozara bor joyda haqiqat yuzaga chiqadi.

* Dovyurak, zamonaviy fikrlaydigan, xalqaro anjumanlarda bahslasha oladigan olimlar (etishmaydi) zarur. Tarixchi mutaxassis kadrlarni tayyorlashni yaxshilash, tarixga ixtisoslashgan maktablar ochish lozim. Yosh istehdodli olimlarni akademiklar safiga kiritish zarur. O'zR FAsining Tarix, SHarqshunoslik, Etnografiya institutlari faoliyatini takomillashtirish darkor. Oliy o'quv yurtlarida tarixchi mutaxassis olimlar faoliyatini tanqidiy nazoratdan o'tkazish lozim.

* Har bir xalq o'z tarixini har xil tahsir va tajovuzlardan asrash kerak.

* Haqqoniy tarixni bilmasdan, uni falsafiy tahlil qilmasdan turib, o'zlikni anglash mumkin emas. Biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur.

III. I.A.Karimovning "Milliy mafkura – davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai" nutqining ahamiyati.

I.A.Karimov bu nutqini Milliy istiqlol mafkurasi kontseptsiyasining asosiy tamoyillariga bag'ishlab ilmiy va ijodiy jamoatchilik vakillari bilan 2000 yil 6 apreldagi uchrashuvda so'zladi.

Mazkur nutq jamiyatimiz hayotidagi eng muhim masalalardan biri milliy mafkura xususida bo'ldi. Bugungi kunda nafaqat iqtisodiy hayotimizda, balki, ongu tafakkurimizda ham yangilanish o'zgarish jarayoni kechmoqda. Pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishdagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai, ilmiy asos – ba milliy g'oya, milliy mafkuradir. Fikr bor joyda bahs bo'ladi, bahs bor joyda haqiqat yuzaga keladi. Milliy g'oya, milliy mafkura mahno-mohiyati, biz uchun juda zarur va kerakligini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

1) O'z kelajagini qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat o'z milliy g'oyasiga suyanishi va tayanishi zarur. Davlat tizimi, uni boshqarishdagi siyosat aniq mafkura asosiga qurilmag'i lozim. Oldin g'oya paydo bo'ladi. Odamlarimizni olijanob maqsad atrofida birlashtirishimiz zarur. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib, biz ko'zlagan oliy maqsadga erishib bo'lmaydi.

2) Biz totalitar tuzumdan erkin va ozod tuzumga o'tish sharoitida yashamoqdamiz. SHu davrda maqsadimiz aniq bo'lishi kerak. Mmaqsadga puxta ishlangan mafkura asosida yetishish mumkin.

3) Yoshlarimizni qanday g'oya negizida tarbiyalaymiz, qanday mafkura va tafakkur ular uchun qurol bo'lib xizmat qiladiq

4) Hech qanday g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymasligimiz kerak. Eng tahsirchan kurash avvalo, mafkura maydonlarida olib borilmoqda. Lekin, hali suyagi qotmagan yoshlarimiz soxta g'oyalarga orqasidan ergashib ketmoqda.

5) Milliy g'oya millatning o'zligini anglashga, qadriyatlarni tiklashga xizmat qilmog'i kerak.

6) Milliy mafkuramiz: a) milliy qadriyatlarga va b) umuminsoniy qadriyatlarga tayanishi zarur.

7) Milliy mafkura hech qanday shaklda davlat mafkurasi maqomiga ko'tarilmasligi kerak.

“G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi mahrifat bilan kurashish, olishish mumkin”. Ozod bo'lsang ozod bo'l, erkin bo'lsang erkin bo'l, mustaqil bo'lsang mustaqil bo'l. O'zbek millati oqko'ngil millat. Milliy mafkura o'zlikni anglashga xizmat qiladi. O'zlikni anglash o'z tarixini bilishdir. Tarixni bilish nasl-nasabini anglashdir. Milliy g'oya birlashtiruvchi kuch, qanot bo'lishi kerak. (Karimov I.A. Asarlar, T.8, 462-474-b.).

IV. Prezident Islom Karimov 2000 yil 8 iyunda “Fidokor” gazetasi muxbiri savollariga javoblari “Milliy istiqlool mafkurasi – xalq ehtiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir” deb nomlangan bo'lib, mazkur asar Prezidentning 8-jildidan joy olgan.

Har qanday jamiyatni, xalqni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishish uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor g'oyalari mavjud bo'lib kelgan. Prezidentimiz tahriricha, mafkura – jamiyatda yashaydigan odamlarning hayotiy mazmuni, intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Har qanday inson, tabiiyki, murod-maqsadsiz yashay olmaydi. Mamlakatlar, davlatlar o'z manfaatlarini milliy g'oya, milliy mafkura orqali belgilab oladi.

Hozirgi zamonda eng katta xavf – insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir.

Prezident Islom Karimovning “Milliy istiqlool mafkurasi – xalq ehtiqodi va kelajakka ishonchdir” asarida ko'tarilgan asosiy g'oyalar quyidagilardan iborat:

- Mamlakat, davlat manfaatlarini milliy mafkura orqali ifodalanadi.
- Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi.
- Qudratli davlatlar, ayrim siyosiy markazlar inson ongini zabt etib, o'ziga qaratish uchun kurashmoqda.
- Mafkura dunyosida bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi. CHunki hozirgi paytda ro'y berayotgan ayrim salbiy holatlar mafkuraviy bo'shliq tufayli yuz bermoqda.
- Odamning qalbida ikkita kuch – bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o'zaro kurashadi.
- Yot mafkuraviy tahsirga ayrim yoshlar kirib ketmasligi uchun mafkuraviy immunitetni

kuchaytirish kerak.

- Maqsad huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat.

- Siyosiy va davlat qurilishini erkinlashtirish lozim.

- Oilani mustahkamlash orqali adolatli jamiyatni shakllantirish.

- Jamiyatning iqtisodiy asosi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga qaratilishi kerak.

- Jamiyat yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlar asosida rivojlanadi.

- Milliy mafkurani yoshlar ongiga sodda, lo'nda qilib tushuntirishda turli vositalardan samarali foydalanish.

- Mafkura qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas, balki u uzluksiz jarayon bo'lganligi boisdan millat manfaatlariga javob berishi darkor.

- Milliy mafkurani tepadan turib yaratib bo'lmaydi, u printsiplial masaladir.

- Milliy istiqlol mafkurasi Vatan tuyg'usi, ona tiliga muhabbat, milliy qadriyatlarga ehtiborda bo'lishi, oila mahalla, ya'ni milliy qadriyatlar bilan birga umuminsoniy qadriyatlarga, diniy qadriyatlarga, mahrifat tamoyillariga monand rivojlanish kerak. (Karimov I.A. Asarlar. T. 8. 489-508-betlar).

V. 2001 yil 18 yanvarda O'zbekiston Prezidentining "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha tahlil dasturlarini yaratish va respublika tahlil tizimiga joriy etish to'g'risida gi Farmoyishi qabul qilindi. Bunga ko'ra Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, maktablarda "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar", "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fanlari tahlil dasturlariga kiritildi.

VI. 2006 yil 25 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-mahrifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga binoan Respublika Ma'naviyat va mahrifat kengashi huzuridagi Milliy mafkura ilmiy targ'ibor markazi o'rniga Respublika Ma'naviyat va mahrifat kengashining ilmiy-amaliy yo'nalishda faoliyat olib boradigan, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilgan Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Ya'ni, Respublika "Ma'naviyat va mahrifat" markazi Respublika "Ma'naviyat va mahrifat" kengashining amaliy targ'ibot yo'nalishda faoliyat olib boradigan Respublika targ'ibot markaziga aylantirildi.

1. Geosiyosiy maqsadlarga erishish yo'lidagi mafkuraviy tahsir o'tkazishning **«Bo'lib tashla va hukmronlik qil»** degan qadimiy tamoyilining quyidagi yo'llari mavjud:

1) Mamlakat ichida ijtimoiy parokandalikni keltirib chiqarish.

2) Mintaqa davlatlari o'rtasida turli ziddiyatlarni yuzaga keltirish. Mintaqada gegemonlikka asoslanib, davlatni zaiflashtirish orqali o'z «ittifoqchisiga» aylantirishga erishish.

3) Xalqaro maydonda muayyan mamlakat haqida noto'g'ri, noxolis tasavvurlarni shakllantirish.

2. Mintaqada geostretegik manfaatlarni ifodalovchi «Bo'lib tashla, va hukmronlik qil» tamoyilini to'ldirishga xizmat qiluvchi «Imtiyozli hamkorlikni belgilash» tamoyili ham mavjud. Uning maqsadi:

1) Har bir davlat kim balandir shiori bilan imtiyozli hamkorlikka asoslanishi.

2) Ayirmachilikni shakllantirish.

3) «Nomaqbul» davlatlar imkoniyatlarini cheklash.

4) Maqsad - muayyan mintaqaga tahsir o'tkazish plandarmiga ega bo'lish.

3. «Teng huquqli va o'zaro foydali hamkorlik» tamoyili geostro-tegin manfaatlarni ro'yobga chiqarish va davlatlararo aloqalarni mustahkamlashning eng oqilona va to'g'ri yo'lidir. O'zbekiston bunga amal qilib kelmoqda.

Barkamol shaxs – demokratik jamiyat tayanchi. Ma'naviy barkamol inson haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar, falsafiy fikrlar tarixda kuni kecha paydo bo'lgan emas. Uning tarixiy ildizlari SHarq mutaffakirlari ijodiy, falsafiy tahlilotlariga borib taqaladi. Ayni paytda dunyoda eng rivojlangan demokratik mamlakatlar tarixiy taraqqiyotini o'rganish shundan dalolat beradiki, biron-bir jamiyat dastlab barkamol avlodni voyaga yetkazmasdan turib, buyuk o'zgarishlarni sodir etolmagan. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining taqdiri, uning kelajagi ham bundan

mustasno emas. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ta'kidlab kelinayotganidek, har qaysi jamiyat, har qaysi davlat va millat qudrati, uning tabiiy boyliklari harbiy kuchiga va hatto ishlab chiqarish texnologiyalariga ham bog'liqligi nisbiydir. Uni birinchi navbatda dunyoga tanitadigan, yuksak madaniyatli ma'naviy barkamol insonlardir. Masalan, ana shu nuqtai nazardan yondashish muhim ahamiyatga egadir. Negaki, demokratik jamiyatning o'zini ham faqat mahrifatli, ma'naviy barkamol kishilargina barpo etishi mumkin. Prezident Islom Karimovning Oliy Majlisning Birinchi chaqiriq, birinchi sessiyasida «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» mahruzasida «Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz» - degan fikrlari mamlakatimizda demokratik jamiyatni barpo etishda – barkamol avlodni voyaga yetkazish strategik ahamiyatga ega ekanligi isbotidir. SHu o'rinda barkamol shaxs tushunchasi, uning demokratik jamiyatni barpo etishdagi o'rni masalasini tahlil etish muhim ahamiyatga egadir. Albatta, SHarqning buyuk allomalari asarlarida komil inson masalasi doimiy ravishda katta o'rin olib kelinganligiga va ularni bezovta qilganligiga ham bog'liq emas.

Bu muammoga o'z munosabatini bildirgan Yurtboshimiz shunday deydi: «Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, SHarqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar». Va davom etib **«Komil inson deganda, biz, avval, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, mahrifatli kishilarni tushunamiz.** Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikri-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi, yetuk odam bo'ladi».⁴⁶ Ana shunday barkamol, yetuk insonlarni tarbiyalab, voyaga yetkazish mustaqillikni mustahkamlash, uni ko'z-qorachig'iday asrab-avaylash talab-ehtiyoji bilan bog'liq bo'lgan ob'ektiv taraqqiyot zaruratidir.

Buyuk shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy bundan besh asr oldinoq komil insonlar haqidagi tahlilotini yaratgan edi. Uning bu haqdagi fikrlari asosan «Mahbub ul-qulub», «Hayrat ul-abror», «Nasoyimul muhabbat» asarida o'z ifodasini topgan. Alisher Navoiyning komil insonga xos xususiyatlar, uning SHarqona xislat va fazilatlarini batafsil sanab o'tgan. U «Mahbub ul-qulub» asarida «Odam ikki dunyoning eng aziz va sharof mahluqidir», degan so'zni keltiradi. A.Navoiy fikricha, Parvardigorning olamni yaratishdan maqsadi inson edi.

SHunday ekan, mamlakatimiz kelajagi, demokratik islohotlar taqdiri kishilarning, butun xalqning ongi, mahnaviyati darajasiga bog'liq. Inson ruhiyati sog'lom bo'lsa, o'zligini anglasa, shaxsga aylanadi. Kishi shaxs darajasiga ko'tarilsagina, ya'ni o'z mustaqil fikriga, dunyoqarashiga, chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lganidagina, «demokratiya nehmatalarining oddiy istehmolchisi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi. Va demokratiya, fuqarolik jamiyati asoslarini amalda barpo etish, inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlash mumkin bo'ladi»⁴⁷.

Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori hamda “Tahlim to'g'risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida tahlim tizimini isloh qilish masalalari. 1997 yil 29 avgustda Oliy Majlis 9-sessiyasida Prezidentimiz Islom Karimov “Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” haqida mahruza qildi. Bu mahruzada tahlim tizimini tubdan isloh qilishning bosh maqsad va yo'nalishlari, strategik yo'nalishlari belgilab berildi. Mazkur sessiyada 2 ta tarixiy xujjat ham qabul qilindi. 1. **“Tahlim to'g'risida”gi Qonun** va 2. **Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**. “Tahlim to'g'risida”gi qonun 5 bo'lim 34 moddadan iborat. Bunda tahlim sohasidagi davlat siyosatining asosiy 9 ta printsipi bayon etilgan bo'lib, tahlim va tarbiyaning insonparvarligi, demokratik harakterda ekanligi uzluksiz va izchilligi, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb- hunar, uning dunyoviy harakteri kabi tamoiillar ko'rsatib berilgan. Prezidentimiz Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish bosqichlari haqida gapirib o'tdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

⁴⁶ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. -T., O'zbekiston, 1999. 134-bet.

⁴⁷ Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Asarlar. T.11. – T.: O'zbekiston, 2003. – 3–51-b.

5 bo'limdan iborat, unda 1) Muammoning va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari deb nomlanib, unda rivojlanishning erishilgan darajasi kamchilik va muammolar, isloh qilish omillari chuqur ochib berilgan. 2) "Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ruyobga chiqarish bosqichlari"da esa dasturning maqad va vazifalari, dasturni ruyobga chiqarishning 3 bosqichi: a) 1997-2001; b) 2001-2005 va; v) 2005 undan keyingi yillar haqida keng fikr yuritilgan. 3) Kadrlar tayyorlash milliy modeli: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz tahlim, uzluksiz tahlimni tashkil etish va rivojlantirish printsiplari, uni isloh qilish yo'llari, uzluksiz tahlim tizimi va turlari: maktabgacha, umumiy urta tahlim, o'rta maxsus, kasb-hunar tahlimi, oliy tahlim, oliy o'quv yurtlaridan keyingi tahlim, kadrlar malakasini oshirish va uni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari tahlim turlari berilgan. Kadrlar tayyorlash tizimida fan, ishlab chiqarish masalalari o'rin olgan. 4) Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari berilgan va 5) dasturni ruyobga chiqarishga doir tashkiliy chora- tadbirlar bayon etilgan. Ushbu Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi juda katta tarixiy ahamiyatga ega ham bo'ldi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida dasturning maqsadi – tahlim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafquraviy qarashlar va sarkitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak manaviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar milliy tizimini yaratishdir deyiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining **birinchi bosqichini** amalga oshirish uchun qushimcha 65 mlrd. so'm ajratish, qo'shimcha mablag' berish takidlab o'tilgan edi va u bugungi kunda amalga oshirildi. Birinchi bosqichni ruyobga chiqarish uchun uning xuquqiy asoslari barpo etildi. **Ikkinchi bosqich** davrida esa asosiy ehtibor uning sifat bosqichi bo'lib bunda tahlim sohasini yanada takomillashtirish bilan bog'liq jihatlarga ehtibor berildi. 1997 yil 6 oktyabrda Prezidentning "Tahlim- tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida" farmoni qabul qilindi. Mazkur qonun va farmonlar asosida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga bag'ishlab, bir qator qonun va normativ hujjatlar qabul qilindi.

Prezident Islom Karimovning 2005 yil 7 fevraldagi "Yangi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan ko'rib bo'lmaydi" nutqida tahlim tizimiga oid masalalarning ilgari surilishi.

2005 yil 7 (fevralg' kuni Prezident Islom Karimov Oqsaroy qarorgohida Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi bilan bo'lgan uchrashuvida "Yangi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi" mavzuida nutq so'zlab tahlim tizimiga oid dolzarb muammolarni bayon etdi.

Jamiyatimizni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish, hayotimizning barcha sohalarida liberallashtirish, ya'ni erkinlashtirish vazifalari aniq belgilab berildi. Bu vazifalar bevosita tahlim tizimiga ham tahsir etmasdan qolmasligi ta'kidlab o'tildi. Tahlim tizimi rahbar kadrlariga ham ikkita talab asosida yondashmoq kerak. **1. Birinchi talab** - har bir mutasaddi rahbarning o'z ishiga bo'lgan mashuliyatini tubdan o'zgartirish, shaxsiy javobgarlikni oshirish lozim. **2. Ikkinchi masala** - hukumat ahzosi sifatida sizlarga katta ishonch, katta vazifa yuklatilgan, dedi Prezidentimiz. Rahbar faoliyatiga ana shu 2 ta talabga javob berishga qarab baho berishimiz, xulosa chiqarishimiz kerak. Mayli rahbarning bilimi yetishmasin, uni o'rgansa bo'ladi. Lekin u mashuliyat va javobgarlikni unutsa, ishda hech qanday siljish va o'zgarish bo'lmaydi.

Bugungi kunda umumtahlim maktablari, akademik litsey va kollejlarga byudjet mablag'larining qariyb 50 foizi sarflanayapti. Hozir zamonaviy kollejlari qurildi, lekin ularda kimlar ishlayapti? Kollej direktorlarini tasdiqlash rasman Vazirlar Mahkamasining vakolatiga kiritilgan. Lekin amalda bu ish qanday yo'lga qo'yilgan? Ana shu yangi-yangi kollejlarning rahbarlarini qachon tasdiqlash kerak, ishga kirishishdan oldinmi? Yangi direktor ish boshlashdan avval xo'jalikni qabul qilib olishi lozimmi? O'qituvchilarni tayyorlash kerakmi? Kollejlarning moddiy-texnika bazasi, o'quv jihozlari, moddiy boyliklar uchun kimdir javob berishi kerak?

Joylarda ahvol tamoman boshqacha bo'lmokda. Misol uchun bir tumanda kollej qurilishiga ajratilgan mablag'ning 30 foizi qo'shib yozib o'zlashtirib yuborilgan. Qurilgan kollejlarning usti yaltiroq, ichi qaltiroq. Maktablarning ahvoli ham bundan battar. SHu tariqa bir to'la qallob bu boradagi davlat siyosatini chippakka chiqarmoqda. Tuman, viloyat hokimlari esa bu ish bilan ishi yo'q. Nega bularning jilovi tortilmaydi. Viloyat kollejlarning ahvolini o'rganish, litsey-kollejlarga kim direktor, kim o'qituvchi, u yerda qanday ishlar borayapti Barchamizning ertangi umidimiz farzandlarimizning tahlim va tarbiya olishi qanday tashkil etilganligiga bog'liq emasmiq Albatta shunga bog'liq. fikrimcha, Toshkent Texnika universiteti qoshida kollejlarning uchun o'qituvchilar tayyorlaydigan qo'shimcha fakul'tet tashkil etish kerak. 2005 yil iyulg' oyidayoq ochish lozim. Prezidentning bu fikrlari inobatga olinib, amalda joriy etilmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hal qiluvchi bo'g'ini bo'lgan litsey va kollejlardagi mavjud ahvolni yaxshilash yuzasidan aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, uning ijrosini ta'minlashga alohida ehtibor berish zarur. Zero, yangi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi. (Mahrifat, 2005 yil 19 fevralg').

Demak, Prezidentimiz har qanday tashkilot bo'lmasin mutasaddi rahbarning o'z ishiga bo'lgan javobgarligini oshirish, bildirilgan ishonchga mashuliyat hissi bilan yondashmoq lozimligini alohida ta'kidladilar.

2005 yil 2 iyundagi "2005 – 2006 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlariga qabul to'g'risida"gi Prezident qaroriga ko'ra, oliy o'quv yurtlarini davlat granti asosida bitirgan yosh mutaxassis tahlim muassasalarida 3 yil majburiy ishlab berishi belgilangan. Ushbu qarordan kelib chiqqan holda 2006 yilda oliy tahlim muassasalarini tugatgan jismoniy tarbiya o'qituvchilari yo'llanma bo'yicha respublikamizning mazkur fan muallimalariga ehtiyoj bor maktablarga ishga taqsimlandi.

Jamiyatning ma'naviy yangilanishi - demokratik fuqarolik jamiyat barpo etish omili.

Sobiq totalitar tuzum davrida olib borilgan xalqlarni yalpi manqurtlashtirish siyosati o'zbek xalqini ham o'z tarixidan, madaniyatidan, ma'naviy quvvatidan, milliy hissiyotidan, o'zligidan ayirishga ancha-muncha ulgurdi. Sovetlar davridan qolgan bunday og'ir "meros" haqida keyinchalik Prezident I.A.Karimov shunday fikr bildiradi: "Bu tuzum o'z xalqining tarixini, uning ruhi va urf odatlarini, o'z avlod-ajdodini bilmaydigan manqurtlarga tayanar edi"⁴⁸.

Uzoq yillar davom etgan tutqunlik, g'ayriinsoniy mafkuraning yakka hukmronligi bizga mutelikni singdirdi. Mutelik o'zbek xalqining azaliy qadriyatlari – andisha, nazokat libosini kiydi va haqiqatni dadil aytish, o'z fikrini ochiq bildirish, yumshoq aytganda, beodoblikka, beandishalikka yo'g'rildi. Vaholanki, demokratiya – yaxshi niyatli rostgo'ylikni, fikr erkinligini taqozo etadi.

Afsuski, sobiq ittifoq hududida bu kabi eski kasalliklardan xalos bo'lmagan kimsalar hamon uchramoqda. Buni I.Karimov Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi mahruzasida yana bir bor alohida ta'kidlab, shunday deydi: "...o'z umrini yashab bo'lgan, siyosiy jihatdan kasodga uchragan, kommunistik mafkuraga asoslangan tizimni sog'inib-qumsab gapirayotgan ayrim siyosat va davlat arboblari – eski tuzum tarafdorlari yana qaytadan bosh ko'tarayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz "... Bir so'z bilan aytganda, SSSRning g'oyasi sobiq ittifoq mintaqasidan hali beri butunlay ko'tarilgan emas va buni biz doimo inobatga olishimiz, hamisha sergak va hushyor bo'lib yashashimiz zarur"⁴⁹.

SHukrlarkim, xalqimiz ongi, qalbiga chuqur singigan minglab yillik ma'naviy qadriyatlarimiz, milliy anhanalarimiz uni zo'rlik bilan kiritishga harakat qilingan kommunistik mafkuraning domiga to'liq tushib qolishdan asradi. Ammo Abdulla Qahhor tahriri bilan aytganda: "erning sho'rini yuvish oson ekan-u, **odamning ongidagi sho'rini yuvish qiyin**" ekan-ki, "manqurtlik kasali"ning asoratlari bahzi kishilarimiz ongi va ruhiyatida hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Erkin fuqarolik jamiyatini qurishda **tarixni**, ajdodlarimiz qoldirgan **ma'naviy merosni o'rganish** va amalda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tariximiz

⁴⁸ Karimov. I.A Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. 3-jild. -T.: O'zbekiston, 1996. 7-b.

⁴⁹ Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Asarlar. T.11. – T.: O'zbekiston, 2003. – 3–51-b.

qancha ko'p o'rganilsa, undan bugungi ma'naviyat, g'oyaviy islohotlar uchun shuncha ko'p amaliy tavsiyalar chiqaveradi. Hazrat Navoiyning: "Ozod bo'lmoq istasang, o'zingni ozod tut", degan so'zlari bugungi voqelik bilan bog'liq emasmi? Yoki yana bir misol: O'rta asrlar tibbiyot ilmining bir tarmog'i – ma'naviyat tibbiyoti deb atalgan ekan. "Ma'naviy tibbiyot" degan bitta nomda Al-Kandi (800-860 y.y.), Abu Bakr Ar-Roziy (865-925 y.y.), Abu al-Farax Abu ar-Rahmon ibn Javziy (vafoti-1201 y.), Abu Ishoq Ibrohim ibn Yusuf Ash-Sheroziy (vafoti – 1093 y.) kabi ko'plab SHarq allomalari o'z kitoblarini yozib qoldirganlar. Tan tabobati inson jismi bilan bog'liq kasalliklarning oldini olish va davolash bilan shug'ullangan bo'lsa, **ma'naviy tibbiyot inson qalbi, ongini illatlardan forig' etishga, insoniy fazilatlarni takomillashtirishga xizmat qilgan.**

Tarixning achchiq saboqlaridan yana biri shuki, ma'naviyat, axloq-odob inson xatti-harakatlari, faoliyati va ehtiyojlarining mezoniga aylanmay turib, jamiyat birona muammolarni samarali hal etishi va ijtimoiy taraqqiyotga erishishi mumkin emas.

Turkiston o'lkasining XIX asr 70-yillarida Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylanishi tarixi buning yorqin misoli bo'la oladi. Xalqimiz tarixidagi bu qayg'uli hodisaning ko'plab sababini keltirish mumkin. Ammo eng asosiysi, jamiyatning ruhiy evrilishga uchragani, elga bosh bo'lishi lozim bo'lgan hukmdorlardan tortib, boy va ulamolargacha o'z shaxsiy manfaati doirasida o'ralashib qolganligi, istiqlol uchun kurashgan ziyolilarning sahy-harakatlariga qaramay, jamiyat kishilari birlasha olmagan ekanligi, desak xato qilmaymiz.

Tarix – xalq ma'naviyatining asosi. Tarixiy taraqqiyot yo'lida insoniyat to'plagan tajriba va saboqlar ma'naviy mezon va qarashlar tizimi sifatida avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadi. I.A.Karimovning tarixchi olimlar bilan suhbatda: "Tarix - xalq ma'naviyatining asosidir",⁵⁰ – deb aytgan so'zlarining mazmun-mohiyati ana shunda.

Tarix saboqlari insonni xatolardan asraydi, hushyorlikka o'rgatadi, ruhiy evrilishdan asraydi. Biroq, ta'kidlash joizki, ma'naviyat faqat meros bo'lib avloddan-avlodga o'tadigan tarixiy qadriyat bo'lmay, doimiy rivojlanib, yangi davr qadriyatlari bilan boyib, uyg'unlashib boradigan, doimiy harakatdagi hodisadir. SHuning uchun ham mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek: "Bizning anhanaviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir".⁵¹ SHuning uchun ham mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning to'rt asosiy ma'naviy negizlari ichida "umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik" belgilandi. Bugungi kunda mamlakatimiz ravnaqini hozirgi tsivilizatsiya o'zida ifoda etadigan demokratiya, inson huquqlariga rioya etish, tadbirkorlik erkinligi, erkin bozor munosabatlari, so'z erkinligi kabi umuminsoniy qadriyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Inson ruhiyati sog'lom bo'lsa, o'zligini anglasa, shaxsga aylanadi. Kishi shaxs darajasiga ko'tarilsagina, ya'ni o'z mustaqil fikriga, dunyoqarashiga, chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lganidagina, "demokratiya nehmatalarining oddiy istehmolchisi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi. Va demokratiya, fuqarolik jamiyati asoslarini amalda barpo etish, inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlash mumkin bo'ladi".⁵²

3. Milliy va ma'naviy o'zgarishlarning davlat va jamiyat qurilishida aks etishi

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsad etib belgilangan bir paytda, demokratik tamoyillarni egallash, fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, shaxs erkinligini amalda joriy etish, siyosiy jarayonlarni erkinlashtirish, demokratik mehyorlar asosida ko'ppartiyaviylik tizimni takomillashtirish, davlat boshqaruvi organlarining ayrim vakolatlarini bosqichma-bosqich jamoat va o'z-o'zini boshqarish tashkilotlariga o'tkazish kabi vazifalar umuminsoniy qadriyatlarni o'zida ifoda etgan holda ma'naviyat bilan tutashadi.

⁵⁰ Karimov I.A Mahnaviy yuksalish yo'lida. –T.: O'zbekiston, 1998. 438-bet.

⁵¹ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. –T.: O'zbekiston, 1998. 135-bet.

⁵² Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.. Asarlar. T.11. – T.: O'zbekiston, 2003. – 3–51-b.

Yangi davrda jahondagi ilg'or mamlakatlarda shakllangan demokratiya va fuqarolik jamiyati asosiy qadriyatlari – **xalq hokimiyati, fuqarolar manfaatlarini himoyalashga qaratilgan siyosat, siyosiy qarorlarni qabul qilishda ko'pchilikning irodasiga tayanish, ozchilikning huquqlarini hurmat qilish, inson huquqlariga rioya etishning kafolatlanishi, erkin va adolatli saylovlar tizimining joriy etilishi, barchaning qonun oldida tengligi, hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati kabi qadriyatlar xalqning, har bir fuqaroning turmush tarzi, ma'naviyati va madaniyatining uzviy va ajralmas qismiga aylanganidagina, demokratik jamiyatni qurish real voqelikka aylanadi.**

XVIII asrning mashhur faylasufi Jan Jak Russo: “Demokratiya zolimlarni dunyoga keltiradi”, - deb yozgan edi. Bu o'ta qathiy aytilgan fikrga to'liq qo'shilib bo'lmasa-da, aytish lozimki, uning ortida real xavfga ishora bor. Sobiq SSSRda kechgan jarayonlar bunga yorqin dalil bo'la oladi. Demokratiya shiorlari ostida olib borilgan siyosat ortida alohida shaxsni ko'pchilikning irodasiga bo'ysundirish amaliyoti yashiringan edi. Alohida shaxsning manfaati va huquqlari qonun bilan himoya etilmagan holda esa, har qanday hokimiyat, hatto demokratiya shaklidagisi ham osonlik bilan avtoritarizm va totalitarizmga aylanadi. Ana shu o'rinda ma'naviyatning ijtimoiy-siyosiy xarakteri, huquq bilan tutash nuqtasi namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos jihatlari. O'zbekiston o'z milliy mustaqilligi tufayli milliy urf-odatlarini, diniy qadriyatlari tiklandi. «Navro'z» bayramidan diniy tamg'a olib tashlandi. Ma'naviy hayotimizdagi diniy bayramlar, hayit kunlari respublikamizda umumxalq bayrami sifatida nishonlanib kelinmokda. Ma'naviy hayotda islom dinining alohida o'rni bor. Prezidentimizning 1992 yil 7 martdagi farmoni bilan Vazirlar Maxkamasi xuzurida din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil qilindi. 1992 yil 27 martda Prezidentimizning «Ro'za hayitini dam olish kuni deb ehlon qilish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. O'zbekistonda 18 ta konfessiya mavjud bo'lib, 3 mingga yaqin diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Davlat ular bilan o'zaro munosabatda, o'z dunyoviy xususiyatini hisobga olgan holda quyidagi tamoyillarga asoslanadi. Bu tamoyillarni Prezidentimiz Islom Karimov «O'zbekiston: 21 asr bo'sag'asida...» asarida ko'rsatib bergan edi. Bular:

- 1) Dindorlarning diniy tuyg'ularini xurmat qilish.
- 2) Diniy ehtiqotlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan oilish.
- 3) Diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham xuquqlarini teng kafolatlash hamda ularni taqib qilishga yo'l quymaslik.
- 4) Ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqat qilish yullarini izlash zarurati.
- 5) Dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini ehtirol etish kabilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 31-moddasida bayon etilganidek, Hamma uchun vijdon erkinligi kafoatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga ehtiqlod qilish yoki xech qaysi dinga ehtiqlod qilmaslik xuquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l quyilmaydi. Anna shu moda asosida 1998 yil 1 mayda Oliy Majlis XI sessiyasida «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar tug'risida»gi qonunning Yangi tahriri qabul qilindi.

Bugungi kunda O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta'minlash demokratik, fuqarolik jamiyati qurishning muhim shartlaridan biridir. Lekin dindan, Ayniqsa islom dini qadriyatlarini tug'ri tushunmaslik natijasida hududimizda diniy ekstremiz, fundamentalizm, vaxobiylik xizbu taxrir kabi oqimlar paydo bo'lib, o'tish davrida ayrim qiyinchiliklarni bo'rttirib ko'rsatib, mamlakatimizning dunyoviy davlat yo'lidan borishiga qarshi bo'lgan oqimlar yuzaga keldi, ular mamlakatimizni islomiy davlat qurishni targ'ib qilmoqdalar. Masalan, 2005 yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida yuz bergan qo'poruvchilik harakatlarida o'zlarini islom homiylari qilib ko'rsatgan akromiylar to'dasining qilmishlari xunrezliklarga sabab bo'ldi. Davlatimiz uning oldini olib, yoshlar orasida bunday oqimlarga kirib qolmaslik uchun targ'ibot ishlarini kuchaytirmoqda.

Milliy o'zlikni anglash aynan ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish, o'z xalqining tarixi, madaniy merosini o'rganish, bugungi holati va ertangi istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ko'p asrlik tarixga ega. O'zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar yo urf-odat va marosimlarni tahlil qilish, bularning paydo bo'lishi juda qadim zamonlarga borib taqalishini ko'rsatadi. Masalan, «Avesto» bundan 2700 yil muqaddam 12 ming mol terisiga oltin xarflar bilan bitilgan bu asar paydo bo'lishi uchun undan avval ham kamida necha ming yillik davr o'tganligi, teran hayotiy tajriba va hikmatlar to'planganligi, shubhasiz. Bu asar yuksak madaniy hayot, falsafa va fan, hottotlik va mushtariylik rivojlanishi natijasida yaratilganligi uchun ham shu paytgacha o'z qimmatini yo'qotmadi.

Davrlar o'tishi bilan milliy ma'naviy qadriyatlar ham o'zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay qolgan mehyor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasavvur va yondashuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi.

XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Bu sharoitda milliy qadriyatlarga chetdan bo'ladigan tahsir beqiyos darajada zo'rayadi. Bu tahsir, bir tomondan, milliy madaniyatlarning boyishi, qadriyatlarning qayta baholanishi va yuksalishiga, ikkinchi tomondan esa, millatning ruhiyati va qadriyatiga yot bo'lgan odat va harakatlarning kirib kelishiga sabab bo'ladi.


Islom Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» asarida xalqning madaniy qadriyatlari, madaniy merosi ming yillar mobaynida SHarq xalqlari uchun qudratli ma'naviy kuch bo'lganligiga alohida ehtibor berdi.

Bunda 1) sobiq mafkura tazyiqini; 2) ma'naviy va madaniy merosni tiklash O'zbekiston davlati siyosatida muhim vazifa sifatida belgilab olinganligini chuqur o'rganish, yoshlarning unga ehtiborini jalb etish muhim.

Jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni tiklashga milliy-ma'naviy jarayoni sifatida qarashda quyidagi jihatlarga ehtibor berish lozim:

- 1) Xalqimiz istiqbol tufayli siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritganligi.
- 2) O'z taqdirini o'zi belgilashning chinakam egasi bo'lganligi.
- 3) O'zining ma'naviy-tarixiy ildizlarini o'rganish imkoniyati yuzaga kelganligi, ammo uning juda murakkab jarayonlarda amalga oshirilayotganligi.

- 4) Mustaqillikning dastlabki yillarida «siyosiy, madaniy ekstremizm xavfi» tug'ilishi mumkinligining hisobga olinganligi respublikada mustaqillikni saqlab qolishda, barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini chuqurroq, atroflicha, aniq misollar yordamida yoritish o'zining amaliy ahamiyatiga ega.




1994 yil 23 aprelda O'zbekiston Prezidentining «Respublika «Ma'naviyat va mahrifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni, 1996 yil 9 sentyabrda esa «Ma'naviyat va mahrifat jamoatchilik markazi faoliyatini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish to'g'risida»gi Farmoni va boshqa manbalarda quyidagi qadriyatlar haqida gapiriladi:

1. Vatan - eng oliy makon, u menikidir.
2. Eng oliy qadriyat - inson.
3. Mulkning eng oliy shakli - intellektual mulk va inson faoliyatining eng oliy turi - intellektual mehnat.
4. Vaqt eng oliy boylik.
5. Umuminsoniy qadriyatlar.
6. Moddiy qadriyatlar.
7. Milliy qadriyatlar.
8. Tabiiy qadriyatlar.
9. Iqtisodiy qadriyatlar.
10. Ijtimoiy - siyosiy qadriyatlar.
11. Ma'naviy qadriyatlar.
12. Axloqiy qadriyatlar.
13. Diniy qadriyatlar.
14. Oilaviy qadriyatlar.
15. Demokratik qadriyatlar va h.k.

Prezident Islom Karimov o'tgan 16 yil mobaynida o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy negizlarini asoslab berdi:

1. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.
2. Xalqimiz ma'naviy merosini mustahkamlash, rivojlantirish.
3. Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi.¹
4. Vatanparvarlik.

6-Slayd



QISQACHA XULOSA

Demak, jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish uchun ma'naviyat siyosatning bosh tayanchi bo'lmog'i kerak. SHuning uchun ham mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov demokratik fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish uchun "insofli, diyonatli odamlarninggina rahbarlik to'nini kiyishga ma'naviy haqi bor"ligini ta'kidlab kelmoqda.

Prezidentning Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" mahruzasida islohotlarning bosh yo'nalishini va samaradorligini belgilab beradigan quyidagi ustuvor vazifani belgilab berdi: "Fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va mahrifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borishdan iborat.

Bu hayotiy haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloq-odob, mahrifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak".¹

Ma'naviyat inson ruhiyatida voqe bo'ladi. SHuning uchun u avvalo, alohida olingan inson bilan bog'liq tushuncha. Ammo inson jamiyatdan ajralmas bo'lib, jamiyatdan tashqarida o'z insonlik mohiyatini yo'qotar ekan, ma'naviyat insonni o'zga odamlarga, jamiyatga, butun borliqqa daxldor qiladi. SHu jihatdan ma'naviyat ijtimoiy mazmun kasb etadi. "Inson o'zini xalqning bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina, ma'naviyat bilan tutashadi"². Demak, har bir kishi o'zining yashash tarziga, o'zgalar bilan bo'lgan munosabatiga jiddiy ehtiborni qaratmasdan turib, jamiyat bironta muammoni hal etishi mushkul.

Bugungi kunda har qanday milliy tiklanish va milliy rivojlanishning asosi bo'lgan ma'naviy meros, urf-odatlar, anhanalar, yuksak qadriyatlar, tarixiy xotira xalqimizga qaytarildi. Milliy o'zligini, huquqlarini tobora teranroq anglab borayotgan xalqimiz uchun buyuk kelajakni barpo etish yo'lida bu boy imkoniyatlardan foydalanish, barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni milliy rivojlanishga, O'zbekistonda demokratik-huquqiy jamiyat qurish ishiga yo'naltirishga safarbar etishdek ulkan imkoniyatlar yaratildi.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Ma'naviy yangilanishning mustaqillik bilan bog'liqligi nimadaq

¹ Каримов И.А. О'збекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. -Т.: О'збекистон, 1996, 76-бет.

¹ I.A.Karimov. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. 1-jild. T.: O'zbekiston, 2002, 81-bet

² O'sha manba.

2. Milliy-ma'naviy merosning yangicha mahno va mazmunini bayon etingq
3. Agressiv millatchilik, shovinizm nima uchun demokratiya va milliy-ma'naviy negizlarga zid
4. Ekstremizmning terrorizm bilan bog'liqligini izohlab bering Qanday shaxs demokratik jamiyat mezoni bo'ladiq
5. Prezident Islom Karimovning "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mahruzasini sharxlab beringq

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2007. –6–12-b.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Nukus: «Qoraqalpog'iston», 1993.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. -T.: «O'zbekiston», 1997, 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: «O'zbekiston», 2000, 6, 8-12, 14-15, 16-26, 28-38, 47-48-betlar.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. T.1. -T.: «O'zbekiston», 1996, 36-85-betlar.
6. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.3. -T.: «O'zbekiston», 1996, 3-54-betlar.
7. Karimov I.A. Adolat qonun ustuvorligida. T.10. -T.: «O'zbekiston», 2002, 26-52-betlar.
8. Karimov I.A. Hayotimizning, taraqqiyotimizning huquqiy asosi. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va mahrfiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. -T.: «O'zbekiston», 2003, 3-52, 97-120-betlar.
9. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish - har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 285–312-b.
10. Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezoni bo'lsin. Surxondaryo viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. –313–337-b.
11. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. –156–223-b.
12. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.14. – T.: O'zbekiston, 2006. – 61–97, 139–153, 248–265-b.
13. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 48 b.
14. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayot garovidir. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2007. – 64 b.
15. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – T.15. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 3-11, 154-211-241-251-b.
16. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 48 b.
17. Rahimov I., Zohidov A., Azizov SH., Ayupov A. va boshq. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. -T.: «Universitet», 2001. 232-bet.
18. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoitini yaratish – asosiy vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2007. – 11-b.
19. Pugachev V.P., Solovg'ev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 202-255-betlar.
20. O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T.: «O'qituvchi», 2004, 3-44-betlar.

21. Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. T.: Toshkent Moliya instituti, 2004, 3-180-betlar.
22. Odilqoriev X.T., Foyibnazarov SH.F. Siyosiy madaniyat. T.: O'zRIIV Akademiyasi, 2004, 278-296-betlar.
23. Pugachev V.P., Solovg'ev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 237-255-betlar.
24. Usmonov Q. O'zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi. T.: F.Fulom nom. Nashr-matbaa ijodiy uyi, 2004, 3-48-betlar.
25. Husanov M. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini shakllantirishda saylov tizimi va saylov huquqining ahamiyati. T.: TDYuI, 2004. – 32-b.
26. SHarifxo'jaev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. – T.: SHarq, 2005. – 240 b.
27. Aliev B., Hoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot nashriyoti», 2005. – 160 b.
28. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: «SHarq», 2006. – 528 b.
29. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar. – T.: «Ma'naviyat», 2006. – 160 b.
30. To'xliiev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» davlat ilmiy nashr., 2006. – 280 b.
31. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 204 b.
32. Nazarov Q. va boshqalar. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. – T.: «Akademiya», 2007. –352 b.

II BO'LIM. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYA-TINI BARPO ETISHNING AMALIY ASOSLARI

MAVZU. QONUN USTUVORLIGI -- DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATI QURISHNING ASOSI. DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVINI DEMOKRATLASHTIRISH.

1. O'zbekistonda demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurilishida qonun ustuvorligi tamoyilining mohiyati, mazmuni hamda uning mustahkamlanishi.

Prezident Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek, «Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz». SHu sabab adolat tushunchasi bilan qonun ustuvorligi tushunchasi chambarchas bog'liqdir. Qabul qilingan qonunlar negizida adolat yotishi ma'lum. Adolatga asoslangan qonunlarning tadbiq etilishi adolatning tantana bo'lishiga olib keladi. Agarda birorta normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaga zid keladigan bo'lsa, u bekor qilinishi lozim». Qonun ustuvorligi Prezidentimizning 5 ta tamoyillaridan 3-si Qonun ustuvorligiga bog'liq. Buni o'z navbatida quyidagicha izohlash mumkin: 1) Qonun ustuvor xarakterga ega. 2) Qonun oldida Hamma teng. 3) O'z ish faoliyatini qonun doirasida amalga oshirish kerak. 4) Huquqiy demokratik jamiyatda hokimiyat organlari bo'linish printsipiga asoslanadi, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijroiya hokimiyat va sud hokimiyati. Bu holat rivojlangan davlatlarda ommaviy axborot vositalari turtinchi hokimiyat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi faoliyatini tartibga soluvchi bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Davlat boshqaruvida qonunchilik quyidagi xususiyatlari bilan ifodalanadi:

1. Barcha qonunlarning umummajburiyligi.
2. Qonuniylikning yagonaligi.
3. Qonuniylik va maqsadga muvofiqlikni qarama-qarshi qo'yishning man etilganligi.
4. Qonuniylik va aholi huquqiy madaniyatining chambarchas bog'liqligi.

5. Har qanday qaror qabul qilinganda qonuniylik va adolatlilik.
6. Davlat boshqaruvida qonunni buzganlik uchun javobgarlik va h.k.

Qonun ustuvorligi tushunchasi va uning mohiyati. Ma'lumki, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin o'ziga xos bo'lgan taraqqiyot yo'lini - ya'ni bozor iqtisodi tamoyillariga asoslangan erkin, ochiq demokratik davlat qurish vazifasini asosiy maqsad qilib belgilab oldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek: «Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz... Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor. Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart»⁵³.

Darhaqiqat, adolat tushunchasi bilan qonun ustuvorligi tushunchasi chambarchas bog'liqdir. Yurtboshimiz belgilab berganlaridek, qabul qilinayotgan qonunlarimizning zahirida adolat yotishi lozim. Adolatga asoslangan qonunlarning hayotga tatbiq etilishi adolatning tantana qilishiga olib keladi.

Demokratik jamiyat qurish uchun mamlakatda qabul qilinayotgan qonunlar adolatlilik bo'lishi, o'zida xalq manfaatlarini ifoda etishi shart. Bunday qonunlarga og'ishmay itoat etilsagina, jamiyatda demokratiya qaror topadi va mustahkam bo'ladi. CHunki barcha demokratik institutlar, inson huquq va erkinliklari qonun vositasida joriy etiladi.

Demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri - jamiyat a'zolarining qonun oldidagi tengligini, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini tahminlanganligidir. SHu bilan birga Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashdan iborat bo'lmog'i lozim.

«Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlarini muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash – bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi»⁵⁴.

Qonun ustuvorligining mohiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qator moddalarida belgilab berilgan. Konstitutsiyaning III bobi ikkita 15 va 16-moddalaridan iborat bo'lib, Konstitutsiya va qonun ustunligiga bag'ishlangan.

Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar».

O'z faoliyatini Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq amalga oshirish sanab o'tilgan sub'ektlarning konstitutsiyaviy burchi bo'lib hisoblanadi. Agarda davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, mansabdor shaxslar yoki fuqarolar o'zlarining bu burchlarini bajarmasalar, ularga nisbatan tegishli javobgarlik choralari qo'llanishi mumkin.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etmagan shaxslarning javobgarligi Konstitutsiyaning o'zida yoki tegishli qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan bo'ladi. Masalan, Konstitutsiya 93-moddasining 12-bandiga muvofiq Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan tuman va shahar hokimlarini Respublika Prezidenti o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli.

Bu borada shuni ham aytib o'tish lozimki, Konstitutsiyaning normasi boshqa qonunlarning normalariga nisbatan ustunlik xarakteriga ega. CHunki Konstitutsiya barcha boshqa qonunlar uchun poydevordir.

SHuning uchun ham Konstitutsiya 16-moddasida mustahkamlangan qoidaga binoan «Birorta ham qonun yoki boshqa normativ huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga

⁵³ Karimov I A. O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza. 1995 yil 23 fevral. «Vatan sajdagox kabi muqaddasdir» kitobida, 3-j., -T.: O'zbekiston, 1996, 10-b.

⁵⁴ Karimov I.A. Adolat qonun ustuvorligida. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasidagi ma'ruza. 2001 yil 29 avgust. «Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak» kitobida, 10-j., – T: O'zbekiston, 2002, 28-bet

zid kelishi mumkin emas». Agarda birorta normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaga zid keladigan bo'lsa, u bekor qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini ta'minlash mexanizmi ishlab chiqilgan va amalda qo'llaniladi.

Xo'sh, Konstitutsiyaning bu moddasiga binoan qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga mosligini qaysi organ nazorat qiladi, degan savolning tug'ilishi tabiiydir.

Normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini nazorat qilishni uning qaysi bosqichda amalga oshirilishiga qarab, quyidagi ikki turga bo'lish mumkin:

Birinchidan, dastlabki nazorat. Bu nazorat normativ-huquqiy hujjatlar loyiha vaqtida ularni huquqiy ekspertizadan o'tkazish orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan qonunining 18-moddasiga muvofiq «Huquqiy ekspertiza normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlagan organning yoki normativ-huquqiy hujjatni qabul qiladigan organning yuridik xizmati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilishi mumkin».

Ikkinchidan, keyingi nazorat. Bu nazorat normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganidan keyin amalga oshiriladi. Keyingi nazoratning o'zini ham ikki turga bo'lish mumkin.

a) Normativ-huquqiy hujjat qabul qilinganidan keyin, ammo u hali kuchga kirishidan avval amalga oshiriladigan nazorat. Bu nazorat ham Adliya vazirligi tomonidan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar qabul qilgan umummajburiy xarakterga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishdan avval amalga oshiriladi. Bu normativ-huquqiy hujjatlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyingina kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasida vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning umummajburiy xarakterdagi normativ-huquqiy hujjatlarining Konstitutsiya va qonunlarga mosligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1993 yil 17 iyunda «Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning umumiy-majburiy tusdagi normativ hujjatlarining huquqiy ekspertizasi va ularni davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida» va 1997 yil 9 oktyabrda «Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar mehyoriy hujjatlarining qonuniyligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» qarorlar qabul qildi.

Bu qarorlarning mohiyati shundaki, ular umummajburiy xarakterdagi idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilishining majburiyligini tahminlab berdi. 1997 yil 9 oktyabrdagi qarorda belgilanishicha, agar shunday hujjatlar davlat ro'yxatidan o'tkazilmasa, ular yuridik kuchga ega bo'lmaydi. Konstitutsiya yoki qonunga zid bo'lganlari esa davlat ro'yxatiga olinishi mumkin emas. Ana shunday yo'l bilan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga va qonunlarga mosligi tahminlanmoqda.

b) Kuchga kirgan normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligi yuzasidan nazorat. Bunday nazoratni barcha davlat organlari amalga oshiradilar.

Umuman olganda qonunlarning ijro etilishi va normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga va qonunlarga mos bo'lishini nazorat qilish qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan olib boriladi.

Qabul qilingan qonunlarning ijro etilishini nazorat qilib borish Oliy Majlis faoliyatida o'ziga xos o'rin tutadi. Oliy Majlis tomonidan qonunlarga rioya qilinishini nazorat qilish, ularning tahsirchanligini o'rganish, qonun hujjatlaridagi kamchiliklarni, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf etish maqsadini ko'zlaydi. Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari har yili qariyb 50 ta qonunning ijrosini o'rganadilar. Qonun hujjatlari talablari qanday bajarilayotganligi deyarli barcha vazirliklar va idoralarda, viloyatlarda tekshiriladi.

Huquqiy demokratik davlat barpo etishda Ombudsman instituti. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini ta'minlash yuzasidan parlament nazoratini amalga

oshirishda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) instituti muhim rol o'ynaydi⁵⁵.

Ombudsman (shved. – biror kishi munosabatlarining vakili) – bahzi mamlakatlarda parlament tomonidan maxsus saylangan (tayinlangan), davlat organlari harakatlarining qonuniyligi hamda fuqarolar huquq va erkinliklariga rioya etilishini kuzatuvchi mansabdor shaxs. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 24 apreldagi "Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risidagi Qonun qabul qilingan.

Ma'lumki Yer yuzida inson borki, u doimo o'z huquqi va erkinligini himoya qilish uchun imkoniyat izlagan va Ombudsmanning tashkil topishi esa, davlat bilan fuqaro o'rtasidagi munosabatlarga yanada aniqlik kiritdi. Ombudsman fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qiluvchi munosabatlarni nazorat qiluvchi vakildir.⁵⁶

Ushbu fikr hozirgi zamon huquqiy adabiyotlarida keng tarqalgandir. Biroq jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashda Ombudsman institutining o'ziga xos talqin va tarixiy ildizlari mavjud. SHu nuqtai nazardan amerikalik mutaxassis Din Gottererning bildirgan fikrlari diqqatga sazovordir. U shunday deb yozadi: Ombudsman instituti ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ombudsmanning tarixiy ildizlaridan biri Qurhoni Karim va islom mafkurasining bir qismi sifatida odillik tamoyillaridan kelib chiqadi⁵⁷. O'sha payt inson huquqi va erkinliklarini himoya qilish, mulkiy, oila va nikohga oid huquqlarni tartibga soluvchi hamda shikoyatlarni qabul qilish va nizolarni hal qilish uchun muxtasib mansabi dastlab halifa Umar tomonidan tashkil etilgan edi. Keyinchalik ana shunday muxtasib mansabi Movarounnahrda mavjud xonliklarda ham tashkil etilgan bo'lib, ular asosan fuqarolarning shikoyatlarini adolat nuqtai nazardan hal etishga intilganlar.

SHunday qilib, Ombudsman institutining ildizlari Din Gotterer ta'kidlaganidek, SHarq mamlakatlari davlatchiligiga borib taqaladi. Biroq, Yer yuzida rasmiy ravishda esa, birinchi marotaba Ombudsman instituti 1709 yil SHvetsiya qirolligi huzurida tashkil topgan. 1709 yili SHvetsiya qiroli Karl XII Poltava janglarida mag'lubiyatga uchrab, Turkiya davlatiga qochib ketadi. Qirolsiz qolgan SHvetsiyada tartibsizlik boshlanadi. Bundan xabar topgan Karl XII Turkiyada turib, 1713 yil SHvetsiya qirolligi huzurida Ombudsman tashkil qilish haqidagi qonunga nizo chekadi. Bugungi kunda deyarli barcha demokratik mamlakatlarda Ombudsman instituti tashkil etilgan. Ombudsmanning muhim xususiyatlaridan biri uning mustaqilligidir.

Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman) demokratik yo'ldan borayotgan jamiyatimizdagi inson huquqlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishda faol ishtirok etmoqda.

Ombudsman (vakil) quyidagi huquqlarga ega:

- 1) fuqarolardan tushgan shikoyatlarni ko'rib chiqish;
- 2) arizachiga o'z huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun foydalanishga haqli bo'lgan vositalarni ko'rsatish;
- 3) shikoyatni, uning mohiyati bo'yicha hal etishga vakolatli mansabdor shaxsga yoki tashkilotga berish;
- 4) arizachini tegishli hujjatlar, boshqa materiallar bilan tanishtirish hamda shikoyatni ko'rib chiqishni rad etish va rad etish asoslarini ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunining 26-moddasi birinchi qismiga muvofiq «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid keladigan qarori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bekor qilinadi».

⁵⁵ Xalilov E. O'zbekiston Respublikasining Parlamenti: Birinchi chaqiriq Oliy Majlisning faoliyati. -T.: O'zbekiston, 1999, 11-17 betlar

⁵⁶ Mustaqillik: izoxli ilmiy-ommabop lug'ati. -T.: SHark, 1998, 179-b.

⁵⁷ Gotterer D. Ombudsman xaqida. Demokratlashtirish va inson xuquqlari jurnali. 1999, 1-son, 27-b.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasining 1-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti «fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir».

Bu normaga ko'ra Prezident **birinchidan**, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilayotganligini, **ikkinchidan** esa, ularning Konstitutsiyaga mosligini nazorat qilib boradi.

Monitoring (inglizcha – tekshirib turish, nazorat qilish) – ma'lum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, baholash va tahminlash (prognozlash). Monitoring kundalik turmushning barcha jabhalarida qo'llaniladi.

O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishi hamda siyosiy hayotni erkinlashtirish masalalari. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1999 yil 14 aprelda Oliy Majlis 14-sessiyasida "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" mahruzasida XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatni rivojlantirish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilashning 6 ta ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan edi. **Birinchi ustuvor yo'nalish mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish** masalasini qo'ydi. SHundan so'ng 2000 yil 28 yanvarda Oliy Majlis 1-sessiyasidagi mahruzasida Siyosiy sohada mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishning bir qator yo'nalish va vazifalarini bayon etdi. Siyosiy sohadagi islohotlar: 1) fuqarolar siyosiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish, inson o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratish; 2) o'z fikrini erkin ifoda etishi; 3) ko'ppartiyaviylikni qaror toptirish; 4) nodavlat tuzilmalar, jamoat birlashmalari faoliyatini oshirish; 5) siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy faollikni ko'tarish fuqarolik jamiyatining o'zagi; 6) jamiyatda fikrlar xilma-xilligini yuzaga keltirish; 7) inson huquqlari va erkinliklari masalasini bayon etdi.

Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida hokimiyat tuzilmalarining bo'linish printsipini isloh qilish, mahmuriy islohotlarni amalga oshirish, kadrlar masalasi bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni belgilab berdi.

"Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" tamoyili fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti bo'lib, nodavlat va jamoat tashkilotlari rolini kuchaytirish kerak bo'ladi. Buning uchun esa, davlat hokimiyati organlarini bosqichma-bosqich erkinlashtirish zarur. SHu boisdan ham mustaqillik yillarida, ayniqsa 2000 yildan keyingi davrlarda 2006 yilgacha bo'lgan davrda bu masala davlat siyosatining markazida bo'ldi.

1. Davlat qurilishi va boshqaquvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyati - mamlakat Parlamentining roli va tahsirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib, barqaror muvozanatga erishishdan iborat. Prezidentimiz I.Karimov 2005 yil 28 yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma yig'ilidida "Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir" mahruzasida chuqur tahlil qilib berdi. Bunda: 1) Prezident vakolatlarining bir qismini Senatga va hukumatga o'tkazish Konunchilik palatasini shakllantirib uning huquqlarini kengaytirish; 2) Bosh vazir, mamlakat huqumatining rolini, mashuliyatini kuchaytirish; 3) sud hokimiyatini mustahkamlash va erkinligini ta'minlash vazifalarini bayon etdi. Mamlakatimizda davlat hokimiyatini erkinlashtirishda ikki palatali parlament barpo etishdan maqsad: 1) parlament o'z vakolatlarini samarali amalga oshirish; 2) Qonunchilik palatasi o'z faoliyatini doimiy professional tarzda olib borish; 3) Senat asosan mahalliy

Kengashlar, hududlarning vakillaridan iborat bo'lishini ta'minlash; 4) aholining mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtirokini kengaytirish lozim bo'ladi.

Mamlakatni modernizatsiya qilishda uzoqni ko'zlaydigan **"Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini** o'zida ifoda etadi. Bu shuni nazarda tutadiki: 1)dan hokimiyat vakolatlarining ma'lum bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazish; 2) siyosiy partiyalar va fuqarolik institutlarining muhim qarorlar qabul qilishdagi rolini kuchaytirish.

Demak, davlat va jamiyat qurilishi, siyosiy hayotini erkinlashtirish hokimiyat organlarining ayrim funktsiyalarini quyi hokimiyat organlariga bosqichma-bosqich o'tkazish bu fuqarolik jamiyatining muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

Jinoiy jazolarni liberallashtirish – qonun ustuvorligining muhim sharti. Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalariga asoslangan jinoyat, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirishga, jinoiy jazolarni liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonun loyihalari Oliy Majlisga kiritildi. Ularning qabul qilinishi mamlakatimiz ijtimoiy hayotida o'zining samarasini bermogda. Masalan, Respublikamiz Prezidenti tomonidan loyihasi kiritilib, 2001 yil 29 avgustda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Mahmuriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqiqida»gi Qonun bilan jinoyatlarni tasniflash yengillashtirish mahnosida takomillashtirildi, yarashuv instituti joriy etildi. Jinoyat kodeksidagi o'lim jazosini nazarda tutuvchi moddalar soni keskin kamaytirildi, mol-mulkni musodara qilish jinoiy jazo sifatida bekor qilindi va shu kabi inson huquqini himoya qilishga qaratilgan qator chora-tadbirlar qo'llanildi.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi 2001 yil 29 avgustda yangi tahrirda qabul qilingan Qonunining 20-moddasiga muvofiq «Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi nazorat predmeti hisoblanadi».

Qonun ustuvorligini ta'minlash - huquqiy davlat barpo etishning asosiy mezon. **Huquqiy davlat tushunchasi** demokratik davlat tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, demokratik, huquqiy davlat kuch, inqilob bilan emas, balki tabiiy-tarixiy evolyutsion yo'l bilan barpo etiladi. Albatta, har qanday jamiyatda huquqiy davlat tushunchasi u yoki bu qonunlarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. Negaki, qonunlar huquq sifatida har bir davlatda mavjud va har qanday hokimiyat ulardan foydalanadi. Hamma gap o'sha qonunlarning qandayligida va ularning qanday bajarilishidadir.

Huquqiy davlatni belgilovchi mezonlar quyidagilardan iborat:

- 1) Xalq hokimiyatining amalga oshishi.
- 2) Huquqning hukmronligi, ya'ni shaxs huquq va erkinliklarining hech kim, shu jumladan, davlat tomonidan ham hech qanday holda buzilmasligi.
- 3) Konstitutsiya va qonun ustuvorligi.
- 4) Hokimiyat vakolatlarining bo'linish tamoyili.
- 5) Sud mustaqilligi.
- 6) Inson huquqlariga rioya etish, ularni himoya qilish va ta'minlash.
- 7) Davlat va fuqarolarning o'zaro mashuliyati.
- 8) Huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning samarali ishlashi.
- 9) Huquqiy madaniyatlarning yuksak darajada ekanligi.
- 10) Demokratiyaning rivojlanishi va takomillashuvi.

Prezident Islom Karimov 2001 yil 29 avgustda Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis 6-sessiyasida **“Adolat qonun ustuvorligida”**gi mahruzasida quyidagi muhim jihatlarni alohida ta'kidlab o'tdi:

- 1) Sud mustaqilligini ta'minlash.
- 2) Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha alohida sudlarni tashkil etish.
- 3) Sudlar faoliyatini moddiy-texnika va moliyaviy jihatdan ta'minlash.
- 4) "Sudlar to'g'risida"gi Qonunga ko'ra sud kadrlarini tanlash va tayinlash mexanizmini mustahkamlash.

5) Jinoyatchilikning oldini olish uchun unga shafqatsiz jazo emas, balki qonuniy qay darajada anglashiga bog'liqligini hisobga olish.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi mahruzarida «Huquqiy davlatning mazmun-mohiyatini belgilaydigan amaldagi kodekslar, qonunlar, mehyoriy hujjatlarni tanqidiy baholagan holda huquqiy davlatni shakllantirish borasida birinchi galda qabul qilishimiz zarur bo'lgan yangi qonun va mehyoriy hujjatlarni aniqlab olishimiz kerak» deb ta'kidlab o'tdilar¹.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashda yurtboshimizning 1996 yil 31 oktyabrdagi «**Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi**»ni tuzish to'g'risidagi farmoni alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bugungi kunda Milliy markaz mamlakatimiz va butun jahondagi inson huquqlari, erkinliklarini jahon xalqaro huquq normalari asosida himoya etishning tahsirli vositasi sifatida faoliyati ham ibratli bo'lmoqda. Biroq bu borada demokratik tamoyillarning hayotga to'liq joriy etilishida jiddiy ayrim muammolar ham mavjud. Ulardan biri tom mahnodagi sud mustaqilligiga erishishdan iboratdir. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Sudlar tom mahnodagi mustaqil bo'lgan holdagina qonunlarning qathiy ijrosi, ularning haqiqiy ustuvorligi so'zsiz tahminlanadi. Qaerda sud mustaqil bo'lmas ekan, shu yerda qonun talablari va adolat buzilishi muqarrar»⁵⁸. Darhaqiqat qonun ustuvorligini, insonning huquq va erkinliklari himoyasini tahminlamasdan turib, demokratik va fuqarolik jamiyatini qurish haqida so'z yuritishga hech qanday asos qolmaydi.

2 Davlat hokimiyati tizimining bo'linish printsipi va O'zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi

Prezident Islom Karimovning "Parlament - jamiyat hayotining ko'zgusi" nutqida ko'tarilgan asosiy masalalar. 2005 yil 27 yanvarda O'zR Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi birinchi yig'ilishida Prezident Islom Karimov "Parlament - jamiyat hayotining ko'zgusi" mavzusida nutq so'zladi. Haqiqatan ham Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, parlamentga saylovlar jarayonida, xalqimiz o'zining faolligi, siyosiy ongi va saviyasini yorqin namoyon etdi. Saylovlar oshkoralik, ochiqlik va qizg'in kurashlarda o'tdi, bu jarayon dunyo jamoatchigi tomonidan kuzatildi. Biz hech kimdan kam emasligimiz, demokratik davlat qurishda o'z yo'limiz borligi, o'ziga xosligi ayon bo'ldi. Doimo bosiq bo'lib jim o'tirish deputatlik faoliyatiga to'g'ri kelmaydi. Har bir deputat o'z vakolati va mashuliyatini teran his qilishi kerak. **Deputat** – bu mustaqil fikrli inson. U qaysi partiyaga mansub bo'lmasin avvalo xalq oldida javob berishi kerak. SHu sabab xalq manfaatlari yo'lida parlamentdagi g'oyalar, yondashuvga qarashlar xilma-xil bo'lgani yaxshi. Deputat zalda bo'ladigan muhokama va munozaralar vaqtida 3 ta narsani esdan chiqarmasligini bayon etdi: **Birinchidan**, har qaysi deputat o'zining qadr-

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot pirovard maqsadimiz.-T.: O'zbekiston, 2000. – 29-b.

⁵⁸ Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan xamkorlik yo'li. T. II. –T.: O'zbekiston, 2003, 31-b.

qimmatini bilishi lozim. SHundagina u boshqalarni ham hurmat qiladi. **Ikkinchidan**, mehr-oqibatlik bizning xalqimizga yarashadigan, xalqimizga xos bo'lgan fazilat ekanini hech qachon esdan chiqarmasligi kerak. **Uchinchidan**, bobomiz Amir Temur aytganidek, qanday xalqning farzandimiz, degan savolni o'zimizga berishimiz kerak. SHu bilan birga kecha kim edigu, bugun kim bo'ldik, degan savolni ham hech qachon unutmaslik zarur.

Oliy Majlisning quyi palatasi – Qonunchilik palatasi rahbarlari yangi tartibda saylandi. Buning sababi shundaki, biz demokratik davlat barpo etayotganimiz, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirayotganligimizdadir. Biz demokratik qadriyatlarni o'z hayotimizga joriy etishda salmoqli natijalarga erishdik.

Demokratik parlamentning asosiy shartlaridan biri **ko'ppartiyaviylik masalasidir**. Demokratik jamiyatda ko'ppartiyaviylik tizimi bo'lishi kerak. Ko'ppartiyaviylik, avvalo jamiyatimizda o'z manfaat va qarashlaridan qathiy nazar har qaysi ijtimoiy qatlam va guruhning maqsad va intilishlarini to'liq aks ettirishi kerak. CHunki hayot bor ekan kimdir o'z manfaatini amalga oshirishga harakat qiladi. Har qaysi partiya - xalqning ma'lum qatlami manfaatlarini ifodalovchi siyosiy kuch. Har bir inson o'ziga xos bir olam. Ikkita inson bir-biriga o'xshamaydi. Xuddi shuningdek, siyosiy partiyalar ham o'z g'oyasi, maqsadi va vazifalari bilan bir-biridan farq qilishi zarur. SHundagina jamiyatdagi xilma-xil qarash, manfaatlar aks etadi. **Siyosiy partiyalar** xalqni, mamlakatni, millatni maqsad yo'lida birlashtirib turgan. SHu bois ular o'z manfaatlarini himoya qilishda bir-biriga muxolifat bo'lishi mumkin. Yagona Vatan haqida gap ketganda ular birlashishi kerak. Milliy istiqlol g'oyasi shunday birlashtiruvchi kuchdir. Har qaysi partiyaning o'z elektorati - uni qo'llab-quvvatlaydigan ijtimoiy qatlam bo'lishi lozim. SHunday bo'lmasa bu partiya haqiqiy siyosiy kuch bo'la olmaydi. Parlament saylovlari jarayonida siyosiy partiyalar shakllandi. Saylovchilar endi duch kelgan odamga emas, o'z dastur va g'oyalarini yoqtirgan partiyaga ovoz beradi. Bizda mintaqaviy partiyalar yo'q va bo'lmaydi ham, chunki mamlakat bo'linib ketishi mumkin bo'ladi. Bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi, har qaysi partiya umummilliy partiya sifatida faoliyat yuritishi, Markazda qolib ketmasligi kerak. **Saylov** – demokratiya degani, **Demokratiya** – bu saylov degani. Har qaysi partiya saylov orqali o'z tarafdorlarini aniqlaydi. Bo'lib o'tgan saylovlarda O'zLiberal-demokratik partiya g'alaba (34,2 foiz) qildi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, 2007 yil 11 aprelda O'zbekiston **Respublikasining «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi** katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu qonun 8 moddadan iborat ("Xalq so'zi", 2007 yil 12 aprel').

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Davlat hokimiyatining tashkil etilish printsiplari. Davlat hokimiyatining tashkil etilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ham berilgan. 89-moddaga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zRda davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir. Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti respublika fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov xuquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan 7 yil muddatga saylanadi. Uni saylash tartibi qonun bilan belgilanishi aytilgan. Yangi qoidaga ko'ra Prezidentning ayrim vakolatlari Senatga, ya'ni yuqori palataga bosqichma-bosqich o'tkazilishi aytilgan. Bu degani O'zbekistonning demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishda fuqarolarning davlat hokimiyati boshqaruvidagi ishtiroki kengaytirilgan.

Mustaqil davlatimizning bosh qomusi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan bo'lib, unga 2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendum natijalariga ko'ra hamda uning asosida qabul qilingan 2003 yil 24 apreldagi O'zR qonuniga ko'ra Konstitutsiyaning 18,19,20,23-boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritildi. Konstitutsiyaning 1-bo'lim 11-moddasida O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi printsiplari: 1) Davlat suvereniteti; 2) Xokimiyat haqchiligi tamoyiliga; 3) Inson va fuqaro huquq hamda

erkinliklari ustuvorligi va poydevorligi tamoyili; 4) Davlat hokimiyatining bo'linish printsipti; 5) siyosiy va mafkuraviy xilma-xillik tamoyili; 6) Demokratizm tamoyili; 7) Davlat va shaxsning o'zaro mashuliyati tamoyili; 8) Davlat huquq tuzilishi tamoyillariga amal qiladi.

I.1. O'zbekiston Konstitutsiyasining 5-bo'lim «Davlat hokimiyatining tashkil etilishi» deb nomlangan bo'lib, bunga birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi **Oliy Majlisi** haqidagi asosiy masala joy olgan. Oliy Majlis oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. **Oliy Majlis** 2 palatadan: Qonunchilik palatasi va Senatdan (yuqori) iboratligi bayon etilgan. Oliy Majlisning ana shu ikkala palatasi bilan bog'liq bo'lgan masalalar o'z ifodasini topgan. **Oliy Majlis Qonunchilik palatasi** va **Senatining** birgalikdagi vakolatlari 21 ta bo'lib ular alohida izohlangan. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlari 4 ta. Senatning mutlaq vakolatlari esa 14 tani tashkil qiladi.


1- ilova (a)

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tuzilishi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik palatasi	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati
Deputatlar soni 120 ta. Siyosiy partiyalar vakillari va tashabuskor guruhlar nomzodlar ko'rsatadilar. Yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 yil mudatga saylanadilar. Qonunchilik palatasi qonunlarni ishlab chiqarish va ularni hayotga tadbiq etish, qonun ustuvorligini ta'minlash ularning asosiy vazifasi. (O'zR. Konstitutsiyasi, 77-modda)	Senatorlar soni 100 ta. 86 ta senator yashirin ovoz berish natijasida senat ahzolari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda 6 kishidan Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi viloyat, tuman va shaharlar davlat xokimiyat vakillik organlari deputatlar orasidan saylanadi. 16 nafar Senatorlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ning farmoniga muvofiq tayinlanadi.

2- ilova (b)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi TUZILISHI



Vazirlar Mahkamasi ahzolari 8 ta, vazirlar 10 ta, davlat qo'mitalari, 9 ta jami 27 ta (2005–2010 yy.).

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi qonunlarning ijtimoiy-siyosiy mazmuni. 2002yil 12-13 dekabrda bo‘lib o‘tgan Oliy Majlisning 10 sessiyasi xalqimizning xohish-irodasi bilan “ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida “ va “ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunlar hamda ularning amalga oshirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilindi. Bu qonunlar qabul qilingach 2003 yil 24 aprelda “ O‘zbekimston Respublikasi Konstitutsiyasiga ayrim o‘zgartirishlar kiritildi.

1. OLIY MAJLIS – yuqoridagi qonunlarga ko‘ra Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati 5 yil. Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiviylik asosida saylanadigan 120 deputatdan iborat. Ya‘ni, bunda bu palatani tuzish g‘oyasi Prezidentimiz Islom Karimov tamonidan 2000 yil 25 may 2-sessiyasida ko‘tarilgan edi. SHundan so‘ng ikki palatali parlamentni tuzish to‘g‘risida referendum 2002 yil 27 yanvarda o‘tkazildi. Demak, ana shu Qonunchilik palatasi mamlakat aholisi vakilligini tahmin etadi, ularning manfaatlari inobatga olinadi. Saylov kuni 25 yoshga to‘lgan hamda kamida 5 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston fuqorasi Qonunchilik palatasining deputati etib saylanishi mumkin. Qonunchilik palatasi deputatlari o‘z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq tulanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug‘illanishlari mumkin emas. Qonunda qonunchilik palatasi vakolatlari ikki yo‘nalishga ajratilgan. 1. Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari. 2. Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari. Bular Qonunchilik palatasi to‘g‘risidagi qonunning 8-9 moddalarida aniq belgilab qo‘yilgan. 1. Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari jami 21 tani tashkil qiladi. Bunda qonunlarni qabul qilish jarayonlari to‘g‘risida batafsil bayon etib berilgan. 2. Qonunchilik palatasining mutloq vakolatlari 4 ta bo‘lib, asosan unda Spikerini, o‘rinbosari, qo‘mita raisi, o‘rinbosarlarini saylash aytilgan. Qonunchilik palatasiga Kengashi palata faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida tuziladi. Qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, palata muhokamasiga kiritiladigan masalalarni ko‘rib chiqish uchun qumitalar va komissiyalar tuziladi.

Oliy Majlisning Senati hududiy vakillik palatasi bo‘lib Senat ahzolaridan iborat bo‘ladi. Senat ahzolari Qaraqalpog‘iston juqorg‘i kengisi viloyatlar, tumanlar va shaharlar, davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan olti kishidan saylanadi. Senatning 16 nafar ahzosi fan, sanhat, adabiyot, ishlab chiqarish sohasidagi obro‘li fuqarolardan prezident tomonidan tayinlanadi. Demak, Senat saylanishi quyidagicha: 12 ta viloyat, Qaraqalpog‘iston Res. Toshkent shahri 16 deputat shaklida amalga oshiriladi. Senatga ham 25 yoshga yetgan O‘zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin.

O‘zbekistonda Parlament taraqqiyotining Yangi bosqichlari. O‘zbekiston Konstitutsiyasining II-moddasi bevosita davlat hokimiyati tizimining bo‘linish printsiplari qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlari 3 ta tarmog‘i berilgan. Davlat hokimiyatining tashkil etilishi qoidasiga ko‘ra O‘zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyatni Oliy Majlisning quyi Qonunchilik palatasi amalga oshiradi.

Davlat hokimiyatining tashkil etilish printsiplaridan biri, biz boya aytganimizdek, Oliy Majlis, ya‘ni qonun chiqaruvchi hokimiyatdir. Bu hokimiyatni isloh qilish tug‘risida 2002 yil 27 yanvarda referendum o‘tkazib, unda ikki palatali parlamentni yuzaga keltirish masalasini O‘zbekiston fuqarolari qo‘llab-quvvatlagan edilar.

2004 yil 26 dekabrda Oliy Majlisning quyi Qonunchilik palasiga va Mahalliy hokimiyat organlariga (viloyat, tuman, shahar kengashlariga) saylovlar bo‘lib o‘tdi, qayta saylov esa 2005 yil 9 yanvarda utkazildi. O‘zbekistonda 2005 yildan boshlab, uning davlat qurilishi siyosiy hayotida yangi davr boshlandi. Ikki palatali parlament shakllantirildi. 2005 yil yanvarida Senat ahzolari mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ko‘rsatildi va aniqlandi.

Umuman, O'zbekistonda saylov qonunchiligi, ya'ni parlament taroqqiyoti 4 bosqichni bosib o'tdi: 1-bosqich Konstitutsiyamiz qabul qilungunga qadar davr bo'lib, bu davrda O'zR Prezidenti saylovi va Referendum to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. 2-bosqich Konstitutsiyamiz qabul qilingandan to 1997 yilgacha davom etdi. Bu davrda "saylov tizimi" shakllantirildi. 3-bosqich 1997 yildan – 2003 yillarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda amaldagi saylov qonunlariga ayrim o'zgartirishlar kiritildi. Markaziy saylov komissiyasi to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. 4-bosqich 2003 yildan – 2005 yilgacha, bu davrda ikki palatali parlamentni shakllantirish bilan bog'liq saylov qonunlariga o'zgartirishlar kiritildi va 2004 yil 26 dekabrda Oliy Majlis qo'yi qonunchilik palatasiga saylov o'tkazildi.

Umuman parlament tomonidan qabul qilinadigan qonun ustuvorligi qo'yidagi uchala holat bo'lgandagina to'liq o'z ifodasini topadi: 1) qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ hujjatlar adolatga, inson huquqi va manfaatlariga asoslangan bo'lishi shart; 2) bu qonunlar barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan aniq bajarilishi zarur; 3) qonunlarga mos bo'lishi qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy mexanizmlarini tashkil etadi.

2. VAZIRLAR MAHKAMASI – ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zR Konstitutsiyasi 98-moddasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi Bosh vazir, uning urinbosari, vazirlar, davlat qumitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati boshlig'i VM tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi. Vazirlar Mahkamasi tarkibi O'zR Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O'zR Bosh vaziri (hozirgi paytda SH.Mirziyoev) namzodi prezident taqdimiga ko'ra Oliy Majlis palatalari tomonidan ko'rib chiqilib tasdiqlanadi. VMsi ahozolari Bosh vazir taqdimiga ko'ra Prezident tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, respublika qonunlari Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoishlari ijrosini tahminlaydi. Demak, Vazirlar Mahkamasi ijroiya hokimiyat bo'lib, u davlat hokimiyati bo'linish printsipiga ko'ra **Ikkinchi hokimiyat**, ya'ni **hukumat**dir. Mustaqillik yillarida hukumat sostavi 3 marta yangidan tasdiqlandi. 1993 yil 6 maydagi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi va uning 29 avgustdagi (1993) yangi tahrirdagi qonunlarga ko'ra **birinchi marta** Vazirlar Mahkamasining yangi sostavi 1995 yil 23 fevralda 2) **ikkinchi marta** esa 2000 yil 11 fevralda yangidan tasdiqlandi. 2005 yil 4 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibi tasdiqlandi. Hozirgi vaqtda VM ahozolari: 8, ta vazirlar: 10 ta, davlat qo'mitalari 9 ta qilib Prezident I.Karimov tomonidan tasdiqlandi.


3. SUD HOKIMIYATI – uchunchi hokimiyat organi tarmog'i bo'lib, u qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritiladi. Sud tizimi 5 yil muddatga saylanadi. Sudlarni tashkil etish, faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilab qo'yilgan. O'zbekistonda Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, Toshkent shahar, tuman, shahar, xo'jalik sudlariga bo'linadi. Prezident Islom Karimov 2005 yil 28 yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma yig'ilishida hokimiyatning ana shu tarmog'ini, sud tizimini tubdan isloh qilish yo'llarini ko'rsatib o'tdi. Sud-huquq tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirish uchun prokuratura organlarining sud jarayonlariga aralashuvini cheklash, shaxsni ushlab turish, hibsga olish xuquqlarini sud zimmasiga o'tkazishni belgilab beradi. Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning xuquq va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, mustaqil faoliyat yuritishini ta'minlash ta'kidlab o'tildi.

Sud-huquq sohasini erkinlashtirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Fuqarolarni shavqatsiz jazolash bilan emas, balki insonparvarlik ruhida tarbiyalash asosida huquqiy davlat yo'lidan borish zarurligini ko'rsatdi. 2006 yil 30 noyabrda Oliy Majlis Senatining qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining o'n to'rt yo'lligi munosabati bilan amnistiya to'g'risida"gi qaroriga asosdan 2007 yilda 44 mingdan ziyod shaxslar ozodlikka chiqarildi. Jumladan, sodir qilgan jinoiy harakatlar uchun jazoga tortilishi lozim bo'lgan 2 ming 377 ayol va 689 voyaga yetmaganlar jazodan ozod qilindi ("Xalq so'zi", 2007 yil 1 iyung').

2007 yilga kelib uchinchi hokimiyat Sud tizimi sohasida quyidagi islohotlar o'tkazilmoqda:

1) Jinoiy jazoga sanksiya berish prokuratura organlaridan sud tizimiga o'tkazilmoqda; 2) Advokat, oqlovchilarning mavqei, rolini oshirish; 3) O'lim jazosini jinoiy kodeksidan (2008 yil 1 yanvaridan) olib tashlash va uning o'rniga uzoq muddatli, umrbod qamoq jazosini belgilash isloh qilinmoqda.

1-slayd




Sud- xuquq soxasidagi isloxotlarning maqsadi,


Jamiyat ijtimoiy xayotida adolatning barqaror bo'lishini tahminlash; kishilarni qonun kuchi va rolga bo'lgan ishonchini orttirishi; shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida izchillik xamda o'zaro munosabatni tahminlash.

Sud xokimiyatini tom ma'noda mustaqil xokimiyat sifatida faoliyat yuritishini, qonun chiqaruvchi va ijroiya xokimiyati tarmoqlari bilan teng tarzda mustaqilligini tahminlash, sudlarning jamiyat va odamlar o'rtasidagi roli va obro'sini ko'tarish.

Sudlarni jazo beruvchi organlar emas, balki inson xuquqini ximoya qilish organi sifatida qarashni shakllantirish, ularning fuqarolar xuquqini davlat tomonidan ximoya qiluvchi asosiy organga aylantirish.

Qonun ustivorligini ta'minlash, ularni ijro etish madaniyatini yuksaltirish, qonun buzilishi holatlariga murosasiz munosabatni vujudga keltirish, jamiyatda xuquqiy ongni yangi pog'onaga ko'tarish.





4. Ommaviy axborot vositalari (OAV) hokmiyati dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lib, bizda endi shakllanmoqda.

5. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari – bugungi kunda viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlik boshchilik qiladigan halq deputatlari kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fiqoralarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar. Mahalliy hokimiyat organlari ihtiyoriga qo'yidagilar kiradi: 1) qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash; 2) hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; 3) mahalliy byudjetlarni shakllantirish; 4) mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish; 5) fuqarolik holati aktlarini qayd etish va h.k. Bulardan boshqa shaharcha, qishloq va ovullarda mahallalarda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqaradigan organlari ham mavjud bo'lib, ular demokratik xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda roli yanada ortib bormoqda.

6. Saylov tizimi. 7. Prokuratura. 8. Moliya va kredit. 9. Mudofaa va xavfsizlik masalalari ham joy olgan va ular yangi tartibda bayon etilgan.

3. Prezidentlik instituti va uning shakllanishi

Prezident so'zi – lotincha oldinda o'tiruvchi mahnoni bildiradi. O'zbekiston tarixida birinchi prezidentlik lavozimi 1990 yil 24 martda tahsis etildi. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga Islom Karimov saylandi". 1991 yil 18 noyabrda "O'zbekiston Prezidenti saylovi tug'risida"gi qonun qabul qilindi. Bu qonunga 1997 yil 26 dekabr va 1999 yil avgustda hamda 2004 yil 24 aprelda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Mustaqillik yillarida tom mahnoda prezidentlik instituti to'la shakllandi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 19-bobiga ko'ra O'zR Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir. Prezidentlik lavozimiga 30 yoshdan kichik bo'lmagan davlat tilini yaxshi biladigan bevosita saylovga kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq prezident bo'lishi mumkin emas. Prezident fuqarolar tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov xuquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan 7 yil muddatga saylanadi, u qonun bilan belgilab qo'yilgan. 1991 yil 29 dekabrda alternativ asosida o'tkazilgan umumxalq saylovida Islom Karimov 86% ovoz bilan (Salay Madaminov esa 14%) O'zbekiston Prezidenti etib saylandi. Bu saylovda 9,900 ming 958 kishi yoki ovoz berish xuquqiga ega bo'lgan fuqarolarning 94,2 foizi ishtirok etdi Islom Karimovga esa 8,514 ming 136 saylovchi (86%) ovoz berdi. 1995 yil 26 martda Oliy Majlis qaroriga ko'ra prezident vakolati 1997 yildan 2000 yilgacha uzaytirish masalasi bo'yicha umumxalq referendumini o'tkazildi. Unda 11 mln 245028 kishi (99.3%) ishtirok etib ovoz berishda qatnashganlarning 99,6 %i ijobiy javob bilan vakolat muddatini uzaytirishga rozilik bildirganlar. Qonunga ko'ra, Prezident qilib 35 yoshdan kam bo'lmagan va 65 yoshdan ortiq bo'lmagan, saylanish xuquqiga ega bo'lgan O'zbekiston fuqarosi bayon etilgan. 2000 yil 9 yanvarda ikkinchi bor Prezidentlik saylovi o'tkazildi. Unda O'zbekiston prezidentligiga nomzod qilib Islom Karimov (91.9%), Abdulhofiz Jalolov esa 4,17% ovoz olib, Islom Karimov g'alaba qildi. 2002 yil 27 yanvarda referendum o'tkazilib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy vakolat muddati 5 yildan 7 yil qilib o'zgartirishga rozimisiz degan savolga ovoz berishda qatnashgan fuqarolarning 11 117 841 nafari (91.78%i) yoqlab ovoz berdi. Natijada 2003 yil 24 aprelda O'zbekiston konstitutsiyasining 19-bobiga, ya'ni Prezidentlik qoidalariga bahzi bir o'zgartirishlar kiritilib, endilikda prezidentlik saylovi vakolat muddati tugaydigan yilda dekabr (2007) uchinchi 10 kunligining birinchi yakshanbasida o'tkazilishi belgilab olindi.

2007 yil 23 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Saylovda ishtirok etgan saylovchilar soni 14 765 444 kishi yoki ro'yxatga olingan saylovchilar umumiy sonining 90,6 foizini tashkil etdi.

1. Islom Karimov 13 million 8 ming 357 ovoz yoki saylovda qatnashgan saylovchilar umumiy sonining 88,1 foizini oldi.

2. Asliddin Rustamov 468 ming 64 ovoz – ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 3,17 foizini oldi.

3. Dilorom Toshmuhamedova 434 ming 111 ovoz – 2,94 foiz ovozga ega bo'ldi.

4. Akmal Saidov 420 ming 815 ovoz – 2,85 foizi miqdorida ovozga ega bo'ldi.

Saylov jarayonida 23 ming 300 nafar kuzatuvchi ishtirok etdi. Beshta xalqaro tashkilot: MDH, YeXHT, SHHT, YevrAzES, IQT, 30 dan ortiq xorijiy mamlakatlardan kelgan kuzatuvchilar, shuningdek, O'zbekiston Prezidentligiga nom ko'rsatgan siyosiy partiyalar va saylovchilar tashabbuskor guruhi vakillari saylovni kuzatib bordi.

Prezidentlik lavozimiga saylangan Islom Karimovning 2008–2014 yillarda o'z oldiga qo'ygan **dasturi** quyidagicha:

1. Mamlakatni modernizatsiyalash, jamiyatni yangilash, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlashdagi islohotlarni chuqurlashtirish, tadbirkorlik, kichik biznes va fermerlik harakatini erkin rivojlantirish.

2. O'rta sinf: tadbirkorlik, fermerlik harakati va xususiy biznes tuzilmasini, intellektual mulk egalarining manfaatini ustun qo'yish.

3. Milliy davlatchilik, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish.
4. Inson huquqlari Oliy qadriyat: "Inson manfaati har narsadan ulug'" shiori.
5. Sud-huquq tizimi islohatini rivojlantirish. Huquqiy davlatchilikni rivojlantirish.
6. Tashqi siyosat.
7. Real daromadni oshirish. Ish haqini 3 yilda 2–2,5 barobar oshirish.
8. Kadrlarni tayyorlash.
9. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.
10. Farovon hayot barpo etish.

Umuman, 2002 yil 4 aprelda "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etishning asosiy printsiplari to'g'risida" Konstitutsiyasiy qonun qabul qilindi. Prezident Islom Karimov 2005 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir" mahruzasida davlat qurilishi va boshqaruv sohasidagi eng muhim vazifa bo'lgan mamlakat Parlamentining roli va tahsirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishish yo'llarini belgilab berdi. SHunga ko'ra 2006 yili O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to'g'risida (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga)" loyihasi matbuotda ehlon qilinib, xalqning fikr mulohazalari o'rganildi va natijada ushbu qonun Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan 2007 yil 28 fevralda qabul qilindi. Senat tomonidan 2007 yil 29 martda mahquullandi. Prezident Islom Karimov 2007 yil 11 aprelda bu qonunga imzo chekdi. Ana shu "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to'g'risida (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga)"gi qonunga ko'ra Konstitutsiyamizning 89-moddasi quyidagicha tahrir qilindi:

1) **"89-modda.** O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini tahminlaydi».

2) **93-moddaning 15-bandi** quyidagicha tahrir qilindi:

"15 viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z shahni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli".

3) **102-moddaning ikkinchi qismi** quyidagicha tahrir etildi: "Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi". Ushbu qonun 2008 yil 1 yanvaridan kuchga kirishi bayon etildi ("Xalq so'zi", 2007 yil 12 aprelg').

Demak, mustaqillik yillarida mamlakatimizda prezidentlik instituti shakllanib, u yanada takomillashdi, uning huquqiy negizlari barpo etilib, rivojlangan mamlakatlar yo'lini tanladi. SHu boisdan ham O'zbekiston davlat tizimi Respublika Davlat va hukumat boshlig'i Prezident hisoblanadi. Prezident shaxsi daxlsiz bo'lib, u qonun bilan muhofaza etiladi.

ISLOM ABDUG'ANIEVICH KARIMOV – O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod qilib ko'rsatildi..

Islom Abdug'anievich Karimov 1938 yil 30 yanvarda Samarqand shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. Millati – o'zbek. Oliy ma'lumotli, O'rta Osiyo politexnika va Toshkent xalq xo'jaligi institutlarini tugatgan. Muhandis-mexanik va iqtisodchi mutaxassisliklariga ega. Iqtisod fanlari nomzodi.

Mehnat faoliyatini 1960 yilda Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodida boshlagan. 1961 yildan 1966 yilgacha V.P.CHkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida muhandis, yetakchi muhandis-konstruktor bo'lib ishladi.

1966 yilda O'zbekiston SSR Davlat plan komitetiga ishga o'tib, bosh mutaxassislikdan Respublika Davlat plan komiteti raisining birinchi o'rinbosarigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

1983 yilda I.Karimov O'zbekiston SSR Moliya ministri, 1986 yilda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Raisining o'rinbosari, respublika Davlat plan komitetining raisi etib tayinlandi.

1986-1989 yillar mobaynida Qashqadaryo viloyati partiya komitetining birinchi kotibi, 1989 yilning iyunidan boshlab O'zbekiston kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi lavozimlarida ishladi.

1990 yil 24 mart kuni O'zbekiston SSR Oliy Kengashining sessiyasida I.Karimov O'zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi.

1991 yil 31 avgust kuni I.Karimov tarixiy voqea – O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini ehlon qildi.

1991 yil 29 dekabrda muqobillik asosida o'tkazilgan umumxalq saylovida I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

1995 yil 26 martda bo'lib o'tgan umumxalq referendumida yakunlariga ko'ra, I.Karimovning Prezidentlik vakolati 2000 yilga qadar uzaytirildi.

2000 yili muqobillik asosida o'tgan saylov natijalariga ko'ra, Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, I.Karimov 7 yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

2007 yil 23 dekabrda muqobillik asosida o'tgan saylov natijalariga ko'ra Islom Karimov 7 yil muddatga ikkinchi marotaba O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

U oilali, ikki nafar farzandi, to'rt nabirasi bor. Rafiqasi T.A.Karimova – mutaxassisligi iqtisodchi, iqtisod fanlari nomzodi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Iqtisodiyot institutida katta ilmiy xodim bo'lib ishlagan, ayni paytda pensiyada.

I.Karimov suveren va mustaqil O'zbekistonni barpo etish, xalqparvar demokratik huquqiy davlat yaratish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni ta'minlash ishiga qo'shgan ulkan hissasi hamda bu borada matonat va jasorat ko'rsatganligi uchun “O'zbekiston Qahramoni» unvoni, “Mustaqillik” va Amir Temur ordenlari bilan taqdirlangan. SHuningdek, u bir qancha xorijiy davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlarning faxriy unvon, orden va medallari bilan ham mukofotlangan.

I.Karimov O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy ahzosi. Ayni vaqtda u iqtisod, fan, tahlilni rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun ko'plab xorijiy mamlakatlar universitet va akademiyalarining faxriy fan doktori hamda akademigi etib saylangan.

QISQACHA XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qonun ustuvorligi quyidagi uchala holat bo'lgandagina, o'zining to'liq ifodasini topadi.

Birinchidan, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-hujjatlar adolatga, inson huquqi va manfaatlariga asoslangan bo'lishi shart.

Ikkinchidan, Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan aniq bajarilishi zarur.

Uchinchidan, barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga mos bo'lishi – qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy mexanizmlarini tashkil etadi. Demokratik jamiyatning muhim tamoyili bo'lgan qonun ustuvorligi mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati qurishning asosidir. Albatta, demokratik jamiyat qurish faqat qonun ustuvorligi bilan cheklanib qolmaydi, balki xalqimizning milliy-ma'naviy negizlariga tayanishni taqozo etadi va zaruriy sharti qilib qo'yadi.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati qurilishida qonun ustuvorligi tamoyilini izohlab beringq
2. O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari qandayq
3. O'zbekistonda davlat hokimiyati tizimining bo'linish printsiplarini bayon etingq
4. Ikki palatali parlamentning bir palatali parlamentdan farqi nima
5. Qonunchilik palatasi va Senatni shakllantirish tartiblari nimalardan iboratq
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatini shakllantirish tartibi saylov qonunchiligida qanday belgilanganq

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2007. –4–6, 14–32-b.
2. O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 11 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to'g'risida (89-moddasiga, 93-moddasining 15 bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga)”gi Qonuni // “Xalq so'zi”, 2007 yil 12 aprelg'
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid: barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. -T.: «O'zbekiston», 1997, 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: «O'zbekiston», 2000, 6-12, 14-26, 28-38, 47-48-betlar.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. T.1. -T.: «O'zbekiston», 1996, 36-85-betlar.
6. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.1. -T.: «O'zbekiston», 1996, 274-284, 301-322, 341-359-betlar.
7. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.3. -T.: «O'zbekiston», 1996, 175-181, 183-191, 202-226, 227-246-betlar.
8. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish - har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 285–312-b.
9. Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezoni bo'lsin. Surxondaryo viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. –313–337-b.
10. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. –156–223-b.

11. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.14. – T.: O'zbekiston, 2006. – 61–97, 139–153, 248–265-b.
12. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoitini yaratish – asosiy vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2007. – 11-b.
13. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 48 b.
14. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayot garovidir. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2007. – 64 b.
15. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezon va maqsadidir. – T.15. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 3-11, 154-211-241-251-b.
16. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 48 b.
17. Rahimov I., Zohidov A., Azizov SH., Ayupov A. va boshq. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. -T.: «Universitet», 2001. 232-bet.
18. Pugachev V.P., Solovg'ev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 202-255-betlar.
19. O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T.: «O'qituvchi», 2004, 3-44-betlar.
20. Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. T.: Toshkent Moliya instituti, 2004, 3-180-betlar.
21. Odilqoriev X.T., Foyibnazarov SH.F. Siyosiy madaniyat. T.: O'zRIIV Akademiyasi, 2004, 138-158-betlar.
22. SHarifxo'jaev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. – T.: SHarq, 2005. – 240 b.
23. Aliev B., Hoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot nashriyoti», 2005. – 160 b.
24. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: "SHarq", 2006. – 528 b.
25. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar. – T.: "Ma'naviyat", 2006. – 160 b.
26. To'xliiev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" davlat ilmiy nashr., 2006. – 280 b.
27. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 204 b.

MAVZU. FUQARO ERKINLIGI, XUQUQ VA MANFAATLARI USTIVORLIGINI TA'MINLASH.

1. Fuqaro erkinligi va faolligining turlicha talqinlari.

Tarixiy taraqqiyotda fuqaro erkinligi va faolligining turlicha talqinlari (Farobiy va Navoiy fozil jamoa va komil inson to'g'risida).

Bugungi kunda "fuqaro" "fuqarolik", "fuqarolik jamiyati", "fuqarolik mashuliyati", "fuqaro xuquqlari va erkinliklari", tushunchalar demokratik rivojlanishning zaruriy shartlaridan biriga aylanmoqda. Fuqarolik tushunchasi jamiyatning hozirgi davr demokratik xuquqiy davlat tamon rivojlanishida katta yo'lni bosib o'tdi. U jamiyatning demokratik rivojlanishida qulga kiritilgan ulkan yutuqdir. Fuqarolik tushunchasi qadimgi Yunoniston va Rimda mavjud bo'lsada, u asosan feodalizm inqiroziga uchrab jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayot, demokratiya va bozor munosabatlari zaminiga o'ta boshlaganda "shaharli" degan hozirgi

shaklda yuzaga kelgan. Mustaqillik tufayli “grajdanlik” so’zi o’rniga” fuqarolik” atamasi kirib keldi⁵⁹. “Fuqarolik erkinligi” tushunchasi ham politologik, ham xuquqshunolik fanlarining umumiy kategoriyalari sifatida o’rganiladi. Demokratiya inson erkinligini qonunlar orqali kafolatlaydi. Insoniyat borliqni va ijtimoiy hayotda erkinlikni ifodalashning xuquqdan tashqari boshqa biron bir shaklini hozirgacha kashf etmagan.

Insonning muhim xususiyatlaridan biri - uning ijtimoiy mavjudot ekanligidir. Inson o’zining ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida o’zi kabi insonlar bilan birlashishga intiladi. Insonning ijtimoiylashuvi sunhiy xarakter kasb etib, u shaxs sifatida boshqa insonlar o’rtasidagi muhitdagina shakllana oladi. Agar u insoniy munosabatlardan holi bo’lsa, o’zidagi yovuzlik yoki hayvoniy tabiatidan xalos bo’la olmaydi. Insondagi jamiyatga uyushishga intilishning tabiiy tarzda kechishini Abu Nasr Forobiy quyidagicha ifodalaydi: «Har bir inson o’z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko’p narsalarga muhtoj bo’ladi. U bir o’zi bunday narsalarni qo’lga kiritmaydi, ularga ega bo’lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug’iladi... SHu sababli yashash uchun zarur bo’lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o’zaro yordamlashuvi orqaligina odam o’z tabiati bo’yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa ahzolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo’lgan narsalarni yetkazib beradi. SHuning uchun inson shaxslari ko’paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o’rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi»⁶⁰.

Forobiy jamoani katta - kichikligiga qarab uch turga bo’ladi:

- 1) **Buyuk jamoa** – dunyodagi barcha xalqlarning birlashuvi.
- 2) **O’rta jamoa** – bir xalq yoki millatni birlashtiruvchi jamoa.
- 3) **Kichik jamoa** – alohida bir shahar davlatini birlashtiruvchi jamoa.

Odamlarning eng takomillashgan jamoasi – bu shahar davlatidir. qishloqlar shaharlardan keyin turuvchi va shaharlarni oziq-ovqat bilan tahminlovchi jamoalar hisoblanadi. Forobiy shahar davlatini ikki taifaga bo’ladi: 1) Al-Madina al-Fozila; 2) Al-Madina al-Johiliya.

Agar barcha shahar aholisi o’zaro birgalikda, ittifoqda yashab, bir-birlariga yordam ko’rsatsalar bunday shaharlar fazilatlidir. Barcha xalqlar tinch-totuv va do’stlik asosida yashasa, yer yuzida tinchlik bo’ladi.

Forobiy asralarida davlat atamasi ishlatilmaydi. Ammo shahar jamoalari deganda shahar-davlatlarni nazarda tutadi. Davlatning kelib chiqishini Forobiy odamlarning jamoa bo’lib yashash ehtiyojlaridan deb biladi. U davlatning asosiy vazifasini ikkiga bo’ladi:

1. **Davlatning ichki vazifasi fuqaroning baxtli hayotini ta’minlash.**
2. **Tashqi vazifasi o’z aholisini tashqi hujumlardan himoya qilish.**

Forobiy urushlarning ikki xilini aytadi:

1. Adolatli urushlar (Adolatsiz urushga qarshi olib boriladi).
2. Adolatsiz urushlar (Bosqinchilik urushlari).

Forobiy davlat shakli masalasiga ham to’xtaladi. Taxt otadan bolaga meros bo’lib o’tishini qoralaydi. Davlat boshlig’i o’z lavozimiga mansub bo’lgan shaxs bo’lishini yoqlaydi. Uning fikricha, davlat boshlig’i har tomonlama yetuk bo’lishi kerak. Forobiy ana shu yakka hokimlik to’g’risida gapirar ekan, uning oldiga 12 talabni qo’yadi. Bular: 1) to’rt muchali sog’lom; 2) nozik farosatli; 3) xotirali; 4) zehni o’tkir, zukko; 5) fikri tiniq, so’zlari chiroyli; 6)mahrifatli; 7) tamoq, ichimlik, ayollarga nisbatan ochofat bo’lmasligi; 8) haqiqatgo’y; 9) nomusli, oriyatli, oliyhimmat bo’lishi; 10) boylikka qiziqmaydigan; 11) adolatparvar; 12) botir, ya’ni qo’rqoqlik va hadiksrashdan xoli bo’lishi darkor. Forobiy mana shu barcha xislatlarning bir odamda bo’lishi qiyin, bunday tug’ma qobiliyat kamdan kam odamlarda uchraydi va ular nodir insonlardir. Barkamol inson topilmay qolsa, unda yuqoridagi fazilatlardan 6 yoki 5 tasi kamol topgan inson ham aql va zakovatda benazirligi tufayli fozillar shahriga rahbarlik qila oladi, deydi. Fozillar shahrida bunday odam yo’q bo’lganda ana shu imom yoki uning izdoshlari chiqargan qonun va

⁵⁹ Mustaqillik: Izoxli ilmiy-ommabop lug’at. – T.: SHarq, 1998. – 225-b.

⁶⁰ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. T.:A.Qodiriy nomidagi «Meros» nashriyoti, 1993, 186-bet.

tartiblarga amal qilinadi. Avvalgi imom o'rniga kelgan keyingi rahbarda ham yuqorida aytilgan xislatlar yoshlikdan shakllangan bo'lishi lozim. Keyingi imomda yana 6 ta fazilat hosil qilinishi zarur: 1) donishmandlik; 2) kuchli xotira; 3) yangi qonunlarni ixtiro qilish; 4) vaziyatni tez ilg'ab oladigan; 5) notiqlik; 6) harbiy ishlarga mohirlik, rahbarlik qilish. SHu xislatlarga ega bo'lgan shaxs topilmasa, 2 kishi birlashib fozil shaharga rahbarlik qilishi lozim, deydi.

Hozirgi davr ijtimoiy-siyosiy fanlarida «inson» deganda Yerda yashayotgan mavjudot turlaridan biri tushuniladi. **Inson** alohida olingan tur (Nomo sa'iens) vakilini ifodalovchi umumiy tushunchadir. Inson, umuman zotning yig'iq obrazi sifatida bioijtimoiy mavjudot bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham tabiatga, ham ijtimoiy hayotga mansubdir. **Individ** – inson zotining alohida olingan nusxasi, uning vakillaridan biri. **SHaxs** esa u yoki bu inson sifatida namoyon bo'lib, u ma'lum va betakror individuallikka ega bo'ladi. Individning jamiyatga kirish jarayonlari uning ijtimoiylashuvini tahminlaydi. **Ijtimoiy munosabatlarga** kirishish natijasida individning jamiyatdagi qadriyatlar va mehyorlarni o'zlashtirib borishi uchun zamin yaratiladi. Bu jihatdan yondashganda, u ijtimoiy tahsir ob'ektidir. SHuningdek, individ ijtimoiylashuv oqibatida jamiyatdagi turli munosabatlarda faollashadi va bunda u ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida harakatlanuvchi shaxsga sub'ektga, kuchga aylanadi.

Navoiy “ Hayratul abror” asarida komil inson haqida to'xtalib, dunyoda insondandan ulug'roq kamolat yo'q, deydi.” menga ne yoru, ne oshiq havasdir. Agar men odam ulsam, ushbu bastir”. Komil inson insonlar jamiyatidan yetishib chiqadigan mo'htabar zotdir. U azaldan martabasi aniq bo'lgan ruh emas, balki axloqiy-manaviy poklanish jarayonida kamolga erishgandir.

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqaro erkinligi, huquqlari va manfaatlari bosh mavzulardan biri bo'lib, uning huquqiy asoslari Asosiy qonun va boshqa normativ hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Prezident Islom Karimov mustaqillikning ilk davrlaridanoq mamlakatning strategik maqsadlarini aniq va ravshan belgilab berdi va davlat vakolatlarini asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich nodavlat va jamoat tashkilotlari zimmasiga o'tkazish, o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish orqali demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish zarurligini bayon etgan edi. Prezidentimiz I.Karimov mamlakatning siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirishning yangi kontseptsiyasini ishlab chiqdi. Bunga ko'ra:

1. Demokratik institutlar faoliyatlari ko'lamini kengaytirish.
2. Aholining siyosiy faolligini kuchaytirish va siyosiy madaniyatini oshirish.
3. Jamiyatda manfaatlar, turli xil qarashlar, siyosiy va ehtiqodiy raqobatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash.
4. Jamoat birlashmalarining ijtimoiy mavqeini oshirish.
5. Siyosiy partiyalar faoliyatini takomillashtirish.
6. Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish.
7. Davlat qurilishini erkinlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish.
8. Hokimiyat bo'linish printsiplarining insoniyat umumehtirof etgan tamoyillarini amalda qo'llash.
9. Davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini nodavlat va jamoat birlashmalariga o'tkazish va boshqalar.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 2-bo'limi «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari» deb nomlangan. Unda 1) jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, ehtiqodidan qat'iy nazar, Hammaning qonun oldida tengligi ko'rsatilgan. 2) Sud qarorisiz uning huquqini cheklash mumkinmas. 3) Fuqarolar qonunga putur yetkazmasligi shart. 1992 yil 2 iyulda «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. 1995 yil 21 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi I-qismi tasdiqlandi. 1996 yil 29 avgustda fuqarolik kodeksining 2-qismi tasdiqlandi. O'zbekiston qonunlariga ko'ra fuqarolarning asosiy huquqlariga: 1) SHaxsiy huquq va erkinliklar, 2) Siyosiy huquqlar, 3) Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, 4) Kafolatlar, 5) Fuqarolik burchlarini o'z ichiga qamrab oladi.

1948 yil 10 dekabrda «Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi» qabul qilindi. 1996 yil 19 dekabrda «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt qabul qilindi. 1966 yil 19 dekabrda «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt» qabul qilindi.


Mazkur hujjatlarda fuqaro erkinligi, kafolatlari, huquqlari va manfaatlarining ustuvorligi to'la tahminlanishi bayon etilgan. O'zbekiston hukumati inson huquqlari bo'yicha 21 ta xalqaro shartnomaga qo'shilgan. 1997 yil Inson manfaatlarini yili deb e'lon qilindi.

O'zbekiston inson huquqlari sohasida o'z siyosatini belgilashda 3 ta eng muhim tamoyildan kelib chiqadi: 1. Normativ va tashkiliy jihatlardan xalqaro tajribaning ustuvorligi. 2. Insonga homiylik qilishdek Vatanimiz tarixiy tajribasini hisobga olish. 3. Inson huquqlari bo'yicha xorijiy milliy institutlar tajribasini hisobga olish. Demak, bu masala «fuqaro-jamiat-davlat» o'zaro munosabatlarini to'g'ri yo'lga soladi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishining muhim ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat. Avvalo, mamlakatda dunyoviy davlat tamoyillariga inson huquqlari va suvereniteti g'oyalariga sodiq bo'lish, demokratiya va ijtimoiy adolatni qaror toptirish, xalqaro huquqning umumehtirof etilgan qoidalari ustunligini tan olish, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlash, insonparvar, demokratik, huquqiy davlat barpo etish, bu borada o'zbek davlatchiligi tarixiy tajribasiga tayanish, diniy tashkilotlar va birlashmalarni davlatdan ajratilganligi, qonun oldida tengligi va milliy totuvligini ta'minlash kabi bir qator qoidalarga amal qilish lozim bo'ladi. Lekin shu bilan birga Milliy davlatchilik va demokratik jamiyat qurish borasida huquqiy davlatni qaror toptirish lozim. Buning uchun fuqarolar siyosiy ongini faol oshirib borish ham zarur bo'ladi. Fuqarolar erkinligi, huquqlarining tan olinishi, burchlarga rioya etilishi va ularning fuqarolar tomonidan ijrosi tahmin etilgan bo'lishini talab qiladi. SHundagina «Fuqaro - jamiyat - davlat» o'rtasida o'zaro munosabatlar barqaror rivojlanishiga olib keladi.

Prezident Islom Karimov mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurish masalasini mustaqillikning dastlabki yillarida, o'zining «O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li» asarida ham asoslab bergan edi. Bu masala **2005 yil 28 yanvarida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida qilgan mahruzasida ham yana bir bor ta'kidlab o'tildi: «Bizning uzoq muddatli va strategik maqsadimiz avvalgicha qoladi - bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonlari va bozor islohotlarini chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashdan iborat»**. Bu masala Prezidentimiz tomonidan 1999 yil 14- sessiyada, 2002 yil 9- sessiyada ham bir necha bor ta'kidlab o'tildi. Demak, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishining quyidagi ustuvor yo'nalishlari mavjud: 1) Tengsiz oliy nehmata - mustaqillikni bundan buyon ham asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash bo'lib qoladi. 2) Mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimiz hududiy yaxlitligi, sarhadlarimiz daxlsizligini, fuqarolarimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash lozim. 3) Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash. 4) Inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligi, oshkoralikni, islohotlarning ochiqqligini ta'minlash, demakki, to'rtinchi hokimiyat tarmog'ini, ommaviy axborot vositalarini shakllantirish. 5) Mamlakatimizda nodavlat va jamoat tashkilotlarini, ularning o'rni va ahamiyatini kuchaytirish, ya'ni bu «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» tamoyilini hayotga joriy etishga olib kelish, Qonun ustuvorligini ta'minlash. 6) Sud-huquq sohasini tubdan isloh qilish. 7) Barcha islohotlarimiz yo'nalish va samaradorligi inson omili va mezonini bilan bog'liqligini unutmaslik kerak.

Xulosa qilib aytganda, insoniyat borliqini va ijtimoiy hayotda erkinlikni ifodalashning huquqdan tashqari boshqa biron-bir shaklini hozirgacha kashf etmagan. Bu mantiqan ham, amalda ham mumkin emas. Odamlar o'z tengligi darajasida erkindirlar va erkinligi darajasida tengdirlar.



2. Inson faolligining asosiy mezonlari: hozirgi davrda inson, jamiyat va davlatlar o'zaro munosabatlari

Insonning paydo bo'lishi, uning jamiyatdagi o'rni va mohiyati doimo ijtimoiy fanlarning muhim va bahsalar sohalaridan biri bo'lib keldi. Aristotelning ta'kidlashicha, «inson - tabiatan (mohiyatan) ijtimoiy»⁶¹ ekanligini ta'kidlash bilan birga, «umumiy mahnoda kimda-kim hokimiyat yuritish va bo'ysunishga taalluqli bo'lsa, o'sha fuqarodir; har bir davlat tuzumida fuqaroning mohiyati o'zgaradi. Davlat tuzumining eng yaxshi turida kimda-kim ma'naviy qadriyatlar talablariga mos hayotni nazarda tutgan holda bo'ysunish va hokimiyat yuritishni xohlasa va unga qobil bo'lsa, ana o'sha fuqarodir»⁶².

Insonning mohiyatini dastlabki o'rgangan olimlardan biri Xitoydagi Konfutsiy va uning izdoshlari edi. Eramizdan ilgari 298-238 yillarda yashagan Konfutsiyning izdoshi bo'lgan olim Seng'-tszi shunday deb yozgan edi: «Tug'ma xususiyatlar - bu samoviy munosabatlar hosilidir. Ularga tahlim yoki odamning o'zini yaratuvchilik ijodi vositasida erishib bo'lmaydi. Inson yovuz tabiatga ega. Insondagi ezgulik manfaatlar uchun orttirilgan fazilatdir. Hozirgi inson tug'ilishidan boshlab foyda olishga intiladi. Bu shunga olib keladiki, kishilar o'zaro raqobatlashadilar va bir-birlariga yon bermaydilar. SHuning uchun ham tarbiya yo'li bilan inson tabiatini o'zgartirish, yaratilgan qoidalar asosida tahlim berib, ularni adolatlilikka va mashuliyatlilikka o'rgatish lozim»⁶³. Ko'rinib turibdiki, insonni jamiyatga uyushishi yoki uning jamiyat ahzosiga aylanishi va faollashuvi uchun u ma'lum darajada tashqi tahsirga va hayotdagi ijtimoiylashuvga ehtiyoj sezadi.

An'anaviy jamiyatlarda insonning yaratuvchilik ijodiy qobiliyati ancha chegaralandi. CHunki anhanaviy jamiyatlarda mehnatning tabiiy taqsimoti va ixtisoslashuvi adolat printsiplariga asoslanmadi. SHuningdek, bu jamiyatlarda shaxslararo munosabatlarning o'ta tabaqalashuvi, o'zaro harakatlar va munosabatlarni norasmiy muvofiqlashtirilishi, jamiyat ahzolarining bir-biriga tobelik, urug'chilik va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liqligi natijasida shaxs erkinligi ham tahminlanmadi. Boshqaruvdagi primitiv tizimlar imtiyozsiz jamiyat ahzolarining faolligini pasaytirib, bu holat shaxsning ijodiy faoliyat ko'rsatish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga imkon bermas, natijada o'zaro munosabatlar biqiq tarzda ro'y berar edi.

Zamonaviy jamiyatning paydo bo'lishi bilan insonning ijtimoiy va siyosiy munosabatlardagi o'rni yuksalib bordi. Bu jamiyatlarda o'zaro munosabatlarning bir-biriga tahsir etish darajasi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ro'y berdi. Bu jarayonlarning sekinlik bilan yuksak tahlim va tajribaga, shuningdek, yuqori kasbiy malakaga asoslanishi, ijtimoiy munosabatlarning qonunlar, mehyorlar, shartnomalar asosida muvofiqlashtirishning rasmiy tizimini yaratilishi zamonaviy jamiyatlarni xalqchil bo'lishiga zamin yaratdi. Dinni davlat va boshqaruvdan ajratilishi, ijtimoiy institutlarning ko'payishi va rivojlanishi kabi omillar natijasida insonlararo munosabatlar yuksalib, siyosiy institutlarni nazorat etish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish, jamiyatda tenglik o'rnatish imkoniyatlari paydo bo'ldi. XX asrga kelib eng takomillashgan va zamonaviy kishilik birliklarini fuqarolik jamiyati, deb atash rusumga kirdi.

Ma'lumki, inson o'zining ijtimoiy mavjudot ekanligi va o'z mohiyatidan kelib chiqib, tabiiy ravishda siyosiy munosabatlarda ishtirok etishga intiladi. Ijtimoiy-seyosiy munosabatlarda faol ishtirok etish ehtiyojlari va zururiyati esa har bir fuqaroda manfaatlarining faqat guruhiy shakldagina ifodalash va qondirish mumkin ekanligini anglab yetishiga zamin yaratadi. Turli xil ijtimoiy guruhlar va tabaqalarning turlicha manfaatlarini o'zaro to'qnashuvlar aa ziddiyatlarga kirishishi, ularni o'zaro kelishtirish va muvozanatlashtirishsiz hal qilib bo'lmasligini anglash jarayonlari tabiiy ravishda xalqchil jamiyat va siyosiy hokimiyatga bo'lgan ehtiyojlarni shakllantirdi. CHunki turli manfaatlar muvozanatini ta'minlashni faqat demokratik jamiyat bilan

⁶¹ Aristotel. Soch. v 4-x t. -M.: Misl, 1984, s.63.

⁶² O'sha joyda, 471-bet.

⁶³ Antologiya mirovoy filosofii. V 4-x t. M.: 1969. T.1. str.230-231.

davlat hokimiyati hamkorligida amalga oshirish mumkin ekanligini tarixiy tajribalar isbotlab berdi. SHu sababli ham siyosiy ong turli xil ijtimoiy guruhlarining siyosiy institutlar va siyosiy sub'ektlar bilan o'zaro muloqot va munosabatlarga kirishishi uchun zaruriy ehtiyojlarni shakllantirdi hamda rasmiylashtirdi.

Fuqaro huquqlarini ta'minlashda insonning tabiiy huquqlarini ehtiborga olish muhim ahamiyatga egadir. Qadimgi antik faylasuflar talqinicha, tabiiy huquq tabiatiga bog'liq holda insonlar tug'ilishlaridanoq bir xildirlar. Ijtimoiy shartnomalar asosida qonun va davlat paydo bo'ldi. Aristotelning fikricha, insonni tug'ilishidayoq paydo bo'lgan xususiy mulkka bo'lgan tabiiy huquqi insonning tabiati va uning dastlabki o'zini o'zi sevishiga asoslanadi. Qolaversa, ana shu tabiiy huquqni ta'minlashga intilish, xususiy mulk jozibasi, uni saqlash va ko'paytirish manfaatlari insonni jamiyatda tezlik bilan ijtimoiylashuviga va faollashuviga olib keladi.

Tor mahnoda inson huquqlari tushunchasiga faqat davlat himoya qiladigan va kafolat beradigan huquqlar kirib, xozirgi davrda ularni konstitutsion-huquqiy asoslar yoki va davlat chegaralari bilan cheklab qo'yish oson vazifa emas. Bu huquqlarga barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, yashash va jismoniy daxlsizlik huquqi, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, o'zboshimchalik va noqonuniy ushlar yoki qamash, vijdon va din erkinligi, ota-onalarning o'z bolalarini tarbiya qilish huquqlari, zulmkorlarga qarshilik qilish huquqi va boshqalar kiradi. **Keng mahnodagi inson huquqlari** esa o'zida shaxs erkinligi va huquqlarining keng majmuasi va turlarini ifodalaydi.

Barcha inson huquqlarini **negativ** va **pozitiv** yo'nalishlarga bo'lishga doir tasniflash keng tarqalgan. Mazkur huquqlarning bu kabi bo'linishi erkinlikni negativ va pozitiv jihatlarini ifodalashga asoslanadi. Ma'lumki, erkinlikning **negativ ahamiyati** nuqtai nazariga binoan shaxsga nisbatan majburlash va cheklashlarning yo'qligi tushuniladi. **Pozitiv nuqtai nazardan** esa tanlash erkinligi, asosan, insonning o'z maqsadlariga erishish qobiliyati, uning individual rivojlanishi va umuman, uning qobiliyatlarining paydo bo'lishi tushuniladi. Erkinliklarning mazkur bo'linishidan kelib chiqib, negativ huquqlar deganda, davlat va boshqa insonlarning individga nisbatan u yoki bu harakatlardan o'zini tiyib turishi tushuniladi. Bu huquqlar shaxsni noxush tahsirlardan, uning erkinligini buzishi mumkin bo'lgan aralashish yoki cheklashlardan himoya qiladi. Bu huquqlar asos bo'luvchi, muhim va mutlaq huquqlar sirasiga kiradi. Mazkur huquqlarni ta'minlash davlat resurslari yoki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalariga bog'liq emas. Negativ huquqlar esa shaxs erkinligining asosidir.

Negativ huquqlardan farqli o'laroq, pozitiv huquqlar fuqaroga uni u yoki bu nehmatalar bilan ta'minlash, uning ma'lum harakatlarini amalga oshirishi uchun davlat, shaxslar va tashkilotlar majburiyatlarini ifodalaydi. Bu - masalan, ijtimoiy yordam olish, tahlil olish, sog'liqni saqlashni himoya qilish, munosib yashash darajasini tahminlanishi huquqlari kabilardir.

3. Fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligi oshirish erkin va farovon hayotni barpo etishning zaruriy sharti

Fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish – demokratik jamiyat qurish omili. Demokratik jamiyat barpo etishda fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi eng muhim omillardan biridir. Bu haqda mamlakat Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrni bildiradi: "Hokimiyat tuzilmalarining demokratik mazmuni ko'p jihatdan davlatni boshqarishda fuqarolarning ishtirok etish masalasi qanchalik hal qilinganligi bilan belgilanishi ma'lum. O'zbekistonda ushbu huquqning

amal qilishi uchun qonun asoslari yaratilgan. Biroq hali jamiyat va fuqarolar davlatni boshqarishda ishtirok etish, o'zlari qanday boshqarilayotganligi haqida ma'lumot olish huquqini anglay boshlashiga va bu huquqdan foydalana oladigan bo'lishlariga erishish kerak. SHunday sharoitdagina davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o'z mashuliyatlarini his qiladilar. Buning uchun fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish zarur. Barqaror, mustahkam tizimlarda, agar fuqarolarning siyosiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish

uchun Hamma huquqiy, demokratik shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, aholining o'zi ixtiyoriy ravishda, professional asosda mamlakatning siyosiy hayotida tobora keng ishtirok etadi"¹.

Fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mezonlari quyidagilardan iborat:

1. Fuqarolik jamiyati institutlari. Hozirgi davrda O'zbekiston jamiyatida 7 millionga yaqin fuqarolar kasaba uyushmalari faoliyatida, 600 mingdan ortiqroq fuqarolar esa siyosiy partiyalar ahzolari sifatida jamoatchilik ishlarida ishtirok etadilar. SHuningdek, millionlab fuqarolar yoshlar, xotin-qizlar, turli jamg'armalar, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etadilar. Mamlakat viloyatlarida 661 ta, tumanlarda 4564 ta, shaharlarda 831 ta viloyat, shahar va tuman kengashlari deputatlari, 10.000 ga yaqin o'zini o'zi boshqarish organlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqdalar.

Mustaqillik davrida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga ham muhim ehtibor berildi. Mamlakatda O'zbekiston yoshlarining «**Kamolot**» **ijtimoiy harakati** jamiyatning barcha yo'nalishlarida keng faoliyat olib bormoqda.

2. Ijtimoiy-siyosiy faollikni oshirishda saylovlar muhim o'rin tutadi. Unda avvalo, saylovchilarning ixtiyoriy bergan ovozlariga binoan siyosiy institutlar legitimligi oshadi. Qolaversa, saylovlarda jamiyatdagi turli xil guruhlarining tinch raqobatdoshligi kutilganligi sababli ham saylash jarayonlari siyosiy ziddiyatlarni hal etishga olib keladi. SHuningdek, saylovlar aholi siyosiy manfaatlarini ifoda etuvchi siyosiy partiyalar, boshqa siyosiy tashkilotlarning faol harakatlari tufayli turli ekstremistik harakatlarni cheklab turadi. SHu bilan birga saylovlar fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy ijtimoiylashuviga ko'maklashadi. Saylovlardagi turli kampaniyalar, ularni ommaviy axborot vositalarida yoritish kabi tadbirlar saylovchilar siyosiy va huquqiy madaniyatlarini yuksaltiradi. SHuningdek, saylovlar fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga qulay imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekistonda fuqarolar ijtimoiy faolligining o'sib borishi ularning mamlakat davlat organlariga bo'lgan saylovlardagi ishtirokida ham sezilmoqda. 1999 yil 5 dekabrda ikkinchi marta demokratik tamoyillar asosidagi Oliy Majlisga bo'lgan saylovlarda 12,5 milliondan ortiq saylov huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning 95,03 foizi ishtirok etdilar. Unda 250 ta Oliy Majlis deputatlari saylandi. SHuningdek, 2000 yilning 9 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlar bo'lib o'tdi. Unda esa 12 million 123 mingdan ko'proq saylovchilar ishtirok etdilar. «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi nomzodi Islom Abdug'anievich Karimov nomzodi uchun 11 million 147 ming 621, yoki saylovchilarning 91,90 foizi ovoz berdilar.

2004 yil 26 dekabrda Oliy Majlis quyi qonunchilik palatasiga va mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazilgan saylovlarda fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligi yanada oshdi. SHuningdek, 2006 yil may-iyung' oylarida fuqarolar yig'ini (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovlarida oddiy fuqarolar demokratik saylovlarda ishtirok etib, o'z fikrlarini bayon etdilar va xalq boshqaruvining quyi bo'g'iniga faol insonlar saylandilar.

3. Davlat va jamiyat boshqaruvida O'zbekistondagi siyosiy partiyalarning faolligi ham muhim ahamiyatga ega (Bu haqda 12.4-mavzuda to'liq bayon etilgan).

Mamlakatda o'tkazilgan saylovlarni tahlil etish shuni ko'rsatadiki, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi yildan-yilga o'sib bormoqda. Mamlakat fuqarolari hozir mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy jarayonlar va islohotlarga nisbatan befarq emaslar. Ayniqsa, fuqarolarning o'z manfaatlarini ijtimoiy faollik va guruhiy nodavlat tashkilotlar vositasida ifoda etish, ularni qondirishga intilishlari rivojlanib bormoqda. Lekin, shu bilan birga, fuqarolarning qarorlar qabul qilishdagi faolligini oshirish uchun ular dunyoqarashida demokratik tamoyillar asosidagi siyosiy va huquqiy ongning singdirish ehtiyojlari sezilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri, iqtisodiy va siyosiy hayotni erkinlashtirishdir.

Jamiyatni tashkil etish qonuniyatlariga binoan ma'lum bir siyosiy tizim doirasida turgan individ va ijtimoiy guruhlar ijtimoiy-siyosiy jarayonga bir xilda tortilmaydilar. Ularning bahzilari siyosatga befarq qaraydilar, yana boshqalari bahzi paytlarda ijtimoiy-siyosiy jarayonda

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sarasida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997, 173-174-betlar.

ishtirok etadilar, uchinchilari esa doimo siyosiy kurashga intiladilar. Hattoki, siyosiy va ijtimoiy hodisalarda faol rolg' o'ynayotganlar ichida ham faqat ularning bahzilari hokimiyatga yoki jamoatchilik faoliyatiga jon - jahdlari bilan intiladi.

XX asr 90-yillarining oxiri - yangi asr boshlaridagi siyosiy islohotlarning muhim ahamiyati shunda bo'ldiki, bu paytga kelib xalq ommasini ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ular siyosiy madaniyatini yuksaltirish, demokratiyaning eng muhim tamoyillarini hayotga tatbiq etish uchun shart-sharoitlar yaratildi. O'zbekistonda siyosiy jarayonlarni demokratlashtirishning o'ziga xos qadriyatlari shakllandi. Mamlakat Prezident I.A.Karimov mustaqillik davridagi tajribalarni va yetakchi xorijiy mamlakatlar ijtimoiy-siyosiy hayotini chuqur tahlil etib, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishining demokratik tamoyillarini ilgari surdi: «Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Bular - xalqning qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligidir. Hokumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir...»¹

O'z-o'zidan ravshanki, siyosiy tuzum to'la-to'kis amal qilishini va uning yanada erkinlashuvini ta'minlash uchun uni tashkil etuvchi Hamma tuzilmalar, ya'ni mavjud sub'ektlar - shaxs, siyosiy institutlar, aholining ijtimoiy guruhlar hamda qatlamlari va xokazolar to'laonli faoliyat ko'rsatishiga erishish zarur»².

Ko'rinib turibdiki, fuqarolar o'z siyosiy faolliklarini yuksaltirishi, yuqoridan qabul qilinadigan qarorlar qabul qilishda bevosita yoki o'z manfaatlari guruhlar vositasida keng ishtirok etishi mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish kafolatlaridan biridir. Ayniqsa, sobiq totalitar jamiyat meros qilib qoldirgan mahmuriy - buyruqbozlik tizimi asoratlari fuqarolar dunyoqarashi, siyosiy ongi va amaliy xatti-harakatida barham topmas ekan, siyosiy erkinlashtirishga doir islohotlar ham qiyin kechishi turgan gap.

Ma'lumki, siyosiy ong va siyosiy madaniyat yuksalishida fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokining ahamiyati beqiyosdir. Fuqarolar jamoat tashkilotlari faoliyati vositasida yoki bevosita siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etar ekan, ularda quyidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sodir bo'lishi kutiladi:

1) fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki ularning tabiiy siyosiy - ijtimoiy his-tuyg'ularini uyg'otadi, harakatga keltiradi, bu yo'nalishga doir intilishlar shakllanadi. Yoki qisqacha aytganda, har bir fuqaroning ijtimoiylashuv jarayoni amalga oshadi;

2) qarorlar qabul qilishdagi faol siyosiy harakatlar; bu jarayonda oddiy fuqarolar manfaatlari, ehtiyojlari va intilishlarining hisobga olinishi ularga erkin insoniy qadr-qimmat bag'ishlaydi. Eng asosiysi, bu qarorlarning xalq taqdiridagi ahamiyati fuqarolarda siyosiy mashuliyat ruhini shakllantiradi;

3) fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishda turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlari turli jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar vositasida ifodalanishidan qoniqishlari ularni yanada faollashtiradi; natijada o'zaro manfaatlar kelishuvi oqibatida jamiyatning barqaror bo'lishiga katta hissa qo'shiladi;

4) bu ishtirok har bir fuqaroni o'zligini anglashga, uning jamiyatdan o'ziga munosib o'rin egallashiga shart-sharoitlar yaratadi, o'z mamlakatiga egalik hissini shakllantirib, milliy iftixor tuyg'ulari yuksalishini tahminlaydi;

5) davlat hokimiyati jamiyatdagi barcha ijtimoiy tabaqalar va guruhlar manfaatlari o'z siyosiy qarorlarida ifodalanishiga erishiladi; mazkur qarorlarni hayotda amalga oshishi natijasida siyosiy hokimiyat yanada legitimlashadi; davlat organlarini, fuqarolarni boshqarish, siyosiy qarorlarni bajarishni ta'minlashga doir jarayonlar va mahmuriy tadbirlarni amalga oshirishni jamiyat hech bir zo'riqishsiz va ixtiyoriy ravishda qabul qiladi; shuningdek, bu faoliyat fuqarolar tomonidan keng qo'llab-quvvatlanadi;

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997, 181-182-aatlar.

² O'sha joyda.

6) bu jarayonlar jamiyatdagi ko'pchilik fuqarolarning irodasini ifodalanishiga shart-sharoitlar yaratib, jamiyat va davlat hokimiyatining demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatish salohiyatini oshiradi.

1-ilova

Ko'rgazmali slaydlar

Fuqorolar, jamoa tashkilotlari faoliyati vositasida yoki bevosita siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayonida ishtirok etar ekan, ularda ijtimoiy- siyosiy o'zgarishlar sodir bo'lishi kutiladi.

Fuqarolarning siyosiy qaror qabul qilishdagi ishtiroki, ularning tabiiy siyosiy- ijtimoiy xis- tuyfularini uyrotadi, xarakatga keltiradi, bu yo'nalishga doir intilishlar ko'payadi.

Qarorlar qabul qilishdagi faol siyosiy xarakatlar, bu jarayonda oddiy fuqarolar manfaatlari, extiyojlari va intilishlarining xisobga olinishi ularga erkin insoniy qadr- qiymat bag'ishlaydi.

Fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishda turli ijtimoiy guruxlarning manfaatlari turli jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar vositasida ifodalanishidan qoniqlashlari ularni yanada faollashtiradi.

Bu ishtirok xar bir fuqaroning o'zligini anglashga, uning jamiyatdan o'ziga munosib o'rin egallashga shart- sharoit yaratadi. O'z mamlakatiga egalik xissini oshiradi.

Davlat xokimiyati barcha ijtimoiy tabaqalar va guruxlar manfaatlari o'z siyosiy qarorlarida ifodalanishiga erishiladi; mazkur qarorlarni xayotda amalga oshishi natijasida siyosiy xokimiyat unda legitiqlashadi

Bu jarayonlar jamiyatdagi ko'pchilik fuqarolar irodasining ifodalanishiga shart-sharoitlar yaratib, jamiyat va davlat xokimiyatining demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatish salohiyatini oshiradi.

Fuqarolar siyosiy madaniyati va faoliyati. Fuqarolar faolligini oshirishda ularning siyosat va hokimiyat hodisalariga nisbatan shaxsiy munosabatlarini ifodalovchi baholash hukmlari ahamiyatga molik ma'naviy hodisadir. Bunday shaxsiy - mazmuniy munosabatlarning mavjudligi insonning o'z fuqarolik burchini anglab yetgan siyosiy sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsata olishini ifoda etadi. SHuning uchun insonning qadriyatlariga doir munosabatlarining turlicha shaklda ro'y berishi (masalan, hokimiyatga, davlatga, partiyalarga va institutlashmagan sub'ektlarga nisbatan) siyosiy madaniyatning muhim tuzilishini tavsiflab beradi.

Umuman, siyosiy madaniyat insonning siyosiy hodisalar haqidagi qadriyatlariga doir tasavvurlari va uning amaliyotda namoyon bo'ladigan xulqining kodeksi yoki uning siyosiy hokimiyat sub'ekti sifatidagi faoliyatining uslubidir. SHu mahnoda, siyosiy madaniyat fuqaroning umuminsoniy ahamiyatga molik bo'lgan siyosiy faoliyat namunalarini qay darajada egallaganligini namoyish qiladi. SHuningdek, u insonning tafakkurlash va amaliy faoliyat mehyorlarining jamiyat madaniy, deb tan oladigan sub'ektivligini qanchalik darajada oshira olganligi haqdir.

Jamiyatning har bir ahzosi ijtimoiylashuv va kamolotga erishish jarayonida ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatida shakllanadi. SHuningdek, inson jamiyatda hukmron bo'lgan ijtimoiy-madaniy tizimning asosiy xususiyatlarini o'zida uyg'unlashtiradi va umumlashiradi. Ayni paytda har bir individ siyosiy madaniyat tashuvchi hisoblanadi va shu sababli ham siyosiy

madaniyat siyosiy - madaniy tizimning umumlashtiruvchi, birlashtiruvchi qismi deb qaraladi. **Siyosiy madaniyat** - bu munosabatlar tizimi va ayni paytda avlodlar almashinuvi natijasi, uni tashkil etuvchi unsurlarni ishlab chiqish va qayta ishlab chiqish jarayonidir. Siyosiy madaniyat rivojlanib boruvchi dinamik hodisadir.

Insonda dunyoqarash shakllanganidan so'ng uni himoya qilishga qodir huquqiy madaniyat shakllanishiga shart - sharoitlar yaratish zarauriyati tug'iladi. Demak, huquqiy madaniyat va huquqiy himoyaning mavjudligi jamiyatni demokratiyalashning asosiy kafolatlaridan biridir. Qolaversa, demokratiyani tabiiy ravishda rivojlantirish uchun fuqarolarning umumiy madaniyatlilik darajasi ham yuqori bo'lishi lozim. Aniqrog'i, demokratik jarayon bilan insonning madaniyatlilik o'rtasidagi muvozanat doimiy xarakteriga ega bo'lishi kerak. Faqat yuksak madaniyatgina jamiyatni haqiqiy demokratik rivojlanishga olib keladi. SHuningdek, bu jarayonlar inqilobiy emas, balki tadrijiy yo'l bilan bo'lishi zarurligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni tabiiy rivojlanish yo'li boshqa usullarga qaraganda eng mahqulidir. Jahon tarixiy tajribasi bunday yo'lni oxirgi yutuq sifatida tanlagani bejiz emas.

Siyosiy madaniyat uzoq yillar va avlodlar almashinuvi natijasida tarkib topgan siyosiy anhanalar, siyosiy amaliyot mehyorlari, g'oyalar, turli ijtimoiy institutlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga doir kontseptsiyalar va ehtiқodlarni o'z ichiga oladi. U kishilarning o'zlari yashayotgan mavjud tizimga, undagi institutlarga va xatti - harakat qoidalariga, alohida shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tamoyillariga nisbatan shakllangan intilishlari va ko'rsatmalarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Siyosiy madaniyat qadriyatga oid va mehyoriy tizim hisoblanadi. U o'zida siyosiy tizimdagi tayanch, ehtiқodlar, ko'rsatmalar, yo'nalishlar, intilishlar timsollarini aks ettiradi va birlashtiradi. Amerikalik siyosatshunos D. Divaynning fikricha, siyosiy madaniyat ma'lum ijtimoiy - siyosiy tizim ahzolari yoqlaydigan, "keng tarqalgan, fundamental siyosiy qadriyatlarning tarixiy tizimidir"¹. Siyosiy madaniyat "siyosiy mafkura", "legitimmen", "suverenitet", "qonun boshqaruvi", "siyosiy partiya" kabi kategoriyalarni o'rganishni ham taqozo etadi. Siyosiy madaniyat ma'lum darajada jamiyat ahzolari oldiga chegaralashlar qo'yadi. Siyosiy jarayonlar va siyosiy xulqda namoyon bo'ladigan ehtiқodlar, his - tuyg'ular va qadriyatlar oldidagi bunday chegaralashlar ham o'z navbatida siyosiy madaniyatning muhim unsuri hisoblanadi. Alohida shaxsning, guruhning va boshqa ijtimoiy birliklarning umumiy dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lgan siyosiy dunyoqarash siyosiy madaniyatning eng muhim komponentidir⁶⁴.

Siyosiy madaniyatni tashkil etuvchi qadriyatlar, yo'nalishlar, ko'rsatmalar, streotiplar siyosiy tizimning shakllanishi va saqlanib qolishida asosiy o'rinni egallaydi. Jamiyat ahzolari o'zaro baham ko'radigan "ijobiy" qadriyatlar tizimi miqdori uning alohida komponentlari o'rtasidagi o'zaro murosa va kelishuvni belgilaydi va uning barqarorligi hamda yashab qolish qobiliyatining nechog'lik mustaqil ekanligini aniqlab beradi.

Kishilar o'zlarini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy manfaatlar yoki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun amaliyotda ishtirok eta boshlagandagina, siyosiy madaniyat shakllanib boradi. Bunday madaniyatni egallash faqat siyosiy partiyalar, manfaatlar guruhlar faoliyatida ishtirok etish orqaligina ro'y beradi. Hech bir inson yakka o'zi harakat qilib, o'zining moddiy, siyosiy, huquqiy manfaatini yoki erkin fikrlash huquqini qo'lga kiritolmaydi.

Siyosiy madaniyatning totalitar turi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotining printsipial bir xillik bo'lishiga asoslanadi hamda har qanday turli-tumanlik, rang-baranglikni yo'qotishga moyil g'oyalarga tayanadi. Sobiq SSSRdagi madaniyatning bu turi turli ijtimoiy guruhlarining o'ziga xos maqsad va manfaatlarini ochiq namoyon qilishga yo'l qo'ymaydi. SHu bilan birga totalitar rejim fuqarolarning siyosiy hayotdagi tanlash imkoniyatlarini chegaralar, har qanday muqobillikni inkor qilar, bitta mulkchilik turi, bitta partiya, bir o'ringa bitta nomzod kabi

¹ Qarang: Devine. The 'olitical Culture of the United State. -Boston, 1972, '3-7.

⁶⁴ Кёдрёçáíââ Ì. Óóàðíëëë æàíëýòë: ñë,ñëë ìàðòëýëàð, ñë,ñëë ìàðëóðàëàð, ñë,ñëë ìàâàíëýòëàð. -Ò.: Øàðк, 1998, - 85-86-àâëàð.

cheklashlarni oldindan belgilab berar edi. Bu holat o'z navbatida total turg'unlikni, qolaversa yemirilishni ham keltirib chiqardi.

Siyosiy madaniyatning plyuralistik turi quyidagi muhim shart-sharoitlar yaratilganidagina paydo bo'lishi, rivojlanishi, faoliyat ko'rsatishi, shuningdek, ustuvorlik kasb etishi mumkin:

1) Iqtisodiy va ijtimoiy hayot plyuralizmi sohasida - mulkchilikning turli shakllari, eng avvalo xususiy mulkchilik paydo bo'lishi, xo'jalik yuritishning turli usullarining amal qilishi;

2) Jamiyat o'z ijtimoiy strukturasi va turli manfaatlari bo'yicha qanchalik rang-barang bo'lsa, siyosiy plyuralizm va siyosiy madaniyat shakllanishi uchun shunchalik ko'proq zamin paydo bo'ladi.

3) Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ustuvorligini ta'minlash sohasida - fuqarolik jamiyati siyosiy institutlarining shakllanishi; davlat hokimiyatini shakllantirish asosan saylovlar vositasida amalga oshishi, hech kim, hech bir guruhning bu hokimiyatni na amalda, na huquqiy jihatlardan o'z monopoliyasiga aylantirishiga yo'l qo'ymaslik;

4) Guruhlar va ularning vakillari bo'lgan siyosiy partiyalar va harakatlar o'rtasida ijtimoiy rivojlanishning asosiy qadriyatlari, ideallari va maqsadlariga nisbatan aniq kelishuvlarning mavjudligi;

5) Ham huquqiy jihatlardan, ham hayotda shaxs erkinligining tahminlanganligi.

Ushbu mavzuni o'rganishda quyidagi masalalarni ham bilish foydadan xoli emas.

Demokratiya (grek. xalq hokimiyati) – xalq hokimiyatchiligi, siyosiy plyuralizm, fuqarolar erkinligi va tengligi, inson huquqlari singari konstitutsiyaviy printsiplarni ehtirol etishga asoslangan davlat tuzilishi shaklidir. Demokratiya xalqning davlat organlarini tuzish, ularning ishida ishtirok etishi, davlat organlari ishini tashkil etish, mamlakatda inson huquqlarini ta'minlash orqali namoyon bo'ladi. U davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi. Demokratiya (biz oldingi boblarda bayon etganimizdek) bevosita demokratiya va vakillik demokratiyasi shaklida bo'ladi. Demokratiya Hamma narsada xohlagancha erkinlik emas, qonunga asoslangan erkinlikdir.

1. Demokratik davlat tushunchasi – bunday davlatda davlat organlarini tashkil qilishda, ularning faoliyatida, mamlakat fuqarolari turli-tuman yo'llar orqali keng ishtirok etadilar. Fuqarolarning davlat organlarini tashkil qilishdagi ishtiroki qonun yo'li bilan kafolatlanadi va ularning ishtirokiga keng imkoniyatlar yaratadi. Demokratik davlatda inson manfaati, qadr-qimmat, hayoti, sog'lig'i har narsadan yuqori turadi. Davlat fuqarolarning huquq-erkinliklarini ta'minlash choralarini doimiy ravishda ko'rib boradi. Davlat fuqarolar nazoratida va ularga turli vositalar orqali hisob beradi. Demokratik davlat o'zini o'zi boshqarish, ko'ppartiyaviylik, ommaviy axborot vositalarining erkin bo'lishi, fikrlar xilma-xilligiga sharoit yaratadi.

2. Huquqiy davlat tushunchasi⁶⁵ – davlat tuzilishi va faoliyatining huquqqa asoslanganligi. Bunda huquqning hukmronligi, qonun ustuvorligi, barchaning qonun va mustaqil sud oldida tengligi tahminlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanadigan, hokimiyat vakolatlarining bo'linish printsipli asosida tashkil etilgan demokratik davlat.

Demak, huquqiy davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1) Xalq hokimiyatining amalga oshishi.

2) Huquqning hukmronligi. Ya'ni, shaxs huquq va erkinliklarining hech kim, shu jumladan, davlat tomonidan ham hech qanday holda buzilmasligi.

3) Konstitutsiya va qonun ustuvorligi.

4) Hokimiyat vakolatlarining bo'linish tamoyili.

5) Sud mustaqilligi.

6) Inson huquqlariga rioya etish, ularni himoya qilish va ta'minlash.

7) Davlat va fuqarolarning o'zaro mashuliyati.

8) Huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning samarali ishlashi.

9) Huquqiy madaniyatning yuksak darajada ekanligi.

10) Demokratiyaning rivojlanishi va takomillashuvi.

⁶⁵ Qarang: Azizxo'jaev A., Xusanov O., Azizov X. Konstitutsiyaviy xuquq. Izoxli lug'at. T.: «Akademiya», 2001, 37–38, 140-bet; Saidov A., Tadjixonov U. Davlat va xuquq asoslari. Toshkent: O'zR IIVA, 1999, 20-bet.

Huquqiy davlatning barcha uchun umumiy bo'lgan andozasi yo'q. Uni har bir davlat milliy davlatchilik borasida tajribalariga tayanib, xalqning zehniyati, qadriyatlari va anhanalarini hisobga olib, o'z strategik maqsadlariga mos holda shakllantiradi. Lekin huquqiy davlatchilikning dunyo tan olgan va umumbashariy qoida-talablariga javob beradigan biz yuqorida 10 ta tamoyillarini bayon etdik. Bu tamoyillar huquqiy davlatning konstitutsiyaviy asosi. Ular bizning Konstitutsiyamizda to'liq aks etgan.

O'zbekistonda huquqiy demokratik jamiyatni qaror toptirish uchun jamiyatni demokratlashtirish zarur. Bunda Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, 1) anhanaviy mezonga ehtibor berish va u bilan hisoblashish lozim. 2) Avval mamlakat aholisi turmushini yuksaltirish darkor. Chunki turmush ongni belgilaydi. 3) Fuqarolar ongi, tafakkurini o'zgartirish kerak. Turmushning yuksalishi o'z navbatida odamlar ongi va tafakkur tarzini o'zgartirishga olib keladi. 4) Huquqiy demokratik jamiyatga tabiiy yo'sinda, hech zo'riqish va talofatsiz erishishimiz mumkin⁶⁶. «Odamlar siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yuksalib borgan sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borishi zarur».

3. Fuqarolik jamiyati tushunchasi – insonning yalpi huquqlari kafolatlanadigan, mafkuraviy plyuralizm tahminlanadigan jamiyat tuzilishi. Bunda har bir fuqaro, jumladan, O'zbekiston fuqarosi o'z ixtiyori bilan fuqarolikdan chiqishi mumkin. Fuqarolikdan chiqmoqchi bo'lganlar oldiga ma'lum shartlar qo'yiladi, ya'ni ular davlat, jamoa, fuqarolar oldida hech qanday majburiyati, qarzdor yoki davlat va harbiy sirlardan voqif bo'lmasligi kerak. Agar fuqarolikdan chiqishni iltimos qiluvchi shaxs ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lsa yoki unga nisbatan qonuniy kuchga kirgan va ijro etilishi zarur bo'lgan sud hukmi bo'lsa, u fuqarolikdan vaqtincha chiqarilmaydi. quyidagi hollarda O'zbekiston fuqarosi fuqaroligini yo'qotadi:

1) CHet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati idoralariga, politsiyaga, adliya idoralariga yoki davlat hokimiyati idoralariga ishga kirsar.

2) CHet elda yashovchi O'zbekiston fuqarosi 5 yil davomida uzrli sababsiz konsullik hisobida turmasa.

3) Fuqarolikni soxta hujjatlar taqdim etib olgan bo'lsa.

Fuqarolikdan chiqarish O'zbekiston Prezidenti vakolatiga kiradi.

Fuqarolik jamiyati – demak, haqiqiy fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir. O'zbekiston «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» kontseptsiyasini ishlab chiqdi va uni izchilik bilan amalga oshirmoqda. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishning quyi organi bo'lgan mahallaning avvalo huquqiy asoslari yaratilmoqda. Bu Asosiy qomusimizning 105-moddasida o'z ifodasini topgan. 1993 yil 2 sentyabrda «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida» qonun, 1999 yil 14 aprelda «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida» qonunning yangi tahriri, 2001 yil 9 aprelda Oliy Majlis Kengashining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylov o'tkazishni tashkil etish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. 2000 yilga kelib O'zbekiston 10 mingdan ortiq, Toshkent shahrida esa 481 tadan ko'proq mahalla faoliyat yuritmoqda.

Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish-demokratik jamiyat qurushning zaruriy sharti. Fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning siyosiy faolligini oshirish-demokratik jamiyat qurushning asosiy omilidir. Demokratik jamiyat barpo etishda fuqarolarning, yoshlarning ijtimoiy jarayonlarida faol ishtirok etishi muhim omillardan biri. Prezident Islom Karimov “Hokimiyat tuzilmalarining demokratik mazmuni ko'p jihatdan davlatni boshqarishda fuqarolarning ishtiroki etish masalasi qanchalik hal qilinganligi bilan belgilanishi ma'lum. Fuqarolar, yoshlar davlatni, jamiyatni boshqarishda ishtirok etish, o'zlari qanday boshqarilayotganligi haqida ma'lumot olish xuquqini anglay boshlashiga va bu xuquqdan foydalana oladigan bo'lishishlariga erishish kerak. SHundagina davlat, uning institutlari,

⁶⁶ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot – pirovard maqsadimiz. T.8 - T.: O'zbekiston, 2000, 333-bet.

mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o'z mashuliyatlarini his qiladilar. Fuqarolar demokratik sharoitdagina ixtiyoriy ravushda mamlakat siyosiy hayotida keng ishtirok eta boshlaydilar. Fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyati, yoshlar tashkilotlarining o'rni katta.

Fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari

Jamiyat xayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatni kuchaytirish orqali kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish jarayonini rivojlantirish.

Davlatning iqtisodiy soxaga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklab borishga erishish.

Davlatning iqtisodiy rivojlanishi borasidagi ustuvor yo'nalishlarini aniqlashga, qabul qilingan qonunlar va xususiy normalarning so'zsiz bajarilishini tahminlash xo'jalik subhektlari o'rtasida raqobat muxitini yaratish.

Qonunlar ijrosini tahminlash, joriy xujjatlarni xayotga tadbiq qilishda davlat xokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, "Adolat qonun ustuvorligida" tamoyilini xaqiqatga aylantirish.

Davlatning nazoratchilik funksiyasini cheklash va ayni paytda davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tahminlashga ehtiborni kuchaytirish.

Boshqaruv tizimi va iqtisodiy xayotni erkinlashtirishni chuqurlashtirish maqsadida markaziy va yuqori boshqaruv idoralari vazifalarini davlat xokimiyatining quyi tizimlariga o'tkazib borish.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy vositasi bo'lgan maxalla instituti, turli jamoat birlashmalari xamda tashkilotlar faolligini izchil rivojlantirib borish.

QISQACHA XULOSA

Mustaqillik yillarida respublikada demokratik jamiyat qurilishi institutlashib bordi.

Mamlakatda demokratik institutlar shakllandi.

Ko'ppartiyaviylikka o'tildi.

Hokimiyat tarmoqlarining mustaqilligi va hisob berishlari amalga oshirilmoqda;

Jamoatchilik nazoratining oshib borishi demokratik jamiyatga xos jihatlar kengaydi.

Bugungi kunda 100 ta jamoat uyushmalari; 5 ta siyosiy partiya; 2 ta ijtimoiy harakat; 3000 ta nodavlat, notijorat tashkiliy qonunchilikda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va kasaba uyushmalari tizimi tomonidan 28 ta yo'nalishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirildi. Agarda Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga bo'lgan saylovda 2 ta siyosiy partiya va hokimiyat vakillik organlaridan 700 nafardan ziyod nomzod ishtirok etgan bo'lsa, Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga bo'lgan saylovda 47 sub'ekt - 5 siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organi va saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan jami

1010 nafar nomzod qatnashdi. Bu sohada yana demokratik o'zgarishlar amalga oshmoqda. Mamlakatda ikki palatali parlamentga o'tilishi bu jarayonni yanada chuqurlashtirmoqda.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Abu Nasr Forobiyning komil inson va fozil jamoa haqidagi qarashlari nimalardan iboratq
2. Hozirgi davr demokratiyasida inson, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlarini aniqlangq
3. Prezident Islom Karimovning demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishda inson faolligi haqidagi qarashlari qandayq
4. Fuqaro erkinligi va faolligini ta'minlash nima uchun demokratik jamiyat qurishning bosh maqsadi sanaladiq
5. Fuqarolar ijtimoiy faolligini oshirish nimalarga bog'liq.
6. Insonning ijtimoiylashuvi va faollashuv jarayonlari ijtimoiy tuzum, demokratiya, davlat siyosati, qadriyatlar kabilar bilan bog'liqmiq

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2007. –6–10-b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. -T.: «O'zbekiston», 1997, 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: «O'zbekiston», 2000, 6-12, 14-26, 28-38, 47-48-betlar.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.1. -T.: «O'zbekiston», 1996, 36-85-betlar.
5. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.1. -T.: «O'zbekiston», 1996, 274-284, 301-322, 341-359-betlar.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.3. -T.: «O'zbekiston», 1996, 175-181, 183-191, 202-226, 227-246-betlar.
7. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish - har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 285–312-b.
8. Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezoni bo'lsin. Surxondaryo viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. –313–337-b.
9. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoitini yaratish – asosiy vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2007. – 11-b.
10. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. –156–223-b.
11. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.14. – T.: O'zbekiston, 2006. – 61–97, 139–153, 248–265-b.
12. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48 b.
13. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayot garovidir. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2007. – 62 b.
14. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – T.15. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 3-11, 154-211-241-251-b.
15. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48 b.

16. Rahimov I., Zohidov A., Azizov SH., Ayupov A. va boshq. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. -T.: «Universitet», 2001. 232-bet.
17. Pugachev V.P., Solovg'ev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 202-255-betlar.
18. Levitin L., Karlayl S. Islom Karimov - yangi O'zbekiston Prezidenti. -T.: «O'zbekiston», 1996, 40-46, 117-119-betlar.
19. Odilqoriev X.T., Foyibnazarov SH.F. Siyosiy madaniyat. T.: O'zRIIV Akademiyasi, 2004, 278-296-betlar.
20. Saifnazarov I va boshq. Xalqimizning hamjihatligi terrorizmga qarshi kafolatdir. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 3-52-betlar.
21. O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T.: «O'qituvchi», 2004, 24-44-betlar.
22. O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T.: «O'qituvchi», 2004, 3-44-betlar.
23. Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. T.: Toshkent Moliya instituti, 2004, 3-180-betlar.
24. SHarifxo'jaev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. – T.: SHarq, 2005. – 240 b.
25. Aliev B., Hoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot nashriyoti», 2005. – 160 b.
26. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: “SHarq”, 2006. – 528 b.
27. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar. – T.: “Ma'naviyat”, 2006. – 160 b.
28. To'xlied N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashr., 2006. – 280 b.
29. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 204 b.

MAVZU. DEMOKRATIK BOZOR ISLOHOTLARI VA IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH.

1. Demokratik jamiyatda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish tushunchasi va uning mazmuni

Iqtisodiyot va demokratik jamiyatning o'zaro bog'liqligi. Iqtisodiy hayot kishilik jamiyati hayotining muhim sohalaridan biri bo'lib, inson rivojlanishi manbaini tashkil qiladi. Unda insonlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tirikchilik nehmatlarini va vositalarini ishlab chiqaradilar. SHuningdek, ular taqsimlash, ayirboshlash va istehmol qilishga qaratilgan faoliyatlarida o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishadilar.

Iqtisodiy hayot kishilarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy hayot sohalarining moddiy asosini tashkil etadi va ularning rivojlanishiga tahsir ko'rsatadi. Ayni paytda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va davlat tizimi iqtisodiyotga jiddiy tahsir etadi.

Sobiq totalitar, mahmuriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida iqtisodiy hayot soxta siyosat, mafkuraviy maqsadlarga bo'ysundirilgan edi. Mafkura iqtisodiyotdan ustun bo'lib, uning rivojlanish yo'nalishlarini belgilab berardi. Bu tuzumning iqtisodiy negizini davlat va kolxoz-kooperativ mulk shakllaridan iborat umumxalq mulki deb atalmish, egasiz mulk tashkil etardi. Davlat asosiy ishlab chiqarish fondlarining 90 foizdan ortig'iga ega bo'lib, iqtisodiyotda yakka hokimlikni o'rnatgan edi. Buning oqibatida davlat iqtisodiyotni, iqtisodiy hayotni bir markazdan mahmuriy-buyruqbozlik asosida boshqarib, nimani, ya'ni qanday mahsulot va xizmatlarni

qancha miqdorda, qanday texnologiyadan foydalanib, kimlar uchun ishlab chiqarishni rejalashtirib, belgilab berar edi.

Jamiyat ahzolari ijtimoiy mulkka egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish mulkdorlik huquqidan mahrum edilar. Tadbirkorlik, biznes bilan shug'ullanish qonun bilan man etilgan edi. Bunday faoliyat bilan shug'ullanganlar chayqovchi, yot unsur sifatida jinoiy javobgarlikka tortilar edilar.

Kishilarning mulkdan, uning natijalarini tasarruf etishdan begonalashganliklari tufayli, mehnat motivatsiyasi va ijtimoiy adolat tamoyillari buzilgan edi. Pirovard natijada sobiq ittifoq chuqur tanazzulga uchrab, tarqab ketdi.

Ma'lumki, shaxsning mulkdor bo'lish, erkin kasb tanlashi, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, o'zi istagan iqtisodiy faoliyat turi bilan erkin shug'ullanish hamda shunga muvofiq cheklanmagan daromad olish va yaxshi yashash imkoniyatlariga ega bo'lish kabi demokratik ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini amalga oshirishni faqat ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotigina ta'minlashga qodirdir.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston xalq turmush farovonligini, iqtisodiy faoliyat tadbirkorlik erkinliklarini, eng muhimi, mulkdor bo'lish imkoniyatlarini tahminlaydigan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan insonparvar demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida tub islohotlarni amalga oshirmoqda.

SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston **iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi**. Davlat istehmolchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi»⁶⁷ deb belgilab qo'yilgan.

Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: «Biz tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga kirishar ekanmiz, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish quruq maqsad emas, degan aniq-ravshan xulosaga kelganmiz. Barcha islohotlarning-iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat»⁶⁸, - deb ta'kidlagan.


Erkin ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining eng muhim belgisi iqtisodiy plyuralizm bo'lib, demokratiyaning umumbashariy tamoyili hisoblanadi. Iqtisodiy plyuralizm tushunchasi mulk shakllari va xo'jalik yuritish usullarining xilma-xil bo'lishida o'z ifodasini topadi. SHu boisdan ham ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti o'z mohiyatiga ko'ra ko'p ukladli iqtisodiyot bo'lib, unda turli mulk shakllari va xo'jalik ukladlarining teng huquqligi, muvozanatda bo'lishi hamda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi tahminlanadi.

Demokratik jamiyatga monand demokratik iqtisodiy tamoyillar erkin bozor iqtisodiyotining quyidagi tub belgilarida o'z ifodasini topadi. 1) xususiy mulk; 2) tadbirkorlik va tanlov erkinligi; 3) shaxsiy manfaatning inson xatti-harakatining bosh motivi ekanligi; 4) raqobat; 5) erkin narx tizimi; 6) hukumat, davlatning iqtisodiyotga aralashuvining cheklanganligi (qarang: 9.1-chizma).

⁶⁷ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2003. 11-bet.

⁶⁸ Karimov I.A.. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998. 281-282-betlar.

Demokratik jamiyatning asosi bo'lgan erkin bozor iqtisodiyotining tub belgilari



Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilik yangi shakllari va munosabatlarining xuquqiy asoslari. O'zbekistonda mulkchilik huquqiy iqtisodiy o'zgarishlarning asosi hisoblanadi. Respublikamizda mulkdor huquqi qonun bilan tan olingan va himoya qilinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikni tashkil etish shakllari:

1. Davlat mulki: respublikamizdagi mahmuriy-hududiy birliklarning mulklari (kommunal mulklar ham kiradi). Davlat mulkiga: 1) yer va yer osti, ichki suvlar, o'simliklar va hayvonot dunyosi, respublika hududi doirasidagi havo havzasi. 2) O'zR boshqaruvi va davlat hokimiyati organlari mol-mulklari. 3) Respublika xalqlari madaniy va tarixiy qadriyatlari. 4) Respublika byudjeti vositalari, oliy o'quv yurtlari va h.k.

2. Xususiy mulk: o'z mol-mulkidan o'z erki bo'yicha foydalanish va tasarruf etish, unga huquqiy jihatdan xususiy egalikni bildiradi. Xususiy mulk-mulkchilikning boshqa shakllari bilan bir qator daxlsiz va davlat tomonidan himoyalaniadi.

3. Jamoa (shirkat yoki fermer) mulki: oilaning mol-mulkini, mahalla mulkini, yuridik shaxslar bo'lgan kooperativlar, ijara, jamoa korxonalarining, jamoat va diniy tashkilotlarning, turli xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari, fererlar, assotsiatsiyalar va boshqa birlashmalar mulklarini o'z ichiga oladi.

4. Boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlarga qarashli yuridik va jismoniy shaxslarning mulklari: O'zbekiston hududida joylashgan va xorijiy yuridik hamda jismoniy shaxslarga foydalanish uchun berilgan mol-mulklar va nomulkiy huquqlar kiradi.

5. Mulkchilikning aralash shaklida: erishilgan bitimga ko'ra mol-mulkning ma'lum bir qismi davlat va nodavlat yuridik yoki jismoniy shaxslarga tegishli bo'lishi mumkin. Ikki tomonning hamkorligida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda 2006 yilgacha mulkchilikning nodavlat shakli quyidagi holatlarda o'zgardi: 1) Davlat mulkini xususiyLashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish asosida amalga oshirildi. 2) Yangi nodavlat yuridik shaxslarning mulki vujudga keldi. 3) SHaxsiy tadbirkorlik faoliyati kengaydi. Demak ko'p ukladli iqtisodiyot quyidagilar evaziga shakllandi: 1. Davlat tasarrufidan chiqarish va davlat mulkini xususiyLashtirish. 2. Yangi davlatga qarashli bo'lmagan yuridik shaxslarni tashkil qilish. 3. Xususiy tadbirkorlik asosida.

Mulkchilik shakllari munosabatlarida uning huquqiy asoslarini quyidagi qonun va qarorlar tashkil etadi.

1) O'zR Konstitutsiyasining 12-bob, 53-54-moddalarida belgilab berilg'n.

2) 1991 yil 18 noyabrda O'zR Oliy Kengashining 8-sessiyasida «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyLashtirish to'g'risida»gi qonun.

3) 1994 yil 21 yanvarda Prezidentning «Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni.

4) «O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida»gi (1995) qonuni.

5) «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni (1999 yil 14 aprelg').

6) «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni (2000 yil 25 may).

7) «Bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident Farmoni (2005 yil 14 iyung').

8) «Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident Farmoni (2005 yil 5 oktyabrg').

9) «Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishni xabardor qilish tartibini joriy etish to'g'risida»gi Vazirlar Mahkamasining qarori (2006 yil 24 may).

Tadbirkorlik to'g'risidagi qonunlar va boshqa prezident farmonlari va qarorlari mavjud.

O'zbekistonda jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirishning maqsadi va bosqichlari.

O'zbekistonda shakllanayotgan **xususiy mulk ikki turdan iborat bo'ladi: birinchisi**, yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning, dehqon va fermerlarning xususiy mulki, **ikkinchisi**, ularning shirkat xo'jaliklaridagi paylari, aktsiyadorlik jamiyatlaridagi aktsiyalari, uyushmalardagi ulushlaridan iborat korporativ xususiy mulk. Yakka va korporativ (ulushli) xususiy mulk egalari mulkdor hisoblanib, ularning mulkka bo'lgan huquqlari, dahlsizligi davlat tomonidan himoyalandi. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolik kodeksida» «mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilishi, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilishi huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir»⁶⁹. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida esa mulkdor huquqining dahlsizligi bilan birga, uning mashuliyati ham belgilab berilgan. Xususan, unda «mulkdor mulkiga o'z xohishiga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart»⁷⁰, deb ta'kidlangan. Xususiy mulk miqyoslarining kengayib borishiga olib keladi.

Tadbirkorlik erkinligi ayrim shaxslar va ularning uyushmalari, guruhlarining foyda, daromad olish maqsadida ma'lum sohada xo'jalik, iqtisodiy faoliyat yuritish erkinligini bildiradi. Bu shuningdek, u yoki bu tarmoqqa tadbirkorlarning o'z xohishlariga ko'ra kirishini va undan chiqishini ham anglatadi.

Tovarning nuqsonlari bo'yicha istehmolchining talablari u kassa yoki tovar chekini kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa tegishli rasmilashtirilgan texnik pasport yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa hujjatni taqdim etgan taqdirda ko'riladi. Bunday tovarlar boshqa nuqsonsiz tovarlarga almashtirilib beriladi yoki zararining o'rni pul bilan qoplanadi. Istehmolchi huquqlarining himoya qilinishi, uning tanlash erkinligini tahminlanishi demokratik iqtisodiy tamoyilining ro'yobga chiqarilishini anglatadi. SHuning uchun Vazirlar Mahkamasining 2002 yilda qabul qilingan muhim qarorlariga muvofiq respublikaga istehmol tovarlarini noqonuniy olib kelinishi va sotilishining oldini olish chora-tadbirlarining ko'rilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kishilar naf, foyda va daromad olish uchun intilib, o'zlarida bor bo'lgan qobiliyatlari va imkoniyatlarini ishga soladilar. Raqobat iqtisodiyot sub'ektlari shaxsiy manfaatlarini ryobga chiqarishning chegarasini belgilaydi. Hech kimning iqtisodiy yakkahokimlik qilishiga yo'l qo'ymaydi. SHuningdek, raqobat ishlab chiqaruvchi va sotuvchilarning istehmolchi, xaridorlar

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T.:19, 164-modda.

⁷⁰ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2003. 11-bet

manfaati, didi, xohishini inobatga olishga bir-biridan arzonroq va sifatliroq tovarlar ishlab chiqarish maqsadida yangi texnika va texnologiyadan foydalanishga undaydi.

Erkin tadbirkorlik, raqobat va narx tizimiga asoslangan bozor iqtisodiyotida hukumat va davlatning roli cheklangan bo'ladi. Davlat bozor mexanizmining amal qilishiga ko'maklashadi. Buning uchun davlat iqtisodiyot sub'ektlari faoliyatining qonuniy bazasini yaratib, ularning faoliyat, "o'yin" qoidalarini belgilaydi. Aholining turmush darajasining barqaror o'sib borishini, kam tahminlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy himoyalash, boy-kambag'allar o'rtasidagi farqlarning keskinlashib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida aholi daromadlarini soliqlar, transfert to'lovlari vositasida qayta taqsimlaydi, makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida soliq, byudjet va pul-kredit vositalari orqali iqtisodiyotni tartiblaydi. Davlat bozor mexanizmi to'la-to'kis bajara olmagan vazifalarni o'z zimmasiga olib, raqobat muhitini saqlaydi, iqtisodiyot sub'ektlarining erkin faoliyatini tahminlaydi. Hamda jamiyat uchun kerak bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'z zimmasiga oladi.

Demak, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar insonga munosib turmush sharoitlarini yaratishga, kishining erkin tadbirkorlik va mehnat qilish, tanlash erkinligini hamda mulkdor bo'lishdek muhim demokratik huquqlarini ta'minlashga, iqtisodiy hayotni demokratlashtirishga qaratilgandir.

Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat», «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li», «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz» va boshqa asarlarida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, bozor iqtisodiyotiga o'tishining nazariy asoslari, kontseptsiyasi ishlab chiqilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasi uch tarkibiy qismdan iborat:

- 1) ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti milliy andozasi mohiyatining tahrifi;
- 2) bozor munosabatlarini shakllantirishning muhim tamoyillari;
- 3) iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning, tanglikdan chiqib olishning, barqarorlikni va muhim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning aniq yo'nalishlari.

Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" asaridagi asosiy ustuvor yo'nalishlar. Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" asari 1995 yilda chop etilgan, 269 betdan iborat bo'lib, asar 2 qismdan tashkil topgan:

1. Iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichning yakunlari va saboqlari.
2. Iqtisodiy islohotlar ikkinchi bosqichning vazifalari va ustuvor yo'nalishlari masalasiga ehtibor bergan.

1. Iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichning yakunlari va saboqlari qismida **birinchidan**, iqtisodiy islohatlar strategiyasi va yo'lini shakllantirish mexanizm; 2) dan iqtisodiy islohatlar huquqiy negizini barpo etish; 3) dan davlat mulkini xususiylashtirish, ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish; 4) dan qishloq xo'jaligida agroislohotlarni shakllantirish; 5) dan institutsional o'zgarishlarni, mahmuriy-buyruqbozlik tizimini tugatish; 6) dan narxlarni erkinlashtirish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish, 7)dan tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va jahon iqtisodiyotiga qo'shilish; 8) dan ijtimoiy kafolatni ta'minlash; 9) dan xalqning ma'naviy-ruhiy tiklanishi; 10) Iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash masalasi bayon etilgan. Mamlakatimizda mulkchilik munosabatlari 2 yo'l bilan amalga oshirildi: 1) Mulkdorlar sinfini shakllantirish, ya'ni bunda davlat mulki bosqichma-bosqich xususiylashtirilib berildi. 2) Qimmatli qog'ozlar bozorini yaratish orqali amalga oshirildi.

Asarda birinchi bosqichda 2 ta hal qiluvchi vazifa bajarilganligi aytilgan: 1) Mahmuriy-buyruqbozlik tizimi o'rniga, u tugatilib, iqtisodiy boshqaruvga o'tildi; 2) Mamlakatimizda o'ziga xos sharoitlarda bozor munosabatlari negizlari shakllantirildi.

1993 yili Rossiya O'zbekiston davlati va uning rahbariyatiga rublg' zonasida (Rossiya rublida) qolishi uchun katta shartlar qo'ydi. Bu shartlar:

- 1) Qarz evaziga 1,5 trillion rublga shunga yarasha boylik yo mahsulot to'lash.
- 2) Pulni (rublni) olishdan avval 50 foiz AQSH dollari (O'zbekiston oltinini) garov tariqasida Rossiya Markaziy bankiga qo'yish.
- 3) 1961–92 yilgi pullarni yangi 1993 yil namunasidagi pulga 3 so'mga 1 so'm nisbati bilan almashtirib berish sharti.
- 4) SHartnoma bajarilmay qolsa, tovon majburligini qo'ydi.
- 5) O'zbekiston Markaziy banki Rossiya Markaziy Bankiga hisob berib turishi shart (Karimov I.A. Asarlar, T.2., 88–90-b.)

Birinchi bosqichda 1) Bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining huquqiy asoslari yuzaga keldi, 300dan ko'proq qonun va qarorlar qabul qilinganligi asarda aytib o'tilgan. 2) Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishda dastlab mayda mulklar davlat tasarrufidan chiqarildi. 3) CHet el sarmoyalari O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilish yo'lga qo'yildi. SHu bilan birga bozor iqtisodiyotining 3 ta mezonlari, qadriyatlari yuzaga keldi: a) tadbirkorlik; b) ishbilarmonlik; v) tijorat. Ma'naviyatda esa a) ziyoli mavqei oshdi; b) mahrifat nuri; v) ijodkor so'zi qadrlana boshladi.

2. **Iqtisodiy islohotlar ikkinchi bosqichning vazifalari va ustuvor** yo'nalishlari qismida Prezidentimiz 4 ta muhim ustuvor vazifani belgilab berdi:

1. **Asosiy vazifa** – davlat mulkini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish: bunda a) mulkni haqiqiy egalari berish, b) ko'p ukladli iqtisodiyotni rahbatlantirish. Agar birinchi bosqichda mayda mulklar xususiylashtirilgan bo'lsa (1991-1994 yillarda), endigi vazifa o'rta mulklarni xususiylashtirish aytiladi.

2. **Eng muhim vazifa** – ishlab chiqarishning pasayib ketishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni va moliyaviy, iqtisodiy barqarorlikka erishishdan iborat. Bu rivojlanish ichki qonuniyatlarga ham bog'liqligi aytiladi.

3. **Muhim vazifa** – Milliy valyuta – so'mni yanada mustaxkamlashdan iborat. Milliy valyuta – mamlakat hududida barcha tovar va xizmatlar uchun narxlarni ifodalash vazifasini o'tovchi va qonuniy himoyalangan yagona to'lov vositasidir...

4. **Strategik vazifa** – Iqtisodiyot strukturasi tubdan o'zgartirish: xom ashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish, uning sifatini va raqobatga bardoshligini jahon bozori talablari darajasiga yetkazish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardan ko'zlangan «pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir¹», - deb belgilab bergan.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish, unda demokratiya tamoyillari bo'lgan iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va tanlash erkinligini, erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali iqtisodiy hayotni erkinlashtirishga yo'naltirilgandir.

Iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish va uni demokratlashtirish, erkin ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti asoslarini yaratish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning **birinchi bosqichida** (1991-1994 yy.) mahmuriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini tugatish, tanglikka barham berish va iqtisodiyotni barqarorlashtirish hamda respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish vazifalarini hal qilishga kirishildi. Buning uchun quyidagilar amalga oshirildi:

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998. 179-bet.

1) islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini shakllantirish va rivojlantirish. Bu davrda mulkchilik, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, tadbirkorlik to'g'risidagi va boshqa ko'plab bozor munosabatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan qonunlar qabul qilingan;

2) kichik xususiylashtirishni amalga oshirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyot negizlarini yaratish;

3) ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta'minlash.

Bu davrda (1992-1994 yillarda) asosan savdo, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, maxalliy sanoat korxonalarini, uy-joylarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari amalga oshirildi. Buning natijasida 69 mingdan ortiq ob'ektlar davlat tasarrufidan chiqarildi, ulardan 18,4 mingtasi xususiy mulkka o'tdi. 3569 ta aktsiyadorlik jamiyatlari tuzildi. Kichik va o'rta tadbirkorlik sub'ektlarining soni 80 mingga yetdi.

2. O'zbekistonda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekistonda shakllanayotgan xususiy mulk ikki turdan iborat bo'lib, 1) yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlarning, dexqon va fermerlarning xususiy mulki, 2) ularning shirkat xo'jaliklaridagi paylar, aktsiyadorlar jamiyatlaridagi aktsiyalar, uyushma ulushlaridan iborat kooperativ xususiy mulk. Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq:

1. Xususiylashtirishni yanad chuqurlashtirish va amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish.
2. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish.
3. Iqtisodiyotga xorij sarmoyalarini keng jalb etish.
4. Mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash.
5. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish.

Prezidentimiz Islom Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida ta'kidlab o'tganlaridek, «O'zbekistondagi islohotlar va yangilanish jarayonlariga baho berar ekanmiz, shuni ta'kidlashni istardimki, hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirish yo'li o'z mohiyat ehtiboriga ko'ra mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlarning asosiy bog'lovchi bo'g'iniga aylanadi». Demak, iqtisodiy hayotni erkinlashtirish esa demokratik jamiyat qurishning asosi sifatida uning iqtisodiy negizlarini mustahkamlashni tahminlaydi. Uning natijasida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni kafolatlovchi, iqtisodiy rivojlanishni tahminlovchi amalda o'rta mulkdorlar sinfi shakllandi. Prezidentimiz iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish yuzasidan quyidagi vazifalarni belgilab bergan edi:

1) dan Mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan hal qilish. Buning uchun xususiy mulkchilik yetakchi o'rinda turadigan ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etish.

2) dan, Haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish.

3) dan Bozor infratuzilmasini rivojlantirish.

4) dan Tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish.

5) dan, Valyuta tizimi va boozrni erkinlashtirish.

6) dan, Davlat va turli tekshiruvchi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan korxonalarning xo'jalik faoliyatiga noo'rin aralashishni cheklab ko'yish.

Ushbu vazifalarni hal qilish uchun O'zbekistonda davlat mulki xususiylashtirishni yanada chuqurlashtirish tadbirlari o'tkazildi. Birgina 2000-2002 yillarda 3117 ta tarmoq ob'ektlari davlat tasarrufidan chiqarilib xususiylashtirildi.

Prezidentimiz Islom Karimov 2005 yil 28 yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma yig'ilishida so'zlagan nutqida hozirgi sharoitda davlat monopolizmiga

barham berish uchun bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish zarurligini bayon etdi. Bunda: 1. Xususiy tarmoqlarning jadal rivojlanishini, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirishini ta'minlash: a) davlat tuzilmalarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini yanada cheklash; b) qastdan bo'lmagan qoidabuzarlikl uchun jazo choralarini kamaytirish; v) xususiy tadbirkorlarga qo'shimcha soliq imtiyozini berish; g) ularning markazlashtirilgan tizimiga qaytishga yo'l qo'ymaslik va x.k.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning **birinchi bosqichida** qishloq xo'jaligida bozor munosabatlariga mos keladigan yangi xo'jalik tizimini shakllantirish ishlari amalga oshirila boshlandi. Buning oqibatida bu sohada davlatga qarashli bo'lmagan sektor keng rivojlandi. SHuningdek, xalq xo'jaligini, uning tarmoqlari va hududlarini boshqarishning mavjud sharoitlarga mos bo'lgan tizimlari ishlab chiqildi. Narxlar to'liq erkinlashtirildi, bozor infratuzilmasining asosiy bo'g'inlari, shu jumladan, ikki pog'onali bank tizimi, moliyani va pul-kreditni tartibga soluvchi mutlaqo yangi tizim, tovar, mehnat birjalari tizimlari yaratildi. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi amalga oshirila boshlandi. Iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish chora-tadbirlarining amalga oshirilishi oqibatida iqtisodiy pasayish boshqa MDH mamlakatlaridek og'ir kechmadi. Yalpi ichki mahsulot 1995 yilda 1990 yilga nisbatan faqat 18,2% kamaydi. 1995 yilda esa bu ko'rsatkich 1,2% ga pasaygan xolos. Vaholanki, YaIM hojmi MDH mamlakatlarida 40-60% ga, Rossiyada esa 48% ga kamayib ketgan⁷¹.

O'zbekistonda mulkni tubdan isloh qilish jarayonlari izchillik bilan olib borildi va bir necha bosqichdan iborat bo'ldi.

Birinchi bosqich 1992–1993 yillarni qamrab oldi va unda xususiylashtirish jarayonlari faol amalga oshirildi. Bu bosqichda davlat uy-joy fondi, savdo, xizmat ko'rsatish tizimi, mahalliy, yengil oziq-ovqat sanoati, avtomobil transporti, qurilish tizimlaridagi mayda korxonalar xususiylashtirildi.

Ikkinchi bosqich 1994–1995 yillarni qamrab oldi va bu davr ichida yalpi xususiylashtirish amalga oshirildi. Bunda davlat nazorati shart bo'lmagan tarmoqlar (engil sanoat, mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasidagi o'rta va yirik korxonalar) ommaviy tarzda xususiylashtirildi.

Uchinchi bosqich, ya'ni 1996–1998 yillarda nazorat paketlari davlat mulki shaklida saqlanib kelayotgan yirik korxona va tarmoqlar isloh qilindi. Bunda Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi tomonidan xususiylashtirishga jalb etilmaydigan ob'ektlar ro'yxati belgilandi. Ularga suvdan foydalanish ob'ektlari, melioratsiya tarmoqlari, muzeylar, sanepidemstantsiyalar, statistik va harbiy ahamiyatdagi byudjet jamg'armalari kiritildi.

To'rtinchi bosqich (1998 yil oxiridan) xususiylashtirishdan tushgan mablag'larni davlat byudjetiga safarbar etish va hokazolarni amalga oshirmoqda. Masalan, xususiylashtirishdan tushgan mablag' 2004 yilda 78,4 mlrd. so'mni tashkil qildi⁷².

2007 yilning boshida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining soni qariyb 350 mingtaga yetdi yoki 2000 yilga nisbatan 2,3 marta ko'paydi. Bugungi kunda kichik biznesning yalpi mahsulot (YaIM)dagi ulushi 42,1 foizni tashkil etmoqda. 2006 yilda YaIM 7,3 foizga o'sdi. Ishlab chiqarish hajmining sanoatda 10,8, qishloq xo'jaligida 6,2 foizga oshgani, investitsiyalarning 11,4, qurilish-pudrat ishlarining 12,8, xizmat ko'rsatish sohasidagi ko'rsatkichlarning 19,5 foizga o'sgani iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillari bo'lib xizmat qildi.

Don yetishtirish:

2004 yilda 5,5 million tonna don xirmoni yetishtirildi.

2005 yilda 5,8 million tonna.

2006 yilda 6,1 million tonna.

2007 yilda 6,250 million tonna g'alla (don) yetishtirildi⁷³.

⁷¹ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari.

⁷² To'xliiev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 125–126-b.

⁷³ Xalk so'zi, 2007 yil 7 avgust.

Mamlakatimizda 2005 yillardan keyingi davrda **kichik va o'rta biznes**ning muhim tarmoqlaridan biri, bu kasanachilikni hukumat dasturi asosida rivojlantirishga keng yo'l ochildi. **Kasanachilik:** 1) do'ppido'zlik; 2) tikuvchilik (ichki va ishchi kiyimlari, qo'lqop, chopon singari; 3) pichiqchilik; 4) temirchilik; 5) gilamdo'zlik kabi hunarmandlik sohalaridir. Bu ro'zg'or ishlari bilan uyda band bo'lib qolgan erkak va ayollarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish tadbirlaridan biri. U ish beruvchi bilan shartnoma tuzgan kundanoq, mehnat daftarchasiga ega bo'ladi, o'z uyida ishlaydi va maoshni korxonadan oladi. Kasanachi to'laqonli ishchi bilan mehnatda, ijtimoiy imtiyozlardan to'liq foydalanishda ham teng huquqqa ega bo'lgan shaxsdir. Kasanachilik **davlat** va **shaxsga** koni foyda tarmoqlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni aholini ish bilan bandligini ta'minlash borasida katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Kasanachilik mehnati turlari qatoriga zamon talablariga mos – qayta ishlash va elektron sanoati, telekommunikatsiya, servis hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlari yumushlari ham kirib kelmoqda. 2007 yil boshidagi holatga ko'ra, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi 42,1 foizni tashkil etdi. Prezident Islom Karimov 2007 yil 12 fevralda ta'kidlaganidek, «Biz katta sarmoya talab qilmaydigan kasanachilikni yo'lga qo'yish maqsadida joylardagi ishlab chiqarish korxonalarida bekor yotgan turli xil dastgoh va uskunalarni qo'lidan ish keladigan odamlarga, oilalarga berdik. Natijada 60 ming odam, 60 ming oila qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'ldi...». "2007 yilning birinchi yarmida qo'shimcha 96,1 ming kishi kasanachilikning turli shakllari bilan qamrab olindi. Bu hisobot davridagi ish o'rinlari umumiy sonining 31 foizini tashkil qiladi. Korxona bilan kasanachi o'rtasidagi kooperatsiya aloqasining o'rnatilishi natijasida: 1) Kasanachi oilalar byudjeti daromadlarini oshirishdek muhim muammo hal etildi. 2) Ish bilan band bo'lgan aholi sonini qisqartirib, uning faol qismini ishlab chiqarishga jalb etish imkonini berdi. 3) Kasanachi faoliyati davri (agar u yakka tartibdagi kasanachi bo'lsa ham), ish staji hisoblanib, pensiya, ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa olish huquqi bilan tahminlanadi. 4) Kasanachi o'z uyida huddi oilaviy pudratdek vaqtdan unumli foydalanadigan bo'ldi. Bu kasanachiga ham foida (barqaror daromad), korxonaga ham. 5) Kasanachi (ayniqsa, xotin-qizlar) uyda ham ishlab chiqarish bilan shug'ullanishi, ham muhim davlat ahamiyatiga ega masalalardan biri – farzandlari tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lish imkoniga ega bo'ladi⁷⁴.

Hozirgi paytda (2007 yil) respublikamizda 190 mingga yaqin fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda va ularda salkam 1,4 million kishi mehnat qilmoqda⁷⁵.

"O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asarida iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish vazifasi belgilandi. Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish mamlakat siyosiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Bu borada Prezident I.A.Karimov "O'zbekistondagi islohotlar va yangilanish jarayonlariga baho berar ekanmiz, shuni ta'kidlashni istardimki, hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirish yo'li o'z mohiyat ehtiboriga ko'ra mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlarning asosiy bog'lovchi bo'g'iniga aylandi",⁷⁶ – deb ta'kidlaganlar.

Iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish esa demokratik jamiyat qurilishining asosi sifatida uning iqtisodiy negizlarini mustahkamlashni tahminlaydi. Uning natijasida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni kafolatlovchi, iqtisodiy rivojlanishni tahminlovchi amalda o'rta mulkdorlar sinfi shakllanadi.

Demokratik jamiyatga xos bo'lgan tadbirkorlikning rivojlantirilishi, iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishlarning birgalikda amalga oshirilishi tufayli O'zbekiston 1996 yildan boshlab iqtisodiy o'sish yo'liga o'tdi. BMT Bolalar jamg'armasi (YuNISEF) buyurtmasiga ko'ra markaziy va

⁷⁴ Jamiyat gazetasi, 2007 yil 24 avgust.

⁷⁵ Karimov I.A. Yangilanish va barkaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil xarakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 4-b.

⁷⁶ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmokda. /Birinchi chaqariq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining O'n to'rtinchi sessiyadagi mahruzas, 1999 yil 14 aprel'. –T.; O'zbekiston, 1999. 15-16 bet

SHarqiy Yevropa hamda MDH mamlakatlarida aholining ijtimoiy farovonligini tadqiq qilish ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning amaldagi o'sishi 2002 yilda 1989 yilga nisbatan 106,8 foizni tashkil etdi. Ayni paytda Moldovada bu ko'rsatkich 38,4%, Rossiyada 64,3%, Qozog'istonda 85,6% ni tashkil etgan⁷⁷.

Mamlakatda iqtisodiy o'sishga erishganlik oqibatida aholini ijtimoiy himoya qilishga va ijtimoiy-madaniy tadbirlarga ajratilgan xarajatlarning davlat byudjeti xarajatlaridagi ulushi 1997 yildagi 44,7 % dan 2003 yilda 46,1 % ga o'sgan.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga mahallalar berilayotgan bir oylik moddiy yordam miqdori 1996-2002 yillarda 13,6 barobarga, bolali oilalarning bolalariga berilayotgan nafaqaning o'rtacha oylik miqdori esa 20 barobardan ziyodga ko'paydi⁷⁸. «Obod mahalla» yilida qabul qilingan dastur asosida 1 milliard 200 million so'mlik xayriya yordami ko'rsatilgan. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan 400 mingdan ziyod ayolga davlat tomonidan nafaqa tayinlandi. SHuningdek, 180 mingta kam tahminlangan oilaga qariyb 14 milliard so'm miqdorida yordam ko'rsatilgan⁷⁹.

Islohotlarni yanada chuqurlashtirish sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tizimi qayta ko'rib chiqildi. Valyuta tizimi va bozorini erkinlashtirish chora-tadbirlari amalga oshirildi va milliy valyutamiz – so'm 2003 yil 15 oktyabrdan joriy to'lovlar bo'yicha erkin almashuvi amalga oshirila boshlandi.

Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish jarayonlari mamlakat siyosiy hayotini, davlat va jamiyat qurishlashini yanada erkinlashtirish jarayonlari bilan o'zaro bog'liqlikda amalga oshirilishi oqibatida uning demokratik jamiyat qurishdagi rolini va ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

O'zbekistonda kuchli bozor infratuzilmasini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.

Infrastruktura – takror ishlab chiqarish shartlarini tahminlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari: yo'llar, aloqa, maorif, sog'liqni

saqlash kabi sohalaridir. Asosiy ishlab chiqarish infrastrukturasini energo-tahminot, transport va aloqa tarmoqlaridir. Prezident Islom Karimov «Bozor munosabatlarini shakllantirishni tegishli muhimsiz tovar, pul bozorida va mehnat resurslari bozorida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlash kerak bo'lgan bozor infrastrukturasiz tasavvur etib bo'lmaydi» degan edi. O'z-o'zidan ma'lumki, bozor infrastrukturasini bo'lmasa bozor mexanizmlari to'liq ishlay olmaydi.

Bozor infratuzilmasi – bu bozor aloqalarini o'rnatishga va samarali yuritishga xizmat qiluvchi korxona, tashkilot va muassasalarning majmuasidir. Bozor infratuzilmasini bozor strukturasi bilan almashtirish yaramaydi. Bozor strukturasi bozorning tarkibida amal qiluvchi bo'g'inlar (istehmol tovarlari va xizmatlari bozori, ishlab chiqarish vositalari bozori, moliya bozori, valyuta bozori, mehnat bozori, intellektual tovar bozori, shou-biznes bozori va boshqalar)ni va bozor haroratini belgilovchi boshqa birliklarni o'z ichiga oladi.

Bozor infrastrukturasini turlari va tarmoqlari: Ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi infrastruktura: transport, aloqa, ombor xo'jaligi, yo'l xo'jaligi, suv va energetika tahminoti va h.k.

Tovarlar va xizmatlar muomalasiga, ya'ni savdo-sotiq ishlariga xizmat qiluvchi infratuzilma: birjalar, savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari va agentliklar, davlatning savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi muassasalari.

Moliya kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi infratuzilma: tijorat banklari, o'z-o'zini kreditlash idoralari, sug'urta kompaniyalari, moliya kompaniyalari, soliq undirish mahkamalari, har xil pul jamg'armalari.

Aholiga xizmat qiluvchi yoki ijtimoiy infrastruktura: uy-joy, kommunal va transport xizmati, maorif, sog'liqni saqlash, aholini ishga joylashtirish firmalari va idoralari.

⁷⁷ Sotsial' monitoring 2003 g. Ekonomicheskii rost i bednost. Vneshniy gosudarstvennyy dolg. Analiticheskiy material. YuNISEF, 2003. S.99.

⁷⁸ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari.


⁷⁹ Xalq so'zi, 2003 yil 6 dekabr.

Axborot xizmati: iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan har xil xilaxborotlar, ma'lumotlar va xabarlarni to'plash, umumlashtirish, sotish bilan shug'ullanuvchi turli kompaniyalar, firmalar maslahat idoralari va davlat muassasalari.

Bozor infratuzilmasi mustaqillik bilan birga tug'ildi va jamiyatda hayotiy zaruriyat sifatida paydo bo'ldi. Bugungi kunda mamlakatimizda bozor infratuzilmasi to'liq shakllanib bo'ldi. Infratuzilmani birdaniga yaratib bo'lmaydi, u ancha uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda. 1992 yil 28 fevralg'da respublika ulgurji va birja savdosi hissadorlik uyushmasi tashkil etildi. 1992 yil 5 mayda O'zbekiston davlat hissadorlik «savdo» («O'zbeksavdo») assotsiatsiyasi tuzildi va x.k.

Hozirgi kunda bozor infratuzilmasini yaratishda yangi bosqichga o'tildi. Bu bosqich respublikaning barcha qishloq aholi istiqomat joylarida bozor infratuzilmasining Hamma turlarini yaratishda ijobiy ishlar qilinmoqda. Hozirgi kunda respublikada 40dan ortiq sug'urta kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Iqtisodiy siyosatning ustuvor maqsadlaridan biri aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash va unga mehnat qilish uchun munosib imkoniyatlar ochib berishdir.

Mustaqil rivojlanishning o'tish davrini umumlashtirib, taxlil etish islox qilishning O'zbekiston modeli asosli va to'g'ri bo'lib chiqdi deb aytish uchun to'la asos bor. Bugun uni obro'li xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, jaxonning ko'pgina mamlakatlari tan olmoqda. Eng ASOSIYSI, xayotning o'zi uni tasdiqlamoqda.



Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish sharoitida iqtisodiyotni erkinlashtirishning ustuvor yo'nalishlari. Prezident I.A.Karimov Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining To'qqizinchi sessiyasida qilgan mahruzasida respublikada demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning "bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishdan iborat",⁸⁰ muhim ustuvor yo'nalishini belgilab berdi.

⁸⁰ Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. //Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining To'qqizinchi sessiyasidagi mahruza. //Xalq so'zi, 2002 yil 30 avgust.

Ushbu ustuvor yo'nalishni amalga oshirish uchun avvalombor xususiy sektorning mavqeini yanada oshirish va kichik tadbirkorlikni jadal rivojlantirish lozim bo'ladi. Endilikda xususiylashtirish jarayonlari tobora ko'proq yirik korxonalarni, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini o'z ichiga qamrab olishi, korporativ xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, aktsiyalarni sotishning birlamchi va ikkilamchi birja hamda birjadan tashqari bozorini rivojlantirish amalga oshiriladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga davlat va nazorat organlarining noo'rin aralashuviga barham berish, moddiy-texnika resurslari va moliyaviy, shu jumladan, kredit mablag'lari bilan tahminlanishini yaxshilash, ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish uchun ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. SHuningdek, shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish hamda ularga servis xizmati ko'rsatuvchi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalarini va qishloqlarda ularning filiallarini tashkil etish muhim ustuvorlikka ega bo'ladi.

O'zbekiston Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi "Bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining mazmun va mohiyati. O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun dastur qabul qilingan bo'lib, mazkur farmon bevosita shunga bag'ishlangan. Dasturga ko'ra bozor islohatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda ro'yobga chiqarish borasida katta ishlar qilingan. Mazkur farmonda bozor islohotlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish ahvoli haqidagi masala atroflicha bayon etilgan. Qonunlarning, O'zR Prezidenti Faronlari va Qarorlari, hukumat qarorlari, idoraviy normativ hujjat loyihalari ro'yxati tuzilgan bo'lib, ular tizimli asosda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda iqtisodiyotni erkinlashtirishning asosiy maqsad, vazifa va ustuvor yo'nalishlari ro'yobga chiqarilishini tahminlaydi. SHuning uchun ham bu farmonda quyidagilar belgilab berildi:

1) dan tizimli asosda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda iqtisodiyotni erkinlashtirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari ruyobga chiqarilishini tahminlaydigan qonun xujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati tuzilishi aytilgan.

2) dan, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturini ijro etish bo'yicha Qonun hujjatlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi va amalda ro'yobga chiqarilayotganligi ta'kidlab o'tildi.

3) dan jamiyat hayotining barcha tomonlarini erkinlashtirish va yanada isloh qilish hamda mahmuriy islohotni amalga oshirish sohasida qonunchilik bazasini takomillashtirish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiruvchi komissiya tuzish belgilab berildi.

4) dan, ushbu farmonga muvofiq qabul qilinadigan qonun hujjatlari ijro etilishini nazorat qilish Vazirlar Maxkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitasi va idoralar, Qoraqalpog'iston respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan nazorat ostiga olinishi aytib o'tilgan.

5) dan, Adliya vazirligiga normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini belgilangan tartibda kelishib olish, davlat hokimiyati organlari va hukumatga kiritishda monitoring o'tkazish topshirildi.

Umuman ushbu farmon mamlakat iqtisodiyoti va har bir fuqarosi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarning aniq ijobiy natijalarini his etish bayon etilgan. (Turkiston, 2005 yil 15 iyulg').

O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish iqtisodiy ustuvor yo'nalishini amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar ko'rilmogda:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni, valyuta bozorini erkinlashtirish, milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo'yicha erkin almashinuvini muntazam ta'minlash;

- iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish hamda import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash;
- iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish. Buning uchun tegishli investitsion muhit va investorlar uchun kafolat yaratish;
- ichki va tashqi investitsiyalarni butun iqtisodiyotga, shu jumladan, oltin-valyuta zahiralarimizning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan yetakchi tarmoqlarga ustuvor ravishda yo'naltirish;
- jahondagi nufuzli xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, dunyo iqtisodiy tizimiga integrallashuvi hamda jahon savdo tashkilotiga ahzo bo'lish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi bozor munosabatlarini rivojlantirish va erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, uni yanada demokratlashuviga olib keladi.

2005 yil 5 oktyabrda Prezident I.Karimovning "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Prezident Islom Karimov 2007 yil 12 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida 2007 yil uchun quyidagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi:

1. Asosiy vazifa – iqtisodiyotning barqaror va mutanosib surhatlarda o'sishi hamda tarkibiy o'zgarishlar va modernizatsiyalashni ta'minlash, uning muhim tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, soliq siyosatini yanada erkinlashtirishdan iborat.

2. Ustuvor yo'nalish – iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda bundan buyon ham biznes, jumladan, xususiy biznes uchun zarur bo'lgan barcha qulay sharoitlarni yaratishdan, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini izchil kamaytirib borishdan iborat bo'lib qolaveradi.

3. Muhim ustuvor yo'nalish – xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish borasidagi ishlarni har tomonlama kuchaytirish.

4. Ustuvor vazifa – ish haqi miqdorini va aholi turmush darajasini izchil oshirib borishni ta'minlashdan iborat.

5. Eng muhim ustuvor masala – bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu asosda aholining bandligi va farovonligini oshirish muammolarini hal etishdan iborat.

6. Ustuvor vazifa – bank-moliya tizimida olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'lamini kengaytirishdan iborat.

7. Ustuvor yo'nalish – bu kommunal xo'jalik sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirishdir⁸¹.

Prezident Islom Karimovning «**Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish – barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir**» nomli kitobida Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yuksaltirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar va islohotlarni amalga oshirish **dasturi ishlab chiqildi ("Xalq so'zi", 2007 yil 26 may)**.. Prezidentimiz bunda quyidagi masalalarga ehtibor qaratdi:

1. Dasturda belgilangan vazifalarni, belgilab olingan ustuvor (7 ta) yo'nalishlarni hayotga joriy qilish uchun ularning mahno-mazmuniga yetib borish, davlat rahbarlaridan tortib har bir fuqarogacha uni amalga oshirishni burch va vazifa deb bilish.

2. Ongli fikrlar asosida astoydil mehnat qilish.


3. Biz hech kimdan kam bo'lmagan erkin va farovon hayotni barpo qilish uchun mehr-oqibatli, fidoyi, oliyjanob bo'lishimiz kerak.

4. Erishgan yutuqlarimizdan g'ururlanish bilan birga hushyor bo'lishimiz lozim.

5. Ma'naviy kuch-quvvat beradigan milliy qadriyatlarimizdan bahra olib, amaliy ishimizda ularni yanada mustahkamlab borishdan iborat.

⁸¹ "Mahrifat", 2007 yil 14 fevral.

O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning iqtisodiy ustuvor yo'nalishining mazmuni va vazifalari



9.3. Tadbirkorlik va iqtisodiy faoliyat erkinligini ta'minlash – demokratik jamiyat rivojining zarur sharti

Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish sharoitida kichik, xususiy biznes va tadbirkorlikni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari kengaytirilmoqda, daromad solig'i stavkalari qisqartirilib, soliq yuki yengillashtirish yo'liga qo'yilmoqda. O'zRsining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi 2000 yilda qonun qabul qilinib, amaliyotga tadbiiq etilishi natijasida tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish va kafolatlash kuchaymoqda. Bunday ijobiiy ishlar tahsirida kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarining soni 2003 y. 1 yanvarg' xolatiga ko'ra 240 mingtaga yetdi. Ular yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 35 foizdan oshdi. Xususiiy sektorda iqtisodiiyotda band bo'lgan aholining qariyb 52 foizidan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Aslida Prezidentimiz Islom Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda"asarida xalq farovonligi g'oyasini ilgari sura turib, farovon turmush asosi – **erkinlik, tadbirkorlik va tashabbuskorlikdan iborat** bo'lishini bayon etgan edi. Demak, **tadbirkorlik** – farovon turmush asosi. 1997 yil 16 dekkabrda Prezidentimiz "Tadbirkorlik – iqtisodiiyot haqidagi mahruzasida 1)dan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish; 2) dan, iqtisodimiz tarkibini

keskin o'zgartirish, ya'ni xom ashyo emas, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish; 3) dan milliy pulimiz qadrini mustaxkamlashdan iborat vazifalarni belgilab bergan edi. Hozirgi vaqtda tadbirkorlik faoliyatining turlari quyidagilardan borat:

1. Ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yish. 2. Tijorat (oldi-sotdi). 3. Moliyaviy tadbirkorlik. 4. Vositachilik. 5. Sug'urta. 1999 yil 14 aprelda "Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonun bilan birga O'zR Prezidentining "Iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va boshqa bir qator qonun hujjatlari xo'jalik yurituvchi subhetlarning yangi huquqiy maqomini yaratishga xizmat qildi.

Umuman, «**Tadbirkorlik to'g'risida**»gi (1995) qonunda ta'kidlanganidek, «**Tadbirkorlik – mulkchilik sub'ektlarining harakatdagi qonunchilik doirasida tovar ishlab chiqarishga, xizmat ko'rsatishga hamda daromad va foyda olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyati**»dir. Tadbirkorlikning quyidagi shakllari ham mavjud: 1) shaxsiy (xususiy) faoliyat; 2) yollanma mehnatga jalb qilish amalga oshiriladigan tadbirkorlik; 3) fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan jamoa yoki qo'shma tadbirkorlik.

Demokratik jamiyatga xos bo'lgan tadbirkorlikning rivojlantirilishi, iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishlarning birgalikda amalga oshirilishi tufayli O'zbekiston 1996 yildan boshlab iqtisodiy o'sish yo'liga o'tdi.

Bugungi kunda kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga davlat va nazorat organlarining noqonuniy aralashuviga barham berilmoqda. Prezident Islom Karimov 2005 yil 28 yanvarda «Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir» mahruzasida iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish xususida gapirib, xususiy tadbirkorlikka zarur resurslarni sotib olish uchun bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish kerakligini aytib o'tdi. Xususiy tadbirkorlariga qo'shimcha soliq imtiyozlari berish zarurligi ta'kidlab o'tildi. 2005 yilga kelib xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 425 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari barpo qilindi. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortdi va 2004 yilda 35,6 foizni tashkil qildi.

Demak, farovon turmush asosi. Prezidentimiz Islom Karimov 1994 yil 16 dekabrda Prezident huzuridagi Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va xorijiy sarmoyalar bo'yicha idoralararo Kengashning navbatdagi majlisida "Tadbirkorlik - iqtisodiyot kelajagi" mavzuida mazkur masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon etgan edi. Unda bozor munosabatlariga o'tishning keyingi bosqichida quyidagi 3 ta ustuvor yo'nalishni belgilab berdi:

"Birinchii asosiy masala" - mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasidagi ishlarni oxiriga yetkazishdan iborat. Islohotning asosiy mahnosi va kerak bo'lsa, negizi bu - mulkni haqiqiy egasiga topshirish, tadbirkorlikka keng imkoniyat ochib berishdir⁸².

Ikkinchi muammo va ustun yo'nalish - iqtisodimiz tarkibini keskin o'zgartirish, ya'ni xom ashyo emas, tayyor mahsulot chiqarishga, uning sifati va raqobatbardoshligini dunyo bozori talablariga javob beradigan holga yetkazish...

Uchinchi muhim vazifa - milliy pulimiz nufuzini yanada mustahkamlash, uning Amerika dollari, nemis markasi, yapon ieni kabi dunyodagi obro'li valyutalar bilan erkin almashuviga erishmoqdir.

"Har bir odam boy bo'lsa, davlat boy bo'ladi, har oila obod bo'lsa, mamlakat obod bo'ladi". Yurtboshimiz Islom Karimov bu fikrlarini davom ettirib, 1999 yil 27 iyulda Vazirlar Mahakamasining birinchi yarmida iqtisodiy islohotlar yakuniga bag'ishlangan yig'ilishida "Tadbirkorlik - yuksalish garovi" mavzuida mahruza qildi⁸³. Ushbu mahruzadagi bahzi, muhim tomonlarini keltirib o'tamiz:

⁸² Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. T.: «O'zbekiston», 1996, 336-337–betlar.

⁸³ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot – pirovard maqsadimiz. 8-tom. T.: «O'zbekiston», 2000, 39-58- bet.

«**Bugungi kundagi asosiy vazifamiz** - tanlab olingan islohotlar va yangilanish yo'limizdan orqaga qaytmaslik. Oliy Majlisning XIV sessiyasidagi «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» mahruzasida bayon qilingan iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot strategiyamizning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirishdir».

Bugungi kundagi asosiy vazifamiz - xalq turmushini yaxshilashdir, toki diyorimizda yashayotgan har bir inson o'zi va oilasi misolida o'z farovonligi ortib borayotganini his qila olsin.

Bugungi kundagi asosiy vazifamiz - mustaqilligimizni yanada mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro obro'sini oshirish. Xonadonimizdagi xavfsizlik, barqarorlik, tinchlik va totuvlikka nisbatan bo'layotgan har turli tahdid va xavf - xatarlarga nisbatan ogoh va hushyor turishdir».

Umuman, «Tadbirkorlik to'g'risida»gi (1995) qonunda ta'kidlanganidek, «Tadbirkorlik - mulkchilik sub'ektlarining harakatdagi qonunchilik doirasida tovar ishlab chiqarishga, xizmat ko'rsatishga hamda daromad va foyda olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyati»dir.

Tadbirkorlikning quyidagi shakllari mavjud:

a) shaxsiy (xususiy) faoliyat;

b) yollanma mehnatni jalb qilib, amalga oshiriladigan tadbirkorlik;¹

v) fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan jamoa yoki qo'shma tadbirkorlik.

Barqarorlik dasturini ishlab chiqishda tanglik hodisalarining oldini olish, iqtisodiyotning qay holatdaligini ifodalovchi mezon bo'lib, xizmat qiluvchi ko'rsatkichlarni yaxshilash, tanglikka olib keluvchi ichki sabablarini o'rganish, uni bartaraf etish tadbirlarni amalga oshirish kerak.

2006 yil 24 mayda "Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning xabardor qilish tartibini joriy etish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi.

Barqarorlashtirish siyosati – bu avvalo makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslik.

Barqarorlashtirish siyosatining maqsadi – boshqarib bo'lmaydigan, iqtisodiy pasayishga olib kelishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi muvozanatsizlikdan chetlab o'tish, zarur bo'lgan taqdirda uni to'g'rilashdan iborat.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning jahon tajribasidagi xilma-xil yondashuvlar quyidagilardan iborat:

1. Monetar yondashuv – deb atalib, chuqur iqtisodiy o'zgarishlarni tahminlaydi. Monetar yondashuv deb bunda pulning qadrsizlanish darajasini pasaytirib turishga, pul masalasini hamda to'lovga qodir bo'lgan jami talabni keskin kamaytirish hisobiga pul muomalasini barqarorlashtirishga asoslangan. Bu xil yondashuv chuqur iqtisodiy qayta o'zgartirishlarni tahminlamaydi, aksincha, ko'pincha ishlab chiqarishning moddiy xajmlari kamayishiga, investitsiya faoliyati to'xtab qolishga olib keladi. Monetar hech qachon ishlab chiqarishni tanglikdan olib chiqishga qodir bo'lgan yagona yo'naltiruvchi va hal qiluvchi kuch bo'lgan emas. Barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqarishda ana shu qattiq monetarizmga tayanmaslik kerak. Balki muvozanatga keltirgan monetar siyosatning asosiy tarmoqlarni, ishlab chiqarishni tarkiban qayta tashkil qilishni yo'lga qo'yish kerak.

2. Fiskal yondashuv – (soliqlar siyosati hamdir) – ishlab chiqarishni va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirishga, tarkibiy qayta tashkil qilishlarni amalga oshirishda ko'maklashishga, iqtisodiyotda nomutanosibliklarga barham berishga asoslangan yondashuv.

¹ Yangi O'zbekistonning 7 zafarli yo'li. T.: «SHarq», 1999, 120 – bet.

Bunda bir mehyorda qattiq moliyaviy va pul-kredit siyosati o'tkaziladi, tovar bilan qoplashning iloji bo'lmagan ortiqcha talablarni cheklash bo'yicha tadbirlar bilan uzviy bog'lab olib boriladi.

3. O'zbekistonning o'ziga xos yondashuvi: duchor bo'lgan tanglikdan, uzoqqa cho'zilgan chuqur tanglikdan ijtimoiy larzalarsiz va portlashsiz eson-omon chiqishdan iborat bo'lib, bunga faqat ishlab chiqarishga tayangan holdagina erishish mumkin. 1999 yil 16 fevralda Vazirlar Mahkamasi yig'ilishida islohotlar islohot uchun emas, inson manfaatlari uchun degan tamoyilni ilgari surdi. O'zbekiston o'ziga hos bu yondashuvda aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy adolat, ijtimoiy muhofaza qilish masalalariga diqqat qaratdi. O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishning jahon tajribasini, uning ayrim xususiyatlarini o'rganish, ularga amal qilish bilan birga uning milliy xususiyatlari, demografik belgilari, bosqichma-bosqich asosida amalga oshirishga alohida ehtibor bermoqda. Masalan, agar 1991-1994 yillarda mayda xususiylashtirilgan bo'lsa, 1994-2000 yillarda o'rta mulklar davlat tasarrufidanchiqarish yo'lga qo'yildi va h. k.

QISQACHA XULOSA

Prezident I.A.Karimov iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish yuzasidan quyidagi vazifalarni belgilab bergan:

Birinchidan, mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan hal etish. Buning uchun xususiy mulkchilik yetakchi o'rinda turadigan ko'p ukkladli iqtisodiyotni barpo etish.

Ikkinchidan, haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish.

Uchinchidan, bozor infratuzilmasini rivojlantirish.

To'rtinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish.

Beshinchidan, valyuta tizimi va bozorni erkinlashtirish.

Oltinchidan, davlat va turli tekshiruvchi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan korxonalarning xo'jalik faoliyatiga noo'rin aralashishni cheklab qo'yish.

Ushbu vazifalarni hal qilish uchun O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishni yanada chuqurlashtirish tadbirlari olib borildi.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Bozor iqtisodiyotining mohiyati va asosiy belgilarini bayon etingq
2. Demokratik jamiyat iqtisodiy hayotni erkinlashtirish tushunchasi va mazmunini nimalar tashkil qiladiq
3. Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" asarida qanday printsiplar izohlab berilganq
4. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat boshqaruvi qanday yo'llar bilan nomarkazlashtiriladiq
5. Raqobatning demokratik jamiyatni barpo etishdagi o'rni qandayq
6. Bozor infratuzilmasi qanday yo'llar bilan shakllantiriladiq

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2007. –8–10-b.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Nukus: «Qoraqalpog'iston», 1993.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid: barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. -T.: «O'zbekiston», 1997, 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: «O'zbekiston», 2000, 6,8-12, 14-15, 16-26, 28-38, 47-48-betlar.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. T.1. -T.: «O'zbekiston», 1996, 36-85-betlar.
6. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.3. -T.: «O'zbekiston», 1996, 3-54-betlar.
7. Karimov I.A. Adolat qonun ustuvorligida. T.10. -T.: «O'zbekiston», 2002, 26-52-betlar.

8. Karimov I.A. Hayotimizning, taraqqiyotimizning huquqiy asosi. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va mahrifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. -T.: «O'zbekiston», 2003, 3-52, 97-120-betlar.
9. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish - har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 285–312-b.
10. Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezoni bo'lsin. Surxondaryo viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. –313–337-b.
11. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. –156–223-b.
12. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.14. – T.: O'zbekiston, 2006. – 61–97, 139–153, 248–265-b.
13. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoitini yaratish – asosiy vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2007. – 11-b.
14. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48 b.
15. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayot garovidir. – T.: “O'zbekiston”, NMIU, 2007. – 64 b.
16. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – T.15. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 3-11, 154-211-241-251-b.
17. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48 b.
18. Rahimov I., Zohidov A., Azizov SH., Ayupov A. va boshq. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. -T.: «Universitet», 2001. 232-bet.
19. Pugachev V.P., Solovg'ev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 202-255-betlar.
20. O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T.: «O'qituvchi», 2004, 3-44-betlar.
21. Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. T.: Toshkent Moliya instituti, 2004, 3-180-betlar.
22. Pugachev V.T., Solovg'ev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 256-275-betlar.
23. Jo'raev S. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. T.: ToshDSHI, 2003, 38-50, 179-184, 132-200, 209-250-betlar.
24. Husanov M. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini shakllantirishda saylov tizimi va saylov huquqining ahamiyati. T.: TDYuI, 2004. – 32-b.
25. SHarifxo'jaev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. – T.: SHarq, 2005. – 240 b.
26. Aliev B., Hoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot nashriyoti», 2005. – 160 b.
27. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: “SHarq”, 2006. – 528 b.
28. Umarov B. Globallashtirish ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar. – T.: “Ma'naviyat”, 2006. – 160 b.
29. To'xliiev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashr., 2006. – 280 b.
30. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 204 b.

MAVZU. DEMOKRATIK JAMIYAT QURILISHIDA KUCHLI IJTIMOIIY HIMOYA VA ADOLAT TAMOIYILLARI

1. O'zbekistonda ijtimoiy himoya siyosati. SHarq mutafakkirlari ijtimoiy adolat to'g'risida

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim natijalaridan biri ijtimoiy himoya siyosatining demokratik jamiyatni barpo etishdagi o'rmini va ahamiyatining ortib borishi bilan belgilanmoqda. "Bugungi kunda ijtimoiy hayot sohasidagi salbiy holatlarni bartaraf etib, odamlar turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholining himoyaga muhtoj qatlam va guruhlarini ijtimoiy muhofazasini tahminlagan holda O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni va fuqarolar totuvligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldik."⁸⁴

Adolat tushunchasining kelib chiqishi (sotsiogenezi) to'g'risidagi tahlilotni buyuk ajdodimiz **Abu Nasr Forobiy** yaratishga uringan. Buyuk mutafakkir adolat g'oyasini jamiyatning asosiy davrlariga tadbiquan qarab chiqqan. Bunda u insoniyat jamiyatining kelib chiqishida tabiiy ehtiyojlar yotishini, bu ehtiyojlarni uyg'unlashtirish esa adolat tuyg'usini shakllantirishini ta'kidlagan edi. SHarq mutafakkiri **Konfutsiyning** g'oyalarini davom etirgan holda Forobiy adolatning yuksak tushunchasi insoniyatning mahrifiy davriga to'g'ri kelganligini ta'kidlaydi. Bu davrda xususiy mulk o'rnatiladi va u kishilarning o'zaro tengsizligini keltirib chiqaradi. SHunisi muhimki, teng taqsimlashni ifodalagan adolat tushunchasi endi mulk tahsirida tengsizlikni ifoda eta boshlaydi. Bu tushunchaning o'zi xususiy mulkni o'rnatishda ishtirok etadi.

Demak, adolat to'g'risidagi tasavvurlar insoniyatning oddiy egalitarizm, ya'ni barcha baravar bo'lgan holdagi darajasidan yuqori ko'tarila borishi natijasida yanada to'laroq shakllana borgan. Tenglashtiruvchi qoida bo'lgan, zo'rlikni aks zo'rlik bilan muvofiqlashtiruvchi vosita sifatida dahvolar tengligini o'rnatib kelgan adolat tushunchasi xususiy mulkka asoslangan jamiyatda yangicha mazmun kasb eta boshlagan. Endi jamiyat ijtimoiy munosabotlarni muvozanatga keltirishning yangi tizimiga muhtojlik seza boshladi. Yuz bergan ulkan ijtimoiy o'zgarishlar kishilar ongida, dunyoqarashida, siyosiy-huquqiy fikrda, axloqiy normalarda ijtimoiy adolat g'oyasining uzil-kesil shakllanishiga olib kelgan. Bu haqda SHarqning boshqa bir mutafakkiri – **Abu Ali ibn Sino** qiziqarli fikrlarni bayon qilgan. Uning fikricha, o'zaro bog'liqlik va almashuv jarayonida insonlar bir-birlarini qandaydir muhtojlikdan holi etadilar. Buning uchun insonlar o'rtasida o'zaro kelishuv zarur bo'lib, bu kelishuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari o'rnatiladi.

Ijtimoiy hayotda adolatparvarlikni qathiy turib himoya qilgan tahlilotlardan biri tasavvuf falsafasidir. Tasavvuf namoyondalari boshqa sharq mutafakkirlari singari o'z umidlarini mahrifatli va odil shohga bog'laydilar, u orqali barcha ijtimoiy illatlarni bartaraf etish mumkin, deb hisoblaydilar.

Tasavvuf namoyondalari hokim va xalq, shoh va saltanat munosabatlarida donolik bilan adolatli ish tutish, davlatni adolatli qonunlar orqali boshqarish, qabul qilinayotgan tadbirlarning xalq tomonidan qo'llanishi kabi ijtimoiy muammolarni ko'taradilarki, bu xalqparvar tuzum ideallarini ulug'lashtirdi.

Tasavvufning ko'pgina namoyondalari shohlar, hokimlar, amaldorlardan adolatni kutib o'tirmay, o'z amaliy faoliyatlarida unga amal qilish bilan o'rnak bo'lganlar. Hasan Bariy, Abdulla Ansoriy, Abdulhasan Haraqoniy, Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xo'ja Ahror Valiy, Mahdumi Ahzam Kosoniy ko'pincha shoh va hokimlar adolatsizliklariga qarshi chiqib, mazlumlarni dadil himoya qilganlar, haqiqat uchun kurashganlar.

⁸⁴ Karang: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasidagi (2002 yil 29-30avgust) mahruzasida bayon etilgan asosiy vazifalar va qoidalarni keng yoritish bo'yicha tashkiliy-mahrifiy tadbirlar Dasturi. –T.: O'zbekiston, 2002. B.10.

SHarq mutafakkirlari adolatni asoslashda lirik-ruhiy, ma'naviy-axloqiy jihatdan yondashganlar. Zero, sharqona jamiyatlarda azaldan adolat tushunchasiga hamohang tarzda «haq», «mehyor», «haqiqat», «burch» tushunchalari qadrlanib kelingan. SHuningdek, jamoa manfaati, oiladagi tartib-intizom, ehtiqod va ma'naviylik yuqori baholangan.

G'arb mutafakkirlari esa ko'proq huquqiy, amaliy, kundalik hayot muammolari nuqtai nazaridan fikr yuritganlar. SHuning uchun ham sharqdagidan ancha farqli tarzda «erkinlik», «teng huquqlilik», «erk» tushunchalariga ko'proq darajada ahamiyat berilgan. SHu bilan birga individualizm, individning tartib-intizomi, huquq adolatga olib boruvchi vositalar sifatida qadrlanadi, ma'naviylikdan ham ko'ra ratsionalizm mustahkam o'ringa ega bo'lgan.

Darhaqiqat, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishda adolat omili muhim o'rin tutadi. SHu mahnoda adolat tushunchasi, uning erkinlik, demokratiya va barqaror taraqqiyot g'oyalari bilan mushtarak jihatlarini bugungi kunda ham zamonaviy mazmun kasb etmoqda.

Lekin tarixan oladigan bo'lsak, ijtimoiy adolat g'oyasi insoniyatning butun tarixi orqali o'tib kelgan. SHu bilan birga jamiyatni adolatli tashkil etish orzusi va uning hayotdagi haqqoniy mavjudligi o'rtasida doimo ziddiyat bo'lib kelgan. SHunga qaramay uni «naqd qilib qo'yishga» urinish to'xtamagan. SHu nuqtai nazardan insoniyat tsivilizatsiyasining butun tarixi ijtimoiy adolatni kengaytirish tarixi hamdir. Albatta, sharq va g'arb jamiyatlaridagi bu kabi qadriyatlar bir-biriga zid emas, ular o'zaro uyg'unlikda umuminsoniy qadriyat darajasida jamiyat hayotida ijtimoiy adolat qoidalarining barqaror bo'lishiga xizmat qiladi. SHarq va g'arb anhanalarida asrlar davomida shakllanib kelgan bu kabi tushunchalar hamda qadriyatlar mustaqillik davrida jamiyatimizda umuminsoniy g'oyalar sifatida qayta shakllanishi shu jihatdan katta ahamiyatga ega. Zero, bu jamiyatimizda insonparvarlik, birdamlik, inson erki va mashuliyatini, manfaatlar uyg'unligi, qonun ruhi va demokratiya qadriyatlari asosida amalga oshirishga va shu tariqa ijtimoiy adolatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. Mustaqillik davrida adolat tushunchasining yangicha mazmuni

Umuman, mustaqillik davrida odamlarimiz ongida ijtimoiy adolatning yangicha tushunchasining shakllanishi mamlakatimiz kelajagi va islohotlar muvaffaqiyati garoviga aylanmoqda. Adolatli jamiyat qurish haqidagi umuminsoniy orzular va qarashlarni yangi jamiyat barpo etish manfaatlariga bo'ysundirish muhim amaliy masala bo'lib turibdi. Biz barpo etayotgan jamiyat insonparvar bo'lmog'i zarur. Bunda demokratik modellarni ko'r-ko'rona ko'chirib olmasdan, balki ilg'or demokratik jamiyatlar tajribasini tanqidiy o'rganish asosida fuqarolik jamiyatini qurish ehtiyojlariga xizmat qildirish talab etiladi.

Ijtimoiy adolatning mohiyati har bir shaxs o'z qobiliyat va imkoniyatlarini namoyon qila olishi uchun to'liq imkoniyatlar yaratish, bunda ularning farovon turmush kechirishlariga erishish jarayonida to'liq namoyon bo'ladi. Kishilarning jamiyatdan olayotgan ulushlari (ish haqi, daromadlari, mukofotlari, unvonu mansablari) ularning jamiyat rivojiga qo'shayotgan hissalariga (mehnati, qobiliyati, zakovati, alohida xizmatlari, sarmoyasi va h.k.) mos kelishi shu mahnoda inson rivoji imkoniyatlariga bog'liq.

Albatta, inson faqat non bilan tirik emas. Inson taraqqiyotini hayot darajasigina emas, hayot sifati ham belgilaydi. Hayot sifati esa inson yashaydigan, mehnat qiladigan va bo'sh vaqtini o'tkazadigan sohalarida shakllanadi Ijtimoiy infrastruktura inson hayotida kuchli tahsirga ega. Sog'liqni saqlash shunday sohalaridan biridir. Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab Prezidentimiz tashabbusi bilan «Sog'lom avlod uchun» umumxalq harakati boshlangan edi. Sog'lom va barkamol avlod uchun kurash mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va o'zining natijalarini bera boshladi.

Demokratik jamiyat qurishda ijtimoiy himoya, muhofaza va adolat tushunchalari (SHarq mutafakkirlarining ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoya haqidagi g'oyalari). Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini ko'rish davrida o'tish jarayonini oqilona tashkil qilish inson manfaati asosiy o'rinda turadi. O'tish davrida amalga oshiriladigan asosiy

vazifalar ijtimoiy himoya tizimini va ijtimoiy adolat tamoyillarini yuzaga chiqarish, uni jamiyat hayotida barqaror qilish maqsadlarini ham nazarda tutadi.

1. Ijtimoiy himoya - ayrim ijtimoiy guruhlariga har tomonlama yordam berish uchun yo'naltiriladigan davlat tadbirlari yig'indisi. Ijtimoiy himoya iborasi keng mahnoda va tor mahnoda qo'llaniladi. **Keng mahnoda** mamlakat aholisi ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini tahminlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui tushuniladi. **Tor ma'noda** esa, davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli tahminlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rligidir. Masalan, kompensatsiya, turli yangilliklar. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi mavjud iqtisodni, ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqqan holda aholining moddiy va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan qismini himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmuini qamrab oladi. Kuchli ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'lining yetakchi tamoyillaridan biridir.

Ijtimoiy yordam – qariligi, sog'ligi, ijtimoiy axvoli, tirikchilik uchun yetarli vosita bilan tahminlanmagani tufayli yordamga muhtoj fuqarolar to'g'risida davlat va jamiyatning g'amxo'rliligiga ijtimoiy yordam deyiladi. Bu yordam pensiyalar, nafaqalar to'lash, kam tahminlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish, 16 yoshgacha farzandi bo'lgan, kam tahminlangan oilalarga oylik nafaqa to'lash, bemorlar va keksalarga xizmat ko'rsatish, bolalarga g'amxo'rlik qilish ko'rinishida amalga oshiriladi. Mehnatga layoqatsizlarni moddiy ta'minlashning qathiy kafolatli tizimi **ijtimoiy sug'urta** deyiladi. Bu tizim davlat tomonidan joriy etiladigan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan keksalar, mehnatga layoqatsizlarni ta'minlash, yordam ko'rsatish tizimidir.

Ijtimoiy tahminot – keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo'lgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi bo'lib, ijtimoiy himoyaning muhim tarmog'i hisoblanadi. Ijtimoiy tahminot to'g'ridan-to'g'ri davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar, homiylarning mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to'lovlari ijtimoiy tahminotning eng muhim turlari hisoblanadi⁸⁵.

Ijtimoiy himoyani amalga oshiradigan manbalar: 1) davlat byudjeti, 2) ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, 3) korxona va jamoat tashkilotlari mablag'laridan tashkil topadi. 4) Aholini ijtimoiy himoya qilish masalalarini hal etish bo'yicha xayriya jamg'armalari ishtiroki ham mavjud. O'z.Resining 2010 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan ijtimoiy himoya tizimining yagona kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Unda respublikada mavjud bo'lgan ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordam tizimi, pensiya tahmini, bolalarga nafaqa, yolg'iz kishilarga xizmat ko'rsatish va boshqalar amalga oshirilishi belgilangan. Ijtimoiy himoya ob'ektiga: nogironlar, nafaqaxo'rlar, yosh bolalar, boquvchisini yo'qotgan oilalar, vaqtincha mehnat kobiliyatini yo'qotganlar, o'qituvchilar, talabalar va h.k.tashkil etadi. SHu boisdan ham 2007 yil "ijtimoiy himoya yili" deb belgilanishida katta ma'no mavjud.

2. Ijtimoiy adolat masalasi. Ijtimoiy adolat – jamiyatning demokratik rivojlanish darajasini, inson xuquq va erkinliklariga rioya qilish normalarini, millat hayot tarzining axloqiy timsolini belgilovchi davlat siyosati, aholining ijtimoiy jihatdan kam tahminlangan tabaqalari manfaatini ko'zlab milliy boyliklarni taqsimlash tartibidir. Prezidentimiz iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida ichki siyosatdagi 5 tamoyilning biri, uchinchi tamoyil jamiyat hayotida qonun ustuvorligi haqida to'xtalgan edi. Ijtimoiy yo'naltirilgan madaniy-mahriy bozor xo'jaligini tegishli xuquqiy jihatdan tahminlamasdan turib bunday xo'jalikni shakllantirish mumkin emas. Avvalo huquqiy davlatning elementlari: 1) qonun ustuvorligi; 2) qonun oldida Hammaning tengligi; 3) Hamma o'z ish faoliyatini qonun doirasida bajarishi; 4) hokimiyat organlarining bo'linishi tamoyiliga amal qiladi. Ijtimoiy adolatning 1) vazifasi ijtimoiy munosabatlarning insonparvarligini ta'minlash; 2) guruh tabaqalarning manfaatini himoya qilish. SHarq mutafakkiri Nosiriddin Tusiy ijtimoiy adolatning 3 ta asosiy talabini bayon etib: 1) aholi

⁸⁵ Jumaev SH., SHodiev F. Ijtimoiy ximoya – adolat mezonini // Mahrifat, 2007 yil 17 yanvar.


turli tabaqalarining o'zaro uyg'un bo'lishini ta'minlash; 2) teng tahminlangan fuqaro salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqish lozim; 3) har bir inson himoya qilinib, o'z ulushiga ega bo'lishi kerak, degan edi. Prezident Islom Karimov. Adolat talablari: 1) aholining, qashshoqlanishiga yo'l qo'ymaslik; 2) halol mehnat qilishi uchun imkoniyat yaratib berish, 3) raxbar kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish kerak.

3. Ijtimoiy kafolat masalasi - frantsuzcha tahminot mahnosini bildiradi, kafolat - insonning, jamiyatning demokratiya va hukuqiy davlat tomon rivojlanish jarayonida qo'lga kiritilgan yutuqlardan biri. Bu albatta aholini ish bilan tahmin etish, yangi yangi korxonalarni ishga tushirib, mamlakatda ishsizlikning oldini olish, ish bilan tahminlanib ijtimoiy larzalarning oldini olishda asosiy vositadir, buning uchun mamlakatda demografik siyosat o'tkazish lozim bo'ladi.

O'zbekistonda pensionerlar soni 2 746 707 kishi, shu jumladan, 1 973 636 kishi yoshga doir, 546 706 kishi nogironlik, 226 365 kishi boquvchisini yo'qotganlar⁸⁶.

O'z mustaqilligini qo'lga kiritgan yildan boshlab O'zbekistonda inson huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan siyosat yuritilib kelinmoqda. Anu shu siyosatdan kelib chiqqan holda 1997 yildan boshlab har yil mamlakatimizda ma'lum bir nom bilan atalib, kuchli ijtimoiy siyosat olib borilmoqda.

⁸⁶ Xalq so'zi, 2007 yil 9 iyun.



2007 yil 23 yanvarda Prezident Islom Karimovning “Ijtimoiy himoya yili” Davlat dasturi to’g’risida”gi qarori qabul qilindi.

2007 yil martida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axolini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to’g’risida”gi farmoni aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo’llab-quvvatlash va ular uchun munosib turmush sharoitini ta’minlashga qaratilgan islohotlarning mantiqiy davomidir. 2007 yilda O’zbekistonda ijtimoiy maqsadlar uchun davlat byudjetidan ajratiladigan mablag’larning umumiy hajmi barcha byudjet harajatlarining 55 foizini tashkil etadi, bevosita kam tahminlangan oilalarga ijtimoiy yordam ko’rsatish uchun esa byudjetning 9 foiziga yaqin qismi (460 milliard so’m) sarflanadi (Jamiyat. 23 mart, 2007, №12.).

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida shaxsga qo’yiladigan talab ortib borganligi sababli, kishilar ilm o’rganadilar, kasb egallaydilar, zamonaviy texnika, texnologiyani o’zlashtiradilar, kompyuter yoki tilni o’rganish choralari ko’radilar. Bular shunchaki oddiy bir istak bo’lmasdan, bugungi zamon talabi darajasidagi imkoniyatlar ochadi, erkin faoliyatni tahminlaydi. SHu talablarga javob bera oladigan insonlar hayotda o’z o’rinlarini topib oladilar.

3. Ijtimoiy himoya tizimining jahon tajribasi

Albatta, muammolar ham mavjud. Jahon tajribasi bilan qiyoslaganda, avvalo, mehnatkashlar manfaatlarini himoya qiladigan nodavlat tashkilotlar faoliyatini qayta ko'rib chiqish lozim. Xususan, kasaba uyushmalari rivojlangan mamlakatlarda xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish uchun korxona egalari, ish beruvchilarga doimo tahsir o'tkazib keladilar. Bizda esa hali bunday tajriba mavjud emas. Birinchi navbatda jamoat tashkilotlari, xususan kasaba uyushmalari faoliyatini tubdan yaxshilash, ularni mehnatkashlar manfaatlarini himoya qiluvchi kuchga aylantirish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Birinchi, Yevropa va Amerika davlatlari tajribasida ko'rilgan “falaj qilib davolash” yo'li yo'q. Ko'pgina mamlakatlar ushbu «tezkor» yo'lni tanlamadilar. Bu mamlakatlarda mustahkam qonunlar majmui ishlab chiqilmasdan, jamiyatni demokratlashtirishga o'tildi. Oqibatda bu o'z navbatida ko'plab murakkab muammolarni keltirib chiqardi.

QISQACHA XULOSA

Xullas, mustaqillik yillarida O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos tajribasi va anhanalari to'plangan. Bunda «inson – jamiyat - davlat» munosabatlari, inson omili belgilanib turadi. SHu mahnoda O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini zamon talablariga mos tarzda takomillashtirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud va ular mamlakatda demokratik jamiyatning qurishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Muxokama uchun savollar.

1. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishida “Adolat”, “tenglik” tushunchalarini yangicha idrok etish nima uchun zarur?
2. Demokratik jamiyatda adolat va ijtimoiy himoyaning mushtarakligi mavjudmi?
3. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy himoya siyosatining mazmun va mohiyatini gapirib bering?
4. Prezident Islom Karimov asarlarida, mahruza va nutqlarida ijtimoiy adolat, ijtimoiy himoya va ijtimoiy kafolat masalalari qanday ifoda qilib berilgan?
5. Ijtimoiy adolat printsiplarini bayon eting?
6. Ijtimoiy kafolat nima?
7. Ijtimoiy himoya tushunchasiga bo'lgan qanday turlicha munosabatlar mavjud?

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: «O'zbekiston», 2007. —10–12, 28–29b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonuni, 1999 yil 14 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, 1993 yil 1 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni, 1998 yil 23 aprel.
5. Karimov I.A. O'zbekiston— bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yuli. T.1. — T.: «O'zbekiston», 1996. 290-295-b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid: barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. — T.: «O'zbekiston», 1997. —163-174, 182-186-b.
7. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasidagi mahruzası. «Xalq so'zi», 2002 yil 30 avgust.
8. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va havfsizligi uz kuch-kudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bogliq. — T.: «O'zbekiston», 2004.

9. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish - har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 285–312-b.
10. Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezoni bo'lsin. Surxondaryo viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. –313–337-b.
11. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. –156–223-b.
12. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.14. – T.: O'zbekiston, 2006. – 61–97, 139–153, 248–265-b.
13. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoitini yaratish – asosiy vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2007. – 11-b.
14. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 48 b.
15. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayot garovidir. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2007. – 64 b.
16. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – T.15. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 3-11, 154-211-241-251-b.
17. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 48 b.
18. Rahimov I., Zohidov A., Azizov SH., Ayupov A. va boshq. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. -T.: «Universitet», 2001. 232-bet.
19. Pugachev V.P., Solovg'ev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 202-255-betlar.
20. O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T.: «O'qituvchi», 2004, 3-44-betlar.
21. Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. T.: Toshkent Moliya instituti, 2004, 3-180-betlar.
22. SHarifxo'jaev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. – T.: SHarq, 2005. – 240 b.
23. Aliev B., Hoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot nashriyoti», 2005. – 160 b.
24. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: "SHarq", 2006. – 528 b.
25. Umarov B. Globallashtirish ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlari. – T.: "Ma'naviyat", 2006. – 160 b.
26. To'xliiev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" davlat ilmiy nashr., 2006. – 280 b.
27. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 204 b.

MAVZU: FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH. AXBOROT SOHASINI ISLOH QILISH, AXBOROT VA SO'Z ERKINLIGINI TA'MINLASH.

1. Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi, uning tuzilishi va tarkibi, demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirilishi.

O'zbekistonda keyingi o'n yilda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari jadal shakllandi va rivojlandi. Ular mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. SHuning uchun ham fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati borgan sari oshib bormoqda. CHunki ular demokratik qadriyatlar, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanib bormoqda, fuqarolarning o'z iqtidorlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatimizda turli manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanib borgan sari ularning davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi faolligi yanada kuchayib bormoqda. Aytish mumkinki, jamoatchilik nazoratining tahsirchanligi bois kishilar qalbida va ongida jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan tub ijobiy o'zgarishlarga nisbatan kechayotgan xayrixohlik va birdamlik kayfiyati faollashmoqda.

Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustaxkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir.

Islom Karimov

Jamiyat va uning ahzolari davlatga nisbatan ustunlikka ega bo'lishi fuqarolik jamiyatining shakllanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayondir. Agar "jamiyat" tushunchasini makonu zamonda mavjud bo'lgan, turmush tarzi va manfaatlarini mushtarak bo'lgan insonlarning o'zaro aloqadorligini ifodalovchi birlik deb tushunsak, "fuqarolik jamiyati" esa ana shunday jamiyatning rivojlanishida ma'lum sharoitlar ostida qaror topadigan uning yuqori bosqichidir. Agar "jamiyat" tushunchasi tarkibiga, masalan, davlatning ham kirishini unutmasak va ayni vaqtda "fuqarolik jamiyati" tushunchasi tarkibida davlatning mavjud emasligini anglasak, "jamiyat" va "fuqarolik jamiyati" tushunchalarining teng hajmli emasligini, ularning turlicha mahno kasb etishini ko'rishimiz mumkin. *Fuqarolik jamiyati* – bu yuksak fazilatlariga ega bo'lgan insonlar jamiyatidir. Fuqarolik jamiyati – bu shunday ijtimoiy tuzumki, unda qonun ustuvorligi tahminlanadi, inson huquqlari va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi tahminlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqei yuksak bo'ladi. Mamlakatning har bir fuqarosi fuqarolik institutlari faoliyatlarida keng ishtirok etadi va ular orqali siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan o'z ehtiyojlarini qondiradi. Fuqarolik jamiyatida davlat va uning organlari faoliyati ustidan fuqarolarning *jamoatchilik nazorati* o'rnatiladi. Davlatning bir qator vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi. Aytish mumkinki, fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o'tish orqali ro'y beradi. Mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" dasturi asosida davlatning ayrim vakolatlarini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirish jarayoni kechmoqda.

SHu o'rinda fuqarolik jamiyati to'g'risidagi tasavvurlar rivojiga qisqa nazar solaylik. "Fuqarolik jamiyati" tushunchasi ilk bor Qadimgi Gretsiya va Rimda vujudga kelgan. Fuqarolik jamiyati haqidagi dastlabki fikrlar Aristotelning "Siyosat" asarida yoritilgan. Uning fikriga ko'ra, insonning erkin yashashi uchun jamiyatda qonunlar ustuvor bo'lishi lozim. SHu bilan birga, ana shunday ustuvor qonunlar adolatli bo'lishi ham kerak. Bu g'oyalar XVII asrga kelib yanada

rivojlandi. Jumladan, ingliz faylasufi T. Gobbs asarlarida rivojlantirildi. XVIII asrda ro'y bergan Buyuk frantsuz inqilobi bois "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi"ning ehlon qilinishi orqali fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi. Kant, Russo, Gegelg' singari taniqli mutafakkirlarning ilgari surgan fikrlari fuqarolik jamiyatining keng mohiyati va yangi qirralari ochib berdi.

SHarqda fuqarolik jamiyati tushunchasiga nisbatan o'ziga xos talqinlar mavjud. Bu odob-axloq, madaniyat va huquqning uyg'unlashgan shakli bilan bog'liq. Jumladan, qadimiy yodgorlik bo'lmish "Avesto"da kishilarning birgalashib yashashi, insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning axloq normalariga tayanishi kabi g'oyalar oldinga surilgan. Abu Nasr Forobiyning asarlarida, xususan, uning "Fozil odamlar shahri" asarida davlatni boshqarishda adolatli qonunlarga tayanish lozimligi uqtiriladi. Forobiyning yozishicha, fozillar shahrining boshlig'i tabiatan o'n ikkita xislat-fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi, xususan, "u haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur"⁸⁷. Bu kabi g'oyalar Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, MuHammad Xorazmiy, Amir Temur kabi buyuk sharq donishmandlari tomonidan ham ilgari surilgan.

Fuqarolik jamiyati tushunchasini bugungi zamonaviy talqini uzoq tarixiy taraqqiyot mahsulidir. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish tarixiy anhana bo'lsa-da, u to'laligicha milliy anhanalar va jahondagi ilg'or davlatlar tajribasining sintezi sifatida, ya'ni erkinlik va axloq, ozodlik va tarbiya, qonunga itoatkorlik va siyosiy-huquqiy faollikning uyg'unligi sifatida dunyoga kelmoqda. Fuqarolik jamiyati uzoq muddatni oladigan jarayondir.


"Fuqarolik jamiyati" tushunchasi keng va tor mahnolarda qo'llanadi. Fuqarolik jamiyati keng mahnoda jamiyatning shunday qismini bildiradiki, bu qismda davlat va uning tuzilmalari bevosita qamrab olinmagan bo'ladi. Fuqarolik jamiyati tor mahnoda, ya'ni o'z mahnosida huquqiy davlat bilan bevosita bog'liq. SHu mahnoda, fuqarolik jamiyati huquqiy davlatsiz mavjud bo'lishi mumkin emas va aksincha, huquqiy davlatni fuqarolik jamiyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Fuqarolik jamiyatida davlat organlarida bo'lgani singari, biri ikkinchisiga bo'ysunadigan, ya'ni vertikal (tik) munosabatlar emas, balki gorizontal (yotiq) munosabatlar yetakchilik qiladi. Boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyatida erkin va teng huquqli hamkorlik hukmronlik qiladi.

Fuqarolik jamiyatining ichki tuzilmasida mazkur jamiyat elementlarining xilma-xilligi ko'zga tashlanadi. Hozirgi zamon fuqarolik jamiyatining tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat: fuqarolik jamiyatining iqtisodiy tashkiloti (1), fuqarolik jamiyatining ijtimoiy tashkiloti (2) va fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tashkiloti (3). Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan fuqarolik jamiyati institutlarini quyidagicha tasniflash mumkin (2.5.1-rasm):

Fuqarolik jamiyati institutlari jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi, xususan, ular turlicha ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalaydi, fuqarolarning faolligini oshiradi, mamlakatda ro'y berayotgan turli demokratik o'zgarishlar ko'lamini keng yoyishda muhim omil sanaladi, jamoatchilik nazoratini yuzaga keltiradi, huquqiy ong va madaniyatni shakllantiradi, huquqiy davlat barpo etishda katta hissa qo'shadi.

⁸⁷ Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shaxri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. 160-b.



2. Fuqarolik jamiyati institutlarining tasnifi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy asoslari. Fuqarolik jamiyati institutlarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishining huquqiy asoslarining o'zagi sifatida dastavval **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini** tilga olish o'rinlidir. Prezidentimiz iborasi bilan aytganda, "mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq Konstitutsiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy printsiplarning mustahkamlab qo'yilishi barcha

aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi”⁸⁸.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi jamoat birlashmalari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslariga bag‘ishlangan. Mazkur bobda jamoat tashkilotlarining turlari, faoliyat ko‘rsatish tartibi, ularning davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslariga nisbatan mustaqil ekanligi kabi printsiplar mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, Konstitutsiyaning 56-moddasida belgilanganidek, “O‘zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida ehtirol etiladi”.

Fuqarolar yig‘ini birinchi marta o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida Konstitutsiyada ehtirol etildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida ushbu huquqiy norma belgilandi:

“SHaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

O‘zini o‘zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi”.

1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan **“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun** qishloq, shaharcha va ovullarda va ular tarkibidagi mahallalarda tuziladigan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqiy holatini belgilab berdi. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari – bevosita fuqarolar tomonidan saylanadigan organlardir.

SHu ma‘noda, 1992 yil dekabr oyida qabul qilingan, mamlakatimizning demokratik taraqqiyotini ta‘minlash va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy printsiplarini belgilab bergan Konstitutsiyamizning qoida va normalariga tayanish aloxida a‘xamiyat kasb etadi.

Islom Karimov

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida xizmat qilayotgan qonunlardan quyidagi bahzilarini tilga olishimiz mumkin: **“O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonun, “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonun, “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi Qonun, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonun.**

Mazkur huquqiy asoslarning yaratilishi nafaqat mamlakatimiz milliy qonunchilik tizimida jamoat tashkilotlarining faoliyatiga oid ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning mustaqil sohasining yuzaga kelishiga olib keldi, balki, unga tizimlilik tusini berdi. Yuqoridagilar bilan birga, jamoat tashkilotlarining huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq masalalar o‘z ichiga konstitutsiyaviy, fuqarolik, mahmuriy, jinoiy huquq normalarini qamrab oluvchi butun qonunchilik tizimining shakllanishiga ham imkoniyat tug‘dirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 34-moddasi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega ekanini ehtirol etish bilan birga, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emasligini belgilab qo‘ygan. Asosiy Qonunning 12-moddasida O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va

⁸⁸ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi mahruza), “Xalq so‘zi”, 2010 yil 13 noyabrg‘ (№ 220), 4-b.

fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi hamda hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy tamoyil o'z ifodasini topgan.

Birlashishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquq yoki xalqaro hujjatlar terminologiyasi bilan aytganda, boshqalar bilan birga muayyan assotsiatsiyalarga uyushishga bo'lgan huquq o'z ichiga: fuqarolarning umumiy manfaatlarini himoya qilish va umumiy maqsadlarga birgalikda erishish asosida ixtiyoriy ravishda tuziladigan jamoat tashkilotlarining tashkil etish huquqini hamda mavjud jamoat tashkilotlariga kirish yoki undan chiqish huquqini qamrab oladi.

Muayyan jamoat tashkiloti faoliyatida qatnashish yoki qatnashmaslik har bir fuqaroning shaxsiy ishi hisoblanadi. Fuqarolarni jamoat tashkilotiga ahzo bo'lib kirishga majburiy tarzda undash yoki undan chiqishga to'sqinlik qilish huquqqa zid faoliyat deb tan olinadi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 18-moddasida O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, ehtiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qathiy nazar, qonun oldida teng ekanliklari belgilab qo'yilgan.

Asosiy Qonunning 35-moddasida har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega ekanligi ehtirol etilgan.



3. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda nodavlat va jamiyat birlashmalarining o'ri.

SHu bilan birga, jamoat tashkilotlariga uyushish erkinligi muayyan chegaralar

doirasida amalga oshiriladi. Bunda mazkur huquqdan jamiyatga qarshi maqsadlarda foydalanish mumkin emas. SHu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan, "Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyatini hamda maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi"⁸⁹.

Jamoat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasidagi ijobiy jarayonlarning tamal toshi sifatida 1991 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunni ko'rsatib o'tish mumkin. Mazkur qonunda ilk marotaba jamoat birlashmasi (tashkiloti) institutiga huquqiy tahrif berilishi bilan birga, uni tashkil etish maqsadi, faoliyati printsiplari hamda huquq va majburiyatlar doirasi belgilab berildi. Qonunda belgilab qo'yilgan shakllardagi har qanday jamoat tashkilotini kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuzish tartibi mustahkamlab qo'yildi⁹⁰.

Ushbu qonunga mustaqillik yillarida kiritilgan bir qator o'zgartishlar barobarida jamiyatda olib borilayotgan islohotlarga hamohang tarzda jamoat tashkilotlarining huquq va majburiyatlari doirasi ham kengayib bordi. Qonunga binoan, ular o'zlarining ichki tuzilmasini, maqsadi, faoliyat olib borish shakli va usullarini tanlashda hamda ustavlarini qabul qilishda mustaqil ekanliklari belgilab qo'yildi.

Jamoat tashkilotlari manfaatlariga daxldor bo'lgan masalalar davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tegishli jamoat tashkilotlarining ishtiroki yoki kelishuvi asosida hal etiladigan bo'ldi. SHu bilan birga, davlat jamoat tashkilotlarining qonuniy manfaatlari va huquqlariga rioya etilishini ta'minlashi, ularning faoliyatiga har tomonlama ko'maklashishi, xususan, soliq va boshqa masalalarda imtiyozlar berishi lozimligi belgilab qo'yildi.

So'nggi yillarda "**Jamoat fondlari to'g'risida**"gi Qonun va "**Homiylik to'g'risida**"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi qarori va boshqa tegishli hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati institutlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil vositasini o'tamoqda (2.5.2-rasm).

Respublikamizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining yanada jadal rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining "**Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi qo'shma qarori muhim ahamiyat kasb etdi. SHuni ham aytish kerakki, Prezidentimiz o'z mahruzasida ta'kidlaganidek, Oliy Majlis huzurida Jamoat fondi va Parlament komissiyasi tashkil etilgan. Bu ikki tuzilmaning faoliyati ham samarali kechmoqda. Masalan, faqat keyingi uch yilning o'zida fuqarolik institutlari taqdim etgan ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish maqsadida Jamoat fondi tomonidan 11 mlrd. so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

O'zbekistonimiz bosib o'tgan keyingi o'n yillik davr axolimizning keng qatlamlari qo'llab-quvvatlaydigan turli xil fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning jadal shakllanishi va rivojlanishi davri bo'ldi.

Islom Karimov

⁸⁹ Qarang: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 40-bet.

⁹⁰ Qarang: O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991. –№4. –76-modda

Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan Parlament komissiyasi o'z tarkibida nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat tashkilotlarining vakolatli vakillari bilan birga deputatlar moliyaviy tuzilmalarning mashul xodimlarini birlashtirgan. Mazkur komissiya fuqarolik institutlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'larni ochiq, aniq va oshkora yo'naltirishni, bu mablag'larni demokratik asosda taqsimlashni amalga oshiradi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri – bu nodavlat va jamoat tashkilotlarini rivojlantirishdir. Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilot (NNT)larining soni 5100 dan ortiqdir. Agar bu ko'rsatkichni 2000 yildagi holat bilan qiyoslasak, ularning soni ikki yarim baravarga ko'payganligini ko'ramiz. Nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyati institutlari tizimida markaziy o'rin tutadi. SHuning uchun ular faoliyatini rivojlantirish, ularning mustaqilligini to'la ta'minlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan **“Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida”gi Qonunning** qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu qonunni qabul qilishdan maqsad quyidagilarda ifodalanadi:

1. NNTlarini yanada rivojlantirish;
2. ularning mustaqil ish yuritishini ta'minlash;
3. ularning chinakam mustaqilligini ta'minlash;
4. ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
5. ular faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;
6. ular faoliyatini moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish.

Nodavlat notijorat tashkilotlarini *“uchinchi sektor”* deb ham ataydilar. SHu o'rinda aytish kerakki, *“birinchi sektor”* deyilganda davlat va *“ikkinchi sektor”* deyilganda tijorat sektori (yoki shaxsiy sektor deb ham atashadi) nazarda tutiladi. Respublikamizda nodavlat notijorat tashkilotlariga oid milliy assotsiatsiya uyushmasi mavjud.

Ma'lumki, har qanday tashkiliy tuzilmaning mohiyati va mazmuni u olib boradigan funktsiyalar va faoliyat yo'nalishlarida yorqin ifodalanadi. Jamoat tashkilotlarining funktsiyalari ham ularning jamiyat hayotiga nisbatan muayyan faoliyatni amalga oshirishlari orqali tahsir ko'rsatishlarida namoyon bo'lishi shubhasiz.

Jamoat tashkilotlarda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning samarasi va davomiyligini ta'minlash borasidagi faoliyatni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil etish mumkin:

Birinchidan, fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy instituti hisoblanadigan jamoat tashkilotlarining birlamchi va asosiy funktsiyasi, ularning davlat hokimiyatini muayyan darajada chegaralash, ya'ni davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ekanligini ehtirot etish joiz. Aytish mumkinki, jamoat tashkilotlarining roli aynan demokratik jarayonlarning rivojlanish davrida uni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashda ko'rinadi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonida siyosiy partiyalar muhim funktsiyalarni amalga oshiradilar. Siyosiy partiyalarning asosiy funktsiyasi alohida olingan fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini birlashtirib, ularni siyosiy manfaatlar majmuasi darajasiga ko'tarish, shuningdek, bu uyg'unlashgan manfaatlarining jamiyat uchun bir xilda ahamiyat kasb etishini tahminlay olishdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar mavjud konstitutsiyaviy huquq mehyorlari doirasida, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklariga daxl qilmagan holda shakllanib kelayotgan siyosiy jarayonlar va munosabatlar tamoyillari doirasida muqobil siyosiy yo'llarni ifoda etuvchi vosita sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Har bir partiyaning o'z dasturi va maqsadlariga mos ravishda nazariy, mafkuraviy, siyosiy va tashkiliy funktsiyalari bo'lib, ular partiya faoliyati va ichki hayotining ajralmas qismidir.

Uchinchidan, jamoat tashkilotlarining eng ommaviy shakllaridan biri hisoblangan kasaba uyushmalari jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga sezilarli darajada tahsir o'tkazadilar. Ta'kidlash

joizki, ushbu institutning ijtimoiy jarayonlardagi tahsiri faqatgina mehnat munosabatlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki undan ham kengroq doiraga qaratilgan.

Kasaba uyushmalarining ijtimoiy yo'naltirilgan funktsiyalarining mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. jamiyatning integratsiyalashuviga erishish;
2. ishlab chiqarish demokratiyasini rivojlantirish orqali fuqarolik jamiyatini shakllantirish;
3. davlatning ijtimoiy sohadagi siyosatini rivojlantirishga ko'maklashish;
4. jamiyatning mehnat potentsiallarini saqlash va rivojlantirish;
5. bozor munosabatlari rivojlantirish, mehnat bozorini takomillashtirish;
6. jamiyatda inson qadr-qimmatini oshirish va mehnat odatlarini rivojlantirish.

Mamlakatimizda ijtimoiy voqelikning jadal surhatlarda rivojlanib borishi, jamiyatda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar fuqarolik jamiyatining asosiy institutlarining yangi funktsiyalarini shakllanishiga olib kelmoqda.

Hozirgi kunda deyarli barcha jamoat tashkilotlari mamlakatni demokratik yo'nalishda rivojlantirish, muayyan sohalar yuzasidan insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish kabi masalalarga o'zlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari sifatida qaramoqdalar. Jamoat tashkilotlariga birlashgan fuqarolar ular orqali o'zlarining turli xil manfaatlari va huquqlarini amalga oshirishni ko'zlaydilar. Bunday sharoitda jamoat tashkilotlari oldiga fuqarolarning davlat ishlarini amalga oshirishda ishtiroklarini ta'minlash hamda ularning mavjud qonunchilikka nisbatan ijobiy munosabatlari shakllantirish va shu orqali ularni qonunga itoatkor shaxs sifatida tarbiyalash kabi yangi vazifalar qo'yilmoqda.


Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida insoniyat oldiga muayyan maqsad va vazifalarning qo'yilishi hamda yangidan-yangi muammolarning yuzaga kelishi o'z navbatida, jamoat tashkilotlari faoliyat yo'nalishlarining o'zgarib borishi, o'z-o'zidan uning o'zgacha mohiyat kasb etishiga olib keladi. Binobarin, jamoat tashkilotlari bugungi kunda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonining ajralmas va zaruriy bo'g'iniga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda ularning funktsiyalari doirasi kengayib borishi hamda turli xil shakllarda namoyon bo'lishi ob'ektiv xususiyatga egadir.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblangan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan biri – mahallaning o'zni beqiyosdir. Mahalla – bu sharqona “demokratiya darsxonasi”. O'zbekistonda fuqarolar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalarning soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. “Mahalla” so'zi arabcha “mahallun” so'zidan olingan bo'lib “joy”, “hudud” mahnolarini bildiradi. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng mahalla faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi. Bunda mahallalar hayoti bilan bog'liq ko'p masalalar bilan bir qatorda mahalla oqsoqolini saylash tartiblari ishlab chiqildi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi mamlakatimiz hayotida muhim o'rin tutadi. Bu saylov demokratiya, oshkorlik va teng saylov huquqi asosida o'tkaziladi.

Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla)ning o'zni beqiyosdir. Chunki boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqimizning urf-odatlarini, anhanalari va qadriyatlarini saqlab qolish, ularni jipslashtirish kafolati sifatida maydonga chiqayotganligini yaqqol ko'rib turibmiz (2.5.3-rasm).

Mahalla o'zini o'zi boshqarish organlarining eng yorqin ko'rinishi, ayni paytda fuqarolik jamiyatining asosi va tayanchi deb tan olinganligi bilan ham o'zining yuksak mavqeiga ega. Mustaqillik yillari mobaynida jamiyatdagi boshqaruv tizimlarini isloh qilish, davlat vazifalarini jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, ya'ni kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish borasidagi ishlar izchil davom ettirib kelinmoqda.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – *mahalla* faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu vazifani hal qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan taklifni ilgari surar ekan, bunda mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy ehtibor qaratish lozimligini alohida ta'kidlab o'tdi. SHu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrg' kuni bo'lib o'tgan qo'shma yig'ilishidagi mahruzasida "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini tahminlaydigan chora-tadbirlarni nazarda tutadigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif qilinadi.



Statistik ma'lumotlar va faktlar

Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari vakolat muddati tugashi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasiga, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 20-moddasiga hamda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga muvofiq 2008 yilning noyabrg'–dekabrg' oylarida mamlakatimizda fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovi o'tkazildi. Uning natijalarini tahlil qilish shundan dalolat beradiki, saylov tadbirlarida hovlilar, uylar, ko'chalardan jami 576509 nafar vakil 18 million nafardan ortiq saylovchi nomidan qatnashdi. Saylov 10124 ta

fuqarolar yig'ida (2006 yilda ular 9941 ta edi), shu jumladan, 101 ta shaharcha, 1333 ta qishloq, 154 ta ovul fuqarolar yig'ida, 8536 ta mahalla fuqarolar yig'ida bo'lib o'tdi.

Saylov natijasida fuqarolar yig'inlari raislarining (oqsoqollarining) va ularning maslahatchilarining sifat tarkibi yaxshilandi. Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) etib saylanganlar orasida oliy mahlumotlilar (asosan iqtisodchilar, yuristlar va pedagoglar) 6119 nafarga yetdi (60,4 foiz). Raislar (oqsoqollar) umumiy sonining 32,5 foizini yoki 3287 nafarini o'rta maxsus mahlumotlilar tashkil etadi. Fuqarolar yig'inlari raislari orasida xotin-qizlar ko'paydi: agar ular 2006 yilda 981 nafarni yoki 9,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2008 yilda bu ko'rsatkich 1160 nafarga yoki 11,5 foizga yetdi. Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) etib saylanganlarning 4263 nafari (42,1 foizi) yoshi 50 ga yetmaganlar bo'lib, ularning 806 nafari (umumiy miqdorning 8 foizi) 40 yoshga to'lmagan shaxslardir.

4. Demokratik jamiyat shakllanishida maxala va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari.

Fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish – dolzarb vazifa. Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarining tahminlanishini amalda keng va to'la ro'yobga chiqarish maqsadida tashkil etilgan va shu yo'lda faoliyat yuritayotgan Inson huquqi bo'yicha Oliy Majlis vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi bir qator milliy institutlar va tashkilotlar qatorida fuqarolik jamiyati institutlarining yanada kengroq tarkibini yaratish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, "Sog'lom avlod uchun" va "Nuroni" jamg'armalari, "Ijod" fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlari samarali faoliyat yuritmoqda. Biroq shu va shunga o'xshash fuqarolik institutlarining faoliyatini yanada jonlantirish va rivojlantirish hozirgi kunning o'ta muhim vazifalaridan biridir. Bunday dolzarb vazifaning bajarilishi yo'lida bir qator amaliy ishlar qilindi. Fuqarolik jamiyati institutlarining rolini va ahamiyatini oshirishga hissa qo'shayotgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi. Biroq bu yo'lda qilinadigan ishlar hali talaygina. Chunki bunday vazifalarning dolzarb ahamiyat kasb etishi hech kimga sir bo'lmagani holda ularning so'zsiz ijobiy yechimi hayotiy zaruriyatdan o'zga narsa emas. Chunki mohiyat ehtibori bilan fuqarolik jamiyati davlatni va uning organlari faoliyatini nazorat qiladi. Shuning uchun ham u zarurdir. Bu zarurat ma'lum asoslar mavjud bo'lgan taqdirdagina o'z hayotiy ifodasini topishi mumkin. Jamoatchilik nazorati kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, istehmolchilarning uyushmalari va shu kabilar orqali amalga oshiriladi. Bular xalqning davlat hokimiyati bilan o'zaro muloqotini tahminlab beruvchi "ko'pri"dir. Bunday ko'priknining mavjud bo'lishi va uning yaxshi taraqqiy etishi demokratik, huquqiy davlat qurishni maqsad qilgan jamiyat uchun juda muhim vazifa, chunki xalqning davlat hokimiyati bilan o'zaro muloqotining yo'lga qo'yilishi demokratiya uchun asosiy omil hisoblanadi. Lekin bunday muloqotning yo'lga qo'yilishi ancha qiyin masala. Bu borada davlatning ham, jamoatchilikning ham faolligi zarur. Mamlakatimiz rahbarining ilgari surgan takliflari ana shunday zaruriyatning davlat tomonidan amalga oshirilayotgan hayotiy ifodalaridan biridir.

Mamlakatimiz Prezidenti ilgari surgan takliflardan biri – bu **"Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunni** qabul qilish taklifi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo'yicha huquqiy normalar ko'zda tutilishi darkor. Ushbu qonunning qabul qilinishi jamoaviy mehnat nizolarini hal etishga hissa qo'shadi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ko'maklashadi, xodimlarning mehnatga doir huquqlarining samarali kafolatlanishiga xizmat qiladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – *mahalla* faoliyatini yanada rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mahallalar faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada

takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash zarur. SHu munosabat bilan amalda bo'lib kelayotgan **“Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish** talab etiladi. Kiritiladigan o'zgartish va qo'shimchalarda ushbularga alohida ehtiborni qaratish lozim bo'ladi:

1. aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda mahallaning aniq yo'naltirilgan faoliyatini belgilash;
2. mahallaning xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish sohasidagi vazifalarini aniqlash;
3. mahallaning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirish.

SHu o'rinda **“Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish** ehtiyoji mavjud ekanini ta'kidlash o'rinlidir. Bunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish talab etiladi. Oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar orasidan saylanishi darkor. SHu bilan birga fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning rolini va ahamiyatini oshirishga erishish lozim.

Yurtimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik institutlari rolini yanada kuchaytirish fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratlashtirish va mamlakatimizning jaxon xamjamiyatiga integratsiyalashuvi bo'yicha o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizni ro'yobga chiqarishda xech bir mubolag'asiz xal qiluvchi omil ekanini, o'ylaymanki, kimgadir uqtirib o'tirishga zarurat bo'lmasa kerak.

Islom Karimov

SHuning uchun ana shu maqsadlarga erishishga zamin hozirlaydigan tegishli chora-tadbirlarni tahminlab beradigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda va taklif etilmoqda.

“O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida” Qonun qabul qilinishi kerak. Bu qonunning maqsadi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari

tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan fuqarolik jamiyati institutlarining nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratish bo'lishi lozim. Taklif etilayotgan qonunda quyidagilar belgilab qo'yilishi darkor:

1. jamoatchilik nazoratining turlari;
2. jamoatchilik nazoratining shakllari;
3. jamoatchilik nazoratining sub'ektlari;
4. jamoatchilik nazoratining predmeti;
5. jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari;
6. mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlari va boshqalar.

Fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish bilan bevosita bog'liq bo'lgan masalalardan biri – inson huquqlari va erkinliklarining samarali tahminlanishi masalasidir. SHu munosabat bilan **Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish** dolzard ahamiyat kasb etadi. Ushbu dastur, avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalariga alohida mashuliyat bilan yondashish lozimligini uqtirish bilan birga bu vazifaning qanday tarzda nazoratga olinishini ham ko'rsatib beradi. Bunda tegishli organlarning inson huquqlari sohasida himoyani qanchalik yo'lga qo'yganini aniqlash maqsadida jamoatchilik monitoringining amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Dastur aynan ana shu sohada chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga olishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Mahmuriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga jamiyat va davlat qurilishi, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli sohalarida nodavlat notijorat tashkilotlari huquqlarini belgilab bergan qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun

davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirishni nazarda tutuvchi tegishli normalar kiritilishi fuqarolik jamiyati barpo etilishining asosi bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

SHu bilan birga, nodavlat notijorat tashkilotlarining quyidagi masalalar yuzasidan ham faol ishtirokining asoslarini ko'zda tutuvchi qonun hujjatlari majmuini ishlab chiqish lozim:

1. sog'liqni saqlash masalalari;
2. atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari. Bu sohada nodavlat notijorat tashkilotlarining roli va o'rini belgilab beruvchi **“Ekologik nazorat to'g'risida”gi Qonun** loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish kerak.
3. aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash masalalari;
4. ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash masalalari;
5. katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mamlakatimizning hozirgi taraqqiyotida fuqarolik jamiyati institutlari rolini yanada kuchaytirish fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratlashtirish va mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bo'yicha qo'ygan maqsadlarimizga yetishishda hal qiluvchi omil bo'lib qoladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining tabiatni muhofaza qilish borasidagi faoliyatlarini amalga oshirishda *ekologik nazorat* muhim o'rin tutadi. Ekologik nazoratni amalga oshirish jamoat tashkilotlari ekologik funktsiyasining tarkibiy qismidir. Ekologik-huquqiy mexanizmning ushbu funktsiyasi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilish borasida jamoat tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishning zaruriy elementi sifatida yuzaga kelgan.

Ekologik nazoratning maqsadlari ekologik xavfsizlikni ta'minlash xo'jalik yoki boshqa faoliyatning inson hayoti va sog'lig'iga, atrof muhitga zararli tahsir ko'rsatishining oldini olish hamda bartaraf etishdir. Ular turli tashkiliy-huquqiy usullar bilan amalga oshiriladi. Quyidagilar shular jumlasiga kiradi: atrof tabiiy muhit hamda uning alohida ob'ektlarining holatini kuzatib borish; atrof muhitni muhofaza qilish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasidagi tadbirlarning bajarilishini tekshirish va umumlashtirish; ekologik qonunchilik normalari va talablarining ijrosini tekshirish; yuridik va jismoniy shaxslar yuritadigan ekologik zararli faoliyatning oldini olish, cheklash, to'xtatib qo'yish hamda tugatish yo'li bilan ekologik zararli faoliyatning oldini olish va uni baholash; tabiatdan maxsus foydalanish litsenziyalarida (ruxsatnomalarida), shartnomalarda aytib o'tilgan shartlarning bajarilishini tekshirish va litsenziya berish; ekologik qoida-talablarni buzgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan mahmuriy-huquqiy javobgarlik choralari qo'llash.

Ekologik nazorat ob'ektlari nuqtai nazaridan jamoat tashkilotlarining ekologik nazoratini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) atmosfera havosini muhofaza qilish;
- 2) yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish;
- 3) suvlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish;
- 4) o'rmonlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish.

Ekologik nazoratning maqsadlari hamda vazifalari atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasidagi davlat funktsiyasining umumiy vazifalariga hamohangdir. SHu bilan birga, ekologik nazorat ob'ektlari, shakllari va usullari o'ziga xos jihatlarga egadir.

SHuningdek, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va shu kabi katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha muhim davlat dasturlarini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining huquqiy asosini yaratib beradigan qonun hujjatlari majmuasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

5.Axborot erkinligini ta'minlash tushunchasi, mazmun-moxiyati, Axborot resurslaridan foydalanish mehanizimlarini rivojlantirish.

Istiqlol tufayli fuqarolarimizning dunyoqarashi, tafakkuri, huquqiy ongi va madaniyatida tub o'zgarishlar yuz berdi. Bugun O'zbekistonda boshqaruvni liberallashtirish davlat va jamiyatni modernizatsiya qilish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlari OAV faoliyatiga yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda. Mazkur masala, shubhasiz, fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri bo'lmish ommaviy axborot vositalari faoliyatini erkinlashtirish masalalariga borib taqaladi.

Har qanday jamiyatda axborot hamisha mamlakat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasining shakllanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qilib kelgan. Bu holat ayniqsa shiddatli surhatlar bilan o'zgarib borayotgan bugungi globallashuv zamonida har qachongidan ko'ra keng tarmoq yozdi, binobarin, hayotimizning birorta sohasini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

So'z va matbuot erkinligi, uning keng oshkoraligi, islohotlarning ochiqqligini tahminlaydigan demokratik printsiplarni hayotga joriy etish imkonini beradi. Ayni ana shu vazifa nuqtai-nazaridan jamiyatni yanada rivojlantirish, uni sifat jihatidan yangilashda ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalari vazifalarini bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlari zimmasiga o'tqaza borish singari demokratik tamoyillarni chuqurlashtirishda OAV imkoniyatidan samarali foydalanish zarur bo'lib qolmoqda.

Axborot sohasini isloh qilish, milliy ommaviy axborot vositalari sohasida butkul yangi tizimni yo'lga qo'yish, axborot va so'z erkinligini, shuningdek, mamlakatda saylov huquqi erkinligini ta'minlash, saylov qonunchiligini yangi pog'onalarga ko'tarish borasida erishilgan yutuqlar mohiyatida ham o'zbek modelining mahno-mazmunini tashkil etgan qadriyatlar, hayotiy printsiplar mujassam bo'lgan.

Mustabid tuzumga xos o'z umrini o'tab bo'lgan jamiyatni boshqarish aqidalaridan voz kechib, yosh mustaqil davlatni zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga olib chiqish, hayot sifatini yaxshilash, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish o'z-o'zidan amalga oshmasligi ortda qolgan yigirma yillik shonli va g'oyatda murakkab istiqlol yillari voqealarida o'z ifodasini topdi. SHu o'rinda hech ikkilanmay aytish mumkinki, jamiyat hayotida yuz bergan va berayotgan voqea-hodisalarning hech birini axborot sohasidan, ommaviy axborot vositalaridan ajratgan holda tushunish mumkin emas. Xususan, mamlakatda demokratik jamiyat asoslarini barpo etish axborot va so'z erkinligini ta'minlash masalalari bilan chambarchas bog'liqdir. CHunki fuqarolarning axborotga doir huquq va erkinliklarini ta'minlash demokratik hayot barpo etish yo'lidagi har qanday jamiyat oldida turgan birlamchi masalalardan hisoblanadi. Aytish joizki, O'zbekiston bu borada eng to'g'ri yo'lni tanladi va ushbu yo'ldan og'ishmay olg'a bormoqda.

Ma'lumki, ommaviy axborot vositalari siyosiy-g'oyaviy, ma'naviy-ruhiy kommunikatsiyaning asosiy tayanchi sifatida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy faolligiga kuchli tahsir etib, davlat institutlariga nisbatan jamoatchilik nazoratining kuchayishi uchun yangidan-yangi imkoniyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Demak, ommaviy axborot institutlarining jamiyat hayotidagi ma'naviy-siyosiy salohiyati qanchalik kuchli bo'lsa, jamiyatda

Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, axolining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy xayotidagi amaliy ishtiroki xaqida so'z yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini tahminlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikr va g'oyalarini, sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo'lmasligini o'zimizga yaxshi tasavvur etamiz.

Islom Karimov

shu darajada faollik va rag'bat, bunyodkorlik hamda g'oyaviy uyg'oqlik tuyg'ulari kuchli bo'ladi. OAV institutlari orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish fuqarolarga konstitutsiyaviy asosda o'zaro birlashish, uyushish huquqini ro'yobga chiqarishga imkon beradi. Aholi turli guruh va qatlamlarining ijtimoiy manfaat va qiziqishlarini ifoda etadi. Qolaversa, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Mahruzada ta'kidlanganidek, OAVning yuksak g'oyaviy minbar va odamlar qalbu shuuriga tez tahsir etuvchi vosita singari imkoniyatlaridan samarali foydalanish – odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash va aholining ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, eng avvalo insonning o'zini o'zi tushunishi va fuqarolararo munosabatlarni yuksak ma'naviy-mahrifiy mezonlar asosida shakllantirishga xizmat qiladi. SHuningdek, OAV institutlari zamonaviy insonparvar tafakkurni, fuqarolardan ijodkorlik ruhini, yaratuvchilik qobiliyatini, bunyodkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ya'ni, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish, boshqarish, hozirgi zamon mehyorlari asosida kishilik taraqqiyotini ta'minlashning yangi usul va uslublarini qidirib topish zarurligidan kelib chiqib, OAVning siyosiy-huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik axborot tizimini boshqarish kabi qator, bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan imkoniyatlarini yanada kengaytirishni taqozo etadi. SHu bilan birga, OAVni boshqarish va tashkil etishning eng maqbul shaklini joriy etish zarur bo'lmoqda. Uning bevosita davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabat, o'zaro ishonchni, jamiyat va davlat taraqqiyotini, fuqarolar yakdilligini, ma'naviy va g'oyaviy jihatdan birligini tahminlovchi kuchli vositalar sifatida imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarur bo'ladi.

OAV instituti, avvalo, milliy manfaat, jamiyat va shaxs erkinligini hisobga olgan, axborot olish va uni tarqatish kafolati hamda majburiyati bilan bog'liq jarayonlarning bevosita shaxsiy, mahalliy, urug'-aymoqchilik manfaatlaridan ustun turadigan, umummilliy manfaatga daxldor bo'lgan qadriyatga aylanib bormog'i lozim. Ana shunday sharoitda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga yo'naltirilgan har qanday mazmundagi axborotni tarqatishdan oldin jamiyatning ma'naviy - ruhiy holatiga salbiy tahsir etuvchi, ijtimoiy, milliy, etnik, diniy tafovut va kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi, zo'ravonlik va urushni targ'ib etuvchi, pornografiya, maishiy buzqlik, shaxslar mavqeiga, obro'siga va shahniga salbiy tahsir etuvchi axborotlarni chegaralashning norasmiy, vijdon bilan bog'liq bo'lgan, sog'lom aql va yuksak tafakkurga tayangan ma'naviy-ruhiy mehyorlari vujudga keladi.

O'zbekistonda demokratik tamoyillarni yanada rivojlantirish va kuchli fuqarolik jamiyatini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar mustaqillik yillarida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish chora-tadbirlarining izchil va qonuniy tus olganiga bevosita bog'liq. Ana shundan kelib chiqib, demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida huquqiy demokratik davlat tamoyillarini amalda ro'yobga chiqarish - davlat organlari, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat faoliyati ustidan OAV orqali jamoat nazoratini o'rnatish zarurati kuchayib bormoqda.

OAV faoliyatini erkinlashtirish – jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarning ochiqqligini tahminlaydigan demokratik printsiplarni hayotga joriy etuvchi vositadir. Fuqarolarning ijtimoiy faolligi va siyosiy madaniyatini oshirishda OAVning roli tobora oshib bormoqda. Bu, hatto, davlat tizimi faoliyatining barcha jabhalarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida raqobat muhitini qaror toptirish va Hammaga barobar bo'lgan shart-sharoitlar yaratishga qaratilishi, davlat boshqaruvi idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazish masalasida aks etadi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti OAV instituti va jamoatchilik nazorati tushunchalarining mohiyati va ahamiyatini tobora oshirmoqda. Mazkur serqirra, murakkab, zargarlarga xos noziklik bilan hal qilishni talab etgan ijtimoiy-siyosiy jarayon tobora yangi mazmun kasb etmoqda. Tub yangilanishlar davrining o'ziga xos murakkabliklari, katta geosiyosatdagi suveren davlatlarga nisbatan olib borilayotgan tashqi bosimlarning ko'lami, shu bilan bir qatorda kuchli fuqarolik jamiyatining muhim elementi

bo'lmish siyosiy saylovlar tajribasi mazkur muammoning naqadar murakkabligini namoyon qilmoqda. Ayniqsa, OAV faoliyatini erkinlashtirish, jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarning ochiqqligini tahminlaydigan demokratik printsiplarni hayotga joriy etuvchi jarayon ekani kunday ravshan bo'lib bormoqda.

Davlatning iqtisodiy sohaga, jumladan, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi navbatda xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklashi hamda qonunlar ijrosi bo'yicha davlat hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishi lozim. Ayni shu g'oyani mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov keng jamoatchilik oldiga strategik masala sifatida qo'ymoqda. Ya'ni, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlari zimmasiga o'tkazish

zarurligini talab qilmoqda. Ayni ana shu vazifalarni bajarish esa OAV institutining fuqarolarning ijtimoiy faolligi va siyosiy madaniyatini oshirishdagi rolga ham bevosita bog'liqdir.

Islohotlar taqdiri, demokratlashtirishning samarali natijalar berishi va istiqboli ko'p jihatdan OAVning aholi

ijtimoiy-siyosiy faolligi, aql-zakovati va fidoiyligini tayinlaydigan muhim institut sifatidagi vazifalarini qay darajada bajarayotgani bilan ham bog'liq. Inson ongida demokratik qadriyatlarining chuqur ildiz otishi, uning o'z ijtimoiy burchini tushunish va

- O'zbekistonda telekommunikatsiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo'nalish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri chikadigan xalqaro kanallarga ega.

- Keyingi 10 yil ichida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni 7 barobar ko'paydi.

- respublikada Internet tizimidan foydalanuvchilar soni 6 milliondan oshdi.

Islom Karimov

xaq-huquqlarini yanada kengaytirish istagi, yuksak ma'naviy-mahrfiy saviyaga ega bo'lish, o'z manfaatlarini ongli idrok qilish singari qadriyatlar bilan bog'liq masalalarni hal etishda OAVning roli katta. Ayni OAV tuzilmalarining xalqni qarorlar qabul qilish jarayonlaridan xabardor qilib borish, hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, fuqarolarning davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok eta olishini belgilaydigan institut sifatidagi roli tobora ortmoqda.

1994 yilda respublikada 475 ta OAV, ulardan 384 ta gazeta, 66 ta jurnal, 19 ta telestudiya, 3 ta kabelg' televideniesi, 2 ta radiostudiya va bitta agentlik faoliyat ko'rsatgan bo'lsa⁹¹, davlatimiz rahbari o'z mahruzasida ta'kidlaganidek, keyingi 10 yilning o'zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko'payib, bugungi kunda ularning umumiy soni qariyb 1200 taga yetdi. Mavjud barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi, shuningdek, bosma materiallar va teleko'rsatuvlar ingliz tilida ham tarqatilmoqda.⁹²

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining qonunlar yordamida mustahkamlanishi, ommaviy axborot vositalari faoliyati erkinligi va mustaqilligini amalda ta'minlash, ularni tom mahnoda "to'rtinchi hokimiyat" sifatida shakllanishi uchun yetarli huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

⁹¹ OAV: xuquqiy baza takomillashtirilmoqda // Xalq so'zi. – 2010. – 20 avgust.

⁹² I.Karimov. Mamlakatimizda demokratik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsyasi // Xalq so'zi, 2010 yil 13 noyabr.

O'zbekistonda keyingi yillarda sunhiy yo'ldosh aloqa tarmog'i orqali teleradiodasturlarni tarkatish yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda mamlakatimiz telekommunikatsiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo'nalish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega. Yurtimizdagi teleradiokanallar tomonidan tayyorlanayotgan ko'rsatuv va eshittirishlar Internet global tarmog'i orqali real vaqt rejimida jaxonga uzatilmoqda...

Islom Karimov

O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti - ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq va izchil choralarni amalga oshirishdir. Bu boradagi asosiy vazifa matbuot, televidenie, radio faoliyatini

yanada liberallashtirish, ularning mustaqilligi va erkinligini amalda ta'minlashdan, ommaviy axborot vositalarini fikrlar va g'oyalarni erkin ifoda etadigan maydonga aylantirishdan iborat. Bu choralar natijasida aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotida amaliy ishtirok etishi uchun kengroq jalb qilishga erishish mumkin.

Ayni chog'da bugungi globallashuv asrida axborotga bo'lgan talab tobora kuchayib borayotganini ehtiborga olish zarur. SHunday ekan, xolis va haqqoniy axborotni tarqatish, ommaning bu mahsulotga bo'lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko'ra bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy "Xabar, deb yozadi - xabar beruvchilar sababli rostlik va yolg'onlik tusini oladi. CHunki, odamlarning maqsadlari xilma-xil. Xalqlar o'rtasida tortishish va talashish ko'p". Bundan o'n asr muqaddam aytilgan ushbu haqqoniy so'z nuqtai nazaridan kelib chiqilsa, axborot jangi avj olgan bugungi kunda siyosiy jarayonlarning mahno-mazmunini va asl sabablarini chuqur anglash, atrofda sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotlarga ega bo'lish, har qanday noxolis axborot hurujlari zamirida rangli inqiloblar, namoyishlar yotganini aholiga va avvalo yoshlarimizga tushuntirishda OAV ning o'rni va tahsir kuchi beqiyosligi ayon bo'ladi.

Yurtdoshlarimizni, ayniqsa yosh avlodni yot va zararli g'oyalardan muhofaza qilish, xavfsizlikka turli tahdidlar va xatarlarga qarshi kurashni kuchaytirish, mamlakatimiz hamda mintaqadagi barqarorlikni mustahkamlash borasida OAV vakillari o'zining qathiy pozitsiyasiga ega bo'lish, ehtiqod qo'ygan nuqtai nazarni ishonch bilan asoslay olish kabi xislatlarni fuqarolarimizda shakllantirish ham soha vakillarining muhim vazifalaridandir.

Bu borada O'zbekiston MDH mamlakatlari ichida birinchilar qatori aloqa tarmog'ining 4 avlodi hisoblangan (4G) ishga solganini qayd etish zarur. Bu texnologiya ma'lumotlarni 100Mb/sek gacha tezlikda (ya'ni, 3G tarmog'iga nisbatan 30 baravar tezroq) uzatish imkoniyatiga ega. Tizimning ishga tushirilishi natijasida foydalanuvchi shu ondayoq so'ralayotgan ma'lumotga ega bo'lishi mumkin⁹³.

Bugun zamonaviy hayotni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) siz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, bu texnologiyalar qisqa muddat ichida aloqa qilish imkoniyatlari va axborot olish usullari to'g'risidagi tasavvurlarimizni keskin o'zgartirib yubordi. Hozirgi vaqtda AKT jamiyat turmushining barcha sohalarida – davlat boshqaruvida, iqtisodiyot, siyosat, tibbiyot, tahlil, fan va madaniyat, maishiy turmush va boshqa

sohalarda keng qo'llanilmoqda. Mubolag'asiz aytish mumkinki, hech bir mamlakat axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining doimiy ravishda takomillashuviga yetarli darajada ehtibor bermay turib, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy jihatdan muvaffaqiyatli rivojlana olmaydi. AKT axborot olish, uzatish va tarqatish erkinligini berish bilan birga odamlarga o'zining intellektual salohiyatini yanada to'liq foydalanish imkoniyatini yaratib, barqaror iqtisodiy o'sish, faravonlik darajasini oshirish maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Respublikada Prezidentimiz va davlatimiz tomonidan olib borilgan siyosat tufayli ommaviy axborot vositalari sohasida yuz bergan tarixiy yangilanishlar haqida so'z borar ekan, ikki masalaga alohida ehtiborni qaratish zarur. **Birinchisi** – nodavlat ommaviy axborot vositalari institutining yaratilishi. **Ikkinchisi** – elektron ommaviy axborot vositalari tizimining jadal rivojlanayotgani masalasi.

⁹³ СНерез успехи к новым целям // Народное слово. - 2010 год. - 23 сентября.

Mustaqillik yillarida milliy matbuot tizimida ilgari mutlaqo kuzatilmagan nodavlat ommaviy axborot vositalari instituti vujudga keldi. Ayni paytda, bu turdagi ommaviy axborot vositalari axborot maydonini axborot bilan ta'minlashda emin-erkin faoliyat yuritmoqda. SHu bilan ular nafaqat axborot maydonini, balki jamiyatda demokratlashtirish muhitini yanada mustahkamlashga bevosita hissa qo'shmoqda. SHuni ham ta'kidlamok zarurki, nodavlat ommaviy axborot vositalarining ko'payishi o'z holiga tashlab qo'yilgani yo'q. Balki bu soha faoliyatini ham moddiy-texnik jixatdan qo'llab-quvvatlash ham kadrlar masalasida ko'maklashishga qaratilgan ikkita salohiyatli nodavlat notijorat tashkilot tashkil etildi. Hozirda bu ikki tashkilot – Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi hamda O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi samarli faoliyat yuritmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini huquqiy tartibga solish maqsadida mamlakatda 11 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 ta farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 40 ta qarori, 600 dan ziyod qonunosti xujjatlari qabul qilinib, bir qator milliy dasturlar ishlab chiqilgan. Xususan, "2002-2010 yillarda kompg'yuterlashtirish va axborot-kommunikatsiyalari texnologiyalarini rivojlantirish dasturi", "O'zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya tarmog'ini 2010 yilgacha bo'lgan davrda rekonstruksiya qilish va rivojlantirish milliy dasturi"⁹⁴ va boshqalar shular jumlasidandir.

Mustaqillik yillarida mamlakat Prezidenti I.A.Karimov tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga alohida ehtibor qaratilgani bois ushbu sohani jadal surhatlar bilan rivojlanish, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini ko'paytirish va uni xorijiy hamda mamlakatimiz investorlari uchun yanada jozibador qilish imkonini berdi.

Aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari korxonalari samarali faoliyati tufayli 2010 yilning birinchi yarim yilligida ular tomonidan 911,6 mlrd. so'm miqdorida xizmatlar ko'rsatildi. Bu 2009 yilning shu davriga nisbatan 107 foizni tashkil etadi. Bu mablag'ning asosiy qismi 60 foizi (552,4 mlrd. so'm) aholiga xizmat ko'rsatish natijasida olingan⁹⁴.

O'zbekistonda 2015 yilga qadar to'la raqamli teleko'rsatuvlarga o'tish rejalashtirilgan. Mamlakatimizda raqamli televideniaga o'tish ishlari 2007 yilda boshlangan bo'lib, dastlab 2008 yilning avgust-sentyabrida Toshkent va Buxoroda raqamli televizion uzatgichlar o'rnatilib, 12 ta teledastur namoyish qilina boshladi. Kelgusida teledasturlar sonini 40 tagacha yetkazish mo'ljallanmoqda.⁹⁵ Raqamli televideniaga o'tish natijasida bir chastotada birdaniga 12 stantsiya ko'rsatuvlari tashkil etilishi radiochastotalar tanqisligi muammosini hal etib, radiochastotalarni olish uchun o'tkaziladigan tanlovlarning demokratik va oshkoraligini ta'minlash teng raqobat va elektron media-bozor tarmoqlarining monopollashuviga yo'l qo'ymaslik uchun sharoit yaratadi. Joriy yilning oxiriga qadar raqamli televidenie uzatgichlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida o'rnatish rejalashtirilgan. Mamlakatimizda raqamli televideniening qabul qilingan standarti DVB-T MR-4 bo'lib, u jahonda tan olingan va eng zamonaviy standartlardan biri deb qabul qilingan. Hozirgi kunda respublikamiz olimlari tomonidan DVB-T MR-4 signallarini qabul qiluvchi tyunerlar tayyorlanib, ommaviy ishlab chiqarishga joriy qilingan. Ularni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxona "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasida tashkil etilgan, har yili korxonada 60 ming donagacha bunday yuqori texnologik uskunani ishlab chiqarish mo'ljallanmoqda.⁹⁶

Davlatimiz rahbari Islom Karimov mahruzaning avvalida erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib, xotirjamlik kayfiyatiga berilish real voqealardan uzilib qolishga olib kelishiga alohida urg'u berar ekan, jahon miqyosida kechayotgan jarayonlarda mustahkam o'rin egallash uchun har tomonlama chuqur o'ylangan, aniq maqsad va ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan taraqqiyot dasturi va uni amalga oshirish strategiyasiga ega bo'lish zarurligini uqtirib o'tdi. Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda, Prezident axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan amaldagi bir qator qonunlarga o'zgartish va

⁹⁴ Результаты внедрения высоких технологий // Народное слово. - 2010 год. – 5 августа.

⁹⁵ В будущее с новыми технологиями // Uzbekistan today.-2010.-23 сентября. №38.

⁹⁶ Телевидение в цифровом формате // Народное слово. - 2010. - 27 июля.

qo'shimchalar kiritish hamda yangi qonunlar qabul qilishni dolzarb ahamiyat kasb etishini belgilab, quyidagi **takliflarni berdi**:

Birinchi. “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida” Qonun qabul qilish zarurligi. Buning natijasida:

- fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqini yanada kengroq amalga oshirish imkoniyati yaratib beriladi;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qabul qilinayotgan qarorlar sifatini oshirish borasidagi mashuliyati oshadi;
- davlat hokimiyati organlari faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilib borish tartiblarini aniq belgilab beradi;
- aholining, jamoat birlashmalarining davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, avvalambor fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar bilan bog'liq qarorlar haqidagi axborotlardan keng xabardor bo'lib borishini tahminlaydi;
- Mazkur qonunning joriy etilishi ijro hokimiyati organlari faoliyatining, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning, davlatning ichki hamda tashqi siyosatining ochiqligi va oshkoraligini, mamlakatimiz va xorijda kechayotgan voqea-hodisalar xususida fikrlar xilma-xilligi va siyosiy plyuralizmni hisobga olgan holda, ta'minlashi zarur.

Ikkinchi. Demokratlashtirish jarayonlarida ahamiyati tobora ortib borayotgan axborot kommunikatsiyalari sohasining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan teleradio tizimini rivojlantirishga qaratilgan “**Teleradioeshittirishlar to'g'risida**” Qonun qabul qilish haqida taklif kiritildi.

Davlat rahbari, hozirgi vaqtda ushbu sohadagi faoliyat ommaviy axborot vositalari, radiochastota spektri, telekommunikatsiyalar, axborotlashtirish to'g'risidagi qonunlarning muayyan moddalari bilan tartibga solib kelinayotganini, endilikda teleradioeshittirishlar sohasini mustaqil qudratli industriya sifatida qayta tashkil etish, teleradioeshittirishlarning yangi shakl va turlarining paydo bo'lishi teleradiodasturlarni tayyorlash va uzatish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tizimli va keng ko'lamli ravishda tartibga soladigan yaxlit qonunni kuchga kiritish zarurati tug'dirayotganini qayd etdi. Bu qonunning qabul qilinishi:

- teleradiodasturlarni tayyorlash va tarqatish sohasida raqobatni yanada kuchaytirish;
- teleradiodasturlarni uzatish borasida mobil va raqamli televidenie kabi ilg'or zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
- teleindustriyaning istiqbolli yangi tarmoqlarini tashkil qilish uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- milliy teleradioeshittirishlar tizimi faoliyatini huquqiy tartibga solish mexanizmlarini va moliyalashtirish manbalarining erkinligi va mustaqilligi kabi printsiplarini belgilab berish;
- radiochastotalarni olish uchun o'tkaziladigan tanlovlarning demokratik va oshkoraligini ta'minlash;
- teng raqobat va elektron media-bozor tarmoqlarining monopollashuviga yo'l qo'ymaslik uchun sharoit yaratish va boshqa bir qator muammolarni yechishni nazarda tutadi.

Uchinchi. Davlatimiz rahbari ommaviy axborot vositalari erkinligi va mustaqilligini yanada mustahkamlash mualliflik huquqlari va intellektual mulkni ishonchli himoya qilishning huquqiy kafolatlari va mexanizmlarini kuchaytirish, axborot sohasiga bozor mexanizmlarini joriy qilish bilan bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlab, ushbu vazifani amalga oshirish uchun “**Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to'g'risida**”, “**Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlari to'g'risida**”gi qonunlarni qabul qilish yuzasidan taklif kiritdi. Bu qonunlar:

- axborot bozori ishtirokchilari faoliyati samaradorligini kuchaytirish va ularning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish;
- qo'shimcha iqtisodiy preferentsiyalar yaratish;
- milliy axborot makonini izchil rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan boshqa tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

To'rtinchi. Ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini ta'minlash, hokimiyat va jamoatchilik o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish borasidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish maqsadida mamlakat Prezidenti **“Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”, “Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida”**gi va boshqa bir qator qonun hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritishni taklif etdi. Bu o'zgartish va qo'shimchalarda:

- davlat va jamoat birlashmalari axborot xizmatlari, media-tuzilmalar ishini faollashtirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni ko'zda tutish;

- ommaviy axborot vositalarining axborot olish yuzasidan murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirish;

- axborot olish sohasidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik va mansabdor shaxslarning mahmuriy javobgarligini kuchaytirish va boshqa chora-tadbirlarni ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar o'z aksini topishi nazarda tutiladi.

Ma'lumki, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu O'zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta'bir joiz bo'lsa, tamal toshi hisoblanadi.

Islom Karimov

Qolaversa, Prezident Islom Karimov siyosiy modernizatsiya jarayonlarida tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat va jamiyat qurilishi tizimida keng foydalanish lozimligini alohida ta'kidlab, **“Telekommunikatsiyalar to'g'risida”gi Qonun** normalarini yanada takomillashtirish; raqamli teleradioeshittirish tizimiga o'tish bo'yicha tadbirlar davlat dasturini ishlab chiqish; mazkur dastur raqamli teleradioeshittirishlar infratuzilmasini shakllantirish; bu boradagi faoliyatni huquqiy jihatdan tartibga soladigan samarali tizimni yaratish zarurligini kayd etdi.

Demokratik jamiyatning birlamchi va eng muhim sharti mamlakatda axborot va so'z erkinligini qaror toptirish dunyo miqyosida ehtirol etilgan haqiqat ekanligidan kelib chiqilsa, bo'lib o'tgan qo'shma majlisda muhtaram Prezidentimiz ilgari surgan g'oyalar, yo'l-yo'riqlar, belgilab bergan maqsad va vazifalarning naqadar dolzarbligi ayon bo'ladi. Zero, mahruzada ta'kidlanganidek, “yuqorida zikr etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o'rni va rolini yanada mustahkamlashga, fuqarolarning so'z erkinligi va tanlash erkinligini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy huquqlarini yanada to'liq ro'yobga chiqarishga yordam beradi”.

Siyosiy tizimda ommaviy kommunikatsiyaga ehtiyojning jamiyat xayoti bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liqligi, o'tmishda anhanaviy davlatlarda kommunikatsiya vositalari imkoniyatlarining chegaralanganligi, axborot texnologiyalarining inqilobi OAV imkoniyatlari dinamikasiga sezilarli tahsir utkazmoqda. Istiqloil yillarida OAVni erkinlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar jamoatchilik nazoratining jamiyatdagi qonunsizlik va adolatsizlikka barham berishiga katta turtki berdi. Mazkur vazifani bajarishda OAVning jamiyatga haqqoniy ma'lumotlar yetkazib berish imkoniyati esa to'laqonli jamoatchilik fikrining oshkoralik va xabardorlikka talabining oshib borayotganidan kelib chikadi. OAVning siyosiy hokimiyatni amalga oshirish mexanizmida jamoatchilik fikriga tahsir ko'rsatish omili ko'p jihatdan OAVda vaziyatni xolis baholash, islohotlarga keng ommani jalb qila olish tendentsiyalarida aks etadi.

Zero, demokratlashtirishning samarali natijalari bir necha o'n yilliklardagi jiddiy sinovlarni boshidan o'tkazishi halqning, millatning milliy siyosiy mentaliteti, jumladan shu jamiyatda mavjud bo'lgan OAV institutlarining ijtimoiy-siyosiy mavqei, intellektual salohiyatiga hamda professional mahoratiga bevosita bog'liq jarayondir.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: «O'zbekiston», 2007. —10–12, 28–29b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Fukarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonuni, 1999 yil 14 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, 1993 yil 1 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini qo'llab-kuvvatlash to'g'risida»gi Farmoni, 1998 yil 23 aprelg'.
5. Karimov I.A. O'zbekiston— bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yuli. T.1. — T.: «O'zbekiston», 1996. 290-295-b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid: barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. — T.: «O'zbekiston», 1997. —163-174, 182-186-b.
7. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fukarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasidagi mahruzas. «Xalq so'zi», 2002 yil 30 avgust.
8. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va havfsizligi uz kuch-kudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bogliq. — T.: «O'zbekiston», 2004.
9. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish - har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. — T.: O'zbekiston, 2004. — 285–312-b.
10. Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezon bo'lsin. Surxondaryo viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. — T.: O'zbekiston, 2004. —313–337-b.
11. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. — T.: O'zbekiston, 2005. —156–223-b.
12. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. — T.14. — T.: O'zbekiston, 2006. — 61–97, 139–153, 248–265-b.
13. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoitini yaratish – asosiy vazifamizdir. — T.: O'zbekiston, 2007. — 11-b.
14. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir. — T.: “O'zbekiston”, 2007. — 48 b.
15. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – faravon hayot garovidir. — T.: “O'zbekiston” NMIU, 2007. — 64 b.
16. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezon va maqsadidir. — T.15. — T.: “O'zbekiston”, 2007. — 3-11, 154-211-241-251-b.

III BO'LIM. O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

MAVZU. O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATI BILAN HAMKORLIGIDA DEMOKRATIK TAMOIYILLARGA ASOSLANISHI

1. O'zbekistonning jahon hamjamiyatining to'laqonli sub'ektiga aylanishi

Prezident Islom Karimov O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatga qo'shilishining demokratik tamoyillari haqida. O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda O'zbekistonni 170 dan ortiq davlat tan olgan, dunyodagi 130 ga yaqin mamlakat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Respublikada 88 ta chet davlat vakolatxonalari ro'yxatdan o'tgan, 24 ta hukumatlararo tashkilot, 13 ta nohukumat tashkilotlari ishlab turibdi. Dunyodagi 30 dan ortiq davlatda O'zbekiston elchixonalari va moliya tashkilotlari teng huquqli asosda ishlab turibdi. Jahonning 140 mamlakati bilan savdo-iqtisodiy munosabatlar o'rnatilgan. Toshkentda 35 mamlakat o'z elchixonasini ochgan.

O'zbekiston 1992 yil 2 martda BMTga qabul qilindi. O'zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan va BMT rahnomaligida 1995 yili Toshkentda Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik muammolariga bag'ishlangan xalqaro seminar bo'lib o'tdi. "O'zbekiston,-degan edi Islom Karimov,- milliy manfaatlariga mos keladigan, ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish - davlatimiz mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir". O'zbekiston Prezidentining asosli mulohazalari bilan 1993 yil fevralg' oyida Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi.

BMT Ustavida va Xalqaro huquq printsiplari bo'yicha deklaratsiyada 7 ta asosiy printsiplari qayd etilgan.

- 1) Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik.
- 2) Ziddiyatlarni tinch yo'l bilan bartaraf etish.
- 3) Aralashmaslik.
- 4) Xalqlarning teng huquqliligi va o'z huquqlarini o'zlari belgilashi.
- 5) Hamkorlik.
- 6) Davlatlarning suveren tengligi.
- 7) Xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarni vijdonan bajarish.

Bular YeXHKning 1975 yildagi Yakuniy aktida ro'yxatga olinib, 3 ta printsiplari bilan to'ldirildi:

- 1) CHegaralarning daxlsizligi.
- 2) Hududiy yaxlitlik.
- 3) Inson huquqlarini hurmat qilish printsiplari.

Prezident Islom Karimov "Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir" mahruzasida (2005 yil 28 yanvarda) tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlari haqida to'xtalib:

1) dan, davlatimiz tashqi siyosatining mahno-mazmuni va maqsadi bitta -u ham bo'lsa, O'zbekiston manfaati va yana bir bor O'zbekiston manfaatidir.

2) Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash. Albatta bunda mintaqada strategik mavhumlik saqlanib qolayotganligini ham tan olish kerak.

3) "Qo'shning tinch - sen tinch" hayotiy naqliga rioya etish.

4) BMT doirasida hamkorlikni rivojlantirish. SHuningdek, YeXHT, Yevropa Ittifoqi, NATO, AQSH, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Frantsiya va boshqa davlatlar bilan demokratik tamoyillar asosida aloqalarni rivojlantirish.

5) Xalqaro terrorizm va radikalizmga qarshi kurashda birdamlikni ta'minlash va h.k.

O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati: O'zR Konstitutsiyasi 4-bob, 17-moddasida O'zRning xalqaro munosabatlardagi tashqi siyosatining **huquqiy (5 ta) printsiplari** ishlab chiqildi va asoslab berildi:

1. Davlatlarning suvereniteti, tengligi.
2. Kuch ishlatmaslik yoki tahdid qilmaslik.
3. CHegaralarning daxlsizligi.
4. Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish.
5. Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik.

Bu printsiplar O'zbekistonning manfaatdorlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirildi. Prezident Islom Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida O'zbekiston tashqi siyosatini amalga oshirish 6 ta amaliy printsiplarini ishlab chiqdi, ular:

1) Milliy davlat manfaatlari ustun bo'lgan holda o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish.

2) Umumbashariy qadriyatlar ustuvorligi, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash mojarolarni tinchi yo'l bilan hal etish.

3) Teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlar ichki ishlariga aralashmaslik, tenglar orasida teng bo'lish.

4) Mavkuraviy qarashlardan qathiy nazar ochiq-oydinlik, barcha davlatlar bilan keng aloqani o'rnatish.

5) Ichki milliy qonunlardan xalqaro huquq normalarining ustuvorligini tan olish.

6) Ham ikki tomonlama ham ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish, xalqaro xamkorlikni kuchaytirish.

1995 yil 30 avgustda "O'zbekiston Respublika xarbiy doktrinasini to'g'risida" Oliy Majlis yuqori qabul qilindi.

1996 yil 26 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq quyidagi asosiy tamoyillarni ishlab chiqdi va unga amal qilib kelmoqda:

1) O'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustuvorligi.

2) Teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik.

3) Mavkuraviy qarashlardan qathiy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik.

4) Xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi.

5) Tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng o'z tashqi siyosatimizni xalqaro hamjamiyatning to'laqonli sub'ekti sifatida amalga oshirish uchun real imkoniyatlarga ega bo'ldi. Endilikda tashqi siyosat mustaqil tarzda amalga oshirilmoqda.

Jamiyat va davlatlar tarixi shuni ko'rsatadiki, biron-bir mamlakat boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilmasdan taraqqiyotga erishgan emas. SHarq va g'arb mamlakatlarini bir-biriga bog'lagan «Buyuk Ipak» tarixiy yo'lining markazida joylashgan O'zbekiston bir necha asrlardan buyon dinlar, millatlar va madaniyatlarning tutashuv nuqtasi bo'lib kelmoqda.

Ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davrida dunyodagi yirik davlatlar Samarqand bilan o'z aloqalarini o'rnatganlar. Amir Temurning Frantsiya, Angliya, Ispaniya qirollari, o'nlab qo'shni davlatlarning hukmdorlari bilan yozishmalari o'sha davrdagi jo'shqin siyosiy, madaniy va tijoriy aloqalardan guvohlik beradi.

CHor Rossiyasi bosqinidan so'ng 130 yildan ortiq davom etgan mustamlaka davri mamlakatimizning tashqi aloqalarini uzib qo'ydi. Xorij bilan barcha munosabatlar istilochilarning nazorati va ruxsati bilan amalga oshirilardi. Bir paytlar dunyoga dong taratgan o'lkamiz chekka bir viloyat darajasiga tushirib qo'yildi. Sovetlar davrida esa chetga chiqarilgan bir-ikki diplomat hamda vazifasi oliy rutbali xorijliklarni mehmon qilishdan iborat bo'lgan Tashqi ishlar vazirligidan boshqa hech narsa yo'q edi.

Bugungi kunda O'zbekiston taraqqiyotining konstitutsiyaviy zamini yaratildi. SHunga mos ravishda inson huquqlari ham tiklanmoqda. Xalqimizning ma'naviy salohiyati, unga xizmat qiladigan tabiiy va texnikaviy zahiralari, mustahkamlanayotgan xalqaro munosabatlar demokratik rivojlanish va inson huquqlariga rioya qilish uchun barcha sharoitlarning bosqichma-bosqich yaratilishiga kafolat beradi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi «O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonunda belgilangan konstitutsiyaviy anhanalarni davom ettiradi. Mazkur anhanalarga ko'ra xalqaro huquq davlatimiz qurilishining muhim manbai bo'lib, O'zbekiston o'zining xalqaro huquq normalariga sodiqligini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab, namoyish etmoqda.

Bu esa yosh mustaqil davlatimizning eng nufuzli xalqaro tashkilotlarga qabul qilinishiga imkon berdi. Respublikamizning mustaqil davlat sifatida boshqa davlatlar tomonidan diplomatik tan olinishiga, xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kirishishiga yo'l ochdi.

BMT ustavi, Inson huquqlari to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyasi va inson huquqlari haqidagi boshqa xalqaro paktlar, Xelg'sinki bitimlari, Parij va Madrid xartiyalari qoidalari Konstitutsiyamizdagi xalqaro huquq printsiplari va normalariga asos bo'ldi. Bunday konstitutsiyaviy yondashuv, ayniqsa Konstitutsiyaning muqaddimasida, 4-bobida, ikkinchi bo'limda 22,23 va 26-bobda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu boblarning tegishli ravishda, «Tashqi siyosat», «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari», «O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati», «Saylov tizimi», «Mudofaa va xavfsizlik» deb nomlanishi ham fikrimizning dalilidir.

XX asrning so'nggi o'n yilligi ijtimoiy dunyoqarash va jahon hamjamiyatining jo'g'rofiy-siyosiy tuzilishida tub o'zgarishlar davri bo'lib tarixga kirdi. Jahon hamjamiyati yangi davrga qadam qo'ydi. Bu davr o'zining ikki jihati bilan ajralib turadi. **Birinchidan**, bu davlatlar, xalqlar o'rtasidagi yaqinlashuv jarayonlari va har tomonlama hamkorlikning kuchayishi, yaxlit bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va huquqiy makonlarning vujudga kelishi, hozirgi zamon xalqaro huquq normalarining yaratilishidir. **Ikkinchidan**, «sotsialistik lager»ning yemirilishi, totalitar tuzumdagi davlatlarning tugatilishi, ular o'rnida mustaqil davlatlarning paydo bo'lishidir. Endilikda «sovuq urush»ga barham berildi, «kapitalistik» va «sotsialistik» degan tushunchalar o'rtasidagi farq amalda yo'q bo'lib borayapti. Mafkuraviy aqidalardan xoli bo'lgan yangi, erkin tafakkurni shakllantirish zarurati paydo bo'ldi.

Prezidentimiz Islom Karimov «O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyoti yo'li» kitobida O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining kontsepsiyasi to'g'risida, tashqi siyosiy yo'l, bu yo'lning huquqiy negizi va uni amalga oshirish vositalari haqida to'xtalib o'tgan. O'zbekiston tashqi siyosatining strategik yo'li, asosiy qoidalari va maqsadlari, uning ustuvor va mintaqaviy yo'nalishlari, xususiyatlari negizida respublikaning milliy manfaatlari joy olgan. Har qanday siyosat aql-idrok bilan ish tutishni taqozo etadi. Rivojlanayotgan, tez taraqqiy etish uchun kuchli ilmiy, sanoat kuch-quvvatiga ega bo'lgan mamlakatning tashqi siyosati ehtirolardan xoli bo'lishi lozim. Respublikamiz ana shunday davlatlar sirasiga kiradi. Yangi xalqaro iqtisodiy tartib uchun harakat qilish qoidalari O'zbekiston uchun ham diqqatga molik masaladir. Bu xom ashyo va sanoat mahsulotlari narx-navolarining adolatli bo'lgan nisbati, rivojlanayotgan davlatlarning fan va texnika yutuqlaridan bahramand bo'lish imkoniyati va hokazolardir.

Tashqi siyosat faoliyat uchun huquqiy negiz yaratish birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagilar amalga oshirildi:

- yangi xalqaro huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi;
- sobiq Ittifoq ishtirokchi bo'lgan xalqaro huquqiy hujjatlar majmuasi respublika manfaati nuqtai nazaridan o'rganildi;
- O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos tushadigan hujjatlar ratifikatsiya qilindi;
- mamlakat xalqaro faoliyatini muvofiqlashtirib turadigan qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish, «Qabul qilingan xalqaro shartnomalar to'g'risida»gi qonun, «Konsullik ustavi» shular jumlasidandir. Ulardan tashqari bojxona xizmatining huquqiy asoslarini yaratuvchi qonunlar, Havo kodeksi ham qabul qilindi.

Manfaat, bu zaruriy ehtiyojdir. Ehtiyojlar esa birinchi galda O'zbekiston uchun taraqqiyotning muayyan jug'rofiy va tabiiy, iqlimiy, demografik holatimiz, xalqimizning ko'p millatli tarkibi, uning tarixiy va madaniy merosi, ma'naviyat omili, ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining darajasi, xom ashyo va zamonaviy texnologiya bilan tahminlanganlik, davlatning xalqaro munosabatlardagi o'rni va hokazolardir. Bu omillar O'zbekistonning ehtiyojlarini belgilaydi. Ehtiyojlar esa manfaatlarda o'z ifodasini topadi. Davlat manfaatlari uning tashqi siyosiy faoliyatini belgilaydi. SHu jihatdan, O'zbekistonning tashqi siyosiy manfaatlari xalqaro aloqalarni rivojlantirayotgan, uning tuzilmalari va faoliyatini belgilab berayotgan kuchdir.

Barcha davlat va xalqaro tashkilotlar bilan aloqa qilishda davlatimizning milliy manfaatlaridan kelib chiqiladi. Tabiiyki, bunda sheriklarimiz manfaatlari, ular tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari hisobga olinishi zarur. Zero, o'zaro uzviy bog'liqliksiz tashqi siyosatni tasavvur etib bo'lmaydi.

O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va davlatlararo uyushmalar faoliyatidagi ishtiroki respublika tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu tashkilotlar jahon hamjamiyatiga kirish, xo'jalik aloqalarini o'rganish, ekologiya, tabiiy muammolarni hal etish, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirishda katta yordam bermoqdalar.

Respublika Prezidenti davlatimiz o'z qiyofasini yo'qotmasdan xalqaro talablarga rioya etishga tayyorligini qathiy tasdiqladi. Bu talablarga rioya etmasdan, xalqaro jahon hamjamiyatiga kirib bo'lmaydi. Bu yerda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosidagi kafolatlar, BMT Nizomi va Xelg'sinki kelishuvi qoidalari, hujum qilmaslik, xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish, xalqaro huquq qonunlarining milliy qonunlardan ustuvorligi va hokazolar to'g'risida gap bormoqda. Jahondagi barcha taraqqiyparvar mamlakatlar xuddi shunday yondashuv tarafdoridir.

O'zbekiston butun dunyo ko'z o'ngida tashqi siyosiy va madaniy aloqalarining boy tarixiga ega bo'lgan, mustaqil ravishda zamonaviy diplomatik aloqalarni amalga oshirayotgan tinchliksevar huquqiy davlat sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro huquq jihatidan O'zbekiston uchun asrlar osha buyuk bo'lib kelgan davlatlar ham, davlatchilik tarixi biznikiga o'xshash yosh mamlakatlar ham bab-baravardir.

O'zbekiston taraqqiyotning konstitutsiyaviy asosi sifatida inson huquqlari tiklanmoqda. Xalqimizning ma'naviy imkoniyati, uning katta tabiiy va texnik zahiralari, mustahkamlanib borayotgan xalqaro aloqalari demokratik taraqqiyot va inson huquqlariga rioya etilishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar mavjudligiga ishonch tug'diradi. Natijada mamlakatimiz amalda yalpisiga diplomatik tan olinishiga va xalqaro iqtisodiy aloqalarga tortilishiga yo'l ochib berildi.

XX asrning ohirida dunyoning siyosiy makoni sifat jihatidan o'zgardi. Sovet Ittifoqi xalqlari hamda sobiq «sotsialistik hamdo'stlik»dagi boshqa davlatlar bir partiyaviylik tizimi va markazdan turib rejalashtirish iqtisodiyotidan voz kechishdi. Bu holat dunyoda antogonistik ijtimoiy-siyosiy tuzumlarning global qarama-qarshiligi barham topdi va dunyo siyosatida demokratik jamiyatlar salohiyati ancha oshdi. Yevroosiyo hududida, jumladan, Markaziy va SHarqiy Yevropa davlatlari, shuningdek, sobiq sovet ittifoqi davlatlarining roziligi orqali ijtimoiy-siyosiy tuzumning demokratik shakliga o'tildi. Agar bunday davlatlarda, eng avvalo, Rossiyada amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni muvaffaqiyatli yakunlansa, SHimoliy yarim sharining kattaroq qismi - Yevropa, SHimoliy Amerika, Yevroosiyoda bir-biriga yaqin ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tamoyillar asosida yashovchi, bir-biriga o'xshash qadriyatlarga ehtiqod qiluvchi, shu jumladan, global dunyo siyosati jarayonlariga bir xilda yondashuvchi xalqlar hamjamiyati shakllanadi.

«Birinchi» va «ikkinchi» dunyolar o'rtasidagi qarama-qarshilikka barham berilgandan so'ng avtoritar tuzumlar Afrika, Lotin Amerika, Osiyodagi o'z tarafdorini qo'llab-quvvatlashdan to'xtadilar. Negaki, bu davlatlar mafkuraviy ittifoqdosh sifatida o'z qiymatlarini yo'qotishdi va natijada moddiy hamda siyosiy yordamdan maxrum bo'lishdi. Oqibatda Somali, Liberiya, Afg'onistonda bo'linish vujudga keldi va fuqarolar urushi boshlanib ketdi. Boshqa davlatlarning ko'pchiligi esa, masalan, Efiopiya, Nikaragua, Jazoir avtoritarizmdan voz kecha boshlashdi.

«Sovuq urush» bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan barcha qithalarda kechgan keng miqyosli demokratiyalashtirish jarayoni XX asr 80-yillarning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Braziliya, Argentina, CHili boshqaruvning harbiy-avtoritar shaklidan fuqarolik-parlamentar shakllariga o'tishdi. Bunday tendentsiya Markaziy Amerikada sal kechroq tarqaldi. Ushbu jarayonning ehtiborli natijalaridan biri shuki, 1994 yil 14 dekabrda SHimoliy va Janubiy Amerika mamlakatlari boshliqlarining uchrashuvida qatnashgan 34 ta davlat rahbari o'z davlatlarining demokartik yo'l bilan saylangan liderlari edilar. SHunga o'xshash demokratiklashtirish jarayonlari Osiyo Tinch okeani hududi - Filippin, Tayvang', Janubiy Koreya, Tailandda kuzatildi. 1998 yilda Pokistonda harbiy tuzum o'rniga saylangan hukumat keldi. Janubiy Afrika respublikasining aparteid siyosatidan voz kechishi demokratiyaga qarab yo'l olinganligini ko'rsatdi. Afrikaning boshqa joylarida avtoritarizm jarayoni anchagina sekin kechdi. Biroq inqirozga uchrashi, Gana, Benin, Keniya, Zimbabveda demokratik islohotlarning ma'lum darajada oldinga siljishi demokratiyalashuv to'liqini bu qithaga ham tahsir qilmasdan o'tmaganini ko'rsatadi.

Aytib o'tish lozimki, demokratiya yetuklikning bir necha darajasiga ega. Bu frantsuz hamda amerika inqilobi davrlaridan boshlab, bugungi kungacha demokratik jamiyatlarning rivojlanishida yaqqol namoyon bo'ldi. Qator Afrika mamlakatlarida yoki sobiq ittifoq o'rnida paydo bo'lgan yangi mustaqil davlatlarning ayrimlarida muntazam ko'ppartiyaviylik saylovlari ko'rinishiga ega bo'lgan demokratiyaning ilk shakllari, aytaylik, G'arbiy Yevropa tipidagi yetuk demokratiya shakllaridan anchagina farq qiladi. Agar Linkolg'ning demokratiyaga bergan «xalq tanlagan saylagan va xalq manfaatlariga muvofiq amalga oshiriladigan xalq boshqaruvi» tahrifidan kelib chiqadigan bo'lsak, eng ilg'or demokratiyalar ham mukammal emasdir.

XX asr 80-yillar oxiri - 90-yillar boshlarida ijtimoiy-siyosiy modellarning global almashinuv jarayoni turli davlatlarda turlicha kechgan bo'lsa-da, uning yer yuzining yarmidan ko'pini qamrab olganligi bois, jahon hamjamiyati ijtimoiy-siyosiy maydonining sifat o'zgarishi to'g'risida xulosa qilish mumkin bo'ladi. Jamiyatlarni tashkil etishning demokratik shaklli tafovutlar, bahzan esa muayyan davlatlar o'rtasida keskin ziddiyatli vaziyatlardan ham xoli emas. Masalan, bugungi kunda Hindiston va Pokiston, Gretsiya va Turkiyada parlamentar boshqaruv joriy etilgan bo'lsa-da, ular o'rtasidagi munosabatlarda xavfli keskinlik mavjud. Rossiya kommunizmdan demokratiyaga qarab ancha yo'l bosib o'tgan bo'lsa-da, baribir, aytaylik, NATOni kengaytirish yoki Saddam Husayn, Slobadan Miloslovich tuzumlariga qarshi harbiy kuchni ishlatish masalalari bo'yicha Yevropa davlatlari va AQSH bilan oralarida kelishmovchilik yuzaga kelgan edi. Lekin muhimi shuki, tarixda demokratik davlatlar bir-birlari bilan urush qilishmagan.

Jahon tarixining tadqiq etilishi shuni ko'rsatmoqdaki, demokratiyalar avtoritar tuzumlar bilan urush olib boradilar va juda ko'p boshqa demokratik davlatlar bilan ziddiyatlarga borsalar ham, xech qachon bu narsa urushgacha yetib bormagan. Vestfalg' tizimi mavjud davr mobaynida demokratik davlatlar o'rtasidagi munosabatlar tor doira bo'lganligi va ularning hamjixat bo'lishlariga avtoritar davlatlar tahsir etganligini ko'rsatuvchi tanqidchilarda bunga ma'lum bir asos bor ekanligini tan olish zarur. Avtoritar davlatlar tomonidan tahdidning yo'qolishi yoki kamayishi bilan demokratik davlatlar bir-birlari bilan munosabatda o'zlarini qanday tutishlari ham noma'lum.

Agar XXI asrda ham demokratik davlatlarning o'zaro tinch munosabatlaridagi qonuniyat buzilmasa, unda hozir dunyoda ro'y berayotgan demokratiyani kengayishi dunyo global zonasining ham kengayishini anglatadi. Ehtimol, yangi shakllanayotgan xalqaro munosabatlar tizmining Vestfalg' tizimidan birinchi va asosiy farqi aynan mana shundadir.

Global miqyosda demokratiya va avtoritarizm o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi amerikalik tadqiqotchi F.Fukuyamaning demokratiya g'alabasini ovoza qilishiga hamda shu mahnoda tarixiy formatsiyalar o'rtasidagi kurash sifatida «tarixning yakunlanganligi» tug'risida ehlon qilishga asos bo'lib xizmat qildi. Biroq, demokratiyaning keng miqyosda yoyilib borayotgani uning to'liq g'alabasi degani emas. Kommunizm biroz o'zgartirilgan ko'rinishda bo'lsa-da,

Xitoy, Vg'etnam, SHimoliy Koreya, Laos, Kubada saqlanib qolindi uning izlarini Sobiq Ittifoqning ayrim davlatlarida, Serbiyada sezish mumkin.

SHimoliy Koreyadan tashqari boshqa barcha sotsialistik mamlakatlarda bozor iqtisodiyoti elementlari paydo bo'lmoqda, ular u yoki mahnoda jahon iqtisodiy tizimiga jalb etilmoqda. Saqlanib qolgan ayrim kommunistik davlatlarning boshqa mamlakatlar bilan munosabatlari «sinfiy kurash» tamoyilidan ko'ra, «Birga tinch yashash» tamoyiliga asoslanadi. Qisman amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va xalqaro iqtisodiy aloqalar uchun ochiq bo'lishlik siyosiy erkinliklarni kengaytirishni talab etuvchi ijtimoiy kuchlarni yuzaga chiqaradi. Biroq, bir partiyaviylik tizimi teskari tomonga qarab ish olib bormoqda. Natijada liberalizmdan avtoritarizmga, avtoritarizmdan tiberalizmga qarab harakat qiluvchi «arg'imchoq» effektini kuzatish mumkin.

XX asr tajribasi ko'rsatmoqdaki, kommunistik tizim muqarrar ravishda shunday tashqi siyosatni ishlab chiqardiki, u demokratik jamiyatlar siyosatiga zid bo'ladi.

Bunday ziddiyatning mavjudligi ular o'rtasidagi harbiy mojaroni keltirib chiqarishi mumkinligi va ular o'rtasidagi munosabatlar bo'la olmasligi xususidagi fikrlar asoslagandir.

Hozirgi kunda dunyoda avtoritar tuzumdagi bir qancha davlatlar mavjud. Avtoritar tuzumda bo'lgan davlatlar orasida alohida o'rinni ekstremistik mazmundagi «islomiy» mamlakatlar - Eron, Sudan, Afg'oniston egallaydi. «Islom fundamentalizmi» nomi bilan ataluvchi islom ekstremizmi xalqaro siyosiy harakati dunyo siyosatiga bu davlatlar o'z tahsirini o'tkazish uchun imkon bermoqda.

G'arb demokratiyasini inkor etuvchi hamda zo'ravonlikka yo'l qo'yuvchi ushbu mafkuraviy oqim so'nggi yillarda Yaqin SHarqning ko'pgina mamlakatlari aholisi va musulmon aholisi yuqori bo'lgan boshqa davlatlarda keng tarqalgan.

Demokratik davlatlar bilan hamkorlik qilishga intilayotgan kommunistik tuzumdagi davlatlardan farqli o'laroq, islom siyosiy ekstremizmi dinamik va Saudiya Arabistoni, Fors ko'rfasi mamlakatlari, Pokiston, Turkiya, Markaziy Osiyo davlatlari barqarorligiga katta xavf tug'dirmoqda.

Avtoritar davlatlarning saqlab qolinishi yoki ular sonining ortishi, extimol, ular o'rtasidagi, shuningdek, demokratik dunyo bilan o'rtalarida harbiy to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin. Albatta, xalqaro munosabatlarning kelgusidagi rivojini tadqiq etishda demokratiya o'rtasidagi munosabatlar qonuniyatlarini, demokratiyaning avtoritar tuzumlarga tahsirini yaxshilab tahlil etish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Xarbiy doktrinasini, uning siyosiy va harbiy jihatlari. 1995 yil 30 avgustda "O'zbekiston Reepublikasining harbiy doktrinasini to'g'risida" Oliy Majlis qarori qabul qilindi. Parlament mamlakatning davlat va milliy xavfsizligini mustahkamlash bilan bog'liq vazifalarni hal etishni tahminlovchi mazkur Oliy Majlis qarori katta siyosiy va harbiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Harbiy doktrina davlatimizning tinchliksevar tashqi siyosiy yo'lini yana bir bor namoyon etdi. U O'zbekistonning xalqaro obro'-ehtibori va jahon maydonidagi mavqeini oshirdi. O'zRning harbiy doktrinasini 3 qismdan iborat.

I. Umumiy qoidalar. Harbiy doktrina O'zR mudofaa siyosatining negizini tashkil etadi va milliy xavfsizlik kontseptsiyasining tarkibiy qismi bo'lib, tashqi siyosat, davlatlararo munosabat masalalariga, urush va tinchlik muammolariga yangicha yondashuvlarga asoslanadi. O'zR mustaqil davlat va xalqaro munosabatlarning sub'ekti sifatida o'z mudofaa siyosatini barcha mamlakatlarning tinch-totuv yashashi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ularning mustaqilligini, chegaralar buzilmasligi va o'zgarmasligini hurmat qilish printsiplariga asoslanadi.

II. Doktrinaning siyosiy jihatlari.

O'zbekiston Respublikasining urushga munosabati. Bunda tashqi siyosatning asosiy vazifasi: xalqaro va davlatlararo muammolarni urush yo'li bilan hal etishga qarshi, harbiy majoralarni diplomatiya vositasida bartaraf qilish, ziddiyatli holatlarga barham berish, yengishga kuch-g'ayrat sarflash.

Urushning va urush xavfining oldini olish - bosh strategik yo'nalish. Urushlar va harbiy mojarolarning oldini olish, harbiy bloklarga kirmaslik. O'zR Qurolli Kuchlarini boshqa davlatga qarshi ishga solmaydi, hech kimga tahdid qilmaydi. "Yadro qurolisiz yashaydi". Umumiy xavfsizlikni saqlashda BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar rolini oshiradi. Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligini tahminlaydi, tizimni yaratadi. Faqat tinchlik uchun kurash olib boradi. Odam ruhiyatiga halokatli tahsir etuvchi vositalarni ishlab chiqishni taqiqlaydi. Harbiy sohadagi aloqalarni kengaytiradi. Milliy va diniy murosasizlikka yo'l qo'ymaydi. Fundamentalizm, ekstremizm, terrorchilikning kuchayish tendentsiyasiga yo'l qo'ymaydi. Tinchlikni saqlashdagi majburiyatlarga amal qiladi. va h.k.

III. Doktrinaning harbiy-tashkiliy jihatlari.

Markaziy Osiyo mintaqasining o'ziga xos xususiyatlari. Bunda shu mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun qathiy va izchil harakat qiladi. Xavfsizlikni tahminlab boradi. Urushlarning oldini oladi.

Harbiy xavfning potentsial manbalari. Jahon turli mintaqalarida qurolli guruhlar yuzqori darajada jamlangan va h.k.

Hozirgi zamon urushlarining xususiyati va oqibatlari. Yadro urushi insoniyat uchun halokat manbai. Insoniyatni vayron qiluvchi qurollarning ishlab chiqarilishiga qarshi, tajovuzkorlik siyosatini qoralaydi va h.k.

Bosh harbiy-strategik vazifalar. Tinchlik davrida davlat mudofaa qobiliyatini rivojlantiradi. Urush chiqqan taqdirda o'z kuchlari bilan tegishli shartnomalar orqali harakat qiladi.

Qurolli Kuchlar qurilishi va ularni strategik qo'llash printsiplari.

Kurolli kuchlardan foydalanish shartlari.

Respublika iqtisodiyotini, hududini va aholisini mudofaaga tayyorlash harbiy doktrinaning huquqiy asoslari.

Xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda jahon hamjamiyati tomonidan ehtirol etilgan demokratik qadriyatlar, xalqaro huquq asosida o'z tashqi siyosatini yuritish, munosabatlarda kuch ishlatmasdan muzokaralar yordamida muammolarni hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralmashmaslik va davlatlarning suvereniteti hududiy yaxlitligini hurmat qilish muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston o'z diplomatiyasini yuqoridagi qadriyatlar asosida olib bormoqda.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlashda Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik ijobiy samara bermoqda. O'zbekiston xalq xo'jaligidagi aniq loyihalarga sarflanayotgan xorijiy sarmoyalar miqdori yildan-yilga ortib borayapti. Keyingi yillarda qad ko'tarayotgan zamonaviy inshootlar va yirik korxonalar bunga misol bo'la oladi.

2. O'zbekiston Respublikasining diplomatik aloqalarida demokratik tamoyillar

Istiqlolning dastlabki yillaridanoq bevosita mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov rahbarligida tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlari va asosiy tamoyillari belgilandi hamda og'ishmay amalga oshirila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi diplomatik aloqalarda amalga oshirilayotgan demokratik siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- 1) mafkuraviy qarashlardan qathiy nazar, hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- 2) davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;
- 3) nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
- 4) kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- 5) inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;

6) ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umumehtirof etilgan qoidolari va normalarining ustuvorligi;

7) tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;

8) davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik ustunligi;


9) tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik va boshqalar.

Bu tamoyillarga davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umumehtirof etilgan qoidolari asos qilib olinadi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan o'zaro manfaatli hamkorligining istiqbollari. O'zbekiston o'z taraqqiyotida, tashqi siyosat borasida Amerika Ko'shma SHtatlari bilan hamkorlikka katta ehtibor qaratmoqda. Mustaqillik yillarida ikki mamlakat o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va harbiy sohalaridagi hamkorlik aloqalari o'zining rivojlanish bosqichiga chiqdi. 1992 yilda Toshkent va Vashingtonda elchixonalar ochildi, 1995 yil aprelida AQSH hamkorligida NATOning "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi doirasida harbiy o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. 1996 yilgacha O'zbekistonda 200 ta o'zbek-amerika ko'shma korxonalari tashkil topdi. O'zR Prezidenti I.Karimov 1996 yil 23-28 iyung' kunlari AQSHga rasmiy tashrif bilan bordi. 25 iyunda AQSH prezidenti Bill Klinton bilan uchrashdi. Bu uchrashuv jahon integratsiyalashuvida mintaqaviy taraqqiyotda ulkan ahamiyatga ega bo'ldi. 1997 yil 5 fevralda Prezident I.Karimov AQSH davlat kotibini qabul qildi. Uchrashuvda ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish muhokama etildi. O'zbekiston AQSHning Afg'oniston va Iroqdagi terroristik aqidaparastlarga qarshi kurashini qo'llab-quvvatladi. Prezidentimiz BMT BASining 48,50 yillik yig'ilishlari va ming yillik samitlarida mintaqaviy muammolarni dolzarb mavzu sifatida ko'tarib keldi.

O'zbekiston tashqi siyosatda Yevropadagi rivojlangan mamlakatlar bilan aloqalar o'rnatish jiddiy ehtibor berdi. O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasidagi (1993 yil 28 aprelida) munosabatlar keng yo'lga qo'yildi. Toshkentda ikki tomonlama savdo-iqtisodiy palatasi tashkil topdi, GFR elchixonasi ochildi.

1994 yil 9-12 iyunda O'zbekiston davlat delegatsiyasi Niderlandiya (Gollandiya)da bo'ldi. Dehqonchilik va chorvadorlar xo'jaligida bo'lib ular bilan suhbatlashdi. Savdo-iqtisodiy hamkorlik haqida protokol imzolandi. Gollandiya agroxo'jaligining texnologiyasi O'zbekistonda foydalanishga kelishildi. Bugungi kunda O'zbekistonda Gollandiya kartoshka urug'lari ekilib hosil yetishtirilmoqda.



O'zbekiston bilan Frantsiya o'rtasida munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Frantsiya bilan do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma, madaniyat, ilmiy-texnaviy va maorif sohasida hamkorlik qilish to'g'risida sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish, himoyalash to'g'risida bitimlar imzolandi. Bugungi kunda O'zbekiston-Frantsiya o'rtasida iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalar kengayib bormoqda. Qishloq xo'jaligi

mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat, gaz sanoati, qurilish va boshqa sohalarda hamkorlik qilinmoqda.

1993 yil 22-25 noyabrlarda O'zbekiston Prezidenti I.Karimov boshliq delegatsiyasining rasmiy amaliy tashrif bilan Buyuk Britaniya va SHimoliy Irlandiya birlashgan qirolligida bo'lishi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik tarixida buyuk voqea bo'ldi. "Toshkent-London" havo yo'li qatnash yo'lga qo'yildi.

Umuman, O'zbekiston Yevropadagi Finlyandiya, Avstriya, Belg'giya, SHveytsariya, Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Polg'sha, Vengriya, CHexiya, Slovakiya, Xorvatiya, Bolgariya kabi Yevropa mamlakatlari bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatib kelmoqda va bu aloqalar bugungi kunda yanada kengayib borayapti.

O'zbekiston mustaqillik yillarida yaqin, O'rta SHarq va Arab mamlakatlari, shuningdek, SHarq va Tinch okean havzasi mamlakatlari bilan ham ikki va ko'p tomonlama aloqalarni o'rnatib, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnika sohasida istiqbolli natijalarga erishmoqda.

O'zbekistonda investitsion muhitni shakllantirish, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni vujudga keltirish bo'yicha aloqalar rivojlanib bormoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish jarayoni izchillik bilan davom ettirilmoqda. Ayni paytda mamlakatni jahon bilan bog'lovchi kommunikatsion tizimlarni rivojlantirishga katta ahamiyat berilayapti. CHet ellardagi taniqli iqtisodchilar, xorijiy kompaniyalar vakolatxonalari rahbarlari va mutaxassislari, yozuvchilar va jurnalistlar bu tadbirlar tufayli O'zbekiston yaqin kelajakda mintaqadagi eng ilg'or davlatlardan biriga aylanishini bashorat qilmoqdalar.

Mamlakatimizning boy yer osti va usti resurslari, malakali mutaxassislari, Markaziy Osiyodagi yetakchi mavqei ham jahon davlatlarini hamkorlikka undamoqda. O'zbekiston hozirgi paytda 130dan ortiq xorijiy mamlakatlar bilan savdo-sotiq qiladi. Yurtimizdagi 15 mingga yaqin korxona mahsulotlar eksport-importi bilan shug'ullanmoqda. Xalqaro munosabatlar ravnaqi mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikning, aholi turmush darajasini yuksaltirishning o'ziga xos kafolati ekanligi hech kimga sir emas.

O'zbekiston bir qator xalqaro tashkilotlar - Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT), Iqtisodiy hamkorlik tashkildoti (EKO) bilan teng huquqli ahzo sifatida, Yevropa Ittifoqi, NATO bilan esa maxsus bitimlar asosida samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Jumladan, NATO bilan «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi doirasidagi aloqalarimiz mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga munosib hissa qo'shmoqda. AQSH va boshqa yetakchi davlatlar askarlari bilan birgalikda har yili o'tkazilayotgan harbiy mashqlar qurolli kuchlarimiz uchun o'ziga xos mahorat maktabi bo'layapti.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga ahzo davlatlar rahbarlari va hukumat boshliqlarining Istanbul shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvi davrimizning eng muhim anjumanlaridan bir bo'ldi. Respublikamiz Prezidentining mazkur anjumandagi nutqi, aniq takliflari va mulohazalari bilan yig'ilganlar ehtiborini qozondi. Ayniqsa, terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro markaz tashkil etish borasidagi taklif ko'plab davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida ana shunday markazning tahsis etilishiga ham O'zbekiston rahbariyatining taklifi sabab bo'ldi.

O'zbekiston o'zining tashqi aloqalarini ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama asosda tashkil etish tarafdoridir. Bugungi kunda yer yuzining turli chekkalarida ishonchli va manfaatdor sheriklarimiz bor. Ularning doirasi muntazam kengayib bormoqda. Bu munosabatlar ikkala davlatlar uchun ham muhim bo'lgan yo'nalishlarda izchillik bilan rivojlanib bormoqda. O'zbekiston rasmiy hayhatining 2002 yilda AQSHga tashrifi, strategik hamkorlikning vujudga kelishi va imzolangan hujjatlar, bir qator xalqaro anjumanlarda ikki davlat rahbarining o'zaro muloqotlari, samimiy yozishmalar o'zaro aloqalar darajasidan dalolat beradi. Dunyoning yetakchi davlati, juda katta siyosiy, iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, intellektual salohiyatga ega bo'lgan AQSH bilan har tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish mamlakatimiz uchun muhim ahamiyatga ega.

Evropa Ittifoqi bilan 1996 yilda imzolangan sheriklik va hamkorlik haqidagi shartnoma 1999 yilning 1 iyulida kuchga kirdi. Mamlakatimizning Yevropa davlatlari bilan keng miqyosli

aloqalari uchun qulay imkoniyat vujudga keldi. Tabiiyki, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya kabi ilg'or davlatlarning demokratik jamiyat qurish borasidagi tajribalari, ishlab chiqarishdagi ilg'or texnologiyalari biz uchun muhim ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda SHarqiy va Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari- Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy va boshqa davlatlar bilan aloqalarimiz kengaydi. O'zaro manfaatli hamkorligimiz samaralarini birga qurilayotgan korxonalarda, qad ko'tarayotgan inshootlarda, bozorlarimizdagi xilma-xil mahsulotlarda ko'rish mumkin.

Albatta, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga ahzo mamlakatlar, shu jumladan, Markaziy Osiyo respublikalari bilan hamkorlik tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunga sabab, Hamdo'stlik mamlakatlarimizning hududiy yaqinligi va iqtisodiy jihatdan bog'langanligigina emas, balki chuqur tarixiy ildizlar, madaniy va ma'naviy aloqalar, katta tarixiy davr mobaynida xalqlarimizning mushtarak taqdirga ega bo'lganligidir.

Rossiya Federatsiyasi bilan mustaqillik yillarida shakllangan o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlik yaxshi samara berayotganligini alohida ta'kidlash zarur. Ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan 1992 yildan buyon siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarida jami 150 dan ortiq hujjat imzolangan. 1998 yil may oyida I.Karimovning Rossiyaga va o'sha yil oktyabrida B.El'g'itsinning mamlakatimizga rasmiy tashriflari, safar davomida qabul qilingan hujjatlar, ayniqsa, 1998-2007 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma o'zaro aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. V.Putin prezident sifatida ilk safarni O'zbekistondan boshlaganligi ham Rossiya rahbariyati mamlakatimizni o'zining strategik sheriklaridan biri, Markaziy Osiyodagi yetakchi davlat deb bilishidan dalolat beradi.

O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasida yagona iqtisodiy makon tashkil etish haqida imzolangan shartnoma Markaziy Osiyo integratsiyasi yo'lidagi ilk qadam bo'lgan edi. 1998 yili bu shartnomaga Tojikiston ham qo'shildi. Hozirgacha o'zaro hamkorlik haqida 150 dan ortiq hujjat imzolandi. Endilikda Davlatlararo kengash ishlab turibdi, Hamdo'stlik dasturlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha ijroiya qo'mita, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etilgan. Mazkur integratsiya xalqimizning manfaatlariga to'la mos keladi, mintaqamizda barqarorlik va tinchlikni mustahkamlashga yordam beradi. 2000 yil 20-21 aprelg' kunlari O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston prezidentlarining Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvi chog'ida imzolangan terrorizmga, siyosiy va diniy ekstremizmga, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash yuzasidan birgalikdagi harakatlar to'g'risidagi shartnoma bunga misol bo'la oladi.

Mamlakatimiz rahbari o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida tarixni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o'rtasida hamkorlik va ishonch olg'a harakatlantiradi, deb ta'kidlagan edi. O'zbekistonning keng miqyosli xalqaro aloqalari ana shu fikrning amaliy ifodasidir.

Prezident Islom Karimovning 2005 yil 14 yanvarda "Nezavisimaya gazeta" (Moskva) muhbiri savollariga bergan javoblari ("Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi" suhbatida). 2005 yil 14 yanvarda Prezident Islom Karimov "Nezavisimaya gazeta" (Moskva) muxbirining savollariga bergan javoblari "Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi" deb nomlandi, 2004 yil MDH mamlakatlari uchun Ukrainadagi "zarg'aldoq inqilobi" bilan yakunlandi. Ko'pchilikning fikricha, Gruziya va Ukrainada so'nggi paytlarda sodir bo'lgan voqealarda G'arbning tahsiri bor-yo'qligi xususida bir necha mavjud omillar haqida gapirdi. **Bu 1) dan qator yillar mazkur mamlakatda ichki norozilik to'planib borgan; 2) ikkinchi omil esa davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan bog'liq.** Tashqi omil, tahsir mamlakatning ichki hayotida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarida o'z yechimini topmagan. Jamiyatning o'zi keskin o'zgarishlarga tayyor bo'lmasa hech qanday Amerika yoki Yevropa voqealarni o'zicha o'zgartira olmaydi. SHu bois O'zbekistonda Ukraina yoki Gruziya stsenariysi bo'lmaydi. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashgan. Bizga bunday fikrda bo'lganlar boshqacha tarbiya ko'rgan, odamlarimiz mentaliteti boshqacha. Bu XX asr 90-yilda tanlagan yo'limiz, demokratik

yangilanish, fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan qaytadi degan gap emas. Faqat har kim bu yo'lni o'ziga xos yo'sinda bosib o'tadi. SHu sabab o'zimiz zamin yaratib qo'ymasak tashqaridan turib aralashuv hech qanday samara bermaydi.

Ukrainada "baxmal inqilob" uzoq tayyorgarlik ko'rilganiga bog'liq. Mamlakatda qancha nohukumat tashkilotlari mavjud, ular qanday manbalardan moliyaviy madad olayotganliklariga ehtibor bersak, Hammasi oydinlashadi. O'zbekistonda bu jarayon kuzatilib borilmoqda. Maqsadimiz, hakiqatan ham shu loyihalar insonparvarlik maqsadini ko'zlaydimi, shunga bog'liq. Ekstremistlar bizga qarshi, chunki biz ularni tahqib qilib, faoliyatini avj oldirishga yo'l bermadik. **Qirg'istonda bunday vaziyatning** yuzaga kelganligi esa "demokratiya taqchilligini" qoplashga yo'naltirilgan mablag'lar G'arbdan kelayotganligini Akaevning o'zi aytgan edi.

O'zbekistonda professional parlamentning shakllanishi shundan dalolat beradiki, davlatni isloh qilishda biz yetilib kelayotgan, davr ilgari surgan o'zgarishlar qonunchilik asosida borayapti. Xalq hokimiyatini, fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlashimiz zarur. Biz demokratik davlatni barpo etishimiz kerak. Bu davlat XXI asr talablariga javob beradigan diktaturasiz davlat bo'ladi. Diktatura bir odamning, bitta tuzilmaning zo'rovanligidir. Demokratik davlat kutishning boshlang'ich davrini boshimizdan kechirayapmiz. Tunda shoshilib bo'lmaydi. Amerika ham 200 yildan buyon o'z Konstitutsiyasi mohiyatini to'ltirib kelmoqda.

Eng muhimi islohotlar odamlar hayotiga qanday tahsir qilayotganligida. Biz faqat siyosiy sohanigina emas, balki iqtisodiyotni, ijtimoiy hayotni, ma'naviy-axloqiy sohani isloh qilishimiz zarur.

Qonunlarimiz qanchalik mukammal bo'lmasin mustaqil sud tizimiga ega bo'lmasdan turib bu qonunlarni to'la qo'llash qiyin. Prokuraturaga, uning roliga jiddiy tuzatishlar kiritish kerak. Rossiya NATO bilan harbiy-mudofa mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha hamkorlik qilishga tayyor.

Rossiya Qirg'iston va Tojikistondagi kabi O'zbekistonda ham o'z harbiy bazasini joylashtirmaydi. O'zbekistondan Amerika harbiy xavo kuchlarini chiqarib yuborish masalasini kelishib olgan. Prezident saylovi, Xalqaro terrorchilikka qarshi kurashish masalalari bo'yicha ham o'z qarashlarini bayon etdi. "Xalqaro terrorizm" tushunchasi 2001 yil II sentyabrdan keyin yuzaga keldi. MDHning kelajagi xususida ham Islom Karimov to'la javob qaytarib, davlatlar rahbarlariga bog'liqligini bayon etdi.

O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi. Prezidentimiz asarlarida ta'kidlanganidek, "Biz jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv haqida gapirganimizda eng avvalo BMT faoliyatida ishtirok etishimizni nazarda tutamiz". 1992 yil 2 martda O'zbekiston BMTga ahzo bo'ldi. O'zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnomaligida 1995 yili Toshkentda Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik muammolariga bag'ishlangan xalqaro seminar o'tkazildi. Unda 20 ta xalqaro tashkilot va jahonning 30 dan ortiq mamlakati, AQSH, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Pokiston, Eron va boshqa davlatlarning diplomatiya hamda hukumat vakillari ishtirok etdi. SHarqdan Yaponiya, G'arbdan Germaniyani BMTning Xavfsizlik Kengashiga ahzo qilib saylash haqida Prezidentimiz **I.Karimov BMTning 1993, 1995 yillari 48, 50-sessiyalarida 2000 yili "Ming yillik sammiti"**da taklif qilgan edi.

O'zbekiston BMTning **ixtisoslashgan** tashkilotlari bo'lgan YuNESKO, JSST, Xalqaro mehnat tashkiloti, YuNKTAD, YuNISEF va boshqa tashkilotlar bilan keng hamkorlik ishlari yurgizilmoqda.

Iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik ham yo'lga qo'yilgan. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, integratsiyalashuvni ta'minlashda xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar: Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ham katta yordam ko'rsatmoqda.

Mintaqaviy xalqaro tashkilotlarda: O'zbekiston ana shu mintaqaviy xalqaro tashkilotlar bilan Yevropa Ittifoqi, YeXHT, NATO, EKO, OIK, Qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan hamkorlik qilmoqda. Bular orasida Yevropa Ittifoqi alohida o'rin tutadi. 1996 yilda YeI bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda bir qancha ishlar qilindi.

O'zbekiston tashqi siyosatining Yevropa yo'nalishi ancha kengaydi. Prezidentimiz Islom Karimov 2005 yil 28 yanvardagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma yig'ilishidagi mahruzasida ana shu xalqaro va mintqaviy tashkilotlar bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarga ko'proq diqqat qaratdi. Prezidentimiz Yevropa qithasidagi Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti, Yevropa Ittifoqi va NATO kabi muhim tuzilmalar bilan yurtimizda demokratik va bozor islohotlarini chuqurlashtirish, mamlakatimizda va umuman mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasida hamkorlikni mustahkamlashdan manfaatdormiz, "O'zbekiston jahondagi yirik, xalqaro maydonda yetakchi o'rin tutgan davlatlar – AQSH, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Frantsiya va Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga alohida ehtibor beradi", degan edi.

“Bugungi kunda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash dunyo mamlakatlarini birlashtiradigan asosiy omil bo'lib qolmoqda”.

Boshqa xalkaro tashkilotlar Osiyo mintaqasida Turkiy tilli davlatlar o'rtasida munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirib borilmokda.

Umuman O'zbekiston bugungi kunda Prezidentimizning adolatli va tinchlik siyosati tufayli dunyoga yuz tutmoqda. O'zbekiston ochiq mamlakat ekan unga barcha xalqaro va mintqaviy tashkilotlar katta qiziqish bilan qarab O'zbekiston bilan diplomatik alokalarini keng ikki va ko'p tomonlama olib bormoqdalar. Bu ishlarda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning xizmatlari katta.

«6+2» guruhi. (1998-2001 yillar). BMT kotibiyati binosida 1998 yil 21 sentyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan tashkil topgandi. Bu guruh Afg'onistondagi harbiy mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal etishga qaratilgan edi. Mazkur guruhga: Eron IR, Xitoy XR, Pokiston IR, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston + AQSH va Rossiya davlatlari kirgan edi.

1997 yil 19-20 iyul kunlari «6+2» guruhining Toshkentda dastlabki uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda birinchi bor muxolif tomonlarning yuzma-yuz muzokara olib borishlari uchun imkon yaratilganligini andjuman yakunida «Afg'oniston mojarosini tinch yo'l bilan hal etishning asosiy printsiplari» haqida Deklaratsiyaning qabul qilinishini xalqaro jamoatchilik afg'on zaminida tinchlik o'rnatish borasida tashlangan jiddiy qadam sifatida baholadi.

Mazkur anjuman O'zbekiston rahbariyatining ko'p yillik sahyi-harakatlari natijasi bo'ldi. Afg'onistondagi urushning o'z vaqtida tinch yo'l bilan hal etilmasligi mintaqaviy va global xavfsizlikka tahdid solishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 1993 va 1995 yillardagi sessiyalarida, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti sammiti va boshqa qator muhim anjumanlarda xalqaro hamjamiyat diqqat ehtiborini afg'on xalqini urush dahshatlaridan xalos etish, mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish masalalariga jalb etgan edi.

1999 yil 19-20 iyulda Toshkent anjumanida «Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etishning asosiy tamoyillari to'g'risida»gi Toshkent Dekloratsiyasi imzolandi. Bu hujjatda Afg'onistonda yangi hukumat tuzish, mojaroni tinch yo'l bilan hal etish, qachoqlarni qaytarish, minalardan tozalash, umumiy bitim imzolash, moliyaviy yordam kabi mintaqaviy dolzarb g'oyalar ko'tarilgan edi. Lekin 2001 yil 11 sentyabrda Umarshayx boshchiligidagi tolibon qo'shinlari, islom ekstremistlari AQSHga terroristik xurujidan so'ng NATO blokiga ahzo davlatlarning harbiy kuchlari Afg'onistonga kiritilib, islomiy tolibon qo'shinlari tor-mor bo'lgach «6+2» guruhi o'z-o'zidan barham topdi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi davlatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalari. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yosh mustaqil davlatlar: Qozog'iston, Qirg'iston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik, do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Bu 5 davlat tarixi, madaniyati, tili va dilining birligidan, tomirlarining tutashib ketganligidan kelib chiquvchi jiddiy siyosat, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo'lidir. 1991 yil 13 dekabrda Ashxobodda O'rta Osiyo va Qozog'iston davlat boshliqlarining uchrashuvida Tajan-Seraxo temir yo'l qurilishi bo'yicha

bitim imzolandi. 1993 yil yanvarida Toshkentdagi uchrashuvda Markaziy Osiyo Xamdo'stligiga asos solindi. SHu tariqa "Markaziy Osiyo" degan yangi atama paylo bo'ldi.

1993 yil martida Qizil O'rdada Markaziy Osiyo davlatlarining Rossiya davlat vakillari ishtirokida "Orol muammosi bo'yicha" birgalikdagi harakatlar bitimi imzolandi. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi tahsis etildi. 2 yilga uning raisi qilib N.Nazarboev saylandi.

1994 yil 10 yanvarda Qozog'iston Respublikasi bilan yagona iqtisodiy makonni tashkil etish haqida shartnoma imzolandi. 1994 yil 16 yanvarda Qirg'iston bilan yagona iqtisodiy makon to'g'risida bitim imzolandi. 1995 yil 14 aprelda CHimkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iston Prezidentlarining uchrashuvida Tojikiston va Avg'oniston chegarasidagi vaziyat haqida kelishildi. 1994 yil 8 iyulda Almatida mazkur 3 davlat rahbarlari uchrashuvda murojaatnoma qabul qildilar.

1994 yili O'zbekistonda Qozog'iston Respublikasi Kunlari o'tkazildi va unda O'zbekiston-Qozog'iston Markazini tuzish kelishib olindi. O'zbekistonda 605 ta qozoq maktabi bo'lib, unda 15 ming bola o'qiydi. O'zbekiston Qozog'iston bilan ikki tomonlama aloqalarni keng yo'lga qo'yib bormoqda. Markaziy Osiyo davlat rahbarlari 1993 yil 26 martda Qozog'iston Raisining Qizil O'rda shahrida, 1994 yil 11 yanvarda Nukus shahrida, 1995 yil 3 martda Toshovuz shahrida, 1995 yil 20 sentyabrda yana Nukus shahrida Orol dengizi muamosiga bag'ishlab amaliy uchrashuvlar o'tkazildi. SHuningdek 1997 yil 28 fevralda Almatida, 1999 yilda Toshovushda Orol masalasiga bag'ishlab uchrashuvlar o'tkazildi.

1994 yil 23 mayda O'zbekistonda Qozog'iston kunlarining ochilishiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishida Prezidentimiz I.Karimov "Tariximiz ham, kelajagimiz ham mushtarak" mavzusida nutq so'zlad. Xuddi, shuningek Prezidentimiz Islom Karimov 1995 yil 20 mayda Qozog'istonda O'zbekiston kunlarining tantanali yig'ilishida "Do'stligimiz quyoshi ming yilliklar qahridan nur sachadi" mavzusida nutq so'zlab, "Turkiston -umumiy uyimiz" g'oyasini ilgari surgan edi. 1995 yil 5 mayda 2-sessiyada ham shu g'oya, shior ilgari surildi, bular mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qildi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama o'zaro hamkorlik milliy xavfsizlikning asosiy shartlaridan biridir.

Demak, ko'p tomonlama aloqalarni o'rnatish 1) dan Markaziy Osiyo respublikalari-ning iqtisodiy integratsiyasi bilan chambarchas bog'liq. Bu uchrashuvlarda mintaqaviy muammolar yechimi yuzasidan o'tkazilib kelindi. 2000 yil 14-15 iyun kunlari Dushanbeda, 2001 yil 9 yanvarda Olmati sammitlari O'rta Osiyoning iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy vaziyatiga tegishli qator takliflarni ilgari surdi. 2) dan, O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri O'rta Osiyodagi yaqin mustaqil davlatlar bilan o'zaro madaniyat kunlarini o'tkazish, do'stlik aloqalarini mustahkamlashga, bu davlatlar o'rtasida Orol muammolarini sog'lomlashtirish, norkobiznes, qirg'in qurollarini olib kelish, tayyorlash va harbiy qurollarni joylashtirish masalalariga qarshi faqat mintaqamizda emas, balki jahon xalqaro tashkilotlari ham unga ehtibor berayotganligidir.

Yadrosiz hududlar maqomi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoni yadrosiz zona, deb ehlon kilish tashabbusini ilgari surdi. «Hozirgi zamon voqeligi shundayki, bir mamlakatning xavfsizligi boshqa davlat hisobidan tahminlanishi mumkin emas» – dedi yurtboshimiz o'z nutqida, mintaq xavfsizligini butun jahon xavfsizligi muammolaridan ajratgan holda ko'rib bo'lmaydi. SHunga asoslanib, O'zbekiston yadro qurolining batamom tugatilishi uchun, yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomaning samarali harakat qilishi va uning hech bir muddatsiz uzaytirilishi uchun harakat qiladi.... O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining yadrosiz zona, deb ehlon qilinishining qathiy tarafdoridir».

Mazkur tashabbus Prezidentimizning 1996 yil dekabrda bo'lib o'tgan YeXHT Lissabon uchrashuvida so'zlagan nutqida yana bir bor yig'ilganlar ehtiboriga havola etildi. Anjuman qatnashchilari Markaziy Osiyoni yadrosiz zona, deb ehlon qilish haqidagi fikrini katta qoniqish bilan kutib oldilar.

1997 yil aprelg' oyida Jeneva shahrida Markaziy Osiyodagi besh davlat ekspertlari mintakaviy guruhining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. O'sha yili iyun oyida O'zbekiston hayhati birinchi bor atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) boshqaruvchilari kengashining Vena shahrida bo'lib o'tgan navbatdagi sessiyasida ishtirok etdi. O'zbekiston hayhati rahbarining rasmiy bayonotida O'zbekiston Respublikasi va mintaqadagi boshqa davlatlarning yadrosiz zona tashkil etish borasidagi qarashlari bayon etildi.

1997 yil 14-16 sentyabr kunlari Toshkentda «Markaziy Osiyo - yadro qurolidan xoli zona» mavzuida xalqaro konferentsiya bo'lib o'tdi. Unda 56 mamlakatdan va 16 xalqaro tashkilotdan 200 dan ortiq kishi ishtirok etdi. Islom Karimovning mazkur anjumandagi nutqida bayon etilgan yadroviy xavfsizlikni ta'minlash choralari haqidagi fikrlari anjuman qatnashchilari tomonidan to'la ko'llab-quvvatlandi

Xo'sh, «Yadrosiz zona»ning qanday mezonlari bor Xalqaro amaliyotda bunday hududlarni belgilashning yagona mezonini yo'q. Chunki har bir mintaqaga o'z xususiyati va ahamiyatiga ega. Ammo, tadqiqotchilar yadrosiz zona tushunchasini shunday izohlaydilar: «Yadrosiz zona qurol-yarog'larni cheklash, yadroviy nizo chiqishi xavfini kamaytirish, mazkur zonaga kiradigan mamlakatlar xavfsizligini mustahkamlash va 1968 yilda imzolangan yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi shartnomaning hayotga tatbiq etilishiga ko'maklashish vositasidir. Xalqaro shartnoma asosida yadro qurolini sinash, ishlab chikarish va joylashtirish taqiqlangan, shuningdek, uning hududida va unga qarshi yadro qurolini qo'llash taqiqlangan zona – yadrosiz zona xisoblanadi».

1999 yil 1 fevralda Toshkentda Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud yaratish to'g'risidagi bitim loyihasini ishlab chiqish bo'yicha mintaqaviy ekspertlar guruhining 3 kunlik sessiyasi bo'lib o'tdi («Toshkent oqshomi», 1999 yil 3 fevralg').

Bugungi kunda yadrosiz zonalar butun yer sharining 70 foizini tashkil etadi. Dunyoning ko'pgina davlatlari yadrosiz zonalar haqidagi 6 ta shartnomani qo'llab-quvvatlamodalar.

1) Antarktida shartnomasi 1959 yil 1 dekabrda qabul qilindi va 1961 yil 3 iyunda kuchga kirgan.

2) Lotin Amerikasi va Karib havzasida yadro qurolini taqiqlash haqidagi Tlatelolko shartnomasi 1967 yil 14 fevralda qabul qilindi va u 1969 yil 25 aprelda kuchga kirgan.

3) Tinch okeanining janubiy qismini yadrosiz hududga aylantirish haqidagi Raroton shartnomasi 1985 yil 6 avgustda qabul qilindi va 1986 yil 11 dekabrda kuchga kirgan.

4) Janubiy-Sharqiy Osiyoni yadro qurolidan xoli hududga aylantirish haqidagi Bankok shartnomasi 1995 yil 15 dekabrda qabul qilindi.

5) Afrikani yadro qurolidan xoli hududga aylantirish haqidagi Pelindab shartnomasi 1999 yil 11 aprelda qabul qilindi.

Majburiyatlari 7 ta. Yadro quroliga ega davlatlar (5 ta). Majburiyatlari 3 ta («Hayot va qonun», 2005, №2, 38-39 b.).

6) Markaziy Osiyoda yadrosiz zona tashkil etish tug'risidagi Semipalatinsk (Qozog'iston) shartnomasi 2006 yil 8 sentyabrda qabul qilindi va Markaziy Osiyodagi 5 ta davlat rahbarlari tomonidan imzolandi.

Demak, dunyoning 110 mamlakati, ya'ni jahon hamjamiyatining yarmidan ko'pi yadro qurolidan butunlay voz kechish tarafdoridirlar (1. Sobirova SH. Yadro qurolidan xoli zona. Mahrifat, 2006, 12 iyulg').

Bundan maqsad, yadro quroli mavjud bo'lgan hududlarni cheklash, yadro urushi xavfini kamaytirishdir.

Markaziy Osiyoda yadrosiz zona barpo etish haqidagi O'zbekiston tashabbusi BMT va jahon jamoatchiligi tomonidan to'la qo'llab-quvvatlanmolda. Bu taklif BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida muhokama qilindi va maxsus rezolyutsiya qabul qilindi.

Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etish faqat mintaqadagina emas, balki jahonda ham tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida iqtisodiy, harbiy qudrat bilan birgalikda mamlakatdagi demokratik jarayonlarning xarakteri bilan davlatlarning obro'-ehtibori

belgilanmoqda. SHu jihatdan olganda, O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlar jahon hamjamiyatida mustahkam o'rin egallashga va milliy manfaatlarimiz asosida tashqi siyosat yuritishga imkoniyat yaratmoqda.

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida iqtisodiy, harbiy qudrat bilan birgalikda mamlakatdagi demokratik jarayonlarning xarakteri bilan davlatlarning obro'-ehtibori belgilanmoqda. SHu jihatdan olganda, O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlar jahon hamjamiyatida mustahkam o'rin egallashga va milliy manfaatlarimiz asosida tashqi siyosat yuritishga imkoniyat yaratmoqda.

Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va Markaziy Osiyo davlatlari hududlarida tuzilgan quyidagi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1) **Mustaqil Davlatlar Hamdustliga (MDH).** 1991 yil 21 dekabrda Almatida 11 davlat: Rossiya, Ukraina, Belorus, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Azarbayjon, Armaniston, Moldaviya davlatlari boshliqlarining kengashida MDH tuzildi. MDHga 1993 yil 24 dekabrda Ashxabadda Gruziya ham qo'shildi. O'zbekiston mazkur MDH tashkilotining iqtisodiy integratsiya doirasida qatnashib kelmoqda.

MDH bir butun davlat, federatsiya yoki mamlakat emas, harbiy blok ham emas, balki davlatlar hamdo'stligining yangicha shakli. Unga kiruvchi har bir davlat xalqaro hukuqning mustaqil va teng huquqli sub'ektidir.

MDH 1991 yil 8 dekabrda Minsk shahrida SSSRning barham topishi munosabati bilan shakllandi. Uning vujudga kelishi haqidagi hujjat - bitimga dastlab uch mustaqil davlat – Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belorussiya rahbarlari imzo chekdilar. Bitimni imzolagan davlatlarning hududiy butunligini tan olish, hurmat qilish hamda amaldagi chegaralar, ularning ochiqligi va fuqarolarning harakat erkinligi ehtirol etildi.

MDH ahzolari xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, harbiy xarajat va qurollarni qisqartirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda hamkorlik qilishga kelishib oldilar. Hozirgacha ikki yuzdan ortiq normativ va tavsifiy hujjatlar qabul qilindi. SHu bilan birga, tomonlar bir-birlarining yadrosiz zona va betaraf davlat statusiga erishish uchun olib boriladigan harakatlarini hurmatlaydilar.

MDH ahzolarining birgalikdagi faoliyati sohasiga quyidagi tadbirlar kiritildi:

- tashqi siyosiy faoliyatlarni muvofiqlashtirish, mudofaa siyosati va tashqi chegarani muhofaza qilish;
- umumiy iqtisodiy muhitni shakllantirish va rivojlantirish, Umumevropa va Yevroosiyo bozorini shakllantirish;
- iqtisodiy islohot o'tkazish;
- bojxona siyosatini birga olib borish;
- transport va aloqa, shuningdek, energetika tizimlarini rivojlantirish;
- salomatlik, atrof-muhit va ekologik xavfsizligini saqlash;
- uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish.

1991 yil 21 dekabrda sobiq SSSRning uch slavyan, Markaziy Osiyodagi besh, Zakavkazg'edagi uch respublika rahbarlari Olmaotada uchrashib, Hamdo'stlik hujjatlariga jami 11 respublika imzo chekdi. Keyinchalik Gruziya qo'shildi.

MDHning yuqori Oliy organi – «Davlat boshliqlari Kengashi», shuningdek, «Hukumat boshliqlari Kengashi», «Iqtisodiy Kengash», «Mudofaa vazirlari Kengashi», «Tashqi ishlar vazirlari Kengashi» hisoblanadi. Ijroiya organi «Muvofiqlashtiruvchi qo'mita» deyiladi. Uning qoshida doimiy kotibiyat ishlaydi. Davlat boshliqlari Kengashi bir yilda kamida ikki marta o'tkaziladi. Kengashning navbatdan tashqari majlisi MDH ahzosi bo'lgan - har qanday davlat tashabbusi bilan chaqiriladi. MDH organlarining faoliyati MDH Nizomi bilan tartibga solinadi.

- MDH organlari faoliyatini mablag' bilan ta'minlash (xarajatlari) ahzo davlatlarning xizmat yuzasidan bo'lgan ishtiroki tartibi bo'yicha taqsimlanadi va MDH organlari byudjeti to'g'risidagi maxsus bitim asosida o'rnatiladi.

MDHning asosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun hamdo'stlik davlatlari o'zaro munosabatlarida quyidagi qoidalarga rioya qiladilar:

1. avlat suverenitetini o'zaro tan olish va hurmat qilish;
2. eng huquqlilik va bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik;
3. qtisodiy kuch yoki boshqa tazyiq uslublarini qo'llashdan voz kechish;
4. ahsli muammolarni kelishtiruvchi vositalar va xalqaro huquqning boshqa Hamma ehtirof qilgan tamoyil va normalari asosida hal qilish.

SHu bilan bir qatorda, MDH ahzolari hamkorlikning boshqa yo'llarini topib, SHanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) va YevrAzES kabi xalqaro uyushmalarda qatnashmoqdalar.

O'zbekiston MDHning Kollektiv Xavfsizlik shartnomasida 1992-1999 yillarda qatnashdi. 2005 yildan boshlab yana KXSHda qatnashmoqda.

MDH faoliyatining dastlabki yillarida (1991-1994 yillarda) Hamdustlikka ahzo mamlakatlarda milliy manfaatlar ustuvor o'ringa ega bo'ldi. Buning natijasida o'zaro tashqi savdo aloqalari sezilarli darajada zaiflashdi. MDH mamlakatlarining aksariyati uzoq xorij mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga ustuvorlik berdilar. Ekspertlar fikricha, Sobiq Ittifoq respublikalari o'rtasidagi xo'jalik aloqalarining buzilishi natijasida pirovard mahsulot ishlab chiqarish hajmi 35-40 foizga kamaydi.

MDH doirasida qabul kilingan dastlabki eng muhim hujjat **Iqtisodiy ittifoq** to'g'risidagi SHartnoma **hisoblanadi (1993 yil sentyabrg')**. Mazkur hujjatda iqtisodiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning quyidagi asosiy bosqichlari belgilab berildi:

1. davlatlararo (ko'p tomonlama) erkin savdo uyushmasi;
2. bojxona ittifoqi;
3. tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchi bozori;
4. valyuta (pul) ittifoqi.

1994 yilning aprelida **erkin savdo zonasi**, 1994 yilning oktyabrida **to'lov ittifoqi** va Iqtisodiy ittifoqning doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organi sifatida **Davlatlararo iqtisodiy qo'mita (DIQ)** tashkil etish to'g'risidagi bitim imzolandi.

Uzoq tarixiy rivojlanish mobaynida yuzaga kelgan chuqur integratsion aloqalar, ishlab chiqarishning mamlakatlar bo'yicha ixtisoslashuvi, korxona va tarmokdar darajasidagi keng tarmoqli kooperatsiya, **umumiy** infratuzilmaning majudligi MDH tashkil topishining ob'ektiv asosi hisoblanadi.

MDH doirasida qabul qilingan bitimlar va shartnomalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi **tamoyillarga** amal qilinmokda:

- 1) integratsion aloqalarni rivojlantirish ixtiyoriylik asosida ham ikki yoqlama, ham ko'p tomonlama shartnomalardan foydalanish yordamida bosqichma-bosqich **amalga** oshirilmoqda;
- 2) huquqiy integratsiya o'zaro manfaatdorlikka asoslanmoqda va hamkor davlatlarga ziyon yetkazmaslikka alohida ehtibor qaratilmokda;
- 3) zaruriyat tug'ilganda, MDH ahzolariga ularning mashuliyati ostida va aniq iqtisodiy natijalarni ko'zda tutib jamoaviy yordam ko'rsatilmokda;
- 4) hamkor mamlakatlardagi iqtisodiy islohotlar rag'batlantirilmoqda va ularga har tomonlama yordam ko'rsatilmokda;
- 5) mamlakatlararo munosabatlarda bozor sub'ektlari orasidagi gorizontaal aloqalarga ustuvorlik berilmokda, mikrodarajadagi integratsion aloqalarni, iqtisodiy hamkorlikning yangi-yangi shakllarini keng ko'lamda rivojlantirish ko'zda tutilmokda.

MDH doirasida iqtisodiy integratsiyaga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammo tashkiliy-huquqiy asos va hamkorlikka ahzo mamlakatlar o'zaro harakat mexanizmining takomillashmaganligi hisoblanadi. SHuningdek, MDHga ahzo mamlakatlar iqtisodiy salohiyatining turli darajada ekanligi, alohida mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi

o'rtasidagi tafovut, milliy qonunchilik hujjatlarining muvofiqlashtirilmaganligi kabi omillar ham integratsion imkoniyatlarning cheklanishiga olib kelmoqda.

Erkin savdo zonalarini tashkil etish, to'lov ittifoqini shakllantirish, yagona kommunikatsiya va axborot makonini barpo etish, ilmiy-texnika va texnologik hamkorlikni takomillashtirish asosida umumiy iqtisodiy makonni shakllantirish orqali MDHga ahzo mamlakatlar o'rtasidagi integratsion aloqalarni yanada rivojlantirish mumkin. Ahzo mamlakatlarning investitsiya salohiyatlari integratsiyasi va hamdo'stlik doirasida kapital oqimini samarali yo'lga ko'yish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

2. «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti (2002). 1994 yil 10 yanvarda Toshkentda O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida yagona iqtisodiy makon barpo etish to'g'risida SHartnoma imzolandi. 1994 yil 16 yanvarda Qirg'iziston ham bu shartnomaga qo'shildi. 1994 yil 30 aprelda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida yagona iqtisodiy makon barpo etish to'g'risida shartnomaga Tojikiston respublikasining qo'shilishi to'g'risida protokol, mintaqaviy integratsiyani yanada chuqurlashtirish to'g'risida 4 davlat rahbarlarining bayonoti qabul qilindi. 1997 yil 10 yanvarda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston Davlatlararo kengashida imzolangan Abadiy do'stlik to'g'risidagi shartnoma esa o'zro integratsiyani yanada jadallashtirdi. 1998 yil 26-28 martda Toshkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasidagi imzolangan Yagona iqtisodiy makon barpo etish to'g'risidagi SHartnomaga Tojikiston ham qo'shildi. 2002 yilda «Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati» negizida **«Markaziy Osiyo hamkorligi»** (MOH) tashkiloti tuzildi. Bu tashkilotning maqsad va vazifasi barcha ahzo davlatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda suv-energetika zahiralaridan unumli foydalanish, transport tizimining umummintaqaviy tuzilmasini barpo etish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish, ekologik muammolarni birgalikda hal qilish va barkarorlikni mustahkamlash kabi muhim yo'nalishlar belgilab olingan edi. Lekin bu tashkilotni rivojlantirishda ayrim milliy manfaatlarining umummintaqaviy manfaatlardan ustun qo'yilishi birgalikda qarorlar qabul qilishda to'sqinlik bo'lib keldi. 2005 yil 6-7 oktyabrda Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi uchrashuvida «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti Markaziy Osiyo umumiy bozorini barpo etish kontseptsiyasi loyihasini ko'rib chikdi.

2002 yil 28 fevralida Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati negizida tashkil etilgan «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti o'zining qisqa tarixida talay ishlarni amalga oshirdi. Uning maqsad va vazifalari sifatida barcha ahzo davlatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda suv-energetika zahiralaridan unumli foydalanish, transport tizimining umummintaqaviy infratuzilmasini barpo etish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish, ekologik muammolarni birgalikda hal etish, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash borasidagi hamkorlikni faollashtirish kabi muhim yo'nalishlar belgilab olingan edi. 2005 yil 6-7 oktyabrda Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi uchrashuvi - sammiti Yevroosiyoda integratsiyalashuv jarayonidagi burilish nuqtasi bo'ldi. O'zbekiston rahbarining tashabbusi bilan Yevroosiyoda iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish va taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadida «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti va Yevroosiyoda iqtisodiy hamjamiyati (EOIX) negizida **yangi YeOIHni shakllantirish to'g'risida qaror** qabul qilindi. «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkilotiga Beloruss', YeOIHga O'zbekiston qo'shilmagan edi. Endilikda esa bu ikkala respublika ham ahzo bo'ldilar. («Turkiston», 2005 yil 8 oktyabrg').

«Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkilotiga Belorus, YeOIHga O'zbekiston qo'shilmagan edi. Qo'shilish haqidagi bu g'oya O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi («Turkiston», 2005 yil 8 oktyabrg').

2005 yil 14-15 noyabrda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasida bo'lib, Rossiya Prezidenti V.Putin bilan uchrashdi. Uchrashuvda savdo-

iqtisodiy, «syyosiy, ijtimoiy-madaniy, harbiy va harbiy-texnikaviy aloqalarga doir masalalar muhokama qilindi.

3. Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati (1995). Yevropa – Osiyo Iqtisodiy hamjamiyati, 2000 yil oktyabrg' oyida Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston mustaqil davlatlari rahbarlari imzo chekkan SHartnoma asosida tuzilgan xalqaro takshkilot. 2005 yil 6-7 oktyabrg' kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Sankt-Peterburg shahrida O'zbekistonning YevrAzES tashkilotiga kirishi haqida kelishdi. SHu masala bo'yicha 2005 yil 14-15 noyabrda Moskva uchrashuviga bordi. I.Karimovning taklifi bilan YevrAzES va bungacha bo'lgan «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti ayni bir xil maqsad hamda vazifalarni o'z oldilariga qo'yganini ko'zda tutib, bu ikki tashkilot birlashtirildi, faoliyati osonlashtirildi, xarajatlar kamaytirildi. YevrAzES – iqtisodiy hamkorlikning yangi sharoitlarda yangi shakl va yangi yo'llarini topishning ijobiy misollaridan biri ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Masalan, 2006 yil davomidayoq boj tariflarini unifikatsiyalash, uchinchi mamlakatlardan kiritilayotgan mahsulotlarga bosh olish masalalari hozirning o'zidayoq 60 foizga bajarilgan. Undan tashqari, fuqarolarning davlatlararo vizasiz yurishi, oliy o'quv yurtlariga qabul, oliy ma'lumot va ilmiy daraja hamda ilmiy unvon to'g'risidagi diplomlarni tenglashtirish kabi muhim masalalar hal qilindi va bu qadamlar integratsiya munosabatlarining chuqurlashishiga va tezlashishiga olib keladi. Dastlab Yevroosiyoga ahzo davlatlarning manfaati, potentsali bir xil emasdi: Rossiya 48, Qozog'iston, Belarus 20 foizdan, Tojikiston, Qirg'iziston 10 foizdan iborat ovozga ega bo'lgan.

EvrAzESning shakllanishi, SHanxay Xamkorlik Tashkilotining faolligi, bu Tashkilotga Hindiston, Eron, Pokiston va Mongoliyaning kirishga intilishi va boshqa o'zgarishlar Yevroosiyo qthasida integratsion jarayonlar kuchayotganidan darak beradi. Bu esa hozirgi zamonning iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'naviy muammolarini yechishning samarali yo'llaridan biridir.

EvrAzES davlatlari rahbarlarining 2006 yil 25 yanvarda navbatdagi sammitida O'zbekiston Respublikasi YevrAzES ahziligiga rasmiy ravishda qabul qilindi.

2006 yil oktyabrida Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati 17-yig'ilishi:

1) Yagona bojxona ittifoqini yaratish.

2) Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatining umumiy energetika bozorini shakllantirish masalalarini ko'rib chiqdi.

2007 yil 19 noyabrda Toshkentdagi Xalqaro hamkorlik markazida Siyosiy tadqiqotlar markazi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan hamkorlikda "Markaziy Osiyo taranskontinental transport ko'prigi: salohiyat va taraqqiyot istiqboli" mavzusida xalqaro konferentsiya o'tkazildi. Bu anjumanda Markaziy, Janubiy-SHarqiy Osiyo, MDH, Yaqin, O'rta va Uzoq SHarq, Yevropa mamlakatlari ekspertlari hamda BMT, SHHT, YevrAzES, ESKATO (BMTning Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi) kabi xalqaro tashkilotlardan vakillar qatnashdi. Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, Frantsiya, turkiya, Latviya, Eron, AQSH va Qozog'istondan kelgan ekspertlar o'z fikrlarini bildirdi.

Markaziy Osiyoning jahon jurofiyasidagi o'rni, uning transport-tranzit salohiyati yuksak. SHu sabab mazkur konferentsiyada quyidagi mulohazalar ehtiborga qaratildi. Markaziy Osiyo davlatlari uchun transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish iqtisodiy, jug'rofiy va strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, **Buyuk Ipak yo'li:** Yevroosiyoda SHarq-G'arb (Osiyo va Yevropa) yoki Janub-SHimol (Hind okeani, Fors ko'rfazi, Rossiya va Boltiqbo'yi mamlakatlari) yo'nalishi bo'yicha davom etadi. Yaponiya hukumati «Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on **temir yo'lini** barpo etish uchun 150 million AQSH dollari miqdorida imtiyozli kredit berdi. Qurilajak «Andijon-O'sh-Qashqar» **avtomobilg' yo'li** Markaziy Osiyodan Xitoyga chiqish imkonini beradi. "Saraxs-Tejan-Mashhad" **temir yo'li** Eronning Fors ko'rfazidagi bandargohlariga yo'l ochadi. 2003 yili Tehronda O'zbekiston, Eron va Afg'oniston Prezidentlari "Transafg'on» yo'lini barpo etishga qaratilgan xalqaro transport yo'nalishlari to'g'risidagi bitimni imzolagan edi. Bu loyiha «Toshkent-Termiz-Mozori sharif-Hirot» yo'nalishi bo'ylab

Erondagi Bandar Abbas va CHohbahor **portlariga** chiqish imkonini beradi. Buning uchun narkotrafik kabi transmilliy illatlarga birgalikda kurashish lozimligi aytiladi.

Dengiz transportiga ortilgan yuk Januiy-SHarqiy Osiyodan Yevropaga o'rtacha 30-35 kunga yetib boradi. Janubiy-SHarqiy Osiyodan Yevropaga quruqlik orqali borish – bir manzildan ikkinchisiga **vagon** yoki **avtomobilga** ortilgan yukni yetkazish uchun 10-12 kun ketadi (Bunda tashilayotgan yuk ishlab chiqaruvchidan to'g'ridan-to'g'ri istehmolchiga borib tushadi). Temir yo'lining qulayligi vaqt va mablag' talab qilsada, qisqa muddatda o'zini oqlaydi, yoqilg'i kam sarflanadi. Hozir O'zbekiston hududi orqali 20 ta xalqaro transport yo'li o'tgan. Markaziy Osiyo mamlakatlarida avtomobilg' yo'lining uzunligi 320 ming, temir yo'llariniki 20 ming, neftg'-gaz quvurlariniki 40 ming kilometrdan oshadi. Mintaqamiz davlatlarida yuzdan ziyod aeroport bo'lib, ularning 20 tasi Xalqaro havo darvozasi sanaladi. Yillik yuk tashish ko'rsatkichi 4 milliard tonnaga yaqin (Boboev A. Markaziy Osiyoning transport-tranzit salohiyati. "Xalq so'zi", 2007 yil 21 noyabrg').

4. «SHanxay hamkorligi tashkiloti» (SHHT) – tinchlik, xavfsizlik va barqarorlik-ni mustahkamlash, o'zaro savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan xalqaro hukumatlararo tashkilot. SHHT oltita davlatni – Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistonni o'z ichiga oladi. SHHTning shakllanishi 1992 yildan Xitoy bilan chegaradosh besh postsovet respublikalarining o'zaro chegaralarni aniqlash bilan bog'liq muammolarni muhokama qilishdan boshlangan. "SHanxay beshligi" deb nom olgan bu tashkilot 1996 yilda SHanxayda, 1998 yilda Almatida, 1999 yilda Bishkekda besh davlat rahbarlarining sammiti chegaralarni mustahkamlash, chegara hududlarida qurolli kuchlarni qisqartirish kabi masalalarni kelishib, hal etishga qaratildi. 2000 yil iyulida Dushanba sammitida tashkilotga oltinchi bo'lib O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov kuzatuvchi sifatida qatnashdi. 2001 yil 15 iyunda SHanxay sammitida tashkilotga oltinchi bo'lib O'zbekiston qo'shildi, SHHT tuzish to'g'risidagi Deklaratsiya ehlon qilindi, «Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida SHanxay konventsiyasi» imzolandi. 2002 yil iyulida Sankt-Peterburgda olti davlat rahbari «SHanxay hamkorlik tashkiloti xartiyasi»ni qabul qildilar. 2003 yil may oyida Moskvada SHHTning tashkiliy organlari, ramzlari tasdiqlanib, O'zbekiston tashkilotning yangi raisi etib belgilandi. 2003 yil sentyabrda Pekinda «SHHTga ahzo davlatlarning 20 yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturi» qabul qilinib, mahsulot, kapital, xizmat va texnologiyalar erkin aylanishi shartlari belgilab olindi, SHHTning moliyaviy byudjeti ko'rildi. 2004 yil iyunidan Tashkilot to'la ravishda ishga kirishdi. 2005 yilda Ostona sammitida va 2007 yil 15-16 avgustda Bishkek uchrashuvlarida Eron, Pokiston va Hindiston, Mongoliya kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi.

Hozirgi kunda SHHTdoirasida 130 ga yaqin hamkorlik loyihalari amalga oshirilmoqda.

SHHT biror bir davlat yoki tashkilotga qarshi qaratilmaganligi va ochiq faoliyat olib borilishi bilan xalqaro munosabatlarning yangi shaklini yuzaga keltirdi, "SHanxay ruhi" tushunchasiga yo'l ochildi. Tashkilotning asosiy maqsadlari:

- ahzo davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va yaqin qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash;

- mintaqada tinchlik, xavfsizlik, barqarorlikni birgalikda ta'minlash va saqlab turish siyosiy, savdo, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy sohalaridagi samarali hamkorlikka keng yo'l ochib berish;

- energetika, transport, turizm, atrof-muhitni himoya qilish va boshqa sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirish.

SHHT rahbar organi – Davlatlar Rahbarlari Kengashi. Barcha davlatlarning soha vazirlari, Bosh prokurorlar, CHegara qo'mitalari rahbarlari muntazam uchrashib, ish olib boradilar. SHHTning doimiy faoliyat yurituvchi organlari ikkita: 2004 yil 17 yanvarda Pekinda SHHT Kotibiyati va Toshkentda Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasi ishga tushdi.

SHHTning eng muhim 3 ta vazifasi 2001 yil 15 iyunda «Terrorizmga, separatizmga hamda ekstremizmga qarshi kurash haqidagi SHanxay Konventsiyasi» qabul qilinib, belgilab berildi:

- 1) terrorizmga qarshi birgalikda kurashish;

2) separatizm (ayirmachilik) ga qarshi kurash;

3) ekstrimizmga qarshi kurash.

2000 yilning sentyabrg' oyida ham BMT Bosh Assambleyasi «Ming yillik sammiti»da, 2003 yil 29 mayda SHHTning Moskva sammitida, 2004 yil 17 iyunda Toshkent sammitida, 2005 yil 5 iyulda Ostona SHHTning sammitlarida Prezidentimiz mintaqamiz xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan xalqaro terrorizm va narkobiznesga qarshi faol kurashish, Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash va jahon xavfsizlik tizimini takomillashtirish muammolariga ehtibor qaratdi. Mintaqa xalqlari uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu jarayonni to'g'ri anglab yetgan Markaziy Osiyo mamlakatlarining rahbarlari faqat 2000 yilning o'zida bir necha bor uchrashuvlar o'tkazdi. Xususan, 2000 yil oktyabrg' oyida Toshkentda, bo'lib o'tgan uchrashuvda «Markaziy Osiyoda narkotiklarning noqonuniy savdosi, uyushgan jinoyatchilik va terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari» to'g'risidagi o'ta muhim hujjat imzolandi.

SHHT faoliyatida:

1. 2004 yili Aksilterror guruhiga birgalikda kurash markazi tuzildi.

2. 2005 yili SHHTning Ishbilarmonlar kengashi o'z faoliyatini boshladi.

3. 2006 yili Banklararo assotsiatsiyasi faoliyati yo'lga qo'yildi.

SHHTning Xartiyasi (Nizom) 2002 yil 7 iyunda Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida qabul qilindi. 2004 yil 17 iyunda Toshkentda SHHTning sammiti bo'lib, SHHT faoliyatining ikkn asosiy yo'nalishi: xavfsizlik va savdo-iqtisodiy hamkorlik muammolarini muhokama qildilar. Qatnashchilar Mo'g'iliston Prezidenti Natsagiyn Bagabandining murojaatini ko'rib chiqib, ushbu mamlakatni tashkilotga kuzatuvchi maqomida qabul qilishga qaror qildilar. Toshkent uchrashuvida Afg'onistondagi vaziyat ham anjuman kun tartibidan o'rin oldi. Ilgari Afg'oniston muammolarini yechishda Afg'onistonning o'zi qatnashmas va bunga muhim ahamiyat berilmasdi. Bunga sabab ilgari Afg'onistonda markaziy hokimiyat yo'q edi, mamlakat bo'lingan edi. Toshkent uchrashuviga Afg'oniston Muvaqqat mahmuriyati rahbari Hamid Karzay mehmon sifatida taklif etildi. SHu boisdan ham Toshkent sammitida Afg'oniston rahbari Hamid Karzay va Mo'g'iliston Prezidentining vakili, mamlakat tashqi ishlar vaziri Luvsangiyn Erdenechuluun qatnashdi.

Dunyoda yadroviy, kimyoviy, biologik, elektron terrorchilik xavfi paydo bo'ldi. SHularni hisobga olganda SHHT egallagan mintaqada tahdidlarning oldini olish uchun bir tizim, umumiy mexanizm ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Toshkentda ochilgan Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi zimmasiga axborot almashish, chegara va bojxona qo'mitalarining, maxsus xizmatlarning hamkorligini muvofiqlashtirish, shu orqali terrorchilikning oldini olish vazifasi yuklangan. Prezident Islom Karimov tomonidan terror va norkobiznes uchun «tranzit davlat» tushunchasining o'zi yo'qligi qayd etildi.

SHHT sammitida ko'rilgan 2-masala savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq. Iqtisodiy hamkorlikda transport infratuzilmasini rivojlantirish, tabiiy, mineral xomashyo zahiralari o'zlashtirish, suv-energetika zahiralaridan unumli foydalanish, ekologiyaga oid masalalar, xususan, ichimlik suvi muammolarini hal qilish kabi dolzarb masalalar o'rin oldi.

Islom Karimovning Markaziy Osiyoda umumiy bozor yaratish to'g'risidagi taklifini SHHT sammiti yana bir bor ehlon qildi. «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti tuzilgan mintaqamiz mamlakatlarining bu maqsadga erishishida Rossiya va Xitoydek qudratli davlatlar bilan SHHT doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega. Hozir Xitoy yo'nalishi, Afg'oniston orqali Fors ko'rfazi bandargohlariga chiqadigan yo'nalish bo'yicha loyihalar o'rganilmoqda. Xitoy tomoni iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish uchun 900 million AQSH dollari kredit ajratishini bayon etdi.

Toshkent sammitida (17.06.2004): 1) SHHT Davlat rahbarlari kengashi majlisi yakunlari bo'yicha Toshkent deklaratsiyasi, 2) SHHT vakolatlari va immunitetlari to'g'risidagi konventsiya, 3) Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risida bitim, 4) tashkilot va uning organlari faoliyatiga doir qator hujjatlar imzolandi («Mahrifat» 2004 yil 19 iyun).

Xullas, bugungi kunda xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etish mintaqadagi barcha mamlakatlarning istiqbolini ham bir qadar belgilab beradi. SHuning bilan birga bu – mintaqada yashayotgan xalqlarning azaliy qon-qarindoshligi, xamkorligi va ma'naviy-ruhiy yaqinligini mustahkamlashda ham o'ta muhim ahamiyatga molik masala bo'lib qolaveradi. Huddi shuningdek, mintaqaga qarshi qaratilgan mafkuraviy tahsirlarga qarshi kurashni kuchaytirishda umummintaqaviy birlikni mustahkamlashning ahamiyati ham oshib boraveradi.

O'zbekistonning Rossiya bilan hamkorligining yangi bosqichi (Prezident Islom Karimovning 2005 yil 29-30 iyundagi Rossiyaga qilgan safarining ahamiyati). Mustaqillik yillarida MDH davlatlari orasida eng qudratli, katta salohiyat va ulkan ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lmish Rossiya bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish O'zbekiston tashqi siyosatining diqqat markazida bo'ldi. SHu boisdan ham Prezident I.Karimov "Rossiya Federatsiyasi bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish O'zbekiston uchun juda muhim va biz bu maqsadimizga erishish uchun bor kuchimiz va imkoniyatlarimizni ayamaymiz", degan edi.

O'zbekiston Rossiya o'rtasidagi aloqalar quyidagi ko'rinishda bo'lgan:

1) 1995 yil 27-28 iyunda Rossiya hukumati raisi Z.CHernomirdin O'zbekistonga kelgan edi.

2) 1997 yil 28 myrtida Rossiya Prezidentining Kremlida MDH davlat boshliqlari bilan uchrashui bo'lib o'tgan edi.

3) 1998 yil 11-12 oktyabrda Rossiya sobiq prezidenti B.Eltsin bilan Islom Karimov Toshkentda uchrashdilar.

4) 1999 yil 2 aprelda MDH davlat rahbarlari Moskva uchrashuvi o'tkazildi. So'ngi yillarda O'zbekiston-Rossiya munosabatlari sherikchilikning mustahkamlanishi, o'sib borayotgan dinamiklik xos ekanligi qoniqish bilan qayd etildi.

Prezidentimiz Islom Karimov 2005 yil 28 iyunda Moskvada Rossiya Prezidenti Vladimir Putin bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Muloqat chog'ida O'zbekiston-Rossiya munosabatlari strategik sherikchilik tamoyillari asosida rivojlanib borayotgani, mamlakatimiz o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy sohalardagi hamkorlik keng ko'lamda tarakqiy etayotgani ta'kidlandi. Prezidentlar o'rtasidagi munosabatlarning bugungi ahvoli va istiqbollari yuzasidan atroflicha fikr almashdilar. Hamkorlikni kengaytirish borasida tomonlarning hamfikrligi, qarashlarning mushtarakligi muhim ahamiyatga ega ekanigi qayd etildi.

Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalari Islom Karimov va V.Putinning diqqat markazida bo'ldi. O'zbekiston rahbari Rossiya Prezidentiga 2005 yil 13 may kuni Andijon shahrida ro'y bergan fojiali voqealar hamda ushbu jinoyat yuzasidan olib borilayotgan tergov ishlari haqida so'zlab berdi. Rossiya rahbariyati ushbu muammoga xolis yondashganini, vaziyatni to'g'ri baholaganini ta'kidladi.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, Rossiya O'zbekistonning muhim strategik hamkorliklaridan biridir. Ikki mamlakat o'rtasida turli sohalardagi aloqalar tobora mustahkamlanib bormoqda. 2004 yili O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi o'zaro tovar aylanmasi I milliard 641,9 million, 2005 yilning birinchi choragida esa 428,7 million AQSH dollarlariga teng bo'ldi. Mamlakatimizda Rossiya bilan hamkorlikda tashkil etilgan 360 ta qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmoqda. 2004 iil Toshkentda ikki davlat prezidentlari imzolagan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida Strategik sherikchilik to'g'risidagi shartnoma bu sohadagi hamkorlikning yanada rivojlanishida yangi bosqich bo'ldi. Har ikkala mamlakat Prezidentlari o'zaro hamkorlikning bugungi ahvoli va istiqboli haqidagi, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro terrorchilikka qarshi kurashda birgalikdagi harakatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlik to'g'risidagi masalalarni muhokama qildilar.

SHuni ham ta'kidlash joizki, Rossiya bilan O'zbekiston SHanxay Xamkorlik tashkilotining ahzolari bo'lib, bu davlatlar birgalikda xalqaro terorizmga, diniy ekstremizmga, separatizm kaby "Xizbut-tahrir" oqimlariga birgalikda kurash olib bormoqdalar.

QISQACHA XULOSA

SHunday qilib, hozirgi kunda O'zbekiston jahon hamjamiyatida munosib o'rin egalladi va Markaziy Osiyodagi yetakchi davlat sifatida ehtirol etilmoqda. Bunday obro'-ehtibor tarixiy davlatchiligimiz, ma'naviyatimiz va oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga hamohangdir. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, barqarorlikka asoslangan tashqi siyosatini davom ettiradi. Buning uchun yetarli siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy imkoniyatlari mavjud.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. O'zbekiston davlatining jahon hamjamiyati bilan aloqalari qanday huquqiy va amaliy printsiplarga tayanadi.
2. Prezident Islom Karimovning mustaqil O'zbekistonni jahon hamjamiyati bilan tanitishda, hamkorlik aloqalarini o'rnatishda qanday roli bor deb bilasiz
3. Demokratik tartibotlar va uning asosiy yo'nalishlarini gapirib bering
4. O'zbekiston va jahon hamjamiyati munosabatlarining huquqiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-asoslarini bayon eting
5. Mustaqil O'zbekiston dastlab va keyinchalik qanday xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi
6. O'zbekiston – AQSH strategik hamkorligining o'ziga xos tomonlari nimalarda
7. Xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarda demokratik institutlarning qanday roli va o'rni mavjud
8. O'zbekiston – Rossiya munosabatlarini gapirib bering
9. O'zbekistonning yaqin va o'rta SHarq, arab mamlakatlari bilan qanday o'zaro aloqalarni yo'lga qo'ygan
10. Xalqaro terrorizmga birgalikda kurashda O'zbekistonning roli qanday

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2007, 6, 33-34-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. –T.: «O'zbekiston», 2001.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Prezident I.A.Karimovning BMTning 1993 yil 28 sentyabrda bo'lib o'tgan 48-sessiyasida so'zlangan nutqi. Asarlar, T.1 – T.: «O'zbekiston», 1996, 47-bet.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4 – T.: «O'zbekiston», 1996, 56-59-betlar
5. Karimov I.A. O'zbekiston XX1 asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. – T.: «O'zbekiston», 1997, 279-297, 326-betlar.
6. Karimov I.A. Milliy davlatchilik, istiqlof mafkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida. – T.: «O'zbekiston», 1999, 29-30, 39-45, 110-115, 497-506, 543-betlar.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10-«O'zbekiston», 2002, 247-280, 387-393-betlar.
8. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va mahrifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11 – T.: «O'zbekiston», 2003, 64-69, 248-265, 274-280-betlar.
9. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. – T.: «O'zbekiston», 2004.
10. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish - har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 285–312-b.
11. Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezonini bo'lsin. Surxondaryo viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. –313–337-b.
12. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. –156–223-b.
13. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.14. – T.: O'zbekiston, 2006. – 61–97, 139–153, 248–265-b.

14. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoitini yaratish – asosiy vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2007. – 11-b.
15. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 48 b.
16. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayot garovidir. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2007. – 62 b.
17. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezon va maqsadidir. – T.15. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 3-11, 154-211-241-251-b.
18. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 48 b.
19. Rahimov I., Zohidov A., Azizov SH., Ayupov A. va boshq. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. -T.: «Universitet», 2001. 232-bet.
20. Jo'raev S. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. T.: ToshDSHI, 2003, 260-363-betlar.
21. Pugachev V.P., Solov'ev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 202-255-betlar.
22. O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T.: «O'qituvchi», 2004, 3-44-betlar.
23. Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. T.: Toshkent Moliya instituti, 2004, 3-180-betlar.
24. SHarifxo'jaev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. – T.: SHarq, 2005. – 240 b.
25. Aliev B., Hoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot nashriyoti», 2005. – 160 b.
26. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: "SHarq", 2006. – 528 b.
27. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar. – T.: "Ma'naviyat", 2006. – 160 b.
28. To'xliov N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" davlat ilmiy nashr., 2006. – 280 b.
29. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 204 b.

3. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik tushunchasining mohiyati, belgilari va uning zarurligi

Jamiyatda, xususan, har qanday davlatning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy barqaror rivojlanishi ikki muhim jihat bilan bog'liq bo'ladi: **birinchisi**, ijtimoiy-siyosiy **beqarorlik** (albatta uning oldini olish kerak), ya'ni notinchlik bo'lsa, **ikkinchisi**, ijtimoiy-siyosiy **barqarorlikdir**. Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillik yillarida xalqimizni doim ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka dahvat etib kelmoqda.

1. Ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, notinchlik belgilariga quyidagilar kiradi: tajovuzkorlik, aqidaparastlik, diniy ekstremizm, islom fundamentalizmi, davlat shovinizmi, millatchilik, agressiv millatchilik, korruptsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik, shuningdek, o'z siyosatini, tahsirini o'tkazish va hukmronlik qilishga urinayotgan kuchlar, terrorizm va hokazo. Masalan, ana shunday yovuz kuchlarning bahzi ahzolari tomonidan sunhiy ravishda 1989 yil may-iyung' oylarida Farg'ona, 1990 yil fevralg'-mart oylarida Bo'ka va Parkentda, 1990 yil iyung' oyida O'sh va O'zganda dahshatli voqealar sodir etildi. 1991 yil 8 dekabrda Namangandagi sobiq viloyat ijroqo'mi binosini egallab olgan diniy ekstremistlarning konstitutsion tuzumga qarshi tajovuzlari. 1992 yil 16 yanvarida Toshkentdagi talabalar

shaharchasida uyushtirilgan tartibsizliklar. 1999 yil 16 fevralg' kuni soat 14 ga yaqin mamlakatimiz poytaxti Toshkentda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binosi yonida kuchli portlash sodir etildi. SHunday portlashlar shahardagi «Nodirabegim» kinoteatri, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Ichki ishlar vazirligi binolari yonida ham yuz berdi. Portlashlar oqibatida 13 kishi halok bo'lib, bir necha mashina yonib ketdi. Jabrlanganlarning deyarli barchasi tinch aholi vakillaridir. 128 nafar odam turli darajada tan jarohati oldi.

Xuddi shunday tashqi va ichki dushman tomonidan sunhiy ravishda tashkil qilingan harbiy harakat 2000 yil avgustda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlari, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani hududlarida ham sodir etildi. Bu qo'poruvchilik harakatida ishtirok etgan 12 nafar jinoyatchini uzoq muddatlarga ozodlikdan mahrum etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining chiqargan hukmini barcha yurtdoshlarimiz mahquladilar. Portlashlarni sodir etgan ijrochilar va bu kuchlarning orqasida turgan yovuz, johil kimsalar halok bo'lganlarning tirnog'iga ham arzimaydi.

2004 yil 28 mart - 1 aprelg' kunlari Toshkent shahri, Buxoro va Toshkent viloyatlarida takroran terrorchilik harakatlari sodir etildi.¹ Bir necha begunoh odamlar, militsiya xodimlari qurbon bo'ldilar. Yovuz kuchlar harakati bostirildi. Jinoyatchilarning o'zlari tomonidan yasalgan moslamalarning portlashi tufayli hamda maxsus operatsiyalar davomida 33 nafar terrorchi yo'q qilindi, ularning 7 nafari ayollardir. Qo'lga tushurilgan 54 nafar gumondor shaxslardan 45 nafariga nisbatan ayblov ehlon qilingan, ularning 15 nafari ayollardir. 2004 yil 30 iyulg' kuni Toshkent shahrida Isroil va AQSH elchixonalari oldida, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi binosida terrorchilik harakatlari uyushtirildi. Buning natijasida 4 ta begunoh fuqarolarimiz halok bo'ldi. Jinoyatchilar qilmishiga yarasha jazolandilar.

2005 yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida ana shunday qo'poruvchilik, terrorchilik harakatlari uyushtirildi. Natijada 200 ga yaqin O'zbekiston fuqarolari qurbon bo'ldi. Xalqimizning tinch va osoyishta hayotiga tajovuz qilishga urinayotgan kuchlar hech qachon o'zining qora niyatiga yetolmaydilar.

2005 yil 13 mayda sodir bo'lgan Andijon voqealari davlatimiz rahbarining 2005 yil 14 may kuni Oqsaroy qarorgohida, 17 may kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida o'tkazilgan matbuot anjumanlaridagi bayonotlari, muxbirlarning savollariga javoblarida aytib o'tildi. Andijon voqealari to'g'risida uydirma va haqiqat oydinlashtirildi. Islom Karimovning 2005 yil 19 avgust kuni Oliy Majlis Senati Kengashining majlisida so'zlagan nutqi O'zbekiston yovuzlik va terror yo'lidagi mustahkam to'siq bo'lganligi alohida ta'kidlandi. SHu boisdan ham doimo ogoh bo'lish zaruriyati yana bir bor bayon etildi. Mavzuni yoritishda ogohlik mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustaqillikning muhim sharti ekanligi Islom Karimovning «Ogoh bo'ling, odamlar» degan dahvati bilan bog'lamoq kerak. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq jarayondir⁹⁷. Mamlakatimizdagi ko'plab mahallalarda «O'z uyingni o'zing asra!», «Tinchlik uchun kurashmoq kerak!», «O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi» degan shiorlar ostidagi harakatlar, ularning tinchlikni mustahkamlashdagi ahamiyati keng bayon etildi.

Umuman, bu tajovuzkor aqidaparastlar mustaqil davlatlardagi o'tish davri qiyinchiliklaridan foydalanib qolishga urinmoqda. Prezident Islom Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida «O'tish davrining keskin ijtimoiy muammosi ko'p kishilar uchun qaror topgan turmush tarzining buzilishidan, hayotiy mo'ljalning, fikrlash tarzi, ijtimoiy fehl-atvor, boqimandalik kayfiyatlarining o'zgarishidan iborat. O'tish davrida odamlarning tafakkur yuritish psixologiyasi o'zgaradi, bu esa, ayonki, Hamma vaqt ham oson kechavermaydi»⁹⁸. Yurtboshimizning bu falsafiy, mantiqiy fikrlarini hayotning o'zi tasdiqlab turibdi.

¹ O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. - T.: «O'qituvchi», 2004. 8-b.

⁹⁷ Karimov I.A. O'zbek xalqi xech qachon, xech kimga qaram bo'lmaydi. -T.: O'zbekiston, 2005. -160 bet.

⁹⁸ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. T.: «O'zbekiston», 1998. 181-bet.

Shu boisdan ham jamiyatimizda hozirda mavjud bo'lgan, ko'zga yaqqol tashlanayotgan, bahzi sodir bo'layotgan korruptsiya, tahmagirlik, poraxo'rlik, loqaydsizlik, boqimandalik kabi illatlarning ildiziga bolta urish lozim. Tabiiy va sunhiy yuzaga keladigan ijtimoiy-siyosiy beqarorlik xavf-xaratlarining oldini olish zarur. Bular yurtimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlash uchun muhim va hal qiluvchi rolg' o'ynamog'i darkor.

Mana shu yuqorida bayon etilgan illatlarning oldini olmaslik va ularni tag-tomiri bilan yo'qotmaslik jamiyat ahzolari bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarda jarlikni yuzaga keltiradi. Ya'ni, ular o'rtasidagi o'zaro mutanosiblik yo'qoladi. Oxir-oqibatda jamiyat ijtimoiy-siyosiy tizimidan norozilik illatlari shakllana boshlaydi. Xilma-xil ish tashlashlar, norozilik namoyishlari va harakatlarga olib kelishi mumkinki, bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Hozirgi paytda Prezidentimiz Islom Karimov olib borayotgan ichki va tashqi siyosatning shu narsaga yo'naltirilayotganligini katta xursandchilik bilan qayd etib, uni tag'in takomillashtirish, kuchaytirish lozim. Bu taraqqiyot oxir-oqibatda mamlakatning to'la ijtimoiy-siyosiy mustaqilligini tahminlab, shu orqali respublikamiz ijtimoiy rivojlanishini tezlashtirishga, ozod va obod Vatanni, xalqimiz farovon hayotini ta'minlashga olib keladi.

2. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning asosiy tamoyillari. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik demokratik, adolatli jamiyat qurishning eng muhim asoslaridan biri hisoblanadi. **Barqarorlik** - tinchlik, osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti qathiy, uzil-kesil hamda mustahkam o'rnatilgan muhim shart. Barqarorlik, tinchlik, totuvlik - bular davlatchiligimizning yangi binosi barpo qilinadigan poydevoridir. Bu bizning ertangi porloq kunimizga olib boradigan yo'ldir.⁹⁹ Barqarorlik, avvalo, har qanday taraqqiyot, bunyodkorlik faoliyatining zaruriy sharti va zamini hisoblanadi.

Ijtimoiy barqarorlik²: 1) jamiyat hayotining osoyishtaligi; 2) ijtimoiy tuzum elementlarining uyg'unligi; 3) jamiyatdagi ijtimoiy birliklar (millatlar, turli ijtimoiy qatlamlar va boshqa) vakillarining hamkorligi va hamjihatligi.


Barqarorlik insoniyat tarixida yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyati uchun asos bo'lgan. Qadimgi mashhur faylasuf Konfutsiy: «**Farovonlik** - maqsad, **islohotlar** - unga erishish yo'li, **barqarorlik** esa **shart-sharoitdir**» deb bejiz aytmagan. Ana shu sababdan ham jamiyat hayotida barqarorlikka intilib kelingan, barqarorlik, boshboshdoqlik bo'lmasligi uchun harakat qilingan.

⁹⁹ Karimov I.A. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. T.3. T.: «O'zbekiston», 1996, 296-bet.

² Nazarov K., Ochiliev A. Milliy istiqloqlig': asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. -T.: «Yangi asr avlodi», 2002, 13-14- betlar.

«Biz mavjud real xavf-xatarlarga jiddiy qaraymiz. Ayni vaqtda imkoniyatlarimizni, jozibali jihatlarimiz va afzal tomonlarimizni ham bilamiz. Bizning mineral xomashyo, insoniy va ishlab chiqarish zahiralari ichki barqarorligimizning va xalqaro nufuzimizning mustahkam kafolati bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimiz XXI asrda jahon iqtisodiyoti, madaniyati va siyosatida munosib o'rin olish uchun tarixiy imkoniyatlarga ega».

Islom Karimov



Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning tamoyillari quyidagilardir:

1) Ijtimoiy adolatni ta'minlashdir. Ijtimoiy adolat tahmin bo'lishi uchun mamlakatda qonun ustuvorligi, fuqarolarning qonun oldida tengligi va o'z ish faoliyatlarini qonun doirasida amalga oshirishni bildiradi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Qonunning ustuvorligi - huquqiy davlatning asosiy printsipidir». Amir Temurning «Qaerda qonun hukmronlik qilsa, o'sha yerda erkinlik bo'ladi» degan o'gitlari sharqona huquqiy davlat qurishda asos bo'lib xizmat qiladi. «Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i dardkor.

Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart», – degan edi Yurtboshimiz Islom Karimov. – Mamlakatda adolat tamoyillari amal qilishi, barqarorlik hukm surishida **uch sub'ektning**, ya'ni **davlat, jamiyat va fuqarolarning** o'zaro munosabatlaridagi qonuniylik asos bo'ladi. Boshqacha aytganda, ana shu uch sub'ekt - davlat, jamiyat va inson munosabatlari bir-biriga mos kelishiga erishilsagina, ota-bobolarmiz orzu qilgan adolatli jamiyat barpo bo'ladi¹⁰⁰.

2) O'zbekiston polietnik davlat bo'lganligi bois, millatlararo va hamkorlikni ta'minlash bilan bog'liq. O'zbekistonda 130 ga yaqin millat va elatlar yashamoqda. Bugungi kunda respublikamizda 100 dan ortiq milliy-madaniy markaz ishlab turibdi. Bu markazlarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli beqiyos.

¹⁰⁰ Nazarov Y., Ro'zinazarov SH. Mustaqillik xuquq demakdir. - T.: «O'zbekiston», 1998, 14-b.

3) Respublikada 18 ta diniy konfessiyaga mansub 1900 dan ziyod diniy tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda. Mirarab madrasasi, Toshkent Islom universiteti, 14 ta madrasa, 400 ga yaqin diniy musulmon o'quv muassasalari, boshqa dinlarga tegishli 19 o'quv yurti ishlab turibdi. Diniy tahlimot muassasalarida 4200 dan ortiq yoshlar dinlar asoslarini hamda dunyoviy bilimlarni o'rganmoqda¹⁰¹. Ana shu diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni doimiy ravishda yaxshilab borish va bir-birlarini hurmatlash, ehzozlash muhim tamoyillardan biri sanaladi.

4) Jamiyat ahzolarining haq-huquqlarini ta'minlash. Asosiy qonunimiz bo'lgan O'zbekiston Konstitutsiyasida ko'rsatilganidek, to'la-to'kis amalga oshirish uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy asoslarini tahminlab berish lozim. Xalqimizda mustaqillik - bu huquq degan aqida ijtimoiy hayotning barcha sohalari uchun asos sifatida xizmat qiladi. Prezidentimiz Islom Karimov «Mustaqillik so'zining nafaqat o'zini erkin sezish, o'z hayotini qurish, balki o'z hayot-mamotini hal etishda katta huquqqa egalik ham demakdir»¹⁰², degan edi.

5) Prezidentimiz Islom Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida 2004-2005 yillargacha mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasining *oltinchi ustuvor yo'nalishi - jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlashdan iborat bo'lgan muhim vazifalarni belgilab berdi*¹⁰³.

6) Jamiyat ahzolari barcha toifalarining turmush darajasini yuksaltirish sari yo'lidan borish va uning farovonligini oshirish eng muhim tamoyillardan biri hisoblanadi. Bu borada davlat narx-navoni to'la nazorat qilib, jamiyatning turli xil toifa, mutaxassis ishchi-xodimlari maoshlarini mutanosiblikda olib borish ham muhim siyosiy ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir.

7) Mamlakatda tinchlikni, osoyishtalikni ta'minlash uchun Qurolli Kuchlarni, Mudofaa qudratini harbiy-texnikaviy jihatdan qayta qurollantirish va yangilash, milliy armiyamiz salohiyatini oshira borish - ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashning tamoyillaridan biri.

8) SHu munosabat bilan mamlakatimiz chegaralarini qo'riqlash, mustahkamlash maqsadida qudratli rivojlangan davlatlar bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ayniqsa **harbiy sohalardagi aloqalarni** mustahkamlash yo'li birdan bir to'g'ri yo'l va nihoyatda katta ahamiyat kasb etgan tamoyillardan biridir. Bu borada Prezident Islom Karimov 2001 yil 3-5 may kunlari Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan Rossiya Federatsiyasida bo'ldi. SHuningdek, 2005 yil 25 mayda mamlakatimiz rahbari Xitoy Xalq Respublikasida bo'ldi. Tashriflar davomida savdo-iqtisodiy munosabatlar, Markaziy Osiyodagi xavfsizlik masalasiga, mintaqada xalqaro terrorchilikka qarshi birgalikda kurash masalalariga katta ehtibor qaratildi. Mazkur davlatlar o'rtasida imzo chekilgan hujjatlarning qimmatini va ahamiyatini benihoya kattadir.

9) Iqtisodiy va siyosiy barqarorlik uzviy bog'liq jarayonlardan biri. SHu boisdan ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash iqtisodiy islohotlar barqarorligining rivojlanishini tahmin etadi, aholi turmush darajasining sifat jihatdan yaxshilanishiga olib keladi. Mamlakatimizda ijtimoiy hamkorlikni ta'minlashda farovon, barqaror hayotni barpo etishning 4 shartiga ehtibor qaratilmoqda. Bular:

- a) tinch-totuvlik va barqarorlikni ko'z qorachig'iday asrash;
 - b) mulkka yangi munosabatda bo'lish;
 - v) fuqarolar, avvalo, faollar tafakkurining o'zgarishi zarurligi;
 - g) ijtimoiy ongimizda Vatan ozodligi g'oyasining ustunligi.
- Demak, **xulosa o'rnida** shularni bildirish mumkin:

1. Diniy aqidaparastlik va boshqa yot mafkuralar, eng avvalo, ayrim yoshlarning g'oyaviy-siyosiy tajribasizligiga tayanadi.

¹⁰¹ «Markaziy Osiyo madaniyati» gazetasi. 2000 yil 22-28 sentyabr.

¹⁰² Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. T.: «O'zbekiston», 1998, 25-bet.

¹⁰³ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z ko'limiz bilan quramiz. T.7. T.: «O'zbekiston», 1999, 382-bet.

2. Qarshi targ'ibot samaradorligining zaruriy tamoyillaridan biri - uning tezkorligida bo'lib, unda muayyan mintaqaviy sharoitlarni, kishilarning yosh xususiyatlarini, oliy o'quv yurtining u yoki bu muddatda hal qila olishi mumkin bo'lgan mafkuraviy imkoniyatlarini hisobga olish ko'zda tutiladi.

3. SHaxsning mamlakat ichkarisida va tashqarisida sodir bo'layotgan voqealarni mustaqil tahlil qila olishi, mafkuraviy immunitetni mustahkamlaydi.

CHunki mafkuraviy tahdid o'zining mazmuni, tamoyillari, uslublari va shakllariga ko'ra murakkab hodisadir. «Biz uchun yot bo'lgan bir maqsadni, - degan edi Prezident Islom Karimov, - diniy davlat, musulmon xalifaligini o'rnatishni targ'ib qilmoqda. Ularni birlashtirib turgan - dunyoviy taraqqiyot yo'lga bo'lgan nafrat, g'arblik jurnalistlar uchun yana bir bor aytmoqchiman, konstitutsiyaviy, dunyoviy taraqqiyot yo'lini qabul qila olmaslik, uni ko'rolmaslikdir»¹⁰⁴.

4. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ichki va tashqi omillari hamda terrorizm xavfi va unga qarshi kurashish

Prezident Islom Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida....» asarida xavfsizlik milliy modelini ishlab chiqishi talab etilayotganligini bayon etgan edi. Xavfsizlik: a) Umumiy xavfsizlik, b) Mintaqaviy xavfsizlik, v) milliy tahdid tushunchalaridan iborat. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, o'tgan yillar mantiqi bizni hozirgi kunda 3 ta asosiy savolga murojaat qilishga undamoqda. O'zbekistonning kelajagi ana shu savollarga qanday javob berishimizga bog'liq. Bular:

- 1) Xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim
- 2) Barqarorlikni qanday ta'minlash darkor
- 3) Taraqqiyot yo'lidan sobitqadam rivojlanishga nimalar hisobiga erishish mumkin

O'zbekistonda milliy-diniy bag'rikenglik va dunyoviylik. Dinlarning umuminsoniy mohiyati, maqsadi bir bo'lib, ular bir-birlariga zid emas. Aslida diniy bag'rikenglikning mohiyati shundan kelib chiqadi. Jamiyat tarixidan turli dinga mansub kishilarning yonma-yon yashab kelganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Bizning mamlakatimiz hududida ham islom, ham nasroniylik, iudaizm kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan, diniy amallar erkin ijro etilgan. O'sha davrlarda ham ziyolilar, olimlar hayot saboqlarini bir-biridan o'rganganlar, ustoz-shogird bo'lishgan. Ularning turli dinlarga mansubligi bunday munosabatlarga halal bermagan.

1. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ichki omillari:


- 1) Xalqning kundalik moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining to'la qondirilishi.
- 2) Millatlararo tinch-totuvlik, teng huquqlilik, hamjihatlilik, hamkorlik.
- 3) Diniy bag'rikenglik (tolerantlik).
- 4) Fuqarolarning siyosiy faolligi;
- 5) Jamiyat hayotining barcha sohasini demokratlashtirish.
- 6) Adolatli, qonun ustuvorligini ta'minlash.
- 7) Ijtimoiy muhofaza, ijtimoiy kafolat, ijtimoiy adolat tamoyillarini yo'lga qo'yish.
- 8) Davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish va h.k.

2. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning tashqi omillari:

- 1) Mamlakat manfaati ustuvorligini ta'minlash.
- 2) Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash.
- 3) BMT, YeXHT, Yevropa Ittifoqi, NATO, SHHT, Yevroosiyo kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni keng yo'lga qo'yish.
- 4) AQSH, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Frantsiya va Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish.
- 5) Xalqaro, mintaqaviy terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi birgalikda kurash va h.k.


¹⁰⁴ Karimov I.A. O'zbek xalqi xech qachon, xech kimga qaram bo'lmaydi. -T.: O'zbekiston, 2005. 53-bet.

Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni tahmin etuvchi ayrim jarayonlarni quyidagi chizmalar asosida tasvirlash ham mumkin.



Tolerantlik (lotincha tolerantiya – sabr-toqat) – jamiyatdagi turfa madaniyatlilik, plyuralizm, turli-tumanlilik va xilma-xilliklarning mavjudligini tan olish, qabul qilish, to'g'ri tushunish va hurmat qilishga qaratilgan ijobiy munosabat.

Diniy ekstremizm ("Extreme" – oxirgi, nihoyasi, so'nggi, keskin uchi degan mahnolarni anglatadi) – jamiyat, millat va davlat hayotini faqat diniy aqidalardan kelib chiqib keskin o'zgartirish va boshqarish zarurligini ilgari suruvchi noqonuniy yoki jinoiy tashkilotlar, oqimlar faoliyati.



Hozirgi vaqtda O'zbekistondagi turli konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar o'z faoliyatini o'zaro teng huquqlilik, hamdo'stlik va hamkorlik asosida amalga oshirmoqda. Diniy bag'rikenglik turli dinlarning, turli dinlarga mansub kishilarning hamdo'stlik munosabatlarinigina nazarda tutmaydi, balki ehtiқodidan qatʼiy nazar barcha kishilarning tengligi, umumiy ezgu maqsad yo'lida hamkorlikni ham qamrab oladi. Diniy qarashga ko'ra ham, madaniy, jumladan, ilmiy qarashga ko'ra ham inson eng oliy mavjudotdir.


Diniylik dunyoviylikka xizmat qilishi mumkin deganda, dunyoqarashning ezgulik, yaxshilik, halollik, tinchlik, do'stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashni nazarda tutamiz. Haqiqatan ham diniy tahlimotlar, u dunyo hayotini tasvirlash vositasida bu dunyoda yuksak fazilatlarga ega bo'lishga undaydi.

Diniy bag'rikenglikning qaror topishi, mustahkamlanishi, rivojlanishi barcha kishilarni ehtiқodidan qatʼiy nazar milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish yo'lida birlashtiradi. U mafkurani milliy g'oya va kishilar ongi hamda qalbiga joylashishiga yordam beradi.

Aksincha, diniy bag'rikenglikni tor mahnoda tushunish, bir tomonlama talqin qilish umumiy maqsadlardan chalg'itib, kishilarni o'zaro guruhlariga bo'lib yuborishi mumkin. SHuningdek, ayrim guruhlarining g'arazli manfaatlariga xizmat qiluvchi diniy niqobni yuzaga keltiradi.

Bu haqida mamlakat Prezidenti I.A.Karimov shunday yozadi: «Afsuski, insoniyat taraxida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan odamlardagi ehtiқoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki vayron qiluvchi kuch, hatto **fanatizm** (o'ta ketgan mutaassiblik) sifatida foydalanilganligini ko'rsatuvchi misollar ko'p. Fanatizmning o'ziga xos xususiyati va ko'rinishlari, avvalambor, o'z dinining haqiqiyligiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy ehtiқodlarga murosasiz munosabatda bo'lishdan iboratdir. Aynan fanatizmga yo'liqqan odamlar yoki ularning guruhlari jamiyatda beqarorlik to'lqinini keltirib chiqarishga qodir bo'ladilar»¹.

¹ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqror taraqqiyot yo'lida. -T.6. -T.: O'zbekiston, 1998, 54–bet.



O'zbekistonda yangi demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga kirishilgan hozirgi o'tish davrida diniy bag'rikenglik qanchalik muhim bo'lsa, diniy bag'rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Milliy mafkuraning yuksak g'oyalari, o'z navbatida, dinning haqiqiy mohiyatini jamiyat taraqqiyotidagi o'rni anglab olishga yordam beradi. Diniy bag'rikenglik g'oyasini to'g'ri tushunishga yordam berib, barcha kishilarni ehtiqodidan qat'iy nazar birlashtiradi. Milliy istiqlol mafkurasi kishilar ongi va qalbiga singganda diniy mutaassiblikka, ayirmachilikka hech qanday o'rin qolmaydi.

Respublikamiz aholisining milliy qiyofasi faqat SHarq emas, balki, Farb tsivilizatsiyasiga mos umuminsoniy tamoyillar, islom, xristianlik va boshqa dinlarga ehtiqid, anhana va urf-odatlar, rang-barang turmush tarzidan iborat ma'naviy mezonlarni o'zida aks ettiradi.

Hozirgi kunga kelib respublikamiz bo'yicha jami 2104 ta diniy tashkilot, shu jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasi, Yevangelg' xristian baptistlar cherkovlari Ittifoqi, Rim katolik cherkovi, To'liq injil xristianlar markazi, O'zbekiston bibliya jamiyati, 1906 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 7 ta yahudiylar jamoasi, 7 ta bahoiylar jamoasi, 2 ta Krishnanani anglash jamiyati va 13 ta diniy o'quv yurti (1 ta Islom masjidi, 10 madrasa va 1 ta pravoslav va 1 ta to'liq injil xristianlari seminariyasi) davlat ro'yxatidan o'tgan.

O'zbekistonda dunyoviylik bilan diniylik o'rtasida andoza sifatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi nisbatning shakllanishi natijasida dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning tahminlangani, qolaversa, tabarruk zaminimizning azaldan umumjahon tamadduni markazlaridan biri bo'lgani barchaga ayon.

Dunyodagi musulmon mamlakatlarini 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Islom mamlakatlari.
2. Islom davlat dini mamlakatlari.

3. Huquqiy demokratik musulmon davlatlari (Din davlatdan ajratilgan) O'zbekiston ana shu 3-turdagi huquqiy demokratik musulmon davlatlari qatoridan joy olgan. Davlatimiz diniy tashkilotlar bilan quyidagi tamoyillar asosida ish olib bormoqda:

1. Dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish.
2. Diniy ehtiқodlarini fuқarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish.
3. Diniy qarashlarga amal qiluvchi fuқarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuқarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni taqib qilishga yo'l qo'ymaslik.
4. Ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zarurati.
5. Dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini ehtirol etish kabilardir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy bag'rikenglik - turli millatga mansub kishilarning bir-birlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urf-odati va anhanalarini, milliy-madaniy merosini hurmat qilishni, ularning shahni, qadr-qimmatini, or-nomusini qadrlash orqali amalga oshadigan o'ziga xos ma'naviy kenglikni (bag'rikenglikni) anglatadi. Milliy bag'rikenglik bunga zid bo'lgan, milliy manfaatga ziyon yetkazish hisobiga tahminlanmaydi. U turli millat manfaatlarini uyg'un ko'rish va ta'minlash asosida mustahkamlanib boradi.

Diniy bag'rikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo'nalishlar va mazhablarning ezgu g'oyalarini qadrlash, bir-birlarini hurmat qilish asosida amalga oshadi.

Bu milliy g'oya amal qiladigan ustuvor g'oyalar sifatida milliy bag'rikenglik va dinlararo bag'rikenglikka asoslanish turli xalqlar va millatlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik, totuvolikni ta'minlash orqali erkin va farovon hayot qurish yo'lida, insonlarning tub hayotiy maqsadlari bilan mushtarakdir.

Demak, millatlararo totuvlik - umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning, bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarni teng qondirish, ular rivojini ta'minlashning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Terrorizm – demokratik jamiyatga qarshi tahdid (2001 yil 11 sentyabrda AQSHda va boshqa mamlakatlarda sodir bo'lgan ko'poruvchilik harakatlarining zararli oqibatlar). **Terrorizm** (lotincha qo'rquv, dahshat mahnolarini ifoda etadi) – ma'lum yovuz maqsadlar yo'lida, kuch ishlatib, odamlarni jismoniy yo'q qilishdan iborat bo'lgan g'oyaga ososlangan zo'ravonlik usuli. Qo'rqitish va dahshatga solish orqali o'z hukmini o'tkazishga urinish terrorchilikka xosdir. U iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy, milliy, individual shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. SHu boisdan ham terrorizm demokratik jamiyatning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, mamlakatni boshi berk ko'chaga olib kelishi mumkin. Tahqib, zo'ravonlik, qo'poruvchilik va qotillik terrorchilikning har qanday ko'rinishi uchun umumiy xususiyat bo'lib, gumanizm, demokratiya, adolat tamoyillariga ziddir. SHuning uchun terrorizm qanday «bayroq» ostida amalga oshirilmasin, mohiyatan insoniyatga, taraqqiyotga, ezgulikka qarshi jinoyatdir. Iqtisodiy manfaatlarni ko'zlovchi va moddiy boyliklarni o'zlashtirishni maqsad qilib olgan terrorchilik keng tarqalgan. Unda raqiblarni yoki ularning yaqinlarini jismoniy yo'q qilish, o'g'irlab ketish, zo'ravonlik, tajovvuz bilan qo'rqitib, o'z hukmini o'tkazishga urinish, boyliklarini o'zlashtirib olish yo'llaridan foydalaniladi.

Hozirgi kunda jahonda 500 dan ortiq turli xil xalqaro terroristik tashkilotlar, markazlar va guruhlar mavjud. «Al-qoida» xalqaro terroristik tashkilotini bunga misol qilib olish mumkin. Bu tashkilotning tub maqsadi va mafkurasi dunyoviy taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlar, birinchi navbatda AQSH, Yevropa mamlakatlari xalqlari hayotiga dahshat urug'ini sohib, mazkur xalqlarning o'z hukumatlari siyosatini Yaqin SHarq muammosi (Falastin, Afg'oniston, Iroq)ni xal etishga, o'zgartirishga erishishdan iborat. Terroristik harakatlar mamlakatimizda 1991 yil dekabrda Namanganda, 1999 yil 16 fevralda Toshkentda sodir bo'ldi. Terorchi kuchlar, siyosiy, diniy ekstremistlar tomonidan Toshkentda uyushtirilgan terrorchilik harakati oqibatida 16 nafar begunoh insonlar shohid ketdi. 120 nafar kishi tan jarohati oldi. O'zbekiston markazida diniy ekstremiz maxsus mashinalarga, xudi Afg'onistonu CHEchinistonda terorchilar ishlatayotgan qo'lbola bombalarni joylab, eng muhim mahkamalar qoshida portlatdilar. Bu dahshatli falokat alamzada dushmanning mustaqil davlat asoschisi Islom Karimovni mahv

etishga urindilar, terrorchilar o'z qilmishlariga yarasha jazo oladilar. Afg'oniston hududida o'rnashib olgan terrorchi kuchlarning bir guruhi 1999 yilda Yangiobod, 2000 yilda Sariosiyo va Uzun tumanlarida, Burchmullaga bostirib kirib, mamlakatimiz tinchligini buzdilar. 2004 yil.

28 mart – 1 aprel kunlari Toshkent shahri, Buxoroning Romitan tumanida, Toshkent viloyatlarida takroran terrorchilik harakatlari sodir bo'ldi. 2005 yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida ana shunday ko'poruvchilik harakatlari natijasida 200 ga yaqin O'zbekiston fuqarolari halok bo'ldi.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, 2001 yil 11 sentyabrida AQSHda yuz bergan qo'poruvchilik, terrorchilik oqibatlarini mamlakatga katta ma'naviy va moddiy zarar keltirdi. Ko'plab insonlar halok bo'lishiga olib kelgan bunday dahshatli terrorchilik harakatlariga birgalikda kurash masalasini Prezidentimiz doimo xalqaro tashkilotlar anjumanlarida bir necha bor ta'kidlab kelmoqda. SHu boisdan ham 1996 yilda tuzilgan SHanxay hamkorlik tashkilotiga O'zbekiston 2001 yilda ahzo bo'lib kirdi. Bu tashkilot xalqaro terrorizmga, ekstremizmga, har qanday qo'poruvchilik harakatlariga, separatizmga birgalikda kurashib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni va uning ijtimoiy-siyosiy jihatlari. 2000 yil 15 dekabrda bo'lib o'tgan O'zR Oliy Majlisining 4-sessiyasida "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda terrorizm siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'ligiga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa ob'ektlarning yo'q qilinishi xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolarni chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zRning javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoyi qilmishlar deb ta'riflanadi. Mazkur qonunda davlat organlarining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari, terrorchilikka qarshi operatsiyaning o'tkazilishi, terrorchilik harakati oqibatida yetkazilgan zararni qoplash va jabrlangan shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi kabi masalalar huqukiy asoslab berilgan. O'zR JKga ko'ra terrorchilik harakatlarini tayyorlash, sodir etish, bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday yordam berish harakatlari 8 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi aytilgan. Terrorchilik harakatlari odam o'ldirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda esa 15-20 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazolari bayon etilgan.

SHu boisdan ham ana shu "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan har tomonlama va chuqur asoslab berildi. haqiqatan ham XX asrda va hozirgi davrda "ekstremizm", "terrorizm" tushunchalari eng keng tarqalgan siyosiy so'zlar qatoridan joy oldi. Terrorizm – insoniyat dushmani, taraqqiyot va yuksalishning kushandasi hisoblanadi.

Demak, terrorizm davrning fojiali kushandasi ekan, unga qarshi kurash olib borish har bir fuqaroning burchi bo'lishi kerak. Biz manbalardan shuni bilamizki, terrorizm: xalqaro, mintaqaviy, milliy terrorizmga bo'linadi. Ana shu siyosiy va boshqa terrorizmga birgaligida kurash borasida, Prezident Islom Karimov doimo xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda qilgan o'z mahruzarlarida bunga birgalikda kurash masalasini ilgari surib kelmoqda. SHanxay Hamkorlik Tashkilotiga O'zbekistonning ahzo bo'lishida ham chuqur mahno bo'lib, bunda terrorizm, diniy ekstremizm, separatizmga birgalikda kurash masalasiga alohida ehtibor berilgan. Toshkent shahrida SHHTning Aksilterror markazining tashkil etilishi ham shundan dalolat beradi. Har bir fuqaro bunga nisbatan siyosiy ongilligi bilan qarshi kurashmoq kerak.

2000 yil 6 sentyabrida Prezidentimiz Islom Karimovning "Terrorchi guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O'zbekiston fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish to'g'risida"gi Farmoni hozirgi kunda ham amalda qo'llanilmoqda. Mazkur farmonda O'zbekistonga qo'shni bo'lgan davlatlar hududidagi terrorchi guruhlar tarkibiga kirib qolgan, og'ir jinoyatlar sodir etmagan, Vatanga, ota-onasi bag'riga qaytib, tinch hayot kechirishni niyat qilgan shaxslarga

yana bir imkoniyat berish, ularni behuda jabr tortishiga yo'l qo'ymaslik singari insonparvarlik tuyg'usi ifodalandi.

2005 yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida ro'y bergan voqealar munosabati bilan mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari uchun o'tkazilgan matbuot anjumanidagi bayonot va muxbirlarning savollariga Prezident Islom Karimov "Bizni tanlagan yo'limizdan hech kim qaytarolmaydi" mavzuida suhbat o'tkazib, berilgan savollarga javob berdi. Suhbat 2005 yil 14 mayda Toshkent, Oqsaroy binosida bo'lib o'tdi. Andijon shahrida odamlar qurbon bo'lishiga olib kelgan bir qator terrorchilik harakatlari vahshiylarcha bosqinchilik sodir etildi. Oqibatda 169 kishi halok bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan O'zR Jinoyat kodeksining terrorizm, konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz qilish, ikki va undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirish, uyushgan jinoyi guruhlar tuzish, ommaviy tartibbizliklar uyushtirish, garovga olish, qonunga xilof ravishda o'qotar qurollarini, o'qdori, portlovchi qurulumlarini qo'lga kiritishga oid moddalar bo'yicha jinoyi ish qo'zg'otildi. 81 jinoyatchi qo'lga olingan. Qo'lga olingan va halok bo'lganlarining 50 tasi O'zbekiston fuqarosi emasligi aniqlandi, 5 nafari Qirg'iston fuqarosi bo'lib chiqdi. Jinoyatchilar xorijda ishlab chiqarilgan va raqamlari o'chirilgan avtomatlar, to'pponchalar va snayperlik miltiqlari bilan qurollangan bo'lgan. Terrorchilar jami 305 dona qurol-aslahani, shu jumladan 205 ta avtomat va 100 ta to'ppancha, 261 ta granata va boshqa qurollarni qo'lga kiritgan.

Ikkinchidan, bu qora guruhlar Qirg'istonda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham mahalliy va markaziy hokimiyatning zaifligini ko'rsatadi. Qirg'istondagi voqealarning kelib chiqishiga bo'lgan ikkinchi sabab, bu hokimiyatning zaifligi. Bu yerda sabab va oqibatning mantiqiy bog'liqligi mavjud. Gruziya va Ukrainaga nisbatan gapini takrorlaydigan bo'lsam vaziyatga tashqaridan aralashish deb ataladigan omillar dastlabki ikkita sabab ish bergandagina samarali bo'lishi mumkin. 1) aholining noroziligi, 2) hukumat tomonidan xalqning ahvolini anglash, korrupsiya botqog'iga botib qolishi sabab bo'lgan.


Uchinchidan, Andijondagi jangarilarning orasida qo'shni davlatlardan kelganlar ham bor, chetdan yordam bo'lmasa, homiylari moddiy yordam ko'rsatmasa ular hech qachon bunday chuqur tayyorgarlik ko'rmagan bo'lardi.

To'rtinchidan, jangarilar Andijon xalqi aholisi bizlarni qo'llab-quvvatlaydi deb o'ylashgan. Ular mahmuriyatni egallash, odamlarni, xalqni qo'zg'otishga chaqirish bo'lgan.

Beshinchidan, jangarilarning asosiy niyati shunday vaziyatlardan foydalanib, viloyatda xalq saylagan konstitutsion hokimiyatni ag'darish, xalifalik degan hokimiyatni o'rnatish edi. SHundan so'ng Prezident Rossiya, Yuriy CHernogaev, "Franspressligi" va boshqa jurnalistlar savolariga javob berdi.

5. Iqtisodiy va siyosiy barqarorlikning o'zaro bog'liqligi hamda millatlararo totuvlikning muhim shartlari.

Prezident Islom Karimov mustaqillikning o'tgan yillaridan hamisha iqtisodiy, ya'ni makroiqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlash masalasini kun taribiga dolzarb vazifa sifatida qo'yib kelmoqda. Jumladan, 2007 yilning eng muhim 7 ta ustuvor yo'nalishlaridan **birinchisi**, iqtisodiyotning barqaror va mutanosib surhatlarda o'sishi hamda tarkibiy o'zgarishlar va modernizatsiyalashni ta'minlash, uning eng muhim tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, soliq siyosatini yanada erkinlashtirish masalasini ilgari surdi. Makroiqtisodiy barqarorlik siyosiy barqarorlik bilan chambarchas bog'liq. Siyosiy barqarorlikning o'zi esa, avvalo mamlakatda diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik g'oyalari bilan ham uzviy bog'liq (15.5-chizmaga qarang).



Milliy-madaniy markazlar – xalqlarning ma'naviy yaqinligi manbaidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida «O'zbekiston xalqini, millatidan qathi nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», deb aniq belgilab qo'yilgan. «O'zbekiston xalqi» tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlik uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari Konstitutsiyamizda «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlarini va anhanalarini hurmat qilinishini tahminlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi», deb ta'kidlangan. Bu borada hayotimizda ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda.


Respublika Baynalmilal Madaniyat Markazi (RBMM) va milliy madaniyat markazlari (MMM)ning faoliyati bu yerda yashovchi xalqlarning milliy anhanalari, urf odatlari va marosimlarini qayta tiklash, ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Turli millatlarga mansub fuqarolarimizning katta umumxalq bayramlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish, mamlakat madaniy turmushidagi shonli voqealarni nishonlashda faol ishtirok etayotganliklari samimiy sahovat va mehr oqibat muhitini yaratmoqda. Bu muhit bizga yagona oila tuyg'usini qayta-qayta his etish «O'zbekiston umumiy uyimiz» degan so'zlar zahiridagi chuqur mahnoni anglab olish imkonini beradi.

Hukumat qaroriga binoan Madaniyat ishlari vazirligi huzurida Respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi. Ammo bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi 1991 yildan mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. 1992 yilning yanvarida Prezident I.A.Karimovning tashabbusi bilan Respublika millatlararo Baynalmilal markazi qoshidagi Madaniyat ishlari vazirligi Respublika «baynalmilal madaniyat» markaziga aylantirildi.

1992 yilda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyatini birlashtirgan bu jamoat tashkiloti - «Baynalmilal madaniyat» 2005 yilga kelib 120 ga yaqin markazlar ishini muvofiqlashtirib

kelmoqda. Bugungi kunda ana shunday markazlarni tuzish bo'yicha 15 ta tashabbuskor guruh ish olib bormoqda.

7-Slayd



QISQACHA XULOSA

1. Millatlararo totuvlik va bag'rikenglik asoslari.

O'zbekistonda barcha millat vakillariga teng huquqli munosabat davlat qonuni bilan mustahkamlangan. Buning ijobati maktablarimizda 9 ta milliy tilda o'qitish ishlari, 20 tilda ommaviy axborot nashrlari faoliyat ko'rsatayotganligida ko'rinmoqda.

Mazkur milliy-madaniy markazlarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashdagi roli beqiyosdir. Milliy madaniy markazlarning asosiy vazifalari 3 yo'nalishga ega:

1) Har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlarini va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatan bilan aloqa va munosabatlarni jonlantirish, milliy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga keng yo'l ochish.

2) Mustaqil O'zbekistonni o'zining haqiqiy vatani deb bilish va unga beminnat hamda sadoqat bilan xizmat qilish.

3) Vatan bilan mushtarak hayot kechirish, uning madaniyati, turmush tarzi va tilini o'rganish, mustaqil davlatga nomi berilgan millat bilan do'stlikda, hamkorlikda va totuvlikda yashash.

Ana shu 3 yo'nalishda olib borilayotgan ishlar yil sayin yangidan- yangi shakllarda, turlarda, yo'nalishlarda rang-barang bo'lib bormoqda. SHu jumladan:

- o'z milliy tarixini, madaniyatini, tilini, urf-odatlarini o'rganish to'garaklari ishlanmoqda;
- O'zbekiston tarixini, madaniyatini va tilini o'rganish to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda;
- milliy musiqa, raqs va hunar to'garaklari o'z ishini kengaytirmoqda;
- milliy bayram kunlariga bag'ishlab tadbirlar o'tkazmoqda, festivallar tashkil qilmoqda;
- tarixiy Vatanning rassomlari, yozuvchilari, shiorlari, oqillari va baxshilari, madaniyat va siyosat arboblari bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilinmoqda;
- tarixiy Vatandan kelgan siyosiy arboblarning madaniyat namoyondalari bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda va h.k.

Umuman, milliy madaniyat markazlari O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashga katta hissa qo'shmoqdalar.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarining o'z ona tilida o'qishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani, oliy o'quv yurtlari va maktablarda bunga amal qilinayotgani, ko'plab tillarda gazeta va jurnallar chop etilib, teleko'rsatuv va radioeshittirishlar olib borilayotgani va boshqa ishlar ham bu borada samarali faoliyatning yaqqol dalilidir.

Har qanday polietnik davlatda turli millatlar o'rtasidagi munosabatlar davlat va jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratuvchi omillardan hisoblanadi.

2. Bag'rikenglik g'oyasini quyidagi sxema asosida tasvirlash mumkin (5.-6-chizma).

3. Milliy-diniy bag'rikenglik g'oyasi hamda uning tarixiy va huquqiy asoslari.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik nima
2. Zararli g'oyalar tahsiri qanday namoyon bo'ladi
3. Ijtimoiy-siyosiy bag'rikenglik belgilari va uning zarurligi nimalarda aks etadi
4. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning qanday ichki omillari bor
5. Xavfsizlik va barqarorlik tushunchalarini bayon eting
6. Terrorizm nima
7. Makroiqtisodiy barqarorlik nima uchun kerak
8. Millatlararo totuvlik nimalar bilan bog'liq

ADABIYOTLAR:

- 1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2007. –3–15-b.
- 2) Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka, tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6.-T.: «O'zbekiston», 1997. 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
- 3) Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.7. -T.: «O'zbekiston», 1998, 132-154-betlar.
- 4) Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. T.7.-T.: «O'zbekiston», 1999. 84-102-betlar.
- 5) Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. T.: «O'zbekiston», 2005, 5-33 betlar.
- 6) Karimov I.A. Milliy istiqlool mafkurasi - xalq ehtiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 489-508-betlar.
- 7) Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 462-467-betlar.
- 8) Karimov I.A. Hushyorlikka dahvat. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 18-31-betlar.
- 9) Karimov I.A. «Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga so'z boshi. T.9. -T.: «O'zbekiston», 2001. 220-224-betlar.

- 10) Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch - qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmaz irodasiga bog'liq. -T.: «O'zbekiston», 2004.
- 11) Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch - qudratimizga, hamjihatligimiz va qathiy irodamizga bog'liq. -T.12. -T.: «O'zbekiston», 2004. - 400 b.
- 12) Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: «O'zbekiston», 2005. -96 b.
- 13) Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish - har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 285–312-b.
- 14) Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezonini bo'lsin. Surxondaryo viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. –313–337-b.
- 15) Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. –156–223-b.
- 16) Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.14. – T.: O'zbekiston, 2006. – 61–97, 139–153, 248–265-b.
- 17) Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoitini yaratish – asosiy vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2007. – 11-b.
- 18) Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48 b.
- 19) Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayot garovidir. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2007. – 64 b.
- 20) Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezonini va maqsadidir. – T.15. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 3-11, 154-211-241-251-b.
- 21) Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48 b.
- 22) Rahimov I., Zohidov A., Azizov SH., Ayupov A. va boshq. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. -T.: «Universitet», 2001. 232-bet.
- 23) Pugachev V.P., Solov'ev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 202-255-betlar.
- 24) O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T.: «O'qituvchi», 2004, 3-44-betlar.
- 25) Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. T.: Toshkent Moliya instituti, 2004, 3-180-betlar.
- 26) Saifnazarov I., Karimov T.: Muxtarov A. Xalqimizning hamjihatligi terrorizmga qarshi kafolatdir. -T.: «Yangi asr avlodi», 2004. - 56 b.
- 27) Saidolimov S.T. Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlashning ayrim jihatlari. «Xalqaro munosabatlar» jurnali, 2004, №1, 20-22-bet.
- 28) Bekmurodov A.SH., Ma'naviy-mahrfiy faoliyat: ustuvor masalalar va innovatsiyalar. -T.: TDIU, 2005. - 44 b.
- 29) SHarifxo'jaev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati. – T.: SHarq, 2005. – 240 b.
- 30) Aliev B., Hoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot nashriyoti», 2005. – 160 b.
- 31) Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: “SHarq”, 2006. – 528 b.

- 32) Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar. – T.: “Ma'naviyat”, 2006. – 160 b.
- 33) To'xliiev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashr., 2006. – 280 b.
- 34) Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 204 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

- 1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2007. – 40 b.
- 2) O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabrda «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonuni.
- 3) O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi tahriri) 1999 yil 14 aprelg' Qonuni.
- 4) “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi to'g'risida»gi 2002 yil 12 dekabrg' Qonuni.
- 5) “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi 2002 yil 12 dekabrg' Qonuni.
- 6) O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 30 apreldagi “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi Qonuni.
- 7) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 18 yanvarda qabul qilingan «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo'yicha tahlil dasturlarini yaratish va respublika tahlil tizimiga joriy etish to'g'risida»gi Farmoyishi. «Mahrifat», 2001 yil 20 yanvarg'.
- 8) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustda qabul qilingan «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-mahriy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qarori. “Xalq so'zi”, 2006 yil 26 avgust.
- 9) O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 11 apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to'g'risida»gi Qonuni. “Xalq so'zi”, 2007 yil 12 aprel.
- 10) O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 11 apreldagi “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Qonuni. “Xalq so'zi”, 2007 yil 12 aprelg'.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

- 1) Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. – T. 1. – T.: O'zbekiston, 1996. – 364-b.
- 2) Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – T. 2.- T.: O'zbekiston. 1996. – 380-b.
- 3) Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3.- T.: O'zbekiston. 1996. – 366-b.
- 4) Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4.- T.: O'zbekiston. 1996. – 349-b.
- 5) Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishash – davr talabi . T. 5.- T.: O'zbekiston. 1997. – 384-b.
- 6) Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6.- T.: O'zbekiston. 1998. – 429-b.
- 7) Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 3.- T.: O'zbekiston. 1999. – 410-b.
- 8) Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T. 8.- T.: O'zbekiston. 2000. – 528-b.
- 9) Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mashulmiz . T. 9.- T.: O'zbekiston, 2001. – 432-b.

- 10) Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak . T. 10.- T.: O'zbekiston, 2002. – 432-b.
- 11) Karimov I. A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va mahrifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11.- T.: O'zbekiston, 2003. – 320-b.
- 12) Karimov I. A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihat-ligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T. 12.- T.: O'zbekiston, 2004. – 400-b.
- 13) Karimov I. A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13.- T.: O'zbekiston, 2005. – 448-b.
- 14) Karimov I. A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. - . T. 14.- T.: O'zbekiston, 2006. – 280-b.
- 15) Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – T.15. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 400-b.
- 16) Karimov I. A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2007. – 48-b.
- 17) Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48-b.
- 18) Karimov I. A. Demokratiya huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayotimiz garovidir. – T.: O'zbekiston, NMIU 2007. – 64-b.
- 19) Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – T.15. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 3-11, 154-211-241-251-b.
- 20) Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48 b.
- 21) Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir // “Xalq so'zi”, 2008 yil 9 fevralg'.

III. Darsliklar

O'zbekiston Respublikasida chop etilgan.

1. Ergashev I. va boshqalar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Navro'z”, 2005.
2. Aliev B., Hoshimov T. va boshqalar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: TDIU, 2007. – 240 b.

IV. O'quv qo'llanmalar

O'zbekiston Respublikasida chop etilgan.

- 1) Mirzaev A. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. – T.: TDTU, 2000. – 328 b.
- 2) Rahimov I., Zohidov A. va boshqalar. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari asosida). – T.: “Universitet”, 2001. – 232 b.
- 3) Azizxonov A.T. va boshqalar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Mahruzalar matni. – T.: O'AJBNT markazi, 2001. – 336 b.
- 4) Jo'raev S. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. – T.: TDSHI, 2003. – 364 b.
- 5) Jalilov SH.I. Fuqarolik jamiyatining poydevori. – T.: “O'zbekiston”, 2003. 208 b.
- 6) Sultonov T., Hayitov A. Demokratik jamiyat sari: parlament saylovlari va siyosiy partiyalar. – T.: TDIU, 2004. – 64 b.
- 7) Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. O'quv qo'llanma. – T.: TMI, 2004. – 188 b.

- 8) Azizxonov A.T., Yefimova L.P. Teoriya i praktika stroitelg'stva demokraticeskogo obo'estva v Uzbekistane. – T.: Natsionalg'nyy universitet Uzbekistana im. M.Ulugbeka, 2005. – 372 s.
- 9) Aliev B., Hoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. – T.: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi" nashriyoti., 2005. – 160 b.
- 10) Aliev B., Hoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2006.
- 11) Aliev B., Hoshimov T. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma (ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari asosida). – T.: TDIU, 2006. – 160 b.
- 12) Do'stjonov T., Mirhamidov M., Hasanov S. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2007. – 540 b.
- 13) Aliev B., Hoshimov T. va boshqalar. "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma (yangi pedagogik texnologiyalar asosida). – T.: TDIU, 2007. – 167 b.
- 14) Hoshimov T., Sultonov T. va boshqalar. "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanidan testlar to'plami. – T.: TDIU, 2007. – 67 b.

V. Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari

- 1) Sabitov SH.A. Vneshnyaya politika Kitaya v godq reform (1978-1998 gg.) i perspektivq sotrudnichestva s Respublikoy Uzbekistan. Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata politicheskix nauk. Toshkent – 2004.
- 2) Mullajanova M.M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda ijtimoiy va siyosiy institutlarning roli. Siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi., TDIU, 2006. – 160 b.
- 3) Ildirov U.Yu. Hozirgi zamon demokratlashuv jarayonlarining kontseptual asoslari va mustaqil O'zbekiston tajribasi. Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi., TDSHI, 2006. – 260 b.
- 4) Masimov A.A. Mustaqillik sharoitida O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari geosiyosatidagi o'ziga xos tutgan o'rni. Siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya Avtoreferati. – T.: O'zRTIV MIDU, TDAI, 2007. – 27 b.
- 5) Kamarov A.N. Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida xalqaro terrorizmga qarshi kurashni muvofiqlashtirishning huquqiy jihatlar. Yuridik fanlar ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya Avtoreferati. – T.: O'zRTIV, MIDU, 2007. – 25 b.

VI. Ilmiy monografiyalar, maqolalar va boshqa asarlar

- 1) Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki Siyar ul-muluk. – T.: Adolat, - 1997 – 256-b.
- 2) Temur tuzuklari. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa birlashmasi, 1991. – 144-b.
- 3) Ahzamxo'jaev A. A. va boshq. Politologiya asoslari. – T.: "Universitet" 1992. – 224-b.
- 4) SHaripov F. SH. Siyosatshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: "O'zbekiston" 1992. -431-b.
- 5) Ramozonov I., Mo'minov E. Politologiya. Darslik. – T.: Adolat, 1997 – 320-b.
- 6) Otamurotov S. Ergashov I., Akromov SH. , Qodirov A. Politologiya. – T.: "O'zbekiston", 1998. – 254-b.
- 7) Ergashov I. va boshq. Politologiya. Mahruzalar matni. – T.: "O'AJBNT" markazi, 2000. – 216-b.
- 8) Ergashov I. Politologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq mehrosi nashriyoti "O'AJBNT" markazi, 202. – 283-b.

- 9) Pugachev V. P. , Solovg'ev A. I. Siyosatshunoslikka kirish. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2004. – 256-b.
- 10) Sultonov T. va bosh. Siyosatshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: TDMI, 2005.-120-b.
- 11) Xodiev B. Yu. va bosh. Politologiya fanidan o'quv uslubiy qo'llanma.- T.: TDIU, 2005. – 94-b.
- 12) O'zbekistonda Politologiya: (2001 yil 18 oktyabrda Toshkent shahrida o'tkazilgan Respublika ilmiy – amaliy konferentsiyasi materiallari). T.: “SHarq”, 2002. – 192-b.
- 13) Aliev B. , Sultonov T. Va bosh. Politologiya fanidan o'quv – uslubiy modulg'. – T.: TDIU, 2006.-172-b.
- 14) Boboeva A. va boshq. Politologiya fanidan o'quv – uslubiy majmua. – T.: TDIU, 2006.-168-b.
- 15) Aliev B. Sultonov T. va boshq. Politologiya. O'quv qo'llanma. – T.: TDYuI, 2006. – 306-b.
- 16) Melg'vilg' A. Yu. va boshqalar . Politologiya . Uchebnik. – M.: Prospekt, 2005. – 624-b.
- 17) Latqsheva V. V. Osnovq sotsiologii i politologii. Uchebnik. – M.: Gardariki, 2005. – 336 s.
- 18) Oleynik I. Politologiya. M.: Forum, 2005.-160 s.
- 19) Kravchenko A. I. Politologiya: Uchebnik. – M.: T.K. Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005. 448 s.
- 20) Demidov A. I Dolgov V. M., Malg'ko A. V. Politologiya: Uchebnik. – M.: Gardariki, 2005.- 397 s.
- 21) Perevalov V. D. Politologiya: Uchebnik dlya Vuzov.-M.: norma, 2005. – 384 s.
- 22) Politologiya: Uchebnik. – M.: Yurayt – zdat, 2006.- 692 s.
- 23) Vasilg'enko I. A. Politologi: Uchebnik. M.: Gardariki, 2006. – 286 s.
- 24) Smoling O. N. Politicheskie protsess v sovremennoy Rossii: Ucheb. Posobie. – M.: T.K. Velbi – Izd-vo. Prospekt, 2006. 336 s.
- 25) Gadjeva K. S. Politologiya: Posobie dlya sdachi ekzamena.- M.: Vqsshaya obrazovanie, 2006.-207 s.
- 26) Giddens Emtoni. Sotsiologiya Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: (SHarq) , 2002. – 848-b.
- 27) Jo'raev N. Yuksalish. – T.: “O'zbekiston”, 1996.
- 28) Jo'raev N. Agar ogoh sen T.: “Yozuvchi”, 1998. – 272 b.
- 29) Jo'raev N. Tarix falsafasi: tushuncha, mohiyat va siyosat. – T.: “Ma'naviyat”, 1999. – 192 b.
- 30) Jo'raev N. Mafkuraviy immunitet. Mahruza matni. – T.: “Ma'naviyat”, 2000. – 16 b.
- 31) Jo'raev N. Xalqaro terrorizm va mintaqaviy mojarolar. Mahruza matni. – T.: “Ma'naviyat”, 2001. – 24 b.
- 32) Jo'raev N. G'oyaviy immunitet yoki ma'naviy xoloskorlik tuyg'usi. – T.: “O'zbekiston”. 2001.
- 33) Jo'raev N. Tafakkurdagi evrilish. – T.: “SHarq”, 2001.
- 34) Yangilanishlar kontseptsiyasi yaratilishi, evolyutsiyasi va amaliyoti. – T.: 2002.
- 35) Jo'raeva N., Azizov SH. Ijtimoiyot asoslari. –T.: “Mahrifat-Madadkor“, 2003.-384 b.
- 36) Nazarov Q. va boshq. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – “Yangi asr avlodi”, 2001.-184 b.
- 37) Nazarov Q. va boshq. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar va atamalar (Qisqa izohli tajribaviy lug'at). – T.: “Yangi asr avlodi”, 2002.-192 b.
- 38) Nazarov Q. va boshq. Falsafa: qomusiy lug'at. -T.: “SHarq”, 2004.- 496 b.
- 39) Nazarov Q. va boshq. Falsafa asoslari.-T.: “O'zbekiston”, Nashriyot - Matabaa ijodiy uyi, 2005.- 382 b.
- 40) Jo'raev S. Fuqarolik jamiyati: Nazariya va amaliyot. – T.: TDSHI, 2003. – 364 b.
- 41) Usmonov Q. O'zbekistonda Parlament taraqqiyotining yangi bosqichi.-T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2004.- 48 b.
- 42) Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi ilm (din, falsafa, hayot, ma'naviyat va mahrifat saboqlari) . – T.: “Movaraunnahr” 2002. – 720 b.
- 43) Ergashov I. Siyosat falsafasi. – T.: Akademiya, 2004. – 132 b.
- 44) Yangi O'zbekistonning 7 zafarli yili.-T.: “SHarq”, 1999. – 224 b.

- 45) Odilqoriev X.T., G'oyibnazarov SH. G'. Siyosy madaniyat. – T.: O'zR IIV Akademiyasi, 2004. – 304 b.
- 46) Quronov M. O'zbek xarakteri va milliy g'oya. – T.: “Manaviyat”, 2005. – 96 b.
- 47) SHarifxujaev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati.-T.: - “SHarq” 2005.- 40 b.
- 48) Odilqoriev X.T. Ikki palatali parlament sharoitida qonunchilik jarayoni.- T.: - “O'zbekiston”- 2005. 40 b.
- 49) Alimardonov T. Siyosat va axloq. – “Fan” 2005. – 156 b.
- 50) Qirg'izboev B. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba.-T.: “Yangi avlodi”, - 2006. – 204 b.
- 51) Usmonov A., Vohobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.-T.: “SHarq” 2006. – 480 b.
- 52) To'xliiev N. va boshq. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. - T.: “O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.
- 53) Abdullaev M. va boshq. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: “SHarq”, 2006. – 258 b.
- 54) Nazarov Q., Xolbekov A. va boshqalar. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. – T.: “Akademiya”, 2007. – 352 b.

VII. Internet saytlari

- 1) www.ref.uz.
 - 2) www.zuyo.edu.uz.
 - 3) www.gov.uz.
 - 4) www.gogle.uz.
 - 5) www.yandex.ru.
 - 6) www.referat.ru.
-